

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**HAYITOV OYBEK ESHBOYEVICH**

**PSIXODIAGNOSTIKA**

(o'quv qo'llanma)

**300000** – Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq

**340000** – “Biznes va boshqaruv” ta'lif sohasining

**5810300** – Servis (tarmoqlar bo'yicha),

**5140900** – Kasb ta'limi (5340100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha)) ta'lif yo'naliishi bakalavriat yo'naliishi talabalari uchun

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрга маҳсус, касб-хунар таълими ўқув методик бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгаш томонидан “Сервис тармо” таълим йўналиши талabalari учун ўқув қўлланма сифатида тавсия этилган

## TOSHLI – 2007

**PSIXODIAGNOSTIKA:** O'quv qo'llanma // Muallif: **O.E.Hayitov;**  
**V.M.Karimov**aning umumiyl tahriri ostida. – T.: “\_\_\_\_\_”, 2007. – 225 b.

**Sarlavha oldida:** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti; Hayitov Oybek Eshboyevich

Psixologik diagnostika zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Professional ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning o'z faoliyatlarida psixologik diagnostikaning metod va usullaridan samarali foydalanishlari lozimligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki psixodiagnostika yordamida shaxsning aqliy imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari, undagi ijtimoiy-psixologik ta'sir omillarini o'rganish orqali, har qanday faoliyat jarayonini to'g'ri rejalashtirish, uchraydigan kamchiliklarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkoniyatini yaratish mumkin. Qo'llanmaning asosiya maqsadi ham talabalarni psixologiyaning turli sohalari, jumladan, umumiy, yosh davrlari, mehnat, iqtisodiy, amaliy psixologiyaga oid bilimlarni berish hamda shu sohalarning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir. Mazkur qo'llanma asosan amaliy xususiyatga ega bo'lsa ham odatda nazariya bilan uyg'unlashgan ravishda olib boriladi.

**ПСИХОДИАГНОСТИКА:** Учебное пособие // Автор: **О.Э.Хайитов;** Под общ. ред. **В.М.Каримовой.** – Т.: “\_\_\_\_\_”, 2007. – 225 с.

**Заглавие:** Министерство Высшего и Среднего Образования Республики Узбекистан, Ташкентский Государственный Экономический Университет, Хайитов Ойбек Эшбоевич

Психологическая диагностика является одним из новых научных направлений и имеет практическую пользу в обществе. На сегодняшний день использование методов психологической диагностики в учебном процессе является актуальной проблемой. Потому что с помощью психодиагностики можно выявить умственные и личные способности человека, а также влияние социально-психологические факторов на него и, к тому же очень мощный профилактический инструмент. Основная цель данного пособия является научить студентов основными направлениями психологии и использование научно-исследовательских методов в практической деятельности. Не смотря на то, что данное учебное пособие имеет практические характер применения, теоретические знание в нем достаточно.

**PSYCHODIAGNOSTICS:** The manual. For students of High schools // The author: **O.E.Hayitov;** under editions the professor **V.M. Karimova.** – T.: “\_\_\_\_\_”, 2007. – 225 p.

**Title:** The Ministry of higher and secondary special education Republic of Uzbekistan, Tashkent State University of Economy, Hayitov Oybek Eshboyevich

Psychological diagnostics is one of new scientific directions and has practical advantage to a society. For today use of methods of psychological diagnostics in educational process is an actual problem. Because by means of psycho diagnostics it is possible to reveal intellectual and personal abilities of the person, and also influence socially-psychological factors on it and, to that the husband very powerful preventive tool. The main objective of the given grant is to teach students the basic directions of psychology and use scientifically research methods in practical activities. Not looking at that given manual has practical character of application, theoretical knowledge in it is enough.

**ТАҚРИЗЧИЛАР:**

**Б.Умаров –** ЎзДЖТУ доценти, психология фанлари номзоди  
**Н.Лутфуллаева –** ТДИУ катта ўқитувчысы, психология фанлари номзоди

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga o'n besh to'ldi. Mustaqillik xalq xo'jaligi hamda fan va madaniyat sohasining rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. Ayniqsa, u maorifni rivojlanishiga, birinchi navbatda, oliv ta'limning yuksalishiga keng imkoniyatlar ko'lamini ochdi. Natijada mamlakatimizda ta'limni isloh qilishga, mutaxassislar tayyorlashni jahon andozalariga yaqinlashtirishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi ta'limning isloh qilinishi uchun huquqiy asos bo'ldi.

Oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali xodimlarni yetishtirish jarayonida psixologiyaning roli va o'rni beqiyosdir. Chunki psixologiya jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan insonni shakllantirishda alohida o'rin kasb etadi. Binobarin, tayyorlanayotgan mutaxassislar psixologik bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirgan taqdirdagina, yosh avlodni har tomonlama kamolga erishgan kishilar qilib tarbiyalay olishlari mumkin. Psixodiagnostika psixologiya fanining yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning yordamida inson psixikasining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi to'liq ma'lumotlar to'plash imkoniga ega bo'lish mumkin. Zamонави psixodiagnostika hozirgi kunda kishining individual-psixofiziologik va individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, o'rganish borasidagi metodlarni yaratuvchi fandir. Shuningdek, psixodiagnostika psixologik amaliyotning ham alohida sohasi sanalib, psixologning undagi vazifasi shaxsdagi psixik, psixofiziologik xususiyatlarining individual ko'rinishlarini aniqlashdan iborat bo'ladi. Shu bois, mazkur soha psixologiyaning muhim yo'nalishi sifatida umumpsixologik tadqiqotlar bilan amaliyotni bog'lovchi xalqa bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik diagnostika zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning amaliy sohasidir. Professional ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrarning o'z faoliyatlarida psixologik diagnostikaning metod va usullaridan samarali foydalanishlari lozimligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Chunki psixodiagnostika yordamida shaxsning aqliy imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari, undagi ijtimoiy-psixologik ta'sir omillarini o'rganish orqali, har qanday faoliyat jarayonini to'g'ri rejalashtirish, uchraydigan kamchiliklarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkoniyatini yaratish mumkin.

O'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi ham talabalarni psixologiyaning turli sohalari, jumladan, umumiyl, yosh davrlari, mehnat, iqtisodiy, amaliy psixologiyaga oid bilimlarni berish hamda shu sohalarning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir. Mazkur kurs asosan amaliy xususiyatga ega bo'lsa ham odatda nazariya bilan uyg'unlashgan holda quyidagi tizimga asoslangan ravishda olib boriladi. Ushbu qo'llanma "Psixodiagnostika" kursi bo'yicha yozilgan ilk kitoblardan biri bo'lganligi uchun kamchiliklardan xoli emasligini muallif oldindan e'tirof etgan holda, uning mazmuni bo'yicha berilgan xolisona taklif va maslahatlariningizni [oybek\\_hayitov@inbox.ru](mailto:oybek_hayitov@inbox.ru) elektron manzilgohiga yozib yuborishingizni so'raydi.

*Muallif.*

---

## PSIXODIAGNOSTIKA VA AMALIY PSIXOLOGIYA HAQIDA TUSHUNCHА

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Psixodiagnostika nima?** “Psixodiagnostika” tushunchasi mazmuni. Uning mohiyati nimadan iborat.

**Psixodiagnostikaning predmeti va vazifalari.** Uning predmeti va vazifalari. “Psixologik tashxis qo’yish” yoki kishining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida qaror qabul qilish.

**Ilmiy va amaliy psixodiagnostikaning asosiy masalalari.** Ilmiy va amaliy psixodiagnostik holatlarning o’ziga xos vazifalari. Amaliy jarayonda psixodiagnostik usullardan foydalanishda mumkin bo’lgan psixologik bilimlar doirasiga daxldor masalalar. Psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirishga aloqador bo’lgan amaliy masalalar.

**Amaliy psixologiya va uning sohalari.** Amaliy psixologiya nima? Amaliy psixologiyadagi “samara” tushunchasi va uni o’lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi “samara mezonlari”ning bir-biridan farqi. Amaliy psixologiyaning asosiy aspektlari va yo’nalishlari.

**Psixodiagnostika – professional faoliyatdagi maxsus soha sifatida.** Psixodiagnostik faoliyat natijalaridan amaliy foydalanishda qo’llaniladigan sohalar.

**Psixodiagnostika va differensial psixologiya.** Differensial psixologiyaning predmeti va vazifalari.

---

## 1.1. Psixodiagnostika nima?

**P**sixodiagnostika so'zini asl mohiyati “psixologik tashxis qo'yish” yoki kishining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida qaror qabul qilishni anglatadi.

Psixodiagnostika – amaliy jihatdan deyarli psixologning barcha faoliyat doiralarida, ya'ni psixologik-pedagogik tadqiqotlarda muallif yoki ishtirokchi sifatida qatnashayotganda, psixologik maslahat hamda psixologik korreksion ishlarni amalgalashirayotgan jarayonda qo'llanadi. Ammo ko'pincha amaliy psixologning ishlarida psixodiagnostika – faoliyatning alohida mustaqil turi sifatida namoyon bo'ladi. Uning maqsadi psixologik tashxis qo'yish, ya'ni kishini mavjud psixologik holatini baholash orqali ifodalanadi.

Psixodiagnostikaning nazariy asoslari psixologiya fanining turli jabhalari, jumladan, umumiyligi, differensial, tibbiy, yosh davrlari psixologiyasi kabi sohalarga asoslanadi. Uning metodik usullariga esa, individual-psixologik xususiyatlarni o'rghanish, olingan natijalarni qayta ishslash va tahlil qilishning aniq yo'l-yo'riqlari kiradi. Psixodiagnostika sohasidagi nazariy metodik ishlarning yo'nalishlari avvalambor psixologik amaliyot talablari asosida belgilanadi. Ushbu talablarga muvofiq usullarning maxsus kompleksi shakllanadi.

 **Shunday qilib, diagnostika yorqin namoyon bo'luvchi individul-psixologik, psixofiziologik xususiyatlar asosida olingan ma'lumotlarni taqqoslash bilan alohida kishi yoki ma'lum shaxslar guruhi borasida xulosa chiqarish demakdir.**

Psixodiagnostik faoliyat jarayonini metodikalar aprobasiyasi, talablar yo'rinqomasini ishlab chiqish, tadqiqotlarni o'tkazishdagi qonun-qoidalarni yaratish, natijalar tahlilining usullarini shakllantirish hamda ma'lum metodlarning imkoniyat va cheklanishlarini muhokama qilish tashkil etadi.

Diagnostik faoliyat o'z maqsadiga ko'ra tashxis (diagnoz) yo'nalishishining turli ko'rinishlariga egadir. Qo'yilgan tashxis o'r ganilayotgan xususiyatlarni shakllantirishga yoki korreksion ishlarni tashkil etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar orqali ifodalanadi.

## 1.2. Psixodiagnostikaning predmeti va vazifalari

**P**sixodiagnostika psixologiyani ilmiy va amaliy jabhalaridan tashqari, uning boshqa sohalarida ham keng qamrovda qo'llaniladi. Masalan, tibbiy psixologiya, patopsixologiya, injenerlik psixologiyasi, mehnat psixologiyasi kabi insonning psixologik xususiyatlarini bilish talab qilinadigan barcha sohalarida foydalilanadi.

Ilmiy va amaliy psixodiagnostika yuqorida qayd etilgan barcha holatlarda ham o'ziga xos muhim vazifalarni hal etadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Insondagi mavjud biror psixologik xususiyat yoki xulq-atvori holatini aniqlash;
- Mazkur xususiyatning shakllanganligi, ya'ni uning miqdoriy va sifatiy

- ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi darajasini o'rganish;
- Zarur bo'lган holdagini shaxsning tashxis qilinayotgan xulq-atvoridagi psixologik xususiyatlarini ochib berish;
- O'rganilayotgan xususiyatlarning shakllanganlik darajasini taqqosiy ishlamasini yaratish.

Amaliy psixodiagnostikada sanab o'tilgan vazifalarning har biri alohida yoki kompleks tarzda olib borilayotgan tadqiqot maqsadiga muvofiq amalga oshiriladi.

Demak, psixodiagnostika psixologdan professional faoliyati jarayonida maxsus tayyorgarlik talab qiluvchi murakkab sohadir. Psixolog (tashxischi) egallashi kerak bo'lган bilim, ko'nikma va malakalar shunchalik keng va murakkabki, uning o'zlashtirilishi bilan psixodiagnostikani professional psixolog faoliyatining negizi sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'ladi. Haqiqatdan ham amaliy psixologlarni malakali mutaxassis etib tayyorlash ahamiyatga molik omildir.

### 1.3. Ilmiy va amaliy psixodiagnostikaning asosiy masalalari

**P**sixologiya fanida “psixologik tashxis qo'yish” so'zining ikki xil tushunchasi mavjud.

**Birinchisi**, “Psixodiagnostika” – amaliyotda turli psixodiagnostik usullardan foydalanish mumkin bo'lган psixologik bilimlar doirasini ifodalab, u o'z ichiga tashxis jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan quyidagi qator masalalarni qamrab oladi:

- Psixologik xususiyatlar tabiatini va ularni ilmiy baholash imkoniyatlarining mavjudligi qanday?
- Psixologik xususiyatlarni aniqlash jarayonida va miqdoriy baholash vaqtdagi umumiyligi bo'lган ilmiy asoslar holati qay tarzda?
- Hozirgi vaqtda qo'llanila-yotgan psixodiagnostik usul-lar qabul qilingan umum-ilmiy, metodologik talab-larga qanchalik mos keladi?
- Psixodiagnostikaning turli usullariga qo'yiladigan me todologik talablar nimalardan iborat?
- Amaliy psixodiagnostika, jumladan, tashxis jarayonlarini amalga oshirish sharoitlariga qo'yiladigan talablar, olingan natijalarni qayta ishslash va tahlil qilish usullarining ishonchlik darsajini asosligi qanday?
- Psixodagnostik metodlarning ilmiyligini tekshirish va ularni yaratish jarayonlari qanday amalga oshadi?



**“Psixodiagnostika”** –  
amaliyotda turli psixodiagnostik  
usullardan foydalanish mumkin  
bo'lган psixologik bilimlar  
doirasini ifodalaydi.

**Ikkinchisi**, “Psixodiagnostika” – psixologik tashxisning amaliy jihatini bilan bog'liq bo'lган psixologning maxsus faoliyat doirasini o'z ichiga qamrab oladi.

Bunda, nafaqat ilmiy, nazariy balki, psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirish jarayoniga aloqador amaliy masalalar yoritiladi. Uning tarkibini:

- Psixodiagnost sifatida psixolog

uchun qo'yiladigan maxsus talablarni aniqlash;

O'z faoliyatini malakali tashkil etishda kerak bo'lган bilim va ko'nikmalar tartibini joriy qilish;

- Psixologning psixodiagnostik metodlarni muvaffaqiyatli va malakali o'zlashtirilishidagi ayrim amaliy shart-sharoitlarni yaratish hamda ularga rioya qilish zarurati;
- Psixodiagnostik doirada faoliyat ko'rsatadigan psixologni amaliy jihatdan tayyorlash hamda uning kompetentligini baholashda dastur, metod va usullarni ishlab chiqish masalalari tashkil etadi.

Yuqoridagi nazariy va amaliy masalalar bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu sohadi yetuk mutaxassis bo'lish uchun psixolog, psixodiagnostikaning har ikkala asoslari bilan yaxshi qurollangan bo'lishi kerak. Faqtgina nazariy, amaliy yoki barcha metodlarni ilmiy asoslarini tushuna bilmasdan mutaxassis sifatida ushbu sohada professionalizmga erishib bo'lmaydi.

#### 1.4. Amaliy psixologiya va uning sohaları

**H**ozirda hayotimizda mavjud bo'lган barcha fan yo'nalishlarining ahamiyati eng avvalo ularning tadbiqiy xarakteriga bevosita bog'liq bo'lib qoldi. O'zbekistonda ham fundamental hamda ijtimoiy fanlarning rivojlanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning hayotiyligi va umrboqiyligi halq turmush farovonligini oshirishga nechog'li ulush qo'sha olishi orqali baholanishini bilish qiyin emas. Masalan, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tilayotgan bugungi kunda iqtisodiyot fanining har bir yo'nalishida qo'lga kiritilgan ilmiy yangiliklar xalq xo'jaligini u yoki bu tarmog'ida o'z tasdig'ini topmas yoki iqtisodiy samara bermas ekan, uning qiymatini "nolga" teng deyish mumkin.

Bu narsa hozirgi zamон psixologiyasiga ham taalluqli bo'lib, u jamiyatning kundalik talablari va buyurtmasiga qarab o'z tadqiqot yo'nalishlarini belgilamoqda. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirilishi, marketing xizmatlari yoki boshqaruв tizimini takomillashtirilishi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Ta'lim to'g'risidagi qonun ijrosining barchasi inson va uning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgandir. Ikkinchi tomondan, buni bevosita amalgalashuvchilar insonlar yoki ulardan iborat ijtimoiy guruhlar bo'lганligi bois, zamonaviy psixologiya bugungi kungi tadbiqiy sohalarini rivojlantirishni va jamiyatga o'z "mahsulotini" berishidan manfaatdordir.

Alohibda ta'kidlash lozimki, amaliy psixologiyadagi "samara" tushunchasi va uni o'lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi "samara mezonlari" bir-biridan tubdan farq qiladi. Ya'ni, nazariy xulosalarga bevosita olimlar, shu sohaning mutaxassislari baho bersalar, amaliy psixologiya qo'lga kiritgan yutuqlar va tavsiyalarning nechog'li foydali va samaraligiga bevosita buyurtmachi, ishlab chiqarish sohasining vakili bo'l mish amaliyotchi o'z bahosini beradi. To'g'ri, ko'p hollarda amaliyotchi bilan bir qatorda o'sha buyurtmachi tashkilotda faoliyat



**"Psixodiagnostika"** –  
psixologik tashxisning amaliy  
jihatni bilan bog'liq bo'lган  
psixologning maxsus faoliyatidir.

ko'rsatayotgan amaliyotchi psixolog ham bu jarayonga bevosita aralashsa-da, uning bahosi va bashoratlari nazariyotchinikidan tafovut hosil qiladi. Agar bugun ishlab chiqarishning barcha ustivor yo'nalishlarini malakali amaliyotchi psixologlar bilan ta'minlay olganimizda edi, mehnat unumdorligi ham, odamlarning o'z mehnatidan manfaatdorligi ham ancha yuqori bo'lgan bo'lardi. Psixologiya fanining XXI asrdagi rivoji, uning ko'proq amaliyotga yo'naltirilganligi, jamiyatning bevosita buyurtmasiga ko'ra malakali psixolog xodimlar tayyorlash jarayonining sifat va miqdor ko'rsatgichlarini tubdan isloh qilinishi bilan tavsiflanadi. Bu uchun eng avvalo, jamiyatda boshlangan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy islohotlarni izchil amalga oshirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalarini bajarilishi uchun soha mutaxassislarini safarbar etishga erishish lozim.

Amaliy psixologiyaning asosiy aspektlari va yo'nalishlari bir-biridan tubdan farqlanadi va unga quyidagi:

- psixologik diagnostika;
- psixologik maslahatlar;
- psixokorreksiya (psixologik yordam ko'rsatish) bilan bog'liq texnologiyalarni qo'llashlar kiradi.

Yuqorida qayd etilganlarning har biri amaliy psixologiya sohasini amaliyotga bog'liq jabhalari bo'lib, ularni amalga oshirilish jarayoni ishlab chiqarishni yaxshi tushunadigan mutaxassislarning bo'lishini talab qiladi. Bundan tashqari, amaliy psixologiyaning nazariy sohalari ham mavjud bhlib, ularga siyosiy psixologiya, etnopsixologiya, tashkiliy psixologiya, iqtisodiy psixologiya kabilar kiradi. Bu yo'nalishlar G'arberda ayniqlisa, o'tgan asrning 60-yillarini oxiri va 70-yillarining boshida shu darajada rivojlandiki, mutaxassislar, hattoki, psixologiyaning haddan ziyod "nazariylashib ketganligini" tanqid qila boshladilar. Masalan, amerikalik va yevropalik *G.Ollport, R.Terner, M.Rozenberg* kabi ko'zga ko'rigan psixolog olimlarning fikricha, psixologiya tor tadqiqot laboratoriyalardan keng amaliyotga, hayotga chiqishi va jamiyatdagи insoniy munosabatlarni takomillashtirishga o'z hissasini qo'shishi lozim bo'lib qoldi. Aynan, shu tariqa psixologik bilimlarning aslida mohiyatan ijtimoiy ekanlik g'oyasi paydo bo'ldi.

Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari:

- + *Sanoat va ishlab chiqarish sohasi.* Sanoat va mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi tadbiqiy ishlar mavjud tashkilotda xodimlar zahirasini to'g'ri va oqilona tashkillashtirishdan tortib, xodimlar ish sharoitlari hamda mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganishga qaratilgan harakatlar majmuidan iboratdir.
- + *Xodimlar va ular bilan bevosita ishlash sohasi.* Bu a'zolarni ishga jalb etish jarayonida bilish zarur bo'lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlardan tortib, ularni to'g'ri yo'naltirish, o'z joyiga qo'yish, tashkilot doirasida guruhlarni shakllantirish, ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish bilan bog'liq xodimlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir. Psixolog bu o'rinda, asosan, maslahatchi – konsultant va ekspert sifatida rol o'ynaydi.
- + *Maorif sohasidagi amaliy ishlar boshqalariga nisbatan anchagina yaxshi tajribaga ega.* Ayniqlisa, O'zbekistonda Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi qabul qilingandan so'ng tashkil qilingan yangi tipdagi ta'lim

muassasalari – akademik liseylar va kasb-hunar kollejlariga bir nechtadan psixologlar shtati joriy etilgan. Shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining buyrug'iga asosan, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini, ma'naviy muhitni ilmiy-amaliy tadqiq qilish, yoshlar ijtimoiy faolligini sosiologik, psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash, muammolarni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish ishlarini muvofiqlashtiruvchi, ilmiy-metodik yordam ko'rsatuvchi “Ta'lim-tarbiya jarayonini sosiologik, psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmati” tashkil etildi. Ular aynan tadbiqiy muammolarni, ya'ni talabaning o'quv jarayoniga psixologik jihatdan tayyorligini diagnostika qilishdan tortib, professional va kasb mahoratini rivojlantirishgacha bo'lган barcha muammolarni hal qilishga “aralashadi”.

 *Shuning uchun ham gap o'qitish yoki o'zlashtirishning samaradorligi ustida ketganda, eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonidagi psixologik omillar va ularning ijtimoiy xarakteriga e'tibor qaratilishi kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasida Prezident I.A. Karimovning har bir nutq va chiqishiga e'tibor bersak, unda ushbu tarixiy hujjatda bayon etilgan vazifalarni bajarish inson omili va uning tafakkur yuritish tarziga bog'lanayotganligini o'zi psixologik muammolarni kun tartibiga dolzarb etib qo'yayotganligidan darak beradi.*

Yuqoridaqgi e'tirof etilgan amaliy psixologiyaning tadbiqiy sohalari uchun umumiylit shundan iboratki, ularda faoliyat yuritganlarning, avvalo, yaxshi psixodiagnost, ya'ni psixologiya metodlarini o'z o'rnida samarali ishlatisni bilishi, yaxshigina psixoterapevt va psiko-korrektor, aniqlangan muammo yoki “kasallikni” tuzatuvchi mohir professional bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

Darhaqiqat, agar xolis baho beriladigan bo'lsa, alohida shaxs yoki u mansub bo'lган har qanday ijtimoiy guruh – oiladan tortib, mehnat jamoasigacha ro'y beradi-

gan barcha hodisalarda ijtimoiylik elementlari mavjud. Misol uchun “ijtimoiy emas” deb qaralgan birgina psixik jarayon – xotira yoki diqqatni olaylik. Biror materialni samarali esda saqlab qolish uchun eng avvalo, unga diqqatni yaxshilab yo'naltirish kerak bo'ladi. Agar bu holat auditoriyada ro'y berayotgan bo'lsa, diqqatning xususiyati nafaqat materialning qiziqarliligidagi, balki uni kim va qanday uslubda onga yetkazayotganligiga, qolaversa, auditoriyaning yaxlit guruh sifatida darsga bo'lган munosabatiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, agar menga o'sha o'qituvchi – voiz va shaxs sifatida yoqsa, uning gapirgan har bir so'zi beixtiyor yodimda qoladi. Tinglayotgan paytimda yonimda o'tirgan kursdoshim yoki do'stim ham ko'nglimga ma'qul bo'lsa, bu darsni o'zlashtirish mendan hyech qanday ma'naviy zo'riqishni talab etmaydi. Aksincha, bu holat meni yana va yana shu o'qituvchining darslariga, aynan shu sherigim bilan, aynan shu auditoriyaga kelishimga undaydi. Shu bois, psixologiyada alohida shaxsning faoliyatiga aloqador, deb e'tirof etilib kelgan motivasiya masalasi aslida tom ma'noda **ijtimoiy motivasiyadir** va u psixik jarayonlarning kechishi hamda samaradorligiga aloqadordir.

## 1.5. Psixodiagnostika – professional faoliyatdagi maxsus soha sifatida

**S**o'nggi yillarda mamlakatimizda psixologik xizmat faoliyatiga aloqador qiziqishlar ko'lami ortib bormoqda. Shu bois ham yangi "Amaliy psixologiya" ixtisosligi yuzaga keldi. Bu soha mutaxassislari maktab, bog'chalar, konsultasiya markazlari, ishlab chiqarish va tibbiyot tashkilotlarida faoliyat ko'rsatishmoqda.

Zamonaviy fan psixodiagnostik faoliyat natijalaridan amaliy foydalanishning bir qator sohalarini ajratib ko'rsatishni taqazo etadi:

- Psixodiagnostika ta'lim va tarbiya jarayonini samarali shakllantirish maqsadida faol qo'llanilmoqda. Uning yordamida ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanadigan kasb egalari oldida turuvchi mavjud bir necha masalalar hal etilishi mumkin. Masalan, bolaning maktabga bo'lgan tayyorgarligini, darsni o'zlashtira olmaslikning dominant sabablarini aniqlash hamda professional yo'naltirilishdagi (proforiyentasiya) xizmatlarni tashkil etish kabilar;
- Diagnostikaning qo'llanilishi konsultativ markazlarda ish olib boruvchi mutaxassislarning professional tanlash, professional ta'lim, professional yo'naltirilish sohasidagi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu faoliyat har bir kishi uchun o'ziga mos mutaxassislikni tanlashda, professional bilim va ko'nikmalarini egallash jarayonidagi samarali usullarni topishda hamda yetuk mutaxassis darajasiga ega bo'lishda muhim ahamiyat kasb etadi;
- Psixodiagnostik tadqiqotlar natijalari konsultativ-klinik va psixoterapevtik faoliyatda qo'llaniladi. Mazkur holatda psixodiagnostikaning asosiy vazifasi, shaxsdagi muhim muammolarning yuzaga kelish sabablari (yaqin kishilar bilan munosabat murakkabligi, qo'rquv hislari)ni aniqlash hamda ularni hal etish mumkin bo'lgan usullarini izlashdan iborat bo'ladi;
- Sud amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarda psixodiagnostik jarayonlar qo'llanilishi bilan katta ahamiyatga egadir. Psixodiagnost aniq va muayyan savollar asosida jabrlanganlar, guvohlar va shuhbali shaxslar ustida tadqiqot olib borib, shaxsning psixofiziologik, aqliy rivojlanish xususiyatlarini turli sharoitlardagi namoyon bo'lish shakllari xususida psixologik xulosalar chiqaradi;
- Psixodiagnostika har qanday ilmiy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda individual xususiyatlarning shakllanganligini malakali darajada baholanishni amalga oshiradi. Ya'ni, tadqiqot farazlarida talqin qilinadigan xususiyatlarning qonuniy o'zgarishlaridir. Masalan, ilmiy psixologik tadqiqotning muammosi sifatida inson tafakkurini ayrim, ya'ni ba'zi qonunlarga asosan mavjud bo'lgan va bo'ysunuvchan, yoki ma'lum bir ravishda turli o'zgaruvchilarga bog'liq bo'ladigan xususiyatlari e'tirof etilishi mumkin.

Demak, har qanday vaziyatda ham aqliy xususiyatlarning aniq psixodiagnostikasi: birinchidan, tafakkurning mavjudligini isbot etishi; ikkinchidan, uning qonuniyatlarini o'zgarishini ko'rsata olishi; uchinchidan, faraz qilingan o'zgaruvchilarga haqiqatdan ham bog'liq ekanligini ko'rsatishga qaratilgan bo'lishi

lozim.

## 1.6. Psixodiagnostika va differensial psixologiya

**P**simodiagnostika – psixologik fan sohasi bo’lganligi bois, u yoki bu darajadagi psixologiya tarmoqlari bilan o’zaro bog’liq bo’ladi. Ma’lum ma’noda, o’z mustaqilligiga qaramay, psixodiagnostika umumpsixologik nazariyaning rivojlanishiga ham bog’liqidir. Biroq tadqiqotlarning shunday yo’nalishlari mavjudki, ular bilan psixodiagnostika ko’proq aloqada bo’ladi. Xorij va mahalliy adabiyotlarda bu tushunchaning boshqalarga nisbatan o’xshashligi mavjud bo’lganligi sababli, aynan shu muammo to’g’risida ushbu mavzuda fikr yuritiladi.

Chet el adabiyotlarida ta’kidlanishicha individual farq nazariyasining muammosi, ya’ni maxsus soha tadqiqotlarini ustuvorligi – differensial psixologiyadir.

XIX–XX asrlarda mashhur nemis psixologi bu tushunchani “Psixik funksiya va uning xossalardagi mavjud farq” to’g’risidagi fikrni ifodalash uchun kiritgan. V.Shtern davridan beri differensial psixologiya tushunchasida unchalik ko’p narsa o’zgarmadi. U ayni paytda ham tarqoq holda inson (shaxs) ning psixik holati va xossasini o’rganish bilan shug’ullanadi.

Differensial psixologiya predmetini tashkil etuvchi manbalar to’g’risida so’z borganda, hamma tadqiqotchilar bir ovozdan test metodi asoschilari F.Galton, J.Kettell, A.Bine va boshqa olimlarning dalillarini qabul qilishdi. Psixodiagnostika va differensial psixologiya sohalarining tadqiqotlar mavzusi bir-biriga o’xshash. Lekin soha vakillari ularni:

- o’ziga xos farqlikni o’lchashga mo’ljallangan;
- farqlashning kelib chiqish sabablarini anglab yetishga qaratilgan sifatida bo’lib o’rganishadi.

Zamonaviy psixologiyada psixodiagnostikaga “fan va tajriba o’rtasidagi ko’prik” misoli qaraladi.

 **Fan – o’ziga xos psixologik farqlarni o’rganuvchi differensial psixologiyadir.**

 **Tajriba – psixologik tashxis qo’yish, ya’ni psixodiagnostikadir.**

Hozirda, psixologik nazariyadan ajratilgan psixodiagnostika inqirozga yuz tutadi deyish noto’g’ri, albatta. Bunga psixodiagnostikaning kelib chiqish tarixi yorqin tasdiq bo’la oladi. Ma’lumki, tashxisning muvaffaqiyati (o’lchov va bahosi), avvalambor, hodisalarini o’lchash nazariyasini ishlab chiqish darjasini orqali aniqlanadi.

Bu holat aqliy qobiliyat (intellekt)ni o’lchash jarayonida yaqqol ifodasini topgan. Shu bois, samarador testlarning paydo bo’lishida nazariy tasavvurning o’rnini almashtirish ehtiyoji tug’iladi.

**Baho** – turli usullar orqali qo’lga kiritilgan natijalarning, xususan, intervyyu, psixologik testlar, fiziologik yoki psixofiziologik o’lchovlar, apparaturalar holatining kuzatilishidir.

**Test qilish** – psixologik xarakteristikani o’lchash demakdir. Psixologik baho berish uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Masalan, qadimgi Xitoyda chinovniklarni

tanlab olish tizimiga asoslangan. Ma'lumotlarga qaraganda psixologik baho – psixologik testlashga qaraganda kengroq tushunchadir. Baholash faqatgina test orqali o'tkazilmaydi. Ayni paytda psixologik baholash va boshqarish mazmuni tahlil qilinadigan bo'lsa, ko'p holda testlashning sinonimi sifatida e'tirof etilib, psixologik o'lchovning hamma spektrlarini o'z ichiga qamrab olmoqda. Natijada, testlar (standartlashgan muolajalar)dan tashqari tashxis etish jarayoni rivojlandi. Bu esa psixologik baho tushunchasining psixodiagnostika predmetiga yaqinligi zaruratini keltirib chiqardi.

## **1.7. Rezyume**

Shunday qilib, psixodiagnostik maqsadni amalga oshirish uchun biror psixodiagnost metodikani qo'llash jarayoni haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi lozim, ya'ni tanlangan usul haqiqatdan ham sanab o'tilgan mezonlarga to'la javob bersin. Aniq tasavvursiz esa, psixodiagnost olinayotgan natijalarning ishonchlilik darajasini aniqlay olmaydi.

Bundan tashqari, psixodiagnostik metodlarni tanlashda qo'yiladigan quyidagi qo'shimcha talabga e'tiborni qaratishi maqsadga muvofiqdir:

*Birinchidan*, tanlanayotgan metodika zarur (kutilayotgan) natijani olishdagi eng oddiy va qulayi bo'lishi kerak;

*Ikkinchidan*, tanlanayotgan metodika nafaqat psixologga, balki sinaluvchi uchun ham tushunarli bo'lishi lozim;

*Uchinchidan*, metodikadagi ko'rsatma (yo'riqnomalar) qisqa, lo'nda va qo'shimcha yoritishsiz tushunarli bo'lishi shart;

*To'rtinchidan*, diagnostikaning o'tkazilish shart-sharoitlari sinaluvchilarni chalg'ituvchi tashqi qo'zg'atuvchilarsiz tashkil etilishi zarur.

## **1.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Psixodiagnostika; psixologik tashxis qo'yish; ilmiy va amaliy psixodiagnostika; psixodiagnostik usullar; psixologik bilimlar; psixodiagnostikani tashkillashtirish; amaliy psixologiya; nazariy psixologiya; professional faoliyat; differensial psixologiya

## **1.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. "Psixodiagnostika" so'zining mohiyati nimadan iborat?
2. Diagnostik jarayonlarda ilmiy va amaliy psixologiyaning bajaradigan vazifalari qanday?
3. Psixologiya fanida "psixologik tashxis qo'yishning" necha xil ko'rinishi mavjud?
4. Amaliy psixologiyaning asosiy aspektlari va yo'nalishlari qanday farqlanadi?
5. Psixodiagnostik faoliyat natijalaridan amaliy foydalanish qanaqa sohalarda qo'llaniladi?

6. Differensial psixologiya va psixodiagnostikaning o'zaro farqi nimada o'z aksini topadi?

## **1.10. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Burlachuk L.* Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.

Vvedeniye v psixodiagnostiku: ucheb. Posobiye dlya stud. V 24 sred. Ped. ucheb. zavedeniy / M.K. Akimova, Ye.M. Borisova, Ye.I. Gorbacheva i dr.; Pod red. K.M. Gurevicha, Ye.M. Borisovoy. – 3-ye izd., Stereotip. – M.: 1999.

*Karimova V.M.* Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.

*Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolnix zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya". – T., TGEU, 2005. – 98 s.

*Nemov R.S.* Psixologiya: ucheb. Dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy: v 3 kn. – M.: 2003.

Psixologicheskaya diagnostika: uchebnoye posobiye / pod red. K.M.Gurevicha, Ye.M.Borisovoy. 2-ye izd., ispr. – M.: 2000.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.

*Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T.: TDIU, 2005. – 74 b.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Pedagogik psixologiya" kursi bo'yicha vaziyatli va ishchi o'yinlar to'plami. – T., TDIU, 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixologiya" fani bo'yicha shaxsni o'rganishga doir testlar va metodikalar to'plami. – T., TDIU, 2005.

### **Internet ssilka**

<http://psychoanalyse.narod.ru/rorsch1.htm>

[http://www.ill.ru/shop/piter/shops.phtml?c\\_id=104&..](http://www.ill.ru/shop/piter/shops.phtml?c_id=104&..)

<http://psi.webzone.ru/st/090500.htm>

<http://psyberia.ru/work/diagnost>

[http://zadarya.freenet.uz/UZ/uz\\_1.htm](http://zadarya.freenet.uz/UZ/uz_1.htm)

## **II bob**

---

### **PSIXODIAGNOSTIKA FANI TARIXI**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Psixodiagnostikaning yuzaga kelishdagi asosiy sabablar.** Psixologiyaning qadimiyligi.

**Psixologik bilimlarning klinik davri.** Shaxs haqidagi dastlabki empirik psixologik bilimlar to'planishi.

**Psixodiagnostikani taraqqiy etishiga hissa qo'shgan olimlar.** Genri Gerbert Goddard, Luis Medison Termen, Rishar Meyli, Florens Laura Gudinaf, Stenli Devid Porteus, Arnold Lyusius Gezell, Robert Session Vudvorts, Kichik Edvard Kella Strong, German Rorshax, Trumen Li Kellilarning psixodiagnostikaga qo'shgan hissalari.

**Psixodiagnostika sohasini shakllanishida V.Vund laboratoriyasining o'rni.** Psixodiagnostikani miqdoriy metodlarining yaratilishi. Asosiy psixofizik qonun va psixologik holatlarni o'lchash.

**Birinchi statistik asoslangan testlar.** Galton va uning psixometrik tadqiqot markazi Psixologiyada korrelyasiya metodi. Fransuz olimi A.Binening intelektga oid testi.

**Psixodiagnostikaning XX asrdagi shakllanish davri.** Bine-Simon shkalasi. IQ joylashishiga asoslangan holda Termenning klassifikasyon sxemasi. Aqliy qobiliyatni aniqlashdagi Stendford versiyasi

---

## **2.1. Psixodiagnostikaning yuzaga kelishdagi asosiy sabablar**

**P**sixodiagnostika yuzaga kelishi bevosita psixologiya fanining tarixi bilan uzviy bog'liq, ya'ni uning amaliy jihatdan namoyon bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Zero, inson psixikasining tarixi har qanday psixik taraqqiyotni asosi bo'la oladi...

Ma'lumki, psixologiya qadimiy fanlardan hisoblanib, u bundan 2,5 ming yil ilgari paydo bo'lgan. Qadimgi grek faylasuflaridan *Geraklit*, *Demokrit*, *Gippokrat*, *Sokrat*, *Platonlarni* asarlarida kishining joni va ruhiy hayoti to'g'risida xilma-xil fikrlar bayon qilinganini uchratish mumkin. Inson ruhiy hayoti haqidagi ayrim fikrlarni qadimgi xitoy va hind mutafakkirlarining asarlarida ham uchratish mumkin. Lekin inson psixikasi haqidagi muntazam ta'limotni birinchi marta yunon faylasufi *Aristotel* (*Arastu*) yaratgan. U "Jon haqida" degan asarida psixika haqida batafsil to'xtalib, uning muhim qirralarini tushuntirishga harakat qilgan. Shu bilan bir qatorda, o'zidan oldin yashab o'tgan olimlarning qarashlariga ilmiy sharh bergen. Shu sababli ham u psixologiya fanining "otasi" hisoblanadi.

Qadimgi davrda vrachlar va boshqa tadqiqotchilar psixik hodisalarini miya faoliyatining mahsuli ekanligi haqida taxmin qiliшиб, turli ruhiy kasallikkarni uning buzilishi, deb to'g'ri talqin qilishgan. Har qanday psixik jarayon o'z-o'zicha hosil bo'lishi mumkin emas, ya'ni psixika faqat u yoki bu qo'zg'otuvchining miyaga ta'siri tufayligina vujudga keladi. Psixika boshlanishi qo'zg'otuvchini ta'sirida bo'lsa, uning natijasi organizmni unga nisbatan javob reaksiyasidir. Shu bois ham psixik faoliyat miyaning aks ettiruvchi, reflektor faoliyatidangina iboratdir.

## **2.2. Psixologik bilimlarning klinik davri**

**P**sixika bosh miya va nerv sistemasining mahsuli ekanligi borasidagi fikrlarni hozirgi zamon psixodiagnostikasining tarixi hamda XIX asrning chorak yarmida psixologik bilimlarning shakllanishidagi klinik davri bilan bog'lash mumkin. Bu davr shaxs haqidagi empirik psixologik bilimlarning to'planishi va tahlilida asosiy vazifa tabiblar yordamida amalga oshirilganligi bilan xarakterlanadi. Tabiblarni, dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida tarqalayotgan ruhiy va asab kasallikkarni kelib chiqish sababi qiziqtirar edi. Shu bois, psixiatrlar Yevropa shifoxonalaridagi bemorlarni uzliksiz nazorat qilish bilan bir qatorda, o'z xulosalarini qayd qilib borardilar. Natijada, psixodiagnostikaning kuzatish, so'rov, hujjatlar tahlili kabi metodlari shakllanishi ortib bordi. Mazkur vaqtida psixodiagnostikaning rivojlanishi erkin xarakter kasb etib, bu holat metodlarni miqdoriy ko'rsatkichi bilan uzviy bog'langan edi.

## **2.3. Psixodiagnostikani taraqqiy etishiga hissa qo'shgan olimlar**

### **Genri Gerbert Goddard**

U 1866 yilda sharqiy Vassalboroda katta fermerlar oilasida tug'ilgan. Xeverford kollejini bitirgan (1887 y.). Shu kollejda

matematika yo'nalishi bo'yicha magistrlik darajasini olgan (1889 y.). *Goddard* psixologiya sohasidagi faoliyatini 1896 yildan Klark

universitetida boshlagan va shu universitetda u doktorlik dissertasiyasini himoya qilgan (1899 y.). Pensilvaniyada psixologiya va pedagogikadan dars bergan. 1902 yili Vayndlenda maxsus maktabda ishlab yurgan vaqtida, hamkasblari bilan birgalikda "Aqli zaiflar Veylend klubi"ga asos solgan.

Bu klubni asosiy vazifasi psixik rivojlanishida muammosi bo'lган bolalarga har tomonlama yordam berishdan iborat bo'lган. 1908 yildan Bine testlarini o'rgana boshlagan va keyinchalik, undan intellektual to'liq rivojlanmaslikni turli xil darajasini diagnostika hamda klassifikasiya qilishda foydalangan. 1910 yili birinchilardan bo'lib Bine testlarini umumiy o'rta ta'lim maktabi sharoitida ishlatgan. Bundan tashqari u mazkur testni Amerikaga kirib keluvchi immigrantlarni o'rganish jarayonida ham qo'llagan. 1917 yili harbiy xizmatga chaqiriluvchilar intellektini aniqlashda ishlatiladigan testni yaratuvchi amerikalik yetti psixologni biri bo'lган. 1918 yil Ogayodagi yoshlarni o'rganuvchi byuroni boshlig'i hamda 1922 yili Ogayo universitetini professori lavozimida ishlagan. 1927 yilda u o'zining aqli zaiflikka doir bo'lган ko'pgina xulosalari xatoligini tan olgan. Shunga qaramasdan, *Goddard* izlanishlarining testga doirlari, intellekt psixodiagnostikasini rivojlanishida ahamiyati katta bo'lган. *Genri Gerbert Goddard* 1957 yilda vafot etgan.

### **Lyuis Medison Termen**

1877 yil Indianada fermerlar oilasida tug'ilgan. Indianadagi Denvill markaziy kollejida ta'lim olgan va o'qituvchilik kasbini egallagan. Indiana Universitetidan bakalavr va magistr darajasini olgan. 1903 yil Klark universiteti doktaranturasiga o'qishga

kirib, doktorlik dissertasiyasini "Psixologik test" (1905) mavzusida yoqlaydi. 1906 yildan boshlab Los-Anjelosdagi pedagogika kollejining professori bo'lган. To'rt yil o'tganidan so'ng u Stenforddagi universitetga o'qituvchilik lavozimiga taklif qilinib, Bine shkalasini modifikasiyalash bilan shug'ullanadi. Birinchi jahon urushi davrida armiyada qo'llaniladigan testlarni qayta ishslash jarayonida qatnashgan. 1922 yilda Stenford universiteti psixologiya fakultetiga dekan, 1923 yildan Amerika psixologlari assosiasiyasining prezidenti lavozimlariga tayinlangan. U intellektni aniqlash testini ilmiy darajagacha olib chiqqan yagona mutaxassis. Buyuk amerikalik psixolog 1956 yil Kaliforniyada vafot etgan.

### **Rishar Meyli**

1900 yil Shveysariyada tug'ilib, Berlinda o'qigan. *Kurt Levin* uni "Geshtalt psixologiyasi" bilan tanishtirgan. Mashhur olim *Klaypered* taklifi bilan Institut Russoga kelgan va psixologik diagnostika bo'yicha hamda qisman intellektni o'rganish bilan ham shug'ullangan.

Psixodiagnostika bo'yicha 1936, 1951, 1978 yillarda chop etilgan mashhur kitoblarning avtori. Institutni 6 yil boshqargandan so'ng Vernsk Universitetida professor lavozimida ishlay boshlagan. 1930 yildan intellekt omilini o'rganish bilan shug'ullangan. Oxirgi izlanishlari asosida (1981) intellek bo'yicha to'rtta

fundamental omil borligini va ular olti yoshda turg'in holatda paydo bo'lishini aniqlagan. O'zining longityud tekshirishlarini (1959) xarakterlangan qirralarning birlamchi elementlarini topishga bag'ishlagan. 1963 yil intellektga atrof-muhitni ta'siri haqidagi tekshirishlari natijasi chop etilgan. Bundan tashqari u intellekt bilan o'qishda jarayonidagi muvaffaqiyatga erishishlarning o'zaro bog'liqligi muammosini ochishga harakat qilgan. U 1984 yil vafot etgan.

### **Florens Laura Gudinaf**

1886 yil AQSHda tug'ilgan. Doktorlik unvonini *L.Termen* rahbarligida Stenford Univesitetida 1924 yil olgan. Shundan so'ng uning psixologiya mutaxassisini sifatidagi karyerasi Minnesots Univesitetida boshlanadi. U yerda bolalar tomonidan chizilgan rasmlarni tahliliga

asoslangan intellektni o'lchash shkalasini chop etgan. Test katta mashhurlik keltirib o'z mavqyeini ko'p yillar davomida saqlab turgan. 1950 yilga kelib, *Deyl Xarris* bu testga ma'lum ma'nodagi o'zgarishlar va qo'shimchalarini kiritgan (**Gudinaf – Xarris** nomi bilan mashhur rasm testi). *Gudinafning* boshqa izlanishlari bolalarni ijtimoiy va emosinal rivojlanishini o'rganishga qaratilgan. 1947 yil kasalligi tufayli mehnat ta'tiliga chiqishga majbur bo'lganligiga qaramasdan, unga mashhurlik olib kelgan kitoblarining chiqishi davom etgan. U 1959 yil vafot etgan.

### **Stenli Devid Porteus**

U 1883 yilda Boks–Xillda (Avstraliya) tug'ilgan. Birinchi professional avstraliyalik psixolog sifatida tan olingan. Oliy ma'lumotga egan bo'lganidan so'ng, u maxsus maktablarda inspektor bo'lib ishlagan (1913–1916) va keyinchalik Melburunsk universitetida

antropologiya rivojlanishi laboratoriyasini boshqargan (1916–1917). AQSHga ko'chib kelganidan so'ng psixologiyadan dars bergen va Vaynlend voyaga yetmagan jinoyatchilar axloq tuzatuvchi mакtabini psixologik laboratoriyasining direktori bo'lgan (1919–1925). Gavayi univesitetida klinik psixologiya professori va psixologik klinika direktori lavozimlarida ishlagan (1922–1948). Psixodiagnostika tarixiga "labirint"lar avtori sifatida kirib kelgan. Uning fikricha, bunday sifatlar o'zo'zini boshqarish qobiliyatni, rejaliilik, taktiklik va oldindan ko'ra olishlilikni aniqlash imkoniyatini bergen hamda ijtimoiy moslashuv jarayonida intellektga nisbatan, muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qobiliyatlarining individual farqlanishi, *Porteus* fikriga ko'ra, tug'ma hisoblangan. U 1972 yil vafot etgan.

### **Arnold Lyusius Gezell**

1880 yil Viskonsin shtatining kichik shaharchasida tug'ilgan. Shu shtatning universitetida bakalavr darajasini olgan. Klark univesitetida doktorlik dissertasiyasini tayyorlagan (1906). Keyinchalik ikkinchi doktorlik darajasini tibbiyot ixtisosligi bo'yicha Yel

universitetida olgan (1915). Turli AQSH universitetlarida o'qituvchi lavozimida ishlagan. Los-Anjelos pedagogika institutida faoliyat yuritgan vaqtida *L.Termen* bilan hamkorlik qilgan. Psixologik test o'tkazish bilan shug'ullangan va uning xulosasiga ko'ra, bolalarni rivojlanishini ilk yosh davrlarida aniqlash zarurligini ta'kidlagan. Bu

tekshirishlar unga nafaqat psixologlar orasida, balki shifokorlar va pedogoglar orasida ham katta shuhrat keltirgan. U 1961 yil vafot etgan.

### **Robert Session Vudvorts**

1869 yil Belchertaun (Massachusetts shtati)da tug'ilgan. Amxerst universitetidan 1819 yili bakalavr darajasiga ega bo'lgan. Keyinchalik buyuk amerikalik psixolog *Vilyam Jem* bilan Garvard universitetida tahsil olgan (bakalavr – 1896, magistr – 1897). Kolumbiya

universitetida *D. Kattell* rahbarligida doktorlik dissertasiyasini himoya qilgan (1899). *R. Vudvorts* Kolumbiya universitetida asosiy ilmiy foaliyatini yuritgan bo'lib, u nafaqaga chiqqunga qadar shu yerda ishlagan (1942). 1914 yilda u Amerika psixologlar assosiasiysini prezidenti etib tayinlangan. Bu olimning asosiy qiziqishlari umumiy va eksperimental psixologiya jahbalariga qaratilgan. U tomonidan 1938 yil yozilgan "Tadbiqiy psixologiya" kitobi hozirgi kunda ham klassik adabiyot durdonasi hisoblanadi. U o'zining o'limiga qadar faol ravishda ilmiy faoliyat bilan shug'ullangan. 1962 yil vafot etgan.

### **Kichik Edvard Kella Strong**

1884 yil Nyu-York shtatinining Sirakuza shahrida tug'ilgan. Biologiya bo'yicha bakalavrlik darajasini Kaliforniya universitetida olgan (1906). Uch yildan so'ng magistrlik dissertasiyasini himoya qilgan. 1911 yilda Kolumbiya universiteti psixologiya fanlari doktori

ilmiy darajasini olgan. Keyinchalik Neshvildagi Georg kollejida professor bo'lib ishlagan. 1917 yil armiya safida xizmat qilgan. U yerda ham harbiy shaxslarni saralash va o'qitish masalalari bilan shug'ullangan. Urush tugaganidan so'ng Karneg institutida professor lavozimida faoliyat yuritgan. Professional ta'lif departamentini boshqargan (1919). 1921 yilda ta'lif olish yuzasidan tekshirishlar bo'yicha Byuro boshlig'i bo'lgan. Uning tekshirishlari tom ma'noda Amerika psixologiyasining rivojlanishiga asos bo'lgan. Keyinchalik Stenford universiteti qoshidagi biznes maktabda psixologiya fanidan professor sifatida ishlagan (1927). Uning ismi o'zi ishlab chiqqan "Professional qiziqishlar blanklari" bilan simonim bo'lib tarixda qolgan (1927). 1943 yil ta'tilga chiqsa-da, ilmiy izlanishlashni to'xtatmagan. 1955 yilda yoshlarda professional qiziqishlarga bag'ishlangan kitobini nashr qilinishi bunga guvohlik beradi. U 1963 yil vafot etgan.

### **German Rorshax**

1884 yil Syurixda tug'ilgan. Tibbiyot yo'nalishini tanlab Neyburg, Syurix, Berlin va Berna universitetlarida o'qigan. O'qishining birinchi yillaridayoq psixiatriyaga qiziqqan va *Bleyer* qo'l ostida tahsil olgan. 1912 yil gallyusinasiyalarga bag'ishlangan tadqiqotlari uchun

ilmiy darajaga ega bo'lgan. *Rorshax* Shveysariya psixiatrik klinikalarida mehnat qilgan. Qisqa umrining asosiy bo'lagi Rossiya bilan bog'liq, ya'ni uning turmush o'rtog'i rossiyalik *Olga* bo'lgan. Rorshaxni ilmiy qarashlari shakllanishida *Freyd* va *Yung*larning fikrlari alohida ahamiyat kasb etgan. U psixotahlillarni kattalashtirgan holda nevrologik tekshirishlar o'tkazgan. O'z ilmiy faoliyati davrida diniy

muammolarga katta qiziqish bilan qaragan. Qabul qilishning o'ziga xosligini o'rghanishda amorf (o'zgarmas, qotgan) tasvirlarni, dog'larni qo'llagan (1911–1917). *Rorshax* ikki yildan so'ng bunga bag'ishlangan kitobini yozib tugatadi. "Psixodiagnostika" kitobi unga katta shuhrat keltirgan va butun dunyoga tanitgan. Bu kitobni u katta qiyinchiliklar bilan 1920 yilda chop etadi. 1922 yil peritonitdan vafot etgan.

### **Trumen Li Kelli**

1884 yil tug'ilgan. Matematika bo'yicha bakalavr (1909) va psixologiyadan magistr darajalarini (1911) Illinois universitetida olgan. Psixologiyani Kolumbiya universitetida *Torndayk* va *Vudvorts* qo'l ostida o'rgangan. Doktorlik dissertasiyasi ta'lim olishda

intellektni o'lchash bilan bog'liq bo'lib, uni 1914 yilda himoya qilgan. Stenford universitetida professor assistenti, keyinchalik, psixologiya fanidan professor lavozimida (1920–1931) faoliyat yuritgan. Termen bilan hamkorlikda xalq ta'limi testlarini yaratishda ishtirok etgan. 1924 yil "Statistik metodlar" kitobini yozgan, keyinchalik "Ta'limda o'lchashning interpretasiyasi" monografiyasi chiqqan (1927). Mashhur kitobi "Insonlar tafakkurining chorrahasi"da (1928) bo'lib, unda intellektga boshqa omillar ta'sir qilishini yoritib bergen. 1931 yil Gadvard universitetining professori bo'lib ishlagan. 1950 yil mehnat ta'tiliga chiqqan va 1961 yilda vafot etgan.

## **2.4. Psixodiagnostika sohasini shakllanishida V.Vund laboratoriyasining o'rni**

**P**sixodiagnostikaning miqdoriy metodlarini yaratilishi XIX asr ikkinchi yarmida, nemis psixologi V.Vund rahbarligi ostida yaratilgan birinchi tajribaviy psixologik laboratoriyaning faoliyati bilan asoslanadi. Bu laboratoriyyada psixodiagnostik tahlillar qilish maqsadida turli xil asbob-uskunalardan foydalanar edilar.

Shuningdek, ushbu davrda psixik va fizik holatlar o'rtasidagi miqdoriy bog'lanishlar mavjudligini izohlagan psixofizik qonunning yaratilishi, psixodiagnostika usullarining yaratilish jarayonini tezlashtirib yubordi. Asosiy psixofizik qonun psixologik holatlarni o'lchash imkoniyatini ochdi va bu yangilik sezgini o'lchash uchun subyektiv shkalaning yaratilishiga sabab bo'ldi. Mazkur qonunga muvofiq, asosiy o'lchash obyekti bo'lib, inson sezgilari hisoblandi. Shu bois, XIX asr oxirlarigacha amaliy psixodiagnostika sezgi jarayonlarini o'lchash bilan chegaralandi, xolos.

Insonning psixik jarayonlari, xususiyatlari va holatlarini o'rghanishga daxldor psixodiagnostikaning zamonaviy metodlari esa XIX asr oxirlari va XX boshlarida yuzaga kela boshladi.

Zamonaviy psixologiyada malakali psixologlar yordamida miqdoriy psixodiagnostik metodlarga asoslanadigan ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaning ayrim sohalari tez rivojlanib bormoqda. Biroq endi matematik statistikani psixologiyada emas, balki, biologiya, iqtisodiyot kabi fanlarda ham

qo'llay boshladilar.

Ma'lum vaqtidan so'ng esa psixik holatlarning miqdoriy psixodiagnostikasi uchun maxsus usullar yaratilishi yuzaga keldi. Masalan, faktorli tahlil shular jumlasidan bo'lib, u birinchi bor shaxs xislatlarini va aqliy rivojlanishni psixodiagnostika qilishda ishlatildi.

## 2.5. Birinchi statistik asoslangan testlar

**I**lk maxsus, psixometrik tadqiqot markazi mashhur angliyalik psixolog *Galton* tomonidan Angliyada tashkil etilgan edi. 1884 yilda u Antropometrik laboratoriya asos soladi. Laboratoriyaning asosiy vazifalaridan biri, inson qobiliyatlari haqidagi statistik ma'lumotlarni yig'ishdan iborat edi. Mazkur laboratoriya tashrif qiluvchilar ixtiyoriy ravishda o'z qobiliyatlarini o'lchash imkoniyatiga ega bo'lishib, o'z davrida undan deyarli 10000 ga yaqin kishi foydalangan edi. *Galton* statistikani psixologiyada qo'llashning tashkilotchisi hamda statistik metodlarni ishlab chiqishda katta xizmat ko'rsatgan edi. 1877 yilda *Galton* psixologiyada korrelyasiya metodini qo'llashni taklif etadi va buning uchun u *Fisher* hamda *Pirson* kabi matematik olimlarni hamkorlikka chaqiradi. Olimlar birgalikda nafaqat matematika sohasida, balki psixologiyada ham muvaffaqiyatli natijalarga erishadilar. Masalan, *Fisher* dispersion tahlilni, boshqa bir matematik olim, *Galton* zamondoshi *Spiermen* esa faktorli tahlilni kashf etdilar. Spirmen psixologiya tarixida 1904 yil e'lon qilingan "Obshiy intellekt, obyektivno opredelenniy i izmerenniy" nomli maqolasi bilan alohida o'rinn egalladi.

Birinchi statistik asoslangan testlardan biri intellektga oid bo'lib, fransuz olimi *A.Bine* tomonidan 1905-1907 yillarda ishlab chiqildi va keng ommaga e'lon qilindi. Biroz vaqt o'tgach u boshqa fransuz olimi *T.Simon* bilan hamkorlikda bu testni mukammallashtirdi va psixodiagnostika tarixiga "**Bine-Simon** testi" sifatida kirib keldi.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmida yangi psixologik, jumladan intellektual va shaxsga oid, turli jarayon va xususiyatlarning psixodiagnostikasini amalgalashiradigan testlar yuzaga kela boshladi. Shuningdek, so'nggi miqdoriy xarakterdagи psixodiagnostik usullar qatoridan, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lган sosiometrik testlar ham o'rinn egallagan edi.

## 2.6. Psixodiagnostikaning XX asrdagi shakllanish davri

**P**sixodiagnostika XIX asrning oxirida vujudga kelgan va individual-psixologik tafovutlarni o'rganuvchi fan sifatida, ularni o'lchashga, baholashga talabgor, intellekt o'lchamlari haqidagi babs-munozaralarda toblangan holda yangi asr boshiga yetib keldi. Qisqa vaqt mobaynida esa, aqliy *Galton* shkalalaridan *Bine* testlarigacha bo'lган masofani bosib o'tdi. Ma'lumki, psixodiagnostika yuzaga kelgan vaqtidan boshlab XIX asr oxiriga qadar "intellekt"ni o'rganishdagi individual tafovutlarni o'lchashga mo'ljallangan edi. Oldinda esa, XX asr, psixodiagnostikani rivojlanishini belgilab beruvchi yangi yutuqlar, omadsizliklar, diskussiya va kashfiyotlar davri

turardi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, XX asr boshlarida individual tafovutni aniqlashga qaratilgan hamda ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadigan *A.Bine* testi natijalari bo'lgan. Shu bois, intelektning birinchi krizisini testlash ham uning nomi bilan bog'liqdir. Natijada, *Bine* shkalasini barcha mutaxassislar turli xil yurtlarda keng ko'lamda qo'llasha boshlashgan.

Birinchilar qatorida bu testni AQSHda *Genri Goddart* qo'llagan. Shu maqsadda u Yevropadan keluvchi immigrantlarni tekshirishga mo'ljallangan metodikalar guruhini yaratgan. Tadqiqot ishlarining demonstrasiyalashishiga ko'ra, ya'ni mazkur moslashmagan test orqali u ingliz tilini yaxshi bilmaydiganlar yoki umuman bilmaydiganlarda tekshirishlarni o'tkazgan. Bu tekshirish natijasida 83% yevreylar, 80% vengriyaliklar, 79% italyanlar va 87% Rossiyadan chiqqanlarda aqli zaiflik deb xarakterlash mumkin bo'lgan. Aslida esa, bu diagnostik xato edi.

*G.Goddart* taqdim etgan Bine-Simon shkalasini qoniqarsiz tarjimasini (1908), boshqa amerikalik psixologlar *L.M.Termen* va *X.D.Chayldz*lar birga hamkorlikda yangicha variantda modifikasiyalashtirishgan. Bu yondoshishdan maqsad, shkalaning validlik va ishonchlilik darajasini tekshirishdan iborat bo'lgan.

Shuningdek, testda kiritilgan vazifalarning ba'zilari modifikasiyalashtirilgan va yangilari qo'shilgan. Bu shkala (*Bine-Simon* shkalasini *Stenford* versiyasi) tadqiqotlari 2100 nafar bolalar va 180 nafar kattalar ustida olib va qo'lga kiritilgan natijalar standartlashtirildi. U uch yoshdan katta yoshdagilargacha bo'lgan diapazonni o'z ichiga qamrab olgan (11 yoshdagilar uchun test bo'lмаган). Natijalar yosha nisbatan aqliy rivojlanishning mos kelishini, ya'ni intelektning koeffisiyenti IQ ifodalangan. Bu shkala yordamida olingan natijalarga asoslangan holda, *Termen* tomonidan quyidagi klassifikasyon chizma taklif qilingan: IQ 90-109 ga teng bo'lsa, o'rtacha aqliy qobiliyatni ko'rsatadi; IQ 70 dan kam bo'lsa, aqliy zaiflikni ko'rsatadi; IQ 140 dan yuqori bo'lsa, aqliy qobiliyatning genial darajadaligidan dalolat beradi.

*Termenning* xizmatlaridan yana biri, tarixda birinchi bor u test o'tkazish va natijalarni aniqlashga qaratilgan yo'riqnomalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqilishi bilan ajralib turadi. Uning ta'kidlashicha, test o'tkazish jarayonida standart muolajalardan chetlashish jiddiy diagnostik xatolarga olib kelishi mumkin.

*Bine* shkalasiga berilgan ayrim tavsiyalarga e'tiborni qaratilishi natijasida, uning 1911 yilgi bosmasi uch yoshdan to katta yoshlilar diapozonigacha kengaytirilgan (11, 13 va 14 yoshlilardan tashqari). Natijalar aqliy yoshaning fizik (xronologik) yosha nisbatan mos kelishiga asoslangan holda yuzaga chiqarilgan.

*Bine* o'z ko'rsatkichlariga sifatlari aspektlarning yetishmasligini ta'kidlab, izlanishlarini davom ettirgan. U qoloq o'quvchilarni umumiy guruhlarga differensiasiya qilish yo'lini taklif qilib, aspektlarni aniqlash usullarini ajratib ko'rsatgan. Uning fikricha, tentaklar testlar orqali muloqotdan tashqari hyech narsa qila olmaydilar; aqli zaiflar muloqot qilish orqali munosabatga kirishishlari mumkin; qolganlar esa xat yozish orqali insonlar bilan o'zaro munosabatga kirishishni o'rganishlari mumkin xolos.

Qo'llanilib kelingan va hozirgi kungacha ishlatilayotgan *Bine* shkalasi rivojlanishining asosiy bosqichlari 2.6.1-jadvalda o'z ifodasini topgan.

### 2.6.1-jadval. Bine-Simon shkalasining XX asrda rivojlanish darajasi

Yil	Avtorlar	Eslatma
1905	Bine va Simon	30 ta topshiriq, standartlashtirish yo'q.
1908	Bine va Simon	Aqliy yoshni konsepsiyalash, to'liq bo'limgan standartlashtirish.
1911	Bine va Simon	Kattalar uchun chegaralangan shkalalar qo'shilgan.
1916	Termen va Merrill	Ko'pgina verbal material.
1937	Termen va Merrill	Ikkinchi qayta nashri, parallel shakllar ishlatalgan, standartlashtirish yaxshilangan.
1960	Termen va Merrill	Uchinchi qayta nashri, 4-5 ming nafar odam tekshirilgan.
1972	Robert Torndayk	2-3 ming nafar odamda qayta standartlashtirish.
1986	Torndayk, Xagen, Settler	15 ta subtest, qoniqarli darajadagi standartlashtirish (5 ming nafar odamda), yosh bo'yicha diapazon 2–0, 23–11.

XX asrning 30 yillariga kelib, yana qator yangi testlar paydo bo'ldi. Ularning aksariyat qismi AQSHda ishlab chiqildi. 1936 yilda quyidagi beshta test, nashrlar soni bo'yicha peshqadamlik qilgan:

- 1) *Stenford-Bine* testi;
- 2) *Rorshax* testi;
- 3) *Bernretyerning "Shaxsiy so'rovnomas'i"*;
- 4) *Sishorning "Musiqiy iste'dod o'lchagichlari"*;
- 5) *Stornganing "Kasbiy manfaatlar blanki"*.

Shuningdek, ushbu davrda ishonchilik darajasi yuqori bo'lgan ikkita shkala yaratildi. 1930 yilda Greys Artur 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni tekshirishga mo'ljallangan va hozirgi vaqtgacha ma'lum shkala: *Porteus* labirinti hamda *Kos* kubiklari testlarini chop ettirdi. Bu shkala avvaldan *Stenford-Bine* shkalasi bilan korrelyasiyalash ma'nosida rejalashtirilgan edi. Ammo istalgan korrelyasiya 12 yoshli bolalarni tekshirish mobaynida yuzaga kelishi keyingi tadqiqotlar orqali aniqlandi. *E.Kornell* va *V.Koks* tomonidan *Stenford-Bine* shkalasi bilan sezilarsiz korrelyasiya tashkil qilishga loyihalangan boshqa so'zsiz shkala taklif qilingan.

1937 yilda *Stenford-Binening* ommabop shkalasi yangi tahrirda chop etildi. Uning tarkibidan 1916 yil tahririda bo'limgan, 11 va 13 yoshlilar uchun topshiriqlarni kiritgan holda 2 va undan katta yoshlilar darajasiga mos testlarning namunasi o'rinni egallagan. Natijada, shkalaning ikki, L va M (mualliflar: *Lyuis Termen* va *Maud Merill* ismlarining birinchi harflari) kabi ekvivalent shakli yaratilgan edi. Bu shkalaning mazkur varianti, taxminan, Amerikada tug'ilgan oq tanli 1,5 dan 18 yoshgacha bo'lgan 3000 nafar bolaga nisbatan standartlashtirildi. Bunda mualliflar tekshirilayotganlarning demografik o'rni va ijtimoiy-iqtisodiy mavqyei kabi omillarni nazorat qilishga urindilar.

1950 yillarda ham psixodiagnostik tekshiruvlar jarayonida odatga ko'ra,

mashhur bo'lgan metodlar yetakchilik qilmoqda edi.

1951 yilgacha *Rorshax* testiga bag'ishlangan 1219 ta maqola chop etildi. Shuningdek, yana 493 ta *Stendford-Bine* shkalasiga, 371 ta maqola esa, *Veksler-Bellvyu* metodikasi bo'yicha nashr qilingan. Ko'pgina tekshirishlar TAT va MMPI metodikalari bilan bog'liq bo'lgan. Buning natijasida ayrim metodikalarga, xususan, *Sondi* testiga nisbatan qiziqishlar ko'lami kamaygan.

*Buros* 1953 yilda 793 ta test haqida ma'lumot bergen bo'lsa, ularning soni keyingi 10 yil ichida 250 taga oshgan.

1955 yilda *Vekslerning* kattalar intellektini o'lchovchi shkalasi – **WAIS** paydo bo'ldi. Shkala 16 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan kishilarning 1700 nafarini saralashda standartlashtirilgan.

XX yuz yillikni oltmishinchi yillari – testlarning diskussiyasi davri hisoblanadi. Asosan, bu diskussiyalar Qo'shma Shtatlar hududida shiddatli ravishda kechardi. Jumladan, intellektual rivojlanish darajasini baholash va shaxs sifatlarini o'rghanuvchi testlarga nisbatan shubhalilikni "alangalatardi". Bu davrda **MMPI** qattiq qarshilikka uchradi, chunki uning ayrim savollari vijdon erkinligi va jinsiy malaka to'g'risida ma'lumotni talab qilar edi.

Birinchilardan bo'lib, tanqidiy kritikaga uchragan proyektiv metodlar yagona obyekt bo'lib qolmadi, ya'ni intellektual rivojlanishni aniqlovchi shkalalar ham standartlashtirishda etnik guruhlarga ajratilmaganligi bois, muhokama qilindi.

### 2.6.2-jadval. 1935 yildan 1982 yilgacha ishlatilgan testlar reytingi

Testlar nomi	Qatordagi joyi
Minnesotekning "Ko'paspektli shaxs so'rovnomasasi"	1
Vekslerning "Kattalar uchun intellekt shkalasi"	2
Bendert-Geshalt testi	3
Rorshax testi	4
Vekslerning "Bolalar uchun intellekt shkalasi"	5
Mavzular appersepsiysi testi	6
Tugallanmagan so'zlar testi	7
"Odamni rasmini chiz" testi	8
"Uy-daraxt-odam" testi	9
Piboda testi	10
Retterning tugallangan so'zlar testi	11
Vekslerning xotira shkalasi	12

1970 yillar davomida psixologik test o'tkazish jarayoni va ularni tashkillashtiruvchi mutaxassislar, mazkur sohada ishlovchilar bu sohaga aloqasi bo'limganlar tomonidan bildirilgan tanqidlar hujumida edi. Ma'lum bo'lishicha o'sha davrda qator testlarning validlilik darajasiga yetarli e'tibor berilmagan. Natijada, tanqidchilar tomonidan psixologik testlarni umuman o'tkazmaslik haqidagi ayrim

e'tirozlar aytilgan. Shundan kelib chiqqan holda inson ahloqini tabiiy sharoitlarda kuzatish test o'tkazishga nisbatan muhim ahamiyat kasb etishi g'oyasi ilgari surilgan. Oqibatda, test tarafdorlari yangi testlarni yaratganlar. Bu testlar validliroq bo'lib, eskilarini qayta standartlashtirganlar. Bundan tashqari aniq validlik kriteriyasiga ega bo'lgan hamda tor mutaxassislik doirasasi bo'yicha qo'llaniladigan testlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotlarni ko'rsatishicha, American Psychologist jurnalini 1981 yil oktyabr soni testlashtirishga va unga xavf soluvchi moyillikka bag'ishlangan. Bu davrda ham testlar soning oshishi davom etardi. Shaxs xususiyatlarini diagnostika qilish uchun anchagina yangi so'rovnomalari ishlab chiqilgan bo'lib, ulardagi savol-javoblar ongli yoki ongsiz ravishda soxtalashtirilishi (falsifisirlashgan) mumkin, degan fikr tekshiriluvchilarni xavotirga solardi. Natijada, validlik har bir diagnostik usullarni, ayniqsa proyektiv metodikalarning nozik qirrasi sifatida ajralib qoldi. Bu davrda tanqidlari proyektiv testlar mavqyeiga nisbatan kam ta'sir qilgan. Mashhurligi bo'yicha bu yillarda birinchi o'nlikka quyidagi testlar: MMPI, WAIS, Bender-Geshtalt testi, Rorshax testi, WISC, qo'shimcha takliflar testi, TAT, inson rasmi va boshqa ayrim metodikalar kirgan (2.6.2-jadval).

## **2.7. Rezyume**

Shunday qilib, psixodiagnostikani shakllanishiga XIX asrning oxiri va XX asrda yuzaga kelgan psixologiya fanidagi umumiy inqirozlar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu – qobiliyat, intellekt kabi murakkab shaxs xususiyatlarini ilmiy asoslarsiz o'rgangan eski, introspektiv psixologiyaning kamchiliklarini yaqqol ko'rsatib bera oldi. Diagnostik metodlarning shakllanib borishi psixologiya fanini inqirozdan chiqa olishini ta'minlab berdi. Chunki yaratilgan yangi metodlar psixik xususiyatlar va holatlar haqida aniq va obyektiv bilimlarni olish imkoniyatini berardi. Bu bilimlar nazariy hukm, xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qilar edi. Shu bois, psixologiya shunday darajada ilgarilab ketdiki, nafaqat akademik fanga xos nazariyalar bilan qurollandi, balki amaliy jihatdan ham foydali sohaga aylandi. Psixodiagnostika o'zining nazariyalariga asoslangan tarzda shakllanadigan mehnat psixologiyasi, psixofiziologiya, tibbiy psixologiya, pedagogik psixologiya sohalarini bilimlar doirasini kengayishiga ham imkon yaratdi.

Natijada, zamonaviy psixodiagnostika ilmiy va amaliy bilimlarning maxsus sohasi sifatida ajralib chiqdi. Borgan sari yangidan-yangi psixodiagnostik metodlar yaratilib, unda matematika, fizikaning zamonaviy metodlari, kompyuterlashtirilgan elektron usullari qo'llanilib kelmoqda.

## **2.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Psixodiagnost, psixodiagnostika tarixi, klinik davr, empirik bilimlar, laboratoriya, statistik test, korrelyasiya metodi, Bine shkalasi, Stenford versiyasi.

## 2.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Psixodiagnostikaning yuzaga kelishi bilan psixologiya fani tarixi orasida qanday o'zaro bog'liqlik mavjud?
2. Psixologik bilimlarning klinik davri nimaga asoslanadi?
3. Qaysi mutaxassis olimlar "Psixodiagnostika"ni rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatishgan?
4. V.Vund laboratoriyasini psixologik tashxis jarayonida tutgan mavqyei qanday?
5. Birinchi statistik asoslangan testlar nimaga bag'ishlanadi?
6. Psixodiagnostikani XX asrdagi shakllanish davri qanday amalga oshgan?

## 2.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar

*Burlachuk L.* Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.

Vvedeniye v psixodiagnostiku: Ucheb. posobiye dlya stud. V 24 sred. ped. ucheb. zavedeniy / M.K. Akimova, Ye.M. Borisova, Ye.I. Gorbacheva i dr.; Pod red. K.M. Gurevicha, Ye.M. Borisovoy. – 3-ye izd., stereotip. – M.: 1999.

*Karimova V.M.* Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.

*Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolnix zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya". – T.: TGEU, 2005.

*Nemov R.S.* Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – M.: 2003.

Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye / Pod red. K.M. Gurevicha, Ye.M. Borisovoy. 2-ye izd., ispr. – M.: 2000.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.

*Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T.: TDIU, 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T.: TDIU. 2005.

### Internet ssilka:

<http://psihsishopbrowser.ru/sbdir-4024.html>

<http://www.ref.nnov.ru/referat.shtml?Razdel=50&Id=...>

<http://www.magazine.mospsy.ru/nomer1/sobch1.shtml>

<http://www.psychology-online.net/software/disposit...>

### **III bob**

---

## **PSIXOLOGIK TASHXIS (DIAGNOZ)**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Psixologik tashxis (diagnoz) tushunchasi va uning mohiyati.** “Tashxis” (aniqlash, diagnoz) tushunchasining ilm-fan va texnikani turli yo’nalishlarida keng ko’lamdagi qo’llanilishi mohiyati.

**Psixologik tashxisda Reykowski ning nazariy chizmasi.** Taniqli polyak psixologi Yanush Reykovskiy (Reykowski) tomonidan taklif qilingan nazariyaning mazmuni.

**Psixologik tashxis va tibbiy tashxis.** Klinik-psixologik diagnostika xususidagi A. Leviskiyning fikr-mulohazalari. Klinik tashxis. Psixologik tashxis.

**Funksional tashxis nazariyasi.** Funksional tashxis nazariyاسining mazmuni va uning g’oyasi. Bu borada A. Leviskiy tomonidan olib borilgan izlanishlar tasnifi.

**Diagnostik xatolar.** Z. Pleviskiy (Plewska)ning diagnostik xatolar to’g’risidagi dastlabki qarashlari. Diagnostik xatolarning guruhlari. Kuzatishdagi xatoliklar. Ro’yxatga olishdagi xatoliklar. Asbob-uskunalar xatosi. “Birinchi hayratlanish” effekti. Atribusiya xatosi. Yolg’on sabablar xatosi. Bilish radikalizmi. Bilish konservativizmi.

**Psixodiagnostika va psixometriya.** Psixometriya tushunchasi va uning Volf tomonidan kiritilgan tasnifi. F. Galtonning aql o’lchami to’g’risida gi nazariyasi. “XX asr lug’ati”.

---

### 3.1. Psixologik tashxis (diagnoz) tushunchasi va uning mohiyati

**A**maliyotda shaxsni o'rganish uchun turli xil psixodiagnostik testlar o'tkazish jarayoni “**psixologik tashxis**” tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. “Tashxis” (aniqlash, diagnoz) tushunchasi ilm-fan va texnikaning turli yo'nalishlarida keng ko'lamda qo'llaniladi. Ma'lumki, tiriklikni aniqlash, u yoki bu o'zgarishlar o'ziga xosligini o'rganish – tibbiyotni boshlanishi hisoblanmaydi. Adabiyotlar tahlilidan ko'rindiki “psixologik tashxis”ni yoritib beruvchi aniq tushunchalar miqdori kam emas. Tibbiyotda qo'llaniladigan tashxis tushunchasi, normal holatning o'zgarishini aniqlashga qaratilgandir. Ushbu tushunchaning mohiyatini yoritish psixodiagnostika sohasida ham rivojlangan bo'lib, unga ko'ra, psixologik tashxis, doimo paydo bo'lgan noxushlikni yashirin sababini aniqlashdan iboratdir.

Shuningdek, ayrim chet el psixologlari psixodiagnostikada, qandaydir buzilishlarni (“nomidan” tashqari) o'rganish “tash-xis” jarayonida terminini qo'llashlariga ham to'g'ri kelgan.

 “**Tashxis qaysi sohada qo'yilishidan qat'iy nazar – tibbiyot, taxnika, boshqarma yoki psixologiyadami – bu har doim paydo bo'lgan noxushlikning yashirin sababini qidirish hisoblanadi**”

### 3.2. Psixologik tashxisda Reykowski ning nazariy chizmasi

**B**ugungi kunda psixologik tashxisni qayta ishlangan nazariy chizmalaridan biri bo'lib, taniqli polyak psixologi *Yanush Reykovskiy (Reykowski)* tomonidan taklif qilingan nazariya hisoblanadi. U psixodiagnostika amaliyoti jarayonida quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishni ajratadi.

-  *Tashxisni o'tkazishda tekshiriluvchining faoliyati va axloqini ta'riflash, tahlil qilish hamda o'ziga xosligini tavsiflash;*
-  *Tashxisni o'tkazishda faoliyatni boshqarilishi hamda psixik jarayonlarni o'rganish;*
-  *Tashxisda boshqaruv va psixik jarayonlar mexanizmini o'rganish hamda nerv tizimi bog'lanishlarini tahlil qilish;*
-  *Individual psixikaning shakllanganlik sharoiti va boshqaruv mexanizmi genezi diagnostikasi.*

Ilmiy adabiyotlarning to'liq tahliliga ko'ra yuqoridagi omillarning, ya'ni psixologik tashxis qamrovini noto'g'ri o'lchamda kamayishiga olib keladi, undan individual-psixologik normal farqni aniqlash va hisobga olish jarayoniga bog'liq bo'lgan barcha sifatlarning tushib qolishiga sabab bo'ladi. Psixologik diagnostikaning tarixiy izlanishlari natijasiga ko'ra, psixologik tashxis maydoni normal va patologik holatda ham individual-psixologik farq sifatida e'tirof etiladi.

### 3.3. Psixologik tashxis va tibbiy tashxis

**M**a'lumki, diagnostik metodikalarning muayyan bir qismi klinik ta'lablarga mos ravishda ishlab chiqilgan. Shuning uchun zamonaviy psixodiagnostikada klinik-psixologik diagnostika tushunchasi eng ko'p o'r ganilgan soha hisoblanadi. Turli xil izlanuvchilar qarashlarini, A. Leviskiy, klinik-psixologik diagnostikaning bosh vazifasi, ya'ni tekshiriluvchining kasbi, oilaviy hayoti, insonlar bilan o'zaro muloqotidagi tafovutlarni o'r ganish davomida shuningdek aniqlangan axloq buzilishlari sifatida umumlashtirgan motivasiya va bilish jarayonlari asosida yotuvchi psixik disfunksiyani: ma'lum bo'lган buzilishlar genezidagi psixologik mexanizmlarga asoslangan holda, ya'ni vaziyatli yoki shaxsiy omillar tafovutiga ko'ra tahlil qilgan shaxs axloqidagi buzilishlarni qachon organik omillarga va qaysi holatlarda psixologik sabablar bilan determinasiyalashganligini umumlashtirishga harakat qilgan.

G'arb adabiyotlarida, klinik-psixologik tashxis axloq buzilishlarini aniqlash bilan chegaralanishi kerakmi (u yoki bu sabablar orqali buzilgan psixik faoliyatning aynan o'sha bo'lagini o'r ganish) yoki shaxsning bir butunligini tasavvur qilgan holda, undagi vaqtincha (turg'un) disfunksiya elementlarini ajratish lozimmi, degan holda muhokama qilinadi. Ko'pgina mashhur klinik psixologlar porsial diagnostika to'g'risidagi fikrlarni ta'kidlashgan holda shaxsni yaxlitligicha o'r ganish jarayonida alohida psixik funksiyalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib o'tishadi. Hozirgi kunda, bo'lган klinik-psixologik diagnostikada shaxsiy yondoshishning kiritilishi ko'plab xatolarni oldini olish imkonini berdi. Faqat shuning asosidagina, reabilitasiyasi va psixoterapevtik faoliyatlarga oldindan baho berish hamda ular uchun samarali tavsiyalar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Klinik va psixologik tashxislar bir-biri bilan raqobat qilishi mumkin emas. A. Liviskiy vrach va psixolog hamkorligi zaruriyatini ta'kidlagan holda, psixologik tashxis klinik tashxisga asoslanishi kerakligini o'qtiradi. Klinik tashxis orqali psixolog u yoki bu buzilishlar to'g'risida ma'lumot topishi mumkin. Bu esa "psixologik yo'l" orqali axloqning buzilishini aks ettirish demakdir. O'z navbatida shifokorlar ham psixolog tomonidan olingan ma'lumotlarni hisobga olish kerak bo'ladi. Bu holat yetarli darajada tipik, to'g'ridan-to'g'ri nerv, endokrin va shaxs xususiyatlari temperamenti to'g'risida tibbiy fikrlash asosini yaratadi.

Ma'lumki, psixik tashxis jarayonida psixologik bilimlarning barcha elementlarini amaliy jihatdan faoliyatda qo'llab bo'lmaydi. Olimlar psixodiagnostika yo'nali shidagi mutaxassisni hozirgi kunda begona joyga borgan sayohatchiga o'xshatishadi. Sayohatchi borgan joyni aniq ta'riflab berishi mumkin, lekin unda shu yer haqida umumiylashtirish bo'lmaydi.

Psixologik tashxis konstansiya bilan cheklanib qolmaydi, balki

 **Psixologik tashxis – individual-psixologik mohiyatni aniqlash va shaxsning o'ziga xosligini baholash maqsadida yo'naltirilgan, izlanishlar asosida keyingi rivojlanishi darajasi bo'yicha axborot berish hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish jarayonidagi psixolog ish faoliyatining natijasidir.**

zaruriy izlanishlar davomida olingan barcha ma'lumotlar jamlamasini tahlilidan kelib chiquvchiamaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

### **3.4. Funksional tashxis nazariyasи**

**P**sixiatriyada nozologik (sindromologik) tashxisning chegaralanganligi, asosan, psixik bemorlarni reabilitasiyalash vazifasi bilan bog'liqligi tan olinadi. Shu bois, mazkur holat bilan bog'liq bo'lgan funksional tashxis nazariyasi ishlab chiqilmoqda. Bu nazariya uch qismdan klinik, psixologik va ijtimoiy tashxisdan tashkil topadi.

Funksional tashxis shifokor uchun nafaqat kasallik "nomi"ni aniqlash imkonini yaratadi, balki kimda (qanaqa shaxsda) va qanday muhitda (ijtimoiy mikromuhitda) kasallik kelib chiqishi to'g'ridagi savolga javob ham beradi.

Psixologik tashxis jarayoni tibbiy tashxisdan farqli ravishda, ayrim ko'rinishlar yoki holatlarni sinaluvchi xulq-atvorida namoyon bo'lishini, ularning sabablari va oqibatlarini aniqlashdan, tekshirishdan iborat bo'ladi.

A. Leveskiy (*Leweski*)ning fikricha, psixologik tashxis amalga oshirilganda hamisha ham sifatli va ijobiy natijaga ega bo'laverilmaydi. Tashxisdagi xatoliklar va aniqsizliklar quyidagi asoslarda yuzaga keladi:

- ✚ *tadqiqot uchun belgilangan vaqtning yetmasligi;*
- ✚ *sinaluvchilar haqidagi ishonchli ma'lumotlarga ega emaslik;*
- ✚ *xulq-atvorni boshqaradigan qonuniyatlar haqidagi bilimlarning yetishmasligidir.*

### **3.5. Diagnostik xatolar**

**D**iagnostik xatolar to'g'risidagi to'liq tahlil qilingan fikrlar, asosan, taniqli mutaxassis Z. Pleviskiy (*Plewiska*) asarlarida bayon qilingan. U o'z qarashlarida "diagnostik xatolar"ni quyidagi ikkita asosiy guruhga bo'lgan:

- ✚ *ma'lumot yig'ish bilan bog'liq bo'lgan xatolar;*
- ✚ *ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xatolar.*

Birinchi guruh xatolarga quyidagilar kiradi:

✓ *Kuzatishdagi xatoliklar* (masalan; tashxis uchun muhim bo'lgan shaxsning shakllanishidagi chiziqlarga nisbatan "ko'rlik").

✓ *Ro'yxatga olishdagi xatoliklar* (masalan; bayonnomadagi emosionallik psixologni tekshiriluvchiga bo'lgan munosabatiga bog'liq).

✓ *Asbob-uskunalar xatosi* – apparatlardan foydalanishni bilmaslik va o'lchovchi texnikada interpretasion hamda texnik jihatdan nosozlik oqibatida yuzaga keladi.

Ikkinci guruh, ya'ni ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida kelib chiqadigan asosiy xatoliklar quyidagilardan iborat:

✓ *"Birinchi hayratlanish" effekti* – dastlabgi birinchi ma'lumotni qiymatidan ortiq ravishda baholashga bog'liq xatolikdir.

✓ *Atribusiya xatosi* – tekshiriluvchida mavjud bo'lмаган omillarni hisobga olish yoki noturg'un xususiyatlarni turg'un, deb baholash natijasida kelib chiqadi.

- ✓ *Yolg'on sabablar xatosi.*
- ✓ *Bilish radikalizmi* – ishchi farazlarga nisbatan yuqori baholash an'anasining mavjudligi va yaxshi iboralarni qidirishga bo'lган xohishning yo'qligi.
- ✓ *Bilish konservativizmi* – farazlarni o'ta ehtiyojkorlik bilan shakllantirish.

Psixodiagnostik faoliyat jarayonida kuzatiladigan xatolar yoki klassifikasiyaning ahamiyatga ega bo'lish darajasi aniq emas. Bu xatolarning sodir bo'lishi xohlagan vaqtida yuz berish ehtimoli mavjud. Shu bois, psixodiagnostik o'ziga xoslik aniq uslubiy holatlarga, jumladan, testlarga va nazariy jihatdan o'tkazilgan tekshirishlarga taalluqlidir.

### **3.6. Psixodiagnostika va psixometriya**

**P**sixologik testlar va testlashtirish xususida fikr borganida, fanda psixometriya tushunchasiga to'qnash kelinadi.

Bu tushuncha fanga taniqli olim *Volf* (1734) tomonidan kiritilgan bo'lib, u o'z navbatida psixologiyada ham o'lchov imkoniyati mavjudligini keltirib chiqardi. Tadbiqiy psixologiya o'lchovlardan birinchisi – reaksiya vaqtining o'lchovidir. Shuning uchun, ma'lum muddat psixometriya, deganda psixik jarayonlarning vaqtinchalik xarakteristikasi tushunildi. Natijada mutaxassislar psixik hodisalarning miqdoriy jihatdan aniqlanishi bilan bog'liq bo'lган hamma narsani psixometriyaga kiritishni boshladilar.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, psixometriyada uncha keng tarqalmagan boshqa tushunchalar ham mavjud. Bu borada xususan aql o'lchami to'g'risidagi nazariyani fanga kiritgan *F.Galtonni* eslab o'tishning o'zi kifoya. Hozirda bu atama parapsixologiyaning predmetlaridan biri sifatida ishlatiladigan bo'ldi. "XX asr lug'ati" uni "o'zgaruvchan omillar bilan munosabatda bo'lган psixologiya sohasi" deb yuritilishini maqsadga muvofiq hisoblaydi. Bunday yondoshishda psixometriya psixologik o'lchovlarning va psixofizikadagi shaxsiy o'lchovlarning barcha spektrlarini o'z tarkibiga kiritadi.

Ma'lumki, har qanday psixologik o'lchov quollarining yaratilishi tom ma'noda cheklangan talablarga qat'yan rioya qilishni taqozo etadi. Bu talablar uchun olingen natijalarni qiyoslash o'lchov usulining aniq, ishonchli va mos kelish darajasiga taalluqlidir. Moslik, asosan matematik-statistik tahlillarni qo'llash orqali aniqlanadi. Matematik-statistik apparatni takomillashtirish, uni ishlab chiqish o'z navbatida yangidan-yangi testlarni yaratish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, bu esa, ularning samaradorlik masalasini hal qilinishni ta'minlab beradi.

Shunday qilib, psixometrik yo'nalish o'zining rivojlanishi ustunligini psixologik testdan oladi. Sir emas-ki, ko'pgina hollarda psixologik testlash (psixodiagnostika) va psixometriya bir-biriga o'xshash bo'ladi. Bu fikrni hozirda keng ravishda qo'llaniladigan "psixometrik testlar" atamasi tasdiqlaydi. Psixodiognostikaning bu tarzda rivojlanishi psixometrik testlarni proyektiv metodikalardan ajratishda asos bo'lib xizmat qildi.

Psixologik testlashning rivojlanishi munosabati bilan, XX asrning 20-30-yillarda psixometriyaning alohida bir sohasi shakllangan bo'lib, u hozirda individual farqlanishlarga asoslanib o'z faoliyati yuritmoqda.

### **3.7 Rezyume**

Psixologiyada tashxis (diagnoz) tushunchasi va uning mohiyati, asosan, Reykowskingin nazariy chizmasi bilan bog'liqdir. Psixologik tashxis va tibbiy tashxisni farqlashdagi dastlabki asoslangan yondoshuvlar natijasida A. Leviskiyning "klinik-psixologik diagnostika" to'g'risidagi qarashlari shakllandi. Psixiatriyada nozologik (sindromologik) tashxisning chegaralanganligi o'r ganilishi M. Kabanovning "funksonal tashxis" nazariyasining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Dastlabki diagnostik xatolar Z. Pleviskiy tahlillaridan kelib chiqqan holda aniqlandi. Bu davrda psixodiagnostika va psixometriyaning o'zaro tafovutlarini ajratish jarayonlari boshlanib, natijada F. Paltonning ayrim g'oyalari o'z o'rnini parapsixologiyada qaror toptirdi.

### **3.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Psixologiya, tashxis, tibbiy tashxis, psixologik tashxis, tahlil, klinik-psixologik diagnostika, funksional tashxis, xatolar, psixometriya.

### **3.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Psixologik tashxis tushunchasi va uning mohiyati nimadan iborat?
2. Yanush Reykovskiy amalmy psixodiagnostik jarayonni necha yo'nalishga bo'lgan?
3. Psixologik va klinik tashxislarning qanday o'zaro farqi bor?
4. Funksional tashxis nazariysi kim tomonidan yaratilgan?
5. Diagnostik xatolarni qanday guruhlari mavjud?
6. Psixodiagnostika va psixometriya orasida qanday bog'liqlik bor?

### **3.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb., 2002.

Vvedeniye v psixodiagnostiku: Ucheb. posobiye dlya stud. V 24 sred. ped. ucheb. zavedeniy / M.K. Akimova, Ye.M. Borisova, Ye.I. Gorbacheva i dr.; Pod red. K.M. Gurevicha, Ye.M. Borisovoy. – 3-ye izd., stereotip. – M., 1999.

Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.

Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolnix zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya". – T., TGEU. 2005.

Kitov A.I. Ekonomicheskaya psixologiya. – M.: Ekonomika, 1987.

Nemov R.S. Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – M., 2003.

Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye / Pod red. K.M. Gurevicha,

- Ye.M. Borisovoy.* 2-ye izd., ispr. – M., 2000.
- Rogov Ye.I.* Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovanii. – M., 1995.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T., 2005.
- Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” kursi bo’yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to’plami. – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Pedagogik psixologiya” kursi bo’yicha vaziyatli va ishchi o’yinlar to’plami. – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixologiya” fani bo’yicha shaxsni o’rganishga doir testlar va metodikalar to’plami. – T., TDIU. 2005.

### **Internet ssilka**

- [http://www.referatbank.ru/inforef.php?subsection\\_i...](http://www.referatbank.ru/inforef.php?subsection_i...)
- <http://www.psi.chol.ru/difpsi/kreat.htm>
- <http://www.soc.pu.ru/mate...>
- <http://www.msu.ru/study/d...>

## **IV bob**

---

### **PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKANING IJTIMOIY VA AXLOQIY JIHATLARI**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

#### **Psixologik diagnostika hamda psixodiagnost uchun qo'yiladigan ijtimoiy-axloqiy talablar.**

Diagnostik metodlarni qo'llaydigan mutaxassis malakasining darjasи. Diagnostik metodlarni qo'llash. Tadqiqot natijalarini sir saqlashning ta'minlanganligi. Konfidensiallik. Tadqiqot natijalarini e'lon qilish. Psixolog (tashxischi)ning axloqiy kodeksidagi ijtimoiy-psixologik asoslar.

**Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari.** Diagnostika nazariyasi va uning metodikalarini ilmiy asoslanganligi. Diagnostikaning izchilligi va aniq yo'nalghanligi. Diagnostika shakl va metodlarini optimalligi. O'rganilayotgan obyekt haqida faktlarni yig'ish, bayon qilish va to'g'ri yo'lga solishning birligi. Diagnostikaning ketma-ketligi va uzluksizligi. Diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi hamda ommabopligi. Diagnostikaning kompleksliliги. Diagnostikaning talaba rivojlanishi kelajagini, oqibatlarini oldindan ko'ra olish (bashorat qilish) imkonini bera olishi.

**Psixologik testlardan foydalilanildigan kishilar uchun qo'yiladigan maxsus talablar.**

Psixodiagnostga qo'yiladigan sakkiz bosqichli talab.

**Metodikalarni qo'llashdagi psixologik ma'lumotlar bazasining mavjudligi.** Minnesotning ko'pfaktorli shaxsiy so'rovnomasи.

**Amaliy tavsiyalarning sifatlilik darjasи.** Amaliy tavsiyalarning sifatlilik darajasini bosqichlari.

**Psixodiagnostikaning axloqiy-ma'naviy normalari.** Psixologik tashxis kodeksidagi axloqiy-ma'naviy normalarning asosiy tamoyillari.

---

## **4.1. Psixologik diagnostika hamda psixodiagnost uchun qo'yiladigan ijtimoiy-axloqiy talablar**

**P**simologik testlar va so'rovnomalardan to'g'ri foydalanish maqsadida bir qator ehtiyot choralarning mavjudligi, ularni amaliyatda qo'llash samarasini oshiradi. Diagnostik metodlarni qo'llanilishi va yoyilishi har bir mamlakatning axloqiy standartlari yoki professional axloq kodeksiga bo'ysunishi kerak. Psixolog (tashxischi)ning professional axloqiy kodeksi zamirida insoniyat manfaatiga xizmat qiluvchi fanning shakllanishi orqali ayrim individlarning muvaffaqiyati va huquqlarini himoya qilishdek qadriyatlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Psixodiagnostika sohasi bilan uzviy bog'langan, hozirgi G'arb va Amerika psixologiyasi fanida ma'lum yechimga ega bo'lgan quyidagi asosiy axloqiy muammolar mavjud:

### **Diagnostik metodlarni qo'llaydigan mutaxassis malakasining darajasi**

Diagnostik metodlarni malakali tadqiqotchilar tomonidan qo'llanilishi talabi, ularni noto'g'ri ishlatilishidan mijozni himoyalashdagi bиринчи qadam hisoblanadi. Albatta, zarur malaka diagnostik metodlar yo'riqnomasidan kelib chiqqan holda o'zgarib boradi. Masalan, individual intellekt testlari shaxsiy so'rovnoma va testlardan o'quv va professional faoliyatdagi muvaffaqiyatni testlash jarayoniga nisbatan maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Yaxshi malakaga ega bo'lgan psixolog (tashxischi) shunday metodikalarni tanlay bilishi kerakki, bu shaxsiy maqsad uchun o'tkazilayotgan diagnostik jarayonga ham, tekshirilayotgan konkret kishi uchun ham mos tushsin. Shuningdek, u tanlangan metodikalarga aloqador ilmiy adabiyotlarni o'rgangan hamda texnik ko'rsatkichlar hisoblangan norma, validlik va ishonchlilik xarakteristikalarini yaxshi o'zlashtira olgan bo'lishi kerak. Ma'lumki, qo'lga kiritilgan tashxis natijalari, uni o'tkazishdagi turli vaziyatlarga nisbatan og'uvchanlik xususiyatini namoyish etadi. Shuning uchun psixodiagnost xulosalarni tekshiriluvchiga aloqador qator qo'shimcha ma'lumotlar asosidagina diagnostik baholashdan so'ng bayon etadi. Eng muhimi, olingan natijalari asosidagi noto'g'ri tahlillar kelib chiqmasligi uchun u psixologik bilimlardan yetarlicha xabardor bo'lishi kerak. Agar psixologik diagnostik soha boshqa mutaxassislari bo'lмаган kishilar tomonidan olib borilsa, imkon boricha jarayonga malakali psixologning ham ishtiropi kerak. Chunki u tadqiqotni samarali olib borishdagi zarur sharoitlarni yaratib bera oladi va olingan natijalarni to'g'ri tahlil qilishda ko'maklashadi.

Kimni malakali psixolog (tashxischi) sifatida hisoblash mumkin? Ma'lumki, tadqiqot sohalar qo'llashning xilma-xilligi va ularga asoslanadigan maxsus tayyorgarlik oqibatida birorta ham psixolog barcha yo'nalishlar bo'yicha umumiyl malakaga ega bo'la olmaydi. Jumladan, amaliy psixologiya asoslarini yaratadigan psixologlar, ayrim sohalardagi professional standartlar talabiga javob bermaydigan usullarni qo'llamaslik va kompetentlik doirasidan chetga chiqmaslikni muhim shart sifatida e'tirof etadilar. G'arbda ilmiy yoki davlat korxonalarida ish olib boruvchi

mutaxassis bilan mustaqil faoliyat yurituvchi amaliy psixolog o'rtasida o'zaro farq mavjud sanalgan. Chunki, mustaqil amaliy psixolog malakali hamkasblar fikrlari va xulosalariga tashkilotda faoliyat yurituvchi mutaxassisiga nisbatan juda kam hollarda qo'yshilishadilar. Vaholanki, tashkilot mutaxassislari Amerika psixologik uyushmasi nizomiga asosan, professional malaka borasida yuqori darajadagi talablarga javob berishi kerak. Shu bois ham, kishilarni sifatli psixologik tadqiq qilish jarayonida professional me'yorlarning ko'lamin oshirish maqsadida malakali psixologlarga lisenziyalar va guvohnomalar taqdim etiladi.

#### Diagnostik metodlarni qo'llash

Diagnostik metodlarni qo'llash huquqi ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassislarga beriladi. Hozirda esa, bu huquqdan boshqa soha vakillari ham foydalanmoqda. Amerikalik psixologlar fikriga ko'ra, metodikalarga ega bo'lish uchun mutaxassis (psixolog) yoki uning to'g'ri qo'llanilishi uchun ma'suliyatni o'ziga olgan kishilarga imzolari bo'lgan taqdirda foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. G'arbiy Yevropa psixolog (tashxischi)larining axloq qoidalarida diagnostik metodlarni tarqatilishini cheklash taklif etilgan. Bu cheklanishlar mohiyatan ikki xil mazmunga ega:

- *metodikalar mohiyatini oshkor etmaslik;*
- *metodikalardan noo'rin foydalanishning oldi olish.*

Shuningdek, boshqa qo'shimcha professional ma'suliyat cheklashlar mualliflar tomonidan yaratilayotgan yangi metodikalarning sotilishi bilan bog'liq. Chunki, ularni kishilarda qo'llash uchun taqdim etishda yetarli darajadagi obektiv asoslar bo'lishi kerak. Shu bois, diagnostik metodlarni yaratuvchi (muallif)lar zimmasidagi ma'suliyatga uzluksiz ravishda metodikalarning eskirib qolishini oldish olish, tekshirish va standartlashtirish jarayonlarini amalga oshirish kiradi. Amerikada metodikalar va ularning asosiy qismlarini gazeta, jurnal hamda risolalarda keng miqyosda yoritish yoki o'z-o'zini baholash uchun nashr qilish man etiladi. Mashhur mutaxassis A.Anastazi, bunday vaziyatlar nafaqat metodikalarning samarasizligini, balki, kishi psixikasiga salbiy ta'sir qilishdek katta xatolarga olib kelishini alohida ta'kidlab o'tadi.

Yana bir G'arbda keng tarqalgan, ammo professional talablarga javob bermaydigan faoliyat turi sirtqi xat orqali testlashtirishdir. Ma'lumki, yuborilgan test blanklari orqali mijozning qobiliyatlar yoki shaxs xususiyatlarini aniqlashga oid testlarni bajarish jarayonini to'g'ri amalga oshirilgan, deb baholab bo'lmaydi. Chunki testlashtirishni nazoratsiz amalga oshirish va qo'shimcha psixologik ma'lumotlarni inobatga olmaslik ijobiy natijaga qaraganda ko'proq salbiy oqibatlarni yuzaga keltirib chiqarish mumkin.

#### Tadqiqot natijalarini sir saqlashning ta'minlanganligi

Shaxsiy testlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan savollar shaxsga daxldor ma'lumotlarga ega bo'lish omil orqali izohlanadi. Diagnostlar uchun bu, subyektning

shaxsiy, emosional, motivasion xususiyatlarini o'rganishdagi testlar mazmuni hamda baholangan natijalarini mijoz uchun ma'lum qilinmagan va anglanmagan holatda namoyon bo'lishi kerakligi nozik masala hisoblanadi. Buning uchun kishilar biron-bir tadqiqotda aldangan holatda ishtirok etishlari mumkin emas. Shu bois, qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlarning foydalanish maqsadi va usullarini chuqur anglay bilishning o'zi yetarli darajada ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar va qo'llaniladigan barcha testlar deyarli shaxsning ichki sir-asrorlar bayon etish imkoniyatiga ega. Bu borada, faqat professional mutaxassisgina vaziyatni inobatga olib o'z ma'suliyatiga suyangan ravishda tadqiqot olib borishi hamda xulosa chiqarishi talab qilinadi.

Biror korxona yoki jamiyatning qiziqishi tufayli tadqiqot olib borilayotgan bo'lsa, unda ishtirok etayotgan sinaluvchi o'z natijalarini qanday baholanganligi xususidagi ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Shaxs haqidagi olingan barcha ma'lumotlar sir saqlanishini A.Anastazi, ikki yo'nalishdagi omil izohlaydi: "relevantlilik" va "ma'lum etilgan rozilik". Sinaluvchining berayotgan ma'lumotlari diagnostikani maqsadiga mos kelishi relevantlilik deb yuritiladi. Buning ahamiyatli tomoni shundan iboratki, barcha amaliy harakatlar aniq, diagnostik maqsad uchun metodika validligini o'rnatishga qaratilgandir. Faqatgina mazkur holat ma'lumotning validligi va relevantligini ta'minlab bera oladi.

"Ma'lum etilgan rozilik" – tadqiqotda ishtirok etayotgan sinaluvchi jarayon maqsadi, olingan natijalar xarakteri hamda ularni amalda qo'llash mumkinligi haqida ma'lum etish bilan izohlanadi. Lekin sinaluvchiga test namunalari yoki bayonnomma blankalari ko'rsatilishi ta'qilqiladi. Bunday ma'lumot testning haqiqiyligi va kuchini yo'qolishiga xizmat qiladi.

### Konfidensiallik

Ma'lumotlarni sir saqlash kabi konfidensiallik muammosi ham barcha psixodiagnostlar diqqat markazida turgan masalalardan biridir. Bu masala negizida: "Diagnostik natijalarga kimning huquqi bor?", – degan savol doimo ko'ndalang turadi. Shu bois, *bir tomonda*, testning asl mohiyatini bayon etmaslik va uning baholarini noto'g'ri talqin qilish xavfini mavjudligi bo'lsa, *ikkinci tomonda*, mijoz uchun tadqiqot natijalarini bilishning obyektiv zarurati turadi.

Hozirgi davrda mijozlar tomonidan tadqiqot natijalariga ega bo'lish huquqini anglab yetish holatlari kuchaydi. Shuningdek, ular o'z javoblariga izoh talab etish imkoniyatiga ham egadirlar. Natijada psixolog (tashxischi) uchun diagnostik natijalarni noto'g'ri tahlil qilishga qaratilgan chora-tadbirlarga rioya qilish mas'uliyatining ahamiyati ortadi.

Jumladan tadqiqot tashkilotlarda, masalan, maktabda ishga qabul qilinayotgan vaqtida yoki sud ishlari jarayoni olib borilayotgan sharoitda bo'lsa, sinaluvchi izlanishning maqsadi, natijalari va kim tomonidan amalga oshiralayotganligi xususida oldindan xabardor bo'lishi kerak. Shu bois, mazkur vaziyatlarda sinaluvchidan ma'lumotlar taqdim etishi uchun rozilik olinadi. Bu holat maslahatxona, shifoxona va hattoki ilmiy tadqiqotlar maqsadida amalga oshirilayotgan testlashtirishga ham

taalluqlidir.

#### Tadqiqot natijalarini e'lon qilish

Psixologlar tadqiqot natijalaridan mazmunli va yaroqli holda foydalanish uchun, ularni mijozga qay tarzda ma'lum qilish usullarini izlash bilan mashg'uldirlar. Ma'lumki, olingan ma'lumotlarni shundayligicha uzatish mumkin emas. Uni psixologik axloq kodeksiga nazarda tutilgan talablardan kelib chiqqan holda amalga oshirish zarur. Test ma'lumotlarini qanday ko'rinishda uzatishdan qat'iy nazar (majlis sharoitidami, xat orqalimi, yozma ravishdami), uning eng muhim shartlaridan biri, axborotni sonlar shaklida emas, balki bajarilganlik darajasini psixologik tahlil qilish yo'li bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday psixodiagnostik tadqiqot natijalarining e'lon qilish jarayonida ma'lumot uzatilayotgan kishini xarakter xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Bu, uning psixologok bilimlar doirasidagi ma'lumotlilik darajasigagina taaluqli bo'lmay, balki natijalar asosida chiqarilgan ma'lumotga nisbatan bo'lган emosional reaksiyasiga ham aloqadordir. Shu sababdan, mijozga diagnostika natijalarini yetkazish vaqtida nafaqat tahlil, balki vaziyatga nisbatan ijobjiy individual yondoshish ham emosional tahlikani oldini olishga qaratilgan bo'ladi.

#### Psixolog (tashxischi)ning axloqiy kodeksidagi ijtimoiy-psixologik asoslar

Psixolog har bir tekshiriluvchining mavqyeiga hamda muvaffaqiyatiga katta ahamiyat berishi lozim. Chunki, u kishida o'zi va atrofdagilar bilan bo'ladigan ijobjiy munosabatlarni o'rnatish ma'suliyatini o'ziga oladi. Bunday ma'suliyat negizida, psixolog uning yordamiga muhtoj har qanday kishining tinchi va xotirjamligini qo'riqlash yotadi.

### 4.2. Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari

**A**lbatta, har bir fan sohasi o'ziga xos obyektga, predmetga va ularga mos keladigan tadqiqot metodlari hamda tamoyillariga egadir. Yuqoridagilardan kelib chiqib qaraganda, psixologik-pedagogik diagnostikaning ham o'z tamoyillari mavjud.

#### Diagnostika nazariyasi va uning metodikalarini ilmiy asoslanganligi

Diagnostika – obyektni yaxlit ravishda genetik va tizimli tahlil qilish, ularni modellashtirish, qo'llaniladigan metodikalar, ko'rsatkichlarning ilmiy asoslanganligi, olingan natijalar interpretasiyasining ishonchliligi, aniqligi, validligini puxta ishlab chiqilgan metodik asoslar bilan ta'minlanganligi orqali izohladi. Ilmiy asoslanganlik tamoyilida qo'llanilayotgan metodikalarning etnik, ijtimoiy muhitga, jumladan, diagnostika o'tkazilayotgan o'quv yurti, akademik guruh va auditoriyaga mosligi talab qilinadi. Bu tamoyilga amal qilish pedagogik-diagnostikalarni amalga oshirish

jarayonida turli xil yengil (“ko’ziga yaxshi ko’ringan” yoki “qo’liga tushib qolgan”) metodikalarni bilib-bilmay qo’llashdan saqlaydi.

#### **Diagnostikaning izchilligi va aniq yo’nalganligi**

Psixologik-pedagogik diagnostika boshqa psixodiagnostik va pedagogik diagnostikadan farqli ravishda aniq yo’nalish obyekt va maqsadga qaratilgan bo’ladi. Shu sababli diagnostik faoliyat (jarayon)ning natijalari umumiylar xulosalar, abstrakt mulohazalardan emas, balki aniq shaxs (talaba)ga, guruhga tegishli bo’lishi lozim. Aniq xulosalar orqali kamchiliklarni bartaraf qilish va yordam berishning yo’nalganligini ko’rsatib berish mumkin.

#### **Diagnostika shakl va metodlarini optimalligi**

Qo’llanilayotgan metodikalar va talabaga yondoshish usullarining mavjudligi amaliyotchi psixolog, pedagog yoki psixodiagnostga kam kuch va vaqt sarflab sinaluvchi haqida muhim, sifatli hamda katta amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlar yig’ish imkoniyatini beradi. Diagnostikaning shakl va metodlari optimalligini ta’minlashda esa, psixodiagnostika sohasidada ko’p yillar davomida qo’llanilib kelinayotgan qulay, oddiy va samarali metodlarni qo’llash kerak bo’ladi.

#### **O’rganilayotgan obyekt haqida faktlarni yig’ish, bayon qilish va to’g’ri yo’lga solishning birligi**

O’rganilayotgan obyekt haqida ma'lumotlar yig’ish ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun o’quv yurti rahbarlari hamda, pedagoglarga psixologik-pedagogik yordamlar berish, to’g’ri yo’lga solish, qo’llab-quvvatlash kabi vazifalarning birgalikda olib borilishini ta’minlaydi.

#### **Diagnostikaning ketma-ketligi va uzluksizligi**

Diagnostikaning bosqichma-bosqich amalga oshirishish o’quv jarayoni va talabani o’zlashtirishiga xalaqit berayotgan omillarni ochish imkoniyatini yaratadi. Olingan natijalardan keyingi bosqich ta’lim-tarbiya jarayonlarida uzluksiz foydalanish zarurligini yuzaga chiqaradi.

#### **Diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi hamda ommabopligi**

Diagnostika metodlarini oddiyligi ya’ni uning amaliy psixologlar, pedagoglar, o’quv yurti rahbarlari hamda tekshiriluvchilar uchun qulayligi, nistaban ulardagi qiziqish va intilishni uyg’otishga xizmat qilishni ta’minlovchi tamoyil hisoblanadi.

 **Diagnostikaning kompleksliligi**

Bu tamoyil talaba shaxsini individual-psixologik xususiyatlarini psixik jarayonlarining rivojlanganlik darajasini va o'quv faoliyatining boshqa jihatlarini o'rganish uchun tanlangan metodlar va metodikalar uni bir butun holda, har tomonlama o'rganish, ta'riflash, yondoshish imkonini berishda yuzaga chiqadi. Diagnostik metodikalarning bir-biri bilan bog'liq bo'lishi va to'ldirishi bu tamoyilning asosiy talablaridandir.

 **Diagnostikaning talaba rivojlanishi kelajagini, oqibatlarini oldindan ko'ra olish (bashorat qilish) imkonini bera olishi**

Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika talabaning kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini va o'quv jarayonining tashkil qilinganlik ko'rsatgichini izohlash berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Diagnostik jarayonda o'rganilayotgan obyektning "kelajagi", ertangi kuni, taraqqiyot an'analari ma'lum omillarning ta'siri oqibatida ochib berilishi kerak. Shu holdagini, faraz mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan xatolar va talaba taraqqiyoti davrida ko'zga tashlanadigan kamchiliklarni bartaraf qilish imkoniga ega bo'lamiz. Bu esa, psixologik-pedagogik diagnostika metodlarining prognostik bo'lishi tamoyilini taqozo etadi.

### **4.3. Psixologik testlardan foydalaniladigan kishilar uchun qo'yiladigan maxsus talablar**

**P**simodiagnost o'z xatti-harakatini amalga oshirayotgan bir vaqtda, quyidagi bosqichlarga amal qilishi lozim bo'ladi.

-  Birinchidan, *diagnostik faoliyat obyekti, maqsadi va vazifalarini aniqlash*;
-  Ikkinchidan, *diagnostika obyektini o'rganishning mezonlari va ko'rsatkichlari (indikatorlari)ni belgilash*;
-  Uchinchidan, *diagnostik faoliyat vazifasini bajarish uchun zarur bo'lgan metodikalarni tanlash*;
-  To'rtinchidan, *tanlangan metodikalar yordamida ma'lumotlar yig'ish (tadqiqot o'tkazish)*;
-  Beshinchidan, *olingan natijalarni sifat va miqdor jihatdan qayta ishlash*;
-  Oltinchidan, *psixologik tashxis ishlab chiqish va xulosalarini chiqarish*;
-  Yettinchidan, *psixologik bashorat ishlab chiqish (kutiladigan natijalarni oldindan taxmin qilish)*;
-  Sakkizinchidan, *tuzatish psixokorreksiya, yordam berish yo'llari, usullari va rejasini yaratish*.

#### **4.4. Metodikalarni qo'llashdagi psixologik ma'lumotlar bazasining mavjudligi**

**P**sixokorreksiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassis, o'z mijozlariga biror maslahat berishidan oldin, uning muammolarini to'g'ri baholay olishi va tashxis qilishi kerak bo'ladi. Bu jarayon mijoz bilan bo'ladigan individual suhbatlar va kuzatishlarning natijasiga asoslanadi. Agar psixologik maslahat qator uchrashuv va suhbatlar orqali davom etib, psixolog nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mijozning muammolarini hal qilishga yordam bersa, hamda bir vaqtida ishning sifatiy natijasini nazorat qilib borsa psixologik diagnostikaning "bosqlanish" va "tugallanish" davrini taqqoslash imkoniyati yuzaga keladi.

Maslahat jarayonidan tashqari psixodiagnostikaning yanada muhimrok ahamiyati amaliy psixokorreksion ishlarda ko'rindi. Gap shundaki, qo'llanilgan psixokorreksion usullarning samaraliligiga, mazkur holatda nafaqat psixolog, balki mizojning o'zi ham ishonch hosil qilishi kerak. Ayniqsa, mizoj uchun psixolog bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida, uning xulq-atvori va psixologiyasidagi o'zgarishlarni haqiqattan ham ijobjiy tomonga siljiganligi haqida ko'rsatkichlar zarur hisoblanadi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu bilan mijoz o'z vaqtini bekor sarflamaganligiga ishontirish, balki ta'sir jarayonining psixokorreksion samarasini kuchaytirish uchun ham muhimdir. Chunki muvaffaqiyatga bo'lgan ishonch – har qanday terapevtik muolajalar samaradorligining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, psixodiagnostikaning barcha usullarini amalga oshirilishi va yakunlanishi ham aynan shu bilan ifodalanishi kerak.

Psixodiagnostarning ish jarayoniga va qo'llaniladigan usullariga bir qator jiddiy talablar qo'yildi. Ular haqida keyingi mavzularda batafsil yoritiladi. Hozir esa biz ilmiy va amaliy bilimlarni egallashdagi zaruriyatlar xususida to'xtalamiz.

Psixodiagnostning ilmiy bilimlari tarkibiga psixologik metodlarning asoslanadigan nazariyalari kiradi. Masalan, bunday metodlar sifatida shaxsiy-proyektiv testlarni olsak, ulardan professional darajada foydalanish uchun psixolog shaxsning psixoanalitik nazariyalari bilan yaxshi tanishgan bo'lishi lozim. Agar metodika shaxsning individual-tipologik xususiyatlarini o'lchaydigan test bo'lsa, mutaxassis undan professional foydalanish uchun umumpsixologik nazariyatlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Metodikalarning nazariyasiz amalga oshirilishi esa, psixodiagnostik adaprofessional faoliyat olib borish samaradorligiga ta'sir etib, jiddiy diagnostik xatolar keltirib chiqarish olib kelishi mumkin.

**Minnesotning** ko'pfaktorli shaxsiy so'rovnomasasi (qisqacha – MMPI) turli xil psixologik o'zgarishlari bo'lgan kishilarga muljallab yaratilgan, validlashtirilgan va normallashtirilgan edi. Amaliyotda esa, u shaxsning klinik tashxisi uchun muvaffaqiyatli foydalanilayotgan edi. Ammo ushbu test mohiyatida bu kabi nozik tomonlar unchalik ko'zga tashlanmaydi. Chunki professional jihatdan tayyor bo'lmanan kishi mazkur testni umumpsixologik shaxsiy test sifatida qabul qilishi mumkin. Lekin, undan insondagi mayjud sifatlarning shakllanish darajasini aniqlash, jumladan, mashqlar uchun zarur bo'lgan faoliyatning turli ko'rinishlarini o'rganishga foydalanish imkoniyatlari ko'rindi. Shuningdek, bu testlar shaxsdagi

biror professional layoqatlilikni, aniqrog'i boshqaruvchilik xususiyatini aniqlash uchun foydalanish mumkin. Amerikada boshqaruvchi bo'lib ishlayotgan kishilar guruhi **MMPI** testi yordamida tadqiq qilinadilar olingan ko'rsatkichlar belgilangan tizimga solinadi va ular yo'riqnomada ko'rsatilgan tartib atrofida yoki tashqarida bo'lishiga qarab sinaluvchilarni professional layoqatliliqi haqida xulosa chiqariladi. O'tkaziladigan tadqiqot professional darajada tayyorgarligi bo'limgan kishi hamda malakali mutaxassis uchun ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, bundagi tartib va normalar sinaluvchining biror faoliyatga layoqatligini emas, balki sog'liq holatini aks ettiradi. Natijada, psixik jihatdan sog'lom har qanday kishida professional boshqaruvchanlik layoqati mavjud ekanligi tan olinadi.

Muhimi, professional psixodiagnost, kishilarni o'ziga qarata olishi va ularda ishonch hissini uyg'ota bilishi talabga riosa qilishi kerak lozim. Chunki, nazariy bilimlarsiz ushbu talablarning yo'lga qo'yilmasligi ko'zlangan maqsadga erishishni usullarini murakkablashtiradi. Shu bois, ko'plab psixodiagnostik testlar blankali metodlardan iborat bo'lib, ular inson ongiga ta'sir etishga qaratilgan qator savollardan tashkil topgan. Agar sinaluvchi ruhan tayyor bo'lmasa va psixologga nisbatan ishonch hissini shakillantirmasa, ushbu savollarga sitqidildan javob bermaydi. Bundan tashqari u o'z shaxsiga nisbatan mulozamatni his etmasa umuman javob bermasligi ham mumkin. Natijada sifatli tadqiqot o'tkazish imkoniyati cheklanadi.

Metodikalarni qo'llashdagi eng muhim talab – mutaxassisning o'zi barcha psixodiagnostik usullar va ularni o'tkazish texnologiyasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

#### **4.5. Amaliy tavsiyalarning sifatlilik darajasi**

**A**maliy tavsiyalarning sifatlilik darajasi quyidagi bosqichlarning uzviyligiga:

- + tekshiruv obyektining tanlash;
- + tekshiruv metodini aniqlash;
- + metodni tahlil qilish;
- + ma'lumotlar interpretasiysi;
- + metodning sifatlilik kriteriyalarini aniqlashlarga bog'liq bo'ladi.

#### **4.6. Psixodiagnostikaning axloqiy-ma'naviy normalari**

**P**simologik tashxis kodeksidagi axloqiy-ma'naviy normalarning asosiy tamoyillari qatorida quyidagi omillarning bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- + psixodiagnostning sinaluvchiga nisbatan muvaffaqiyati;
- + obyektivlik, haqqoniylilik va o'z faoliyatidagi yuqori talablarga riosa qilishga asoslangan ma'suliyatlilik;
- + jamiyatning talablariga mos keluvchi axloqiy va huquqiy standartlar;
- + psixodiagnostning omma oldida o'zini tuta bilishi;
- + sinaluvchi haqidagi ma'lumotlarni sir saqlash, kofidensiallik;

- + *sinaluvchi bilan bo'lgan ishonchli munosabatlar, uni tadqiqot xarakteridan xabardor qilish;*
- + *tadqiqot natijalarini oshkor qilmaslik;*
- + *tadqiqotdagi ehtiyyot choralar;*
- + *metodikalarni nashr qilinish shartlari, imkoniyatlari va bu boradagi cheklanishlar;*
- + *diagnostik natijalarini tahlil qilish.*

## **4.7. Rezyume**

Psixologik diagnostika hamda psixodiagnost uchun qo'yiladigan ijtimoiy-axloqiy talablar psixodiagnostikaning negizi hisoblanadi va bu o'z navbatida g'arb psixologiyasidagi asosiy axloqiy muammolar: diagnostik metodlarni qo'llaydigan mutaxassislar malakasining darajasi; diagnostik metodlarni qo'llash jarayonlari; tadqiqot natijalarini sir saqlashning ta'minlanganligi; konfidensiallik; tadqiqot natijalarini e'lon qilish; psixolog(tashxischi)ning axloqiy kodeksidagi ijtimoiy-psixologik asoslarini shakllantirilishiga sabab bo'ldi. Psixologik-pedagogik diagnostikaning rivojlanishi tufayli: diagnostika nazariyasi va uning metodikalarini ilmiy asoslanganligi; diagnostikaning izchilligi va aniq yo'nalganligi; diagnostikaning shakl va metodlarining optimalligi; o'rganilayotgan obyekt haqida faktlarni yig'ish, bayon qilish va to'g'ri yo'lga solishning birligi; diagnostikaning ketma-ketligi va uzluksizligi; diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi hamda ommabopligi; diagnostikaning kompleksliliği; diagnostikaning talaba rivojlanishi kelajagini, oqibatlarini oldindan ko'ra olish (bashorat qilish) imkonini bera olishi kabi asosiy tamoyillarining paydo bo'lishi bilan kafolatlandi. Natijada psixologik testlardan foydalaniladigan kishilar uchun qo'yiladigan maxsus talablar ishlab chiqildi va u metodikalarini qo'llashdagi psixologik ma'lumotlar bazasining mavjudligi bilan izohlandi. Bu esa amaliy tavsiyalarning sifatlilik darajasiga bo'lgan ehtiyoj ortganligini keltirib chiqardi.

## **4.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Psixologik diagnostika; psixodiagnost; ijtimoiy-axloqiy talablar; diagnostik metodlar; mutaxassis malakasi darajasi; konfidensiallik; psixolog (tashxischi)ning axloqiy kodeksi; psixologik-pedagogik diagnostika; psixologik testlar; psixologik ma'lumotlar bazasi; ko'pfaktorli shaxsiy so'rovnama; amaliy tavsiyalar; axloqiy-ma'naviy normalar.

## **4.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Psixologik diagnostika hamda psixodiagnost uchun qo'yiladigan qanday ijtimoiy-axloqiy talablar mavjud?
2. Qanday pedagogik-psixologik diagnostika tamoyillarini bilasiz?
3. Psixologik testlardan foydalanuvchilar uchun nechta turda talab qo'yilgan?

4. Psixologik ma'lumotlar bazasining mavjudligi nima bilan izohlanadi?
5. Amaliy tavsiyalarning sifatlilik darajasi qanday?
6. Psixologik tashxisning qanday axloqiy-ma'naviy normalari bor?

## **4.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Borozdina G.V. Psixologiya delovogo obshyeniya. Uchebnoye posobiye. – M., INFRA-M, 1999.*

*Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb., 2002.*

*Vvedeniye v psixodiagnostiku: Ucheb. posobiye dlya stud. V 24 sred. ped. ucheb. zavedeniy / M.K. Akimova, Ye.M. Borisova, Ye.I. Gorbacheva i dr.; Pod red. K.M. Gurevicha, Ye.M. Borisovoy. – 3-ye izd., stereotip. – M., 1999.*

*Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.*

*Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolníx zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya". – T., TGEU. 2005.*

*Metodi prakticheskoy psixologii obshyeniya. – L., 1990.*

*Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya: Poznaniye sebya. Vliyanije na lyudey: Posobiye dlya uchashixsya. – M., 1998.*

*Nemov R.S. Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – M., 2003.*

*Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye / Pod red. K.M.Gurevicha, Ye.M.Borisovoy. 2-ye izd., ispr. – M., 2000.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.*

*Hayitov O.E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. "Pedagogik psixologiya" kursi bo'yicha vaziyatli va ishchi o'yinlar to'plami. – T., TDIU. 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. "Psixologiya" fani bo'yicha shaxsni o'rganishga doir testlar va metodikalar to'plami. – T., TDIU. 2005.*

### **Internet ssilka:**

<http://www.msu.ru/study/d...>

<http://psychol.ras.ru/ipp...>

<http://www.psycsent.bratsk...>

<http://www.psychology.ru/...>

## **PSIXODIAGNOSTIKA METODLARINING UMUMIY TA'RIFI**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Psixodiagnostika metodlari haqida umumiyl tushuncha.** Kuzatuv va eksperiment metodlarining imkoniyatlari. Ijtimoiy-psixologik diagnostika va so'rov usullari. Ijtimoiy-psixologik hodisalarini o'rganishda ishlataladigan testlar. Ijtimoiy-psixologik hodisalarini o'rganuvchi noan'anaviy metodlar.

**Amaliy psixologiyaning ayrim metodologik va uslubiy masalalari.** Ijtimoiy-psixologik diagnostika amaliy psixologiyaning asosi ekanligini tushuntiruvchi omillar.

**Psixodiagnostik metodlar va diagnostik yondoshish.** Tadqiqot uslubining eksperimental va noeksperimental (tavsiflash) turlari. Psixologiyani anglash vositalarining iyerarxik zinasi.

**Psixodiagnostik metod turlari.** Psixologiya va psixodiagnostikaning asosiy metodlari.

**Psixodiagnostik metod yo'nalishlari.** "Obyektiv", "subyektiv" va "proyektiv" psixodiagnostik yo'nalishlar.

**Psixodiagnostik metodlarning umumiyl chizmasi.** Kuzatishga asoslangan psixodiagnostik metodlar. So'rovnomalii psixodiagnostik metodlar. Obyektiv psixodiagnostik metodlar. Psixodiagnostikaning tajribaviy (eksperimental) metodlari.

---

## 5.1. Psixodiagnostika metodlari haqida umumiy tushuncha

**D**iagnostika bilan shug'ullanayotgan mutaxassis o'rganilayotgan obyektning qator shaxsiy xususiyatlarini qayd qilishga muvaffaq bo'ladi.

### Kuzatuv va eksperiment metodlarining imkoniyatlari

Ijtimoiy-psixologik amaliyotda guruh ichida kuzatish va guruhdan tashqari kuzatish turlari farqlanadi. Birinchisida tekshiruvchi odam, guruh ichiga a'zolar qatorida kirib olib, kechayotgan jarayonlarni tizimiylashgan tarzda o'rganib boradi. Tashqi kuzatuvning o'zi yashirin yoki ochiq bo'lishi mumkin. Chunki, ba'zan biror tashkilot a'zosi yoki yaxlit guruh faoliyati zimdan kuzatib boriladi. Sinaluvchi bu haqda bilmaydi yoki oynali moslama orqasidan turib, kuzatiladi. Ba'zi hollarda videokameraga yozib olinib o'rganiladi. Shuningdek, bu masalaning huquqiy va etik jihatlari ham bor. Chunki kuzatilayotganlar jinoyatchi hisoblanishmaydi, ular uchun prokuror sanksiyasi ham kerak emas. Lekin ma'lumotlar tabiiy sharoitda, maksimal tarzda obyektiv bo'lishi uchun yuqoridaqidek jarayon tashkil etiladi. Shuning uchun, odob nuqtai nazaridan korxona rahbari kuzatish bo'layotganligi haqida jamoa a'zolarini xabardor qilib qo'yadi.

Tashqaridan ochiq kuzatishning ham afzallik va kamchilik tomonlari mavjud. Chunki, bunda tashqaridan taklif qilingan mutaxassis yoki ekspert korxona ish faoliyatini to'la o'rganayotganligi haqida oshkora aytishga majbur bo'ladi. Bu holat xodimlarni vaziyatga nisbatan biroz sun'iy tutishga majbur qiladi. Ya'ni, ilgari ishga kechikadiganlar endi o'z vaqtida keladigan bo'lib qoladilar. Afzalligi – kuzatishning tabiiy, mehnat faoliyati sharoitida tashkil etilganlididir.

Umuman kuzatish metodining kamchiligi sifatida, tizimiylashgan tarzda, qisqa davr ichida, rasmiy ma'lumotlarni olib bo'lmasligini e'tirof etish mumkin. Bu o'rinda *formallashtirish* ayrim hodisalar va sifatlarga qaratilgan bo'lishi mumkin. Masalan, sosiometrik kuzatuvda guruh a'zolarini bir-birlariga murojaatlari va muomalalari soni hamda ularning qaytarilishi inobatga olinadi. Jumladan, butun kuzatuv jarayonida guruh doirasida A shaxsga qarata eng ko'p marta murojaat qilingan bo'lsa, bu qiymatni boshqalarga nisbatidan A ning jamoadagi statusini belgilash mumkin bo'ladi.

Mohiyatan kuzatish metodi ijtimoiy psixologiyadagi eksperiment metodiga ancha yaqin. Amalda psixologlar eksperimentning natural, xayoliy (fikriy), dala hamda laboratoriya shaklidagi turlarini farqlaydilar.

*Natural* yoki *tabiiy* eksperiment biror obyektni o'rganish maqsadida aniq mo'ljal bilan konkret narsaga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.

*Xayoliy* yoki *fikran* o'tkaziladigan eksperiment esa, real obyektni emas, balki unga aloqador ma'lumot va uning modeli bilan ishlashni taqozo etadi. Lekin bu xayoliy yoki modelli obyekt realiga imkon qadar yaqinlashtirilgan bo'lishi kerak.

*Dala* eksperimenti tabiiydan farqli ravishda, o'rganilayotgan obyektni bevosita faoliyati jarayonida, ya'ni tabiiy sharoitda diagnostika qilishni nazarda tutadi.

*Laboratoriya* eksperimenti – maxsus laboratoriya sharoitlarda, asbob-uskuna

(integratorlar, gomeostatlar, “Arka”, “Estakada”, “Labirint”, “Guruhiy ritmograf”, “Guruhiy volyuntograf”, “Sensorli integrator” va boshqa)larni ishlatish vositasida amalga oshiriladi. Ularning barchasi guruh sharoitida hamkorlik, o’zaro ta’sir, harakatlarni muvofiqlashtirish, moslashtirish qoidalarini eksperimental sharoitlarda ishlab chiqishni taqazo etadi. Lekin har qanday eksperiment ma’lum ma’noda tekshiriluvchilar faoliyatiga begonalarning aralashuvini nazarda tutgani uchun ham, odatda, ularga nisbatan ehtiyyotkorlik va ishonchsizlik borligini unutmaslik kerak. Bunda eksperiment o’tkazuvchi o’ta professional va bilimdon bo’lgandagina ishonchli hamda asosli ma’lumotlarni qo’lga kiritish mumkin.

### Ijtimoiy-psixologik diagnostika va so’rov usullari

So’rov metodlari ijtimoiy psixologiyada juda keng tarqagan usullardan. Bu – bevosita yoki bavosita yo’l bilan og’zaki yoki yozma tarzda ma’lumotlar olish usulidir. Uning natijasida odamlarning u yoki bu ijtimoiy hodisa, qonuniyat yoki shaxs to’g’risidagi fikrlari, baholari, ustakovkalari, ongga o’rnashib qolgan fikrlari – stereotiplari aniqlanadi. So’rovning ikkita asosiy turi mavjud:

- *intervyu*
- *anketa*.

Biz, odatda, jurnalistlar tomonidan so’roqqa tutilgan odamlar savol-javoblarini ko’rishga o’rganib qolganmiz. Bu oddiy *intervyu* bo’lib, ijtimoiy hayotning u yoki bu hodisasinga nisbatan ijtimoiy fikr o’rganilgandagina ishlatiladi. Lekin psixologik intervyu biroz murakkabroq jarayon. Chunki bunda bevosita muloqot jarayonida insonlarning yuraklaridagi yashirin fikrlari, hodisalarga subyektiv munosabatlari, o’tmish xotiralar va ularning talqini orqali juda muhim hayotiy faktlar aniqlanadi. Jurnalistdan farqli, psixolog intervyu jarayonini erkinroq olib borishga, maksimal tarzda shaxsiy fikrni ajratib olishga intiladi. Shu bois, oldindan aynan qanday javoblar olishini bilmaydi. Psixolog ana shunday intervysi guruh sharoitida ham o’tkazishi mumkin. Bunda muloqot munozara – *diskussiya* shaklida o’tkazilib, diagnost fikrlarni umumlashtirib, oxirida o’ziga zarur ma’lumotni to’plab oladi. Lekin bu jarayon oson emas. Misol uchun O’zbekiston TVdagi “Bahs”, “Men nechun sevaman O’zbekistonni”, “Azizim”, “Oddiy haqiqatlar” kabi ko’rsatuvalar guruh sharoitidagi so’rovga misol bo’la oladi.

Bundan tashqari, ommaviy intervyu tushunchasi ham bor. Bu ijtimoiy fikrni, kayfiyat, tanglik kabi hodisalarni o’rganishda ishlatiladi (E. Noel “Massoviye oprosi”). Bunda omma fikrini o’rganish uchun ma’lum “chizma” bo’yicha oldindan javob variantlari nazarda tutilib anonim so’rov o’tkaziladi. Ommaviy intervyu maksimal tarzda formallashtirilgan va standartlashtirilgan jarayondir. Bunday intervysi telefon orqali ham amalga oshirish mumkin.

Yozma so’rov usuli ma’lumki, *anketa* deyiladi. Bu usul ham ko’pchilik fikrini qisqa muddatlarda aniqlash zarurati tug’ilganda ishlatiladi. Anketani tarqatishning pochta orqali, pressa orqali va bevosita turlari mavjud bo’lib, bizda oxirgi yillarda asosan bevosita tekshiruvchi bilan respondent uchrashuvini nazarda tutuvchi anketa so’rovi qo’llaniladi. Anketaga kiritilgan savollar ochiq yoki yopiq turli bo’lishi

mumkin. Ochiq anketadagi savolga javob variantlari berilmaydi, respondent nimani yozishni xohlasa, shuni yozadi. Masalan, “Sizningcha, korxonangizning 5 yildan keyingi istiqbolini qanday tasavvur qilasiz?”, “Siz uchun baxt nima?” kabilar ochiq savollarga kiradi. Bu subyektiv fikrlarni o’rganish uchun yaxshi, lekin har doim ham odamlar o’z fikrlarini aniq va muxtasar bayon eatvermaydi. Qolaversa, ochiq savollarga berilgan javoblarni talhil qilish ham ma’lum professional tayyorgarlikni talab etadi. Shuning uchun oxirgi yillarda ijtimoiy hayotni o’rganishda anketaning yopiq savollardan iborat turi ko’proq ishlatalmoqda.

*Yopiq anketa* savollariga berilishi mumkin bo’lgan javoblar oldindan ko’rsatiladi. Masalan: “Korxonangiz istiqboli nimalarga ko’proq bog’liq?

- a) mehnat unumdorligining oshishiga;
- b) malakali kadrlar soniga;
- v) rahbarlik usulubining takomillashuviga;
- g) tashqi investisiyalarning dadil jalb etilishiga;
- d) ish sharoitlarining yaxshilanishiga;
- ye) yangi texnologiyalar va asbob-uskunalarga;
- j) yana (yozing) \_\_\_\_\_”

Anketalarga qo’yladigan asosiy talablardan biri – unga kiritilgan savollarning hamma uchun tushunarli bo’lishidir. Shuningdek, savollarning va ularga berilgan javoblarning maksimal tarzda qisqa bo’lishi va anketaning hajm jihatdan juda katta bo’lmasligi respondent vaqtini ko’p olmasligini kafolatlaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy-psixologik fenomenlar o’rganilayotganda, har bir savol o’z o’rnida kiritilishi, u mazmunan kishida shubha uygotmasligi, samimiyligiga chorlashi lozimdir. Ba’zan anketalardagi savollar saviyasini pastligi tekshiruvchining yengiltakligini baholab, jiddiy javob ololmaslik holatlarini ham keltirib chiqaradi. Masalan, ba’zan umuman odobsiz savollar beriladi: “Musiqani yoqtirasizmi?”, “Ota-onangizni sevasizmi?” kabi. Yoki ba’zida uzundan-uzun savollarning berilishi respondent o’zidan nimani xohlashayotganliklarini his qilish darajasini pasayishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham psixologik tekshiruvlarda o’rinli, ma’noli, jo’iali savollar tuzish, ularning birin-ketinligi va tartibi masalasiga katta ahamiyat berishlishi zarur.

*Sosiometrik so’rov* ham anketaning bir turi hisoblanadi. U aynan guruhdagagi shaxslararo munosabatlarnigina aniqlagani bois, uni ba’zan mualliflar psixologik testlar qatoriga ham kiritishadi. Nima bo’lganda ham bu usul yordamida guruhiy hodisalar, unda har bir a’zoning tutgan o’rni, liderlikning taqsimoti va jamoadagi ma’naviy muhit o’rganiladi. Hozirda sosiometrik so’rovning yuzlab modifikasiyalari mavjud bo’lib, dastlabki ma’lumotlar olishning samarali vositasi sifatida undan ko’plab tadqiqotchilar foydalanadilar.

#### **Ijtimoiy-psixologik hodisalarni o’rganishda ishlataladigan testlar**

Test tushunchasi hayotimizga eng ko’p uchraydigan atamalardan biri hisoblanadi. Bu – shaxsga, guruh yoki ijtimoiy qatlamga taalluqli bo’lgan ayrim xususiyatlar va holatlarni qisqa fursatda tekshirib olish usulidir. Bugunga kelib, testlarning juda ko’plab turlari mavjud. Ular haqida uslubiy adabiyotlarda yetarli darajada

ma'lumotlar bor.

Amaliyotda, asosan, *verbal* yoki *noverbal* testlar ishlataladi. Birinchisida tekshiriluvchi hukmiga savollar majmui havola etish, ularga qay tarzda javob berish kerakligi to'g'risida ham ma'lumot beriladi. Bir qarashda bu, standartlashtirilgan anketani eslatadi.

Noverbal testlarda esa, tekshiruv materiali sifatida rasm, konkret jism va texnik apparaturadan foydalaniladi. Shuningdek, qo'llarni yoki barmoqlarni bir-biriga bog'lash topshirig'i orqali xarakterni o'rganish ham noverbal testga misol bo'ladi. Bu usul, asosan, bolalar bilan ishlaganda; til muammosi paydo bo'lib, boshqa davlat vakillari o'zga yurtlarda qiyosiy tekshiruvlar o'tkazishganda; proyektiv metodikalar qo'llanganda ishlatiladi. Noverbal testlarning ham, verbal testlarning ham o'ziga xos afzalliliklari va cheklanganlik darajasi mavjud. Nima bo'lganda ham, testning qay darajada bizni qiziqtirayotgan sifatni aniqlay olishiga e'tiborni qaratish kerak. Chunki hozirda shunday yuzaki tuzilgan, vaqtini maroqliroq o'tkazishga qaratilgan testlar mavjud bo'lib, ularning rus yoki ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan shakllari ishonchksiz va ilmiy asoslanmagan hisoblanadi. Masalan, gazetalar sahifalarida beriladigan (ko'pincha payshanba sahifalarida) "Siz rashkchimisiz?", "Siz baxtlimisiz", "Sodiq do'st bo'la olasizmi" kabi testlar ilmiylik va ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan aloqasi yo'q hisoblanib, bo'sh vaqtini o'tkazish uchun o'yab topilgan vositalardir.

Shuning uchun korxona yoki tashkilot rahbari amaliyotchi psixolog (ekspert) jamoadagi biror ijtimoiy hodisani o'rganmoqchi bo'lib, bunda testlardan foydalanmoqchiligidini aytса, o'sha testning texnik tasnifini, ma'lumotlarning ishonchliligi darajasini qanday qilib isbot qilishini, mahalliy sharoitga qachon va qanday qilib moslashtirilganini albatta so'rashi lozim. Shundan keyingina tajriba o'tkazishga ruxsat berish maqsadga muvofiq sanaladi.

### **Ijtimoiy-psixologik hodisalarini o'rganuvchi noan'anaviy metodlar**

Biz quyida bayon qiladigan usullar fanda umuman yo'q bo'lgan yoki boshqa fanlardan olinganlar sirasiga kirmaydi. Ular ayrim sabablarga ko'ra ilgari ilmiy metod sifatida qaralmagan, ammo hozirda zamonaviy, deb e'tirof etilayotgan metodlardir. Masalan, rus olimi G.V.Shekkinning *vizual psixodiagnostikasi* ana shundaylar sirasiga kiradi. Bu usulning mohiyati va uning asosini tashkil etuvchi omil – ijtimoiy obyektda bevosita ko'zga tashlanadigan simptomlar va belgilar hisoblanadi. **Sимптоматика** – muallifning fikricha, vizual ijtimoiy-psixologik diagnostikaning asosiy elementidir. Lekin ijtimoiy-psixologik hodisalar tabiatan murakkab jarayonlar bo'lgani uchun ham, bu usul barcha jabhalarni qamrab olishi mumkin, deb bo'lmaydi. Masalan, muloqot jarayonini oladigan bo'lsak, biz har doim suhbatdoshning gaplarinigina e'tiborga olgan holda xulosa chiqaramiz. Lekin bu jarayonda noverbal vositalar ham mavjud bo'lib, ular muloqatni to'ldiradi, boyitadi va kuchaytiradi. Bu holat bizning qiliqlarimiz, mimika, pantomimikamiz, yuz qiyofamiz, lablarimiz, peshonamiz, qomatimizning holati va hokazolar orqali tavsiflanadi. Ana shu belgilar vizual psixodiagnostika predmetini amaliy ahamiyatini

ko'rsatadi. Quyida biz ayrim qiliqlarning vizual ma'nolari sharhini keltiramiz.

- **Ochiqlik.** *Qo'l kaftining ochiq tarzda yuqoriga qaratilganligi; kostyum tugmalarining yechib qo'yilishi (yoqtirgan odamlari davrasida odam ko'pincha kostyumini yechib ham o'tirishni afzal ko'radi).*
- **Himoya.** *Biror tahdidiga qarshi odamdagи himoyani ifodalovchi belgilarga ikki qo'lни ko'krak qafasida chalishdirib turishni kiritish mumkin.*
- **Baholash.** *O'ychanlik va xayolparastlikni ifodalovchi qiliqlar shundayki, bunda odamning qo'llari beixtiyor uning chakkasida bo'ladi. Yoki yarim musht holdagi qo'llariga chakkasini tiragan holda xayol suradi.*
- **Shubhalilik va pismiqqliqlik.** *Bunda qo'l og'izni go'yoki yopadi, nigoh atrofga qaratilgan, bo'yinga, burunga yengilgina tegish – shubha alomatini ifodalaydi.*
- **Ustunlik-tobelik.** *Qo'l berib so'rashayotgandayoq ustunlik alomatlari namoyon bo'lishi mumkin. Sherigining qo'lini qattiq qisgan holda, o'z kaftini yuqoriga qaratgan tarzda burishi, bunga misoldir.*
- **Tayyorlik.** *Qo'llarning tizzada bo'lishi – biror ishga hozirlik belgisidir.*

Shunga o'xshash har bir ko'zga tashalanadigan qiliqlarimiz bizga sherigimiz haqida ma'lumot beradi ("Yazik tela". A.Shtangl)

## 5.2. Amaliy psixologiyaning ayrim metodologik masalalari

Jitimoiy-psixologik diagnostika amaliy psixologiyaning asosi hisoblanadi. Uning natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar psixologik maslahatlar berish yoki yangi texnologiyalar vositasida o'rganilayotgan obyektlarga ta'sir ko'rsatishga ko'maklashadi. Shu bois, qiziqtirayotgan obyektning muhim xususiyatlarini o'rganish maqsadida, eng avvalo, izlanish dasturini tuzib olish zarurdir. Ba'zan tadqiqot dasturi faqat fundamental tadqiqotlar o'tkazishda kerak bo'ladi, tadbiqiy xarakterdagi izlanishlarda bunga hojat bormikan, degan mushohada mavjud. To'g'ri, fundamental ilmiy izlanishlarda izchil va mukammal tuzilgan dasturlarning bo'lishi talab qiladi. Lekin ishlab chiqarishning biror sohasini takomillashtirish yoki rahbarlikning samarali yo'llarini izlashga bag'ishlangan ishlarda ham, albatta, undan ko'zlanayotgan maqsad, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan vazifalar, qaysi uchastkalarda va kimlarda tekshiruvlar o'tkazish, ilmiy farazlar, natijalarni qay usulda qayta ishlashga aloqador masalalar oldindan rejalashtirilishi hamda dasturga kiritilishi kerak bo'ladi.

Qolaversa, tasavvur qiling, Siz korxona yoxud tashkilot rahbarisiz. Shu mehnat jamoasida ishlarni yaxshi va to'g'ri yo'lga qo'yish uchun inson omilining barcha imkoniyatlari va zahiralaridan foydalanishni niyat qilib, amaliyotchi psixologni yoki maxsus psixologik xizmat xodimini ishga jalb qildingiz. O'sha ijtimoiy xodim yoki psixolog bunday hamkorlikka rozi bo'ldi ham deylik. Lekin uning malakasini birlamchi tekshirish va ishonch bildirish uchun, tadqiqot dasturini so'rashingiz va unda amalga oshiriladigan vazifalarning nechog'li darajada Sizning niyatlarining bilan mushtarak ekanligini aniqlashingiz kerak bo'ladi. Agar dasturda keltirilgan bandlardagi takliflar Sizning kutishlaringizga mos kelmasa, ishning boshidayoq loyihaning moliyaviy ta'minotini to'xtatishingiz, boshqa bajaruvchilarga murojaat qilishingiz yoki dasturni qaytadan ishlab kelishni taklif etishingiz mumkin. Shuning

uchun ham tadbiqiy ishlarning dasturiy ta'minoti masalasi dolzabr bo'lib, u tashkilotning mablag'i va vaqtini tejash omillari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadbiqiy psixodiagnostik ishlarga buyurtmachi bo'lish yoki uni tashkil etish bilan bog'liq muhim omil – bu o'sha tanlangan guruhlar yoki konkret shaxslarda tekshiruvlar, so'rovlardan o'tkazish uchun qo'llanilayotgan uslublarning qanday ekanligidir. Masalan, agar siz rahbar bo'lsangiz, amaliyatchi psixologdan so'rang, qanday metodikalar yoki psixodiagnostik testlar yordamida natijalarni qo'lga kiritmoqchi. Deylik, u qo'l ostingizda mehnat qilayotgan odamlarning ishga motivasiyasini va shaxsiy fazilatlarini o'rganib bermoqchi. Shaxsni MMPI testi yoki Kettelning ko'p omilli testi bilan o'rganmoqchi bo'lsa, bu usullarning o'ta murakkab, vaqtlab va moslashtirilganligiga e'tibor bering. Chunki xodimlaringiz bundan juda zerikib ketishi, ya'ni har birini to'ldirish uchun ketadigan 2,5-3 soatdan keyin nolishlari mumkin. Qolaversa, uni qayta ishlab bergandan keyin ham, har bir omil yuzasidan alohida-alohida bergen tavsiyalarini Siz tushunishingiz juda qiyin bo'ladi.

Motivasiya borasida ham aniq, qulay uslubni topganiga ishonch hosil qiling. Aks holda vaqtini ham, mablag'ni ham boy berib qo'yish mumkin. Shuning uchun ham tadqiqotchining aniq maqsadini, u tanlangan uslublarning qulayligi va ishonchliligi darajasiga solishtirish uchun tadbiqiy psixologiya asoslarini bilishingiz kerak bo'ladi.

Ijtimoiy muammolarga bog'liq tadbiqiy ishlar amalga oshirilayotganda, odatda, tadbiqiy psixologiyaning kuzatish, hujatlarni o'rganish, so'rov (intervyu, anketa), sosiometriya, testlar va eksperiment metodlari ishlataladi. Ular birinchidan, keng tarqalgan, tajribalarda sinalgan uslublar bo'lsa, ikkinchidan, to'plangan natijalarni sarhisob qilish va buyurtmachiga tushunarli holda tahlil qilish amaliy tavsiyalar berishni osonlashtiradi.

Yana bir muhim metodologik talab – bu tekshirish obyekti bo'lgan shaxslarni tanlash va ularning fikriga tayangan tarzda xulosalar chiqarish. Masalan, Siz xodimlar orasidan rahbarlik zahirasi uchun nomzodlarni aniqlamoqchisiz, deylik. Buning uchun amaliyatchi psixolog sosiometrik texnologiyani qo'llagan holda butun jamoada so'rov o'tkazdi. So'rash uchun u anketa tuzib, unga bir qancha savollar kiritdi. Ulardan biri: "Ish o'rnlari qaytadan taqsimot bo'lib, Sizga kichik xonada 3 kishi bilan birga o'tirish kerak bo'ldi. Har kimga alohida individual topshiriqlar beriladi. Siz hozir o'zingizga juda yoqqan odamlarni ismi, familiyasini yozib bering", – degan savol bo'lsa, shu jamoada ishlayotgan ja'mi 30 kishining fikrida tenglik bo'masligi oqibatida o'z maqsadingizga yetolmay qolishingiz mumkin. Chunki yosh kotiba o'ziga mos sherik izlaydi. Oddiy texnik ishlarni qilib yurgan yigitcha ham shunday. Keksa yoshli xodim o'z qiziqishlariga mos kimsalarni izlaydi. Shu bois, bunday notekis tanlov obyektidan o'zingizni qiziqtirgan, jamoada katta avtoritetga ega bo'lgan shaxsni topolmaysiz. Ya'ni, zahirani tashkil etuvchining kimligini aniqlay olmaysiz. Chunki bu o'rinda Siz ikkita xatoga yo'l qo'ydingiz.

- *So'raluvchilar hukmiga havola etilgan savolning o'zi noo'rin.*
- *Siz bu savolni barchaga birday tarqatdingiz.*

To'g'ri, jamoaning umumiy fikri aniqlanadi, lekin rahbarlikka zahira nuqtai nazaridan Siz yetarli va ishonchli ma'lumot ololmadingiz. Demak, bu narsa rahbarlikka da'vogarlar, ularning yaqin atrofidagilar o'rtasida, qolaversa, ma'lum

sifatlar nuqtai nazaridan tuzilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **5.3. Psixodiagnostik metodlar va diagnostik yondoshish**

**P**simologik tashxis (diagnoz)ning rivojlanishi maxsus tadqiqot uslubi – diagnostik uslubning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Bu psixologiyadagi mavjud boshqa uslublar tizimida qanday o'rinni egallaydi va uning o'ziga xosligi nimada?

Psixologik adabiyotlarda ko'pincha “*metod*” va “*metodika*” tushunchalarini turli mazmunda uchratamiz. Biz psixologiyaning ma'lum uslubiy tamoyillari o'zining birlamchi ifodasini konkret tadqiqotlar natijalaridan olishini bilamiz.


Tadqiqot uslubining *eksperimental* va *noeksperimental* (tavsiflash) turga bo'linishi barcha adabiyotlarda o'z ifodasini topgan. *Noeksperimental* uslub metodikaning kuzatish, suhbatlar, faoliyat mahsullarini o'rganishni o'z ichiga qamrab oladi. *Tadbiqiy* metod (qo'llanma) yo'naltirilgan shart-sharoit yaratishga asoslangan. Bu shart-sharoitlar o'rganilayotgan omil (o'zgaruvchi)ni ajratib olishni ta'minlab, uning ta'siriga bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni qayd qiladi. Bundan tashqari u tadqiqotchini sinalayotgan shaxsning faoliyatiga aralashish imkoniyatiga yo'l qo'yadi. Natijada, psixologiya uchun ko'p sonli va odatiy laborator va tabiiy eksperiment metodikasi yaratiladi.

Diagnostik testlar ayrim hollardagina eksperimental metod chegarasida qaraladi. Shu bois, biz mutloq xususiyatlari va qator metodikalarni umumlashtiruvchi psixodiagnostik metodni ajratish kerak, deb hisoblaymiz. Psixodiagnostik metodning asosiy xususiyati, uning o'lchash-sinash, baholovchi yo'nalishlari orqali ifodalanadi. Bu yo'nalishlar yordamida o'rganilayotgan hodisaning miqdor va sifat kvalifikasiyasiga erishiladi.

Eng muhim talablardan biri – o'lchagich asbobning standart bo'lishi (uning asosida norma tushunchasi yotadi) hisoblanadi. Har qanday diagnostik metodika (test) ishonchli, mustahkam talablarga javob berishi kerak. Tadqiqot jarayoning o'zi ham bir qator qat'iy talablarni (aniq instruksiyaga rioya qilish, vaqtdan chegaralanish va eksperimentchining aralashuvini cheklash) joriy etadi. Shuningdek, psixodiagnostik metodning tahlili o'ziga xos sabablarni ham ajrata olishi bilan tavsiflanadi. Bu sabablar subyekt faolligi va strategiyasini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Diagnostik metodni tavsiflayotganda, uning o'lchash-sinash yo'nalishining ko'rsatgichi bilan chegaralanib qolish yetarli emas. Aks holda tushuntirish g'olibligi eksperiment metodga beriladi. Haqiqatda esa, diagnostik tadqiqot o'ziga xos tushuntirish elementlari, sabablarni ochish, talablarga mos kelgan tavsiyalarni ishlab chiqish orqali baholashni amalga oshirish zarur.


Yuqorida aytilgan gaplarni iyerarxik zina ko'rinishida jamlashimiz mumkin (5.3.1-rasm).



5.3.1-rasm. Psixologiyani anglash vositalarining iyerarxik zinasi

#### 5.4. Psixodiagnostik metod turlari

**P**Psixodiagnostikada qo'llaniladigan obyektiv metodlar xilma-xil bo'lib, uning ko'proq qo'llaniladigan turlariga kuzatish, so'roq, test, eksperiment va modellashtirish sinaluvchi faoliyati mahsuldarligini o'rganishga oidlari kiradi (5.4.1-rasm).




#### 5.4.1-rasm Psixologiya va psixodiagnostikaning asosiy metodlari

### 5.5. Psixodiagnostik metod yo'naliishlari

Psixodiagnostik metod uchta asosiy diagnostik yo'naliishda aniqlanadi. Bu uch yo'naliish esa ko'pincha ma'lum metodikalardan foydalanadi xolos. Shu bois, bu yo'naliishlar psixodiagnostikada shartli ravishda quyidagi: “*obyektiv*”, “*subyektiv*” va “*proyektiv*” tarzida ifodalanadi.

5.5.1-rasmda ko'rsatilgandek, eng yuqorida psixologik tamoyillarning tadqiqotlari iyerarxik tarzda joylashgan. Pastroqda tadqiqot metodlari:

noeksperimental (tavsiflangan), eksperimental va psixodiagnostik. Undan ham pastroqda har bir metodga mos yondoshishlar joylashgan. Eng pastki qismidan aniq metodika o'rinni olgan. Diagnostik yondoshishda batafsil to'xtalish kerak.



**5.5.1-rasm. Psixodiagnostik metod yo'nalishlari**

Diagnostik mijozning obyektiv yo'nalishi an'anaviy ikki turga bo'linadi. Bu shaxsiy xususiyat va intellekt testlaridan iborat metodikadir. Birinchi yo'nalish shaxsning nointellektual xususiyatlarini o'lchashga yo'naltirilgan, bo'lsa, ikkinchisi uning intellektual rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

S.L. Rubinshteyn o'z davrida insonning psixik xossalarni ikkita asosiy guruh xarakter va qobiliyat tashkil qilish to'g'risida mushohada yuritgan. Birinchi xossa guruhning holatini to'g'rilash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi uni uysushtirish va ijrosini ta'minlab bergen.

Intellektual rivojlanishning diagnostik darajasi, uning ko'p sonli testlaridan iboratdir (umumi qobiliyat testlari). Shaxs xususiyatlarini aniqlovchi metodikani shartli ravishda "ta'sir qilish testlari" ("maqsadli shaxsiy testlar") va "vaziyatli testlar"ga bo'lish mumkin. Maqsadli shaxsiy testlar ko'proq tarqalgan bo'lib, ularga perseptiv testlarni kiritish mumkin (masalan, niqoblangan figuralarni topish testi). Vaziyatli testlar tarkibidan esa, sinaluvchi hayotda sodir bo'ladigan o'xshash holatlar joy oladi. Shuningdek, obyektiv yo'nalishda yana ikkita asosiy test guruhlari o'zaro farqlanadi:

- *Maxsus qobiliyat testlari* (intellektning ayrim tomonlarini rivojlantirish darajasini o'lchash);

 *Muvaffaqiyatga erishish testlari.*

Ular shaxsnинг ilmiy qobiliyati darajasini aniqlab berishga xizmat qiladi.

Subyektiv yo'nalish ko'p sonli savollar to'plamidan iborat. Bu keng tarqalgan diagnostik qo'llanmalar, ya'ni shaxsiy, holat va kayfiyat so'rovnomalardan tashkil topgan. Shuningdek mulohaza va savol-anketalariga ham bo'linadi. Diagnostik usul qo'llaniladigan tizimiylilik "metod-yo'nalish-metodika" tarzida 5.5.1-rasmda o'z ifodasini topgan.

Har bir yo'nalishning ichidan bir biriga o'xshash, yaqin metodikalarni ajratish mumkin. Lekin bu diagnostik yo'nalishlar orasida o'tib bo'lmas chegaralar yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Shu bois, mazkur klassifikasiyaning maqsadi ro'yxatni to'ldirish emas, balki hozirgi paytda eng muhim va dolzarb bo'lgan oddiy hamda qonuniy tizimiylikni topishdan iboratdir.

## 5.6. Psixodiagnostik metodlarning umumiy chizmasi

**P**sixodiagnostikaning barcha metodlari psixologiyani barcha sohalarida, xususan, faoliyatning turli yo'nalishlarida qo'llaniladi. Ilmiy psixologiyada ular tadqiqot metodlarini o'tkazish va tashkillashtirish jarayonida qo'llanilsa, amaliy psixologiyada esa psixologik maslahat, psixokorreksion ishlar, professional tayyorgarlik kabi sohalarida foydalaniladi.

To'g'ri tashkillashtirilgan izlanishlarda, sinaluvchilarining u yoki bu psixologik xususiyatlarining rivojlanish bosqichlari tadqiqot jarayonidan oldin ham keyin ham baholanishi tabiiy holat hisoblanadi. Chunki, bu holat olib borilgan tadqiqot ushbu xususiyatlarning o'zgarishiga qanchalik darajada ta'sir o'tkazganligini aniqlab beradi. Bu jarayon psixologik maslahat va psixokorreksion tuzatishlarga ham daxldordir. Ma'lumki, maslahat olib borayotgan amaliy psixolog o'z mijozining psixologik xususiyatlarini shakllanganlik holatini baholay olishi kerak. Bu – xuddi shifokorning oldiga kelgan bemorga tashxis qo'yish va uning davolash muolajalarini aniqlashga o'xshash jarayondir.

So'ngi yillarda ayrim mutaxassisliklar psixologiyaga,xususan, uning predmeti hisoblangan inson xulq-atvoriga bir qator talablarni qo'ymoqda. Shu bilan birga, kishining professional layoqatini belgilab beruvchi psixologik sifatlarning aniq diagnostikasi ham talab etilmoqda. Mazkur holatlar psixodiagnostik metodlardan foydalanuvchi kishilarning professional tayyorgarlik va tanlash jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Zamonaviy psixodlogiyaning psixodiagnostik metodlarining mingdan ortiq turlari mavjud bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun mutaxassis malakali bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Ba'zan esa umumiy metodlar chizmasini o'zlashtirib olishning o'zi, amaliy faoliyatda yaxshi samara berishi mumkin. Masalan, psixodiagnostik metodlarning umumiy holati ko'rinishda quyidagi taklif qilinadi:

 *Kuzatishga asoslangan psixodiagnostik metodlar.*

 *So'rovnomalı psixodiagnostik metodlar.*

 *Obyektiv psixodiagnostik metodlar (mehnat faoliyati mahsullari va xulq-atvorni tahlil qiluvchi).*

-  *Psixodiagnostikaning tajribaviy (eksperimental) metodlari.*  
Tajribaning psixodiagnostik metod sifatidagi ahamiyati sinaluvchining biror-bir psixologik xususiyatini baholash imkonini mavjudligi bilan izohlanadi.

## 5.7. Rezyume

Psixodiagnostika metodlari haqida umumiyl tushuncha, avvalo, kuzatuv va eksperiment metodlarining imkoniyatlarini yoritilishi bilan izohlanadi. So'ngra ijtimoiy-psixologik diagnostika va so'rov usullari, ijtimoiy-psixologik hodisalarini o'rghanishda ishlataladigan testlar hamda ijtimoiy-psixologik hodisalarini o'rghanuvchi noan'anaviy metodlarning tavsiflash bilan chegaralanadi. Amaliy psixologiyaning ayrim metodologik va uslubiy masalalari esa, yuqoridaqgi metodlar va ularga nisbatan diagnostik yondoshishning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Va u, o'z navbatida psixologiyani anglash vositalarining iyerarxik zinasini asoslaydi. Psixologiya va psixodiagnostikaning aniqlangan metodlari, ularning yo'nalishlari belgilab beradi.

## 5.8. Asosiy tushuncha va atamalar

Psixodiagnostika, tadqiqot, tajriba, shaxs, empirik, kuzatish, obyektiv, subyektiv, proyektiv, metodologik, uslubiy.

## 5.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Psixodiagnostika metodlari haqida qanday umumiyl tushunchaga egasiz?
2. Amaliy psixologiyaning metodologik va uslubiy masalalari degandan nimani tushunasiz?
3. Psixologiyani anglash vositalarining iyerarxik zinasi qanday?
4. Qanday psixodiagnostik metod turlari bor?
5. Psixodiagnostik metod yo'nalishining nechta guruhi mavjud?
6. Psixodiagnostik metodlarning umumiyl chizmasi haqida qanday tasavvurga egasiz?

## 5.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar

*Borozdina G.V. Psixologiya delovogo obshyeniya. Uchebnoye posobiye. – M., INFRA-M, 1999.*

*Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb., 2002.*

*Vvedeniye v psixodiagnostiku: Ucheb. posobiye dlya stud. V 24 sred. ped. ucheb. zavedeniy / M.K. Akimova, Ye.M. Borisova, Ye.I. Gorbacheva i dr.; Pod red. K.M. Gurevicha, Ye.M. Borisovoy. – 3-ye izd., stereotip. – M., 1999.*

*Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.*

*Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.*

Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolnix zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu “Ekonomicheskaya psixologiya”. – T., TGEU. 2005.

Metodi prakticheskoy psixologii obshyeniya. – L., 1990.

*Nemov R.S.* Prakticheskaya psixologiya: Poznaniye sebya. Vliyaniye na lyudey: Posobiye dlya uchashixsya. – M., 1998.

*Nemov R.S.* Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – M., 2003.

Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye / Pod red. *K.M.Gurevicha, Ye.M.Borisovoy*. 2-ye izd., ispr. – M., 2000.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T., 2005.

*Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” kursi bo’yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to’plami. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Pedagogik psixologiya” kursi bo’yicha vaziyatli va ishchi o’yinlar to’plami. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixologiya” fani bo’yicha shaxsni o’rganishga doir testlar va metodikalar to’plami. – T., TDIU. 2005.

### **Internet ssilka:**

<http://magazine.mospsy.ru...>

<http://sobchik.newmail.ru/ApiLns/metod.html>

[http://www.piter.com/display.phtml?c\\_id=104&t\\_id=4...](http://www.piter.com/display.phtml?c_id=104&t_id=4...)

[http://gestalt.ru/books/index.html?c\\_id=12](http://gestalt.ru/books/index.html?c_id=12)

## **VI bob**

---

### **PSIXODIAGNOSTIKA METODLARI VA ULARNING KLASSIFIKASIYASI**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Psixodiagnostik metodlarining tadqiqot metodlaridan farqi.** Psixodiagnostik metod. R.Kettelning 16 faktorli testi. Tadqiqot metodi.

**Psixodiagnostik metodlari klassifikasiyasining mezonlari va asoslari.** Test vazifalarining qo'llanilish tiplari. Test materiallarining adresati. Sinaluvchi kishilarning test materiallarni tasavvur etish shakli. Psixodiagnostik xulosalar uchun foydalanadigan ma'lumotlar xarakteri. Test normalarining mavjudligi mezonlari. Psixodiagnostik metodikalar ichki tuzilmasi.

**Diagnostikaning psixologik-pedagogik jihatdan asosiy yo'nalishlari.** Tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish. Tashkiliy-metodik diagnostika. Didaktik diagnostika. Ijtimoiy-pedagogik diagnostika. Ijtimoiy-psixologik va pedagogik diagnostika. Pedagogik diagnostika.

**Zamonaviy psixodiagnostika metodlariga qo'yiladigan jarayonlashtirish va verifikasiya talablari hamda ularning qo'llanilishi darjasasi.** Psixodiagnostik usullarning tadbiqiy o'rganilishi, yangi ilmiy tushunchalar va ularga xos xususiyatlarning yaratilishi.

**Psixodiagnostika metodlarning sifat va miqdoriy xarakteristikasi hamda individual-tipologik xususiyatlar klassifikasiyasi.** Metodlarning sifat va miqdori xarakteristikasi. Individual-tipologik xususiyatlar klassifikasiyasi.

**Xalq xo'jaligini yuksaltirishda psixodiagnostik metodlarning o'rni.** Ijtimoiy faoliyat sohalarida xodimlar boshqaruvini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik muammolari. Tashkilot imijini yaratish va uning vakolatlari doirasini kuchaytirish. Rahbarning jamoa ichida xodimlarga bo'lgan psixologik ta'siri. E'tiqodga ta'sir etish yo'llari.

---

## 6.1. Psixodiagnostik metodlarining tadqiqot metodlaridan farqi

**M**a'lumki, "Psixodiagnostika" ikki xil mazmunni o'z ichiga qamrab oladi. Birinchisi, ilmiy psixologik bilimlarni soha sifatmda tadqiq etsa, ikkinchisi ularni amaliy qo'llanilishining maxsusus jabhasini yoritib beradi. Psixodiagnostika psixologik bilimlar sohasi sifatida bir qator diagnostik metodlar tamoyillarini, amalgalashirish jarayonlarini va tekshirish usullarining ilmiyligini o'zida ifoda etadi. U amaliy soha sifatida esa, metodlarni amalda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan professional bilim va ko'nikmalarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkala holatda ham insonning psixigik jarayonlari, holatlari va xususiyatlarini baholash usullari xususida fikr yuritiladi. "Nazariy psixodiagnostika" tadqiqot jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslab bersa, "amaliy psixodiagnostika" ularni qanday qilib to'g'ri va ishonchli bajarishni ko'rsatib beradi.

Zamonaviy psixologiyada psixodiagnostikaning juda ko'p turlari qo'llanilsa-da, ularning hammasini ham ilmiy jihatdan asoslangan, deb bo'lmaydi. Bundan tashqari, ularning orasida tadqiqot hamda shaxsiy psixodiagnostik metodlar ham mavjuddir. Qayd etilgan so'ngi metodlardan o'rganilayotgan psixigik xususiyatning sifatiy va miqdoriy xarakteristikisini baholash maqsadida foydalaniladi. Kishining psixik jarayonlari, holatlari va xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan hamda ma'lum maqsadga yo'naltirilmagan tajribaviy ilmiy tadqiqotlar jarayonidan ishonchli natmjalarni olish maqsadida qo'llaniladi. Psixodiagnostik va tadqiqot metodlari o'rtaсидаги о'заро тафовутни quyidagi ikki misol tariqasida ko'rsatish mumkin:

1-misol. Psixodiagnostik metod.

Bu R.Kettelning 16 faktorli testi. U standartlashtirilgan so'rovnoma shaklidagi 187 hukmlardan iborat bo'lib, 16 guruhga ajratilgan. Har bir guruh yordamida kishining alohida shaxsiy xususiyatlari baholanadi. Baholar standart ballar tarzda beriladi. Mazkur testdagi hukmlar, ko'rsatmalar, qo'llash usullari, natijalarni tahlil va xulosa qilish – o'zgarmas bo'lib, har qanday testlashtirish holatida ham bir xilda qo'llaniladi.

2-misol. Tadqiqot metodi.

Aytaylik, kishi xulq-atvorining biror ko'rinishini maxsus sharoitlarda kuzatishga mo'ljallangan tadqiqot loyihasi ishlab chiqilmoqda. Bu sizni qiziqtirayotgan xulq-atvor bilan bog'liq xususiyatlarni yanada yorqinroq namoyon etgan bo'lgan holda, ularni birma-bir o'rganish imkoniyatini bersin. Natijada, tadqiqotchi shu maqsaddagi tajribasi asosida, ya'ni uning ishtiroychilari yordamida xulq-atvorni kuzatish orqali sinaluvchining o'rganilayotgan xususiyatlari haqida xulosa chiqaradi.

## 6.2. Psixodiagnostik metodlari klassifikasiyasining mezonlari va asoslari

**Y**uqorida tasvirlangan psixodiagnostik metodikalar guruhiga asoslanib, ularning yanada kengroq yoritilgan klassifikasiyasini umumiy kriteria (mezon)larini ajratish mumkin. Bu esa quyidagi mezonlarga bo'linadi:

+ test vazifalari qo'llaniladigan metodika tiplari;

- ⊕ metodikada qo'llaniladigan test materiallari adresati;
- ⊕ sinaluvchi kishilar tomonidan test materiallarining tasavvur qilinish shakli;
- ⊕ psixodiagnostik xulosalar uchun qo'llaniladigan ma'lumotlar xarakteri;
- ⊕ metodikalardagi test normalarning mavjudligi;
- ⊕ metodikalarning ichki tuzilmasi.

**Test vazifalarining qo'llanilish tiplariga** qarab psixodiagnostik metodikalar:

- ⊕ *so'rovnomalni* (sinaluvchilarga qaratilgan savollar);
- ⊕ *ta'kidlovchi* (sinaluvchiga berilgan hukm va xulosalardan o'z fikriga mosini tanlash bilan bog'liq bo'lган);
- ⊕ *mahsuldarli* (sinaluvchining ijodiy mahsuldarligini biror-bir ko'rinishi: verbal, obrazli, materialli);
- ⊕ *harakatli* (sinaluvchining bir qancha harakatlarni bajarishi bilan bog'liq topshiriqlar);
- ⊕ *fiziologik* (psixodiagnostika kishining ixtiyorsiz fiziologik va fizik reaksiyalarga ta'siri asosida amalga oshadi) kabi tiplarning farqlanishi.;

**Test materiallarining adresati** asosida psixodiagnostik metodlar:

- ⊕ *anglangan* (kishi ongini tekshirib boradigan);
- ⊕ *anglanmagan* (kishining anglanmagan ta'sir reaksiyalari)ga bo'linadi.

Birinchi tipdag'i metodikalarga so'rovnomalarni, ikkinchi tipdagisini esa, proyektiv metodlarni kiritish mumkin.

**Sinaluvchi kishilarning test materiallarini tasavvur etish shakliga ko'ra:**

- ⊕ *blankali* (test materiallarini ifodalaniishi yozma yoki biror belgili shakllar bilan: rasm, chizma va hokazo);
- ⊕ *texnik* (audio, video, kino, proyektor va shu singari texnik anjomlardan foydalanish yo'li bilan);
- ⊕ *sensor* (sezish organlariga taalluqli fizik stimullar shaklida taqdim etiladigan materiallar) turlaridan tashkil topadi.

**Psixodiagnostik xulosalar uchun foydalananadigan ma'lumotlar xarakteriga ko'ra** metodikalar:

- ⊕ *obyektiv* (sinaluvchi yoki tadqiqotchining xohish-istiklariga va ongiga bog'liq bo'lmanan ko'rsatkichlardan foydalaniadi);
- ⊕ *subyektiv* (tadqiqotchi yoki sinaluvchi ongi va istiklariga bog'liq ma'lumotlardan foydalaniadi) bo'ladi.

Obyektiv tipdag'i metodikalar tarkibiga refleksiv, fiziologik ko'rsatkichlar tahlili yoki sinaluvchi faoliyatining amaliy natijalarini o'z ichiga olgan testlarni kiritish mumkin. Ularidan foydalangan vaqtida baholanishdagi subyektivizm minimum darajaga ega bo'ladi. Subyektiv tipdag'i metodikalar tarkibiga shaxsiy tajriba, intuisiyalar bilan xulosa introspeksiyaga suyangan ko'rinishlarni kiritish mumkin.

**Test normalarning mavjudligi mezonlariga ko'ra** psixodiagnostik metodikalar:

- ⊕ *normaga ega bo'lgan*;
- ⊕ *norma mavjud bo'lmanalarga ajratiladi*.

**Psixodiagnostik metodikalar ichki tuzilmasiga asosan:**

- ⊕ *bir o'lchamli*;
- ⊕ *ko'p o'lchamli* turlardan iborat bo'ladi.

Bir o'lchamli turlarda yagona xususiyat yoki sifat diagnos qilinadi va baholanadi. Ko'p o'lchamli turlari esa, kishining qator psixologik sifatlarini psixodiagnostika qilishga mo'ljallangan. Mazkur holatda psixodiagnostika yana bir necha kichik metodikalarga, ya'ni alohida psixologik xususiyatlarni baholaydigan shkalachalarga ham bo'linadi. Masalan, xavotir hissini baholaydigan mashhur Spilberger-Xanin testi – bir o'lchamli metodika bo'lsa, Kettelning shaxsga doir testini ko'p o'lchamli metodika turiga kiritish mumkin.

Shuningdek, psixodiagnostik metodika bir vaqtning o'zida turli mezonlar asosida kvalifikasiyanishi hamda baholanishi mumkin. Tadqiqot jarayonida har qanday metodikani birdaniga qator klassifikasion guruhlarda qo'llash mumkin bo'ladi. Shu bois, psixodiagnostik metodikalar klassifikasiyasining mezonlarini o'zaro inkor qiluvchi holda emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, tahlil qilishning imkoniyatlaridan kelib chiqib sinfga ajratuvchi sifatida tushunishish zarurdir.

### **6.3. Diagnostikaning psixologik-pedagogik jihatdan asosiy yo'nalishlari**

**P**sixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlari zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining talab darajasidan kelib chiqqan holda shakllanmoqda. Shu sababli, bu yo'nalishlarning mohiyatini pedagogik amaliyotning qaysi sohasida qo'llanishini aniqlamasdan turib izchil yoritib bo'lmaydi. Biz quyida psixologik-pedagogik diagnostika qo'llanishilishi lozim bo'lgan, hamda juda katta amaliy ahamiyatga ega sohalardan bir nechtasini shartli ravishda (hayotda esa ular umumiyligi, bitta pedagogik jarayonning ajralmas kismlaridir) ajratib o'rgandik:

- ✚ *ta'lif-tarbiya nazariyasi va metodikasi;*
- ✚ *boshqarish va amaliyot;*
- ✚ *didaktika va xususiy metodika;*
- ✚ *pedagogik sosiologiya;*
- ✚ *ijtimoiy psixologiya;*
- ✚ *pedagogik psixologiya.*

Bu sohalarni asosiy vazifasi va predmetining pedagogik hamda psixologik adabiyotlarda, o'quv qo'llanmalarda yetarligiga yoritilganligini hisobga olib, ularga batafsil to'xtalib o'tmaymiz.

Ma'lumki, mazkur sohalarning har birida psixolog yoki qiziquvchi mutaxassislar tomonidan ma'lum daraja diagnostik ishlarni amalga oshiriladi. Mana shu ishlarni majmuasi psixologik va pedagogik diagnostikaning yo'nalishlarini tashkil qiladi. Jumladan, har bir sohada o'ziga xos diagnostik izlanishlar olib borilib ularning mazmuni psixologik pedagogik diagnostika yo'nalishlari belgilab beradi.

- ✚ Tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish

Bu yo'nalish o'quvchilarning tarbiyalanganligini, ularning xulq-atvorini, odob-axloqini, tarbiyalanuvchilagini (tarbiyaviy ta'sirlarga berilishi) ni o'rganishdan iboratdir.

 Tashkiliy-metodik diagnostika

Pedagoglarning kvalifikasiyasini, ta’lim jarayonining uslubiy ta’minlanganlik darajasini baholashdir.

 Didaktik diagnostika

Pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun xizmat qilishdir (ta’lim jarayonining tashkiliy metodik tomonlaridan tashqari). Bunda talabalarning og’zaki va yozma javoblari hamda ulardagi tipik xatolar, sabablari, ta’lim faoliyatidagi salbiy o’zgarishlar o’rganiladi. Shuningdek, talabalardagi mehnat malaka va ko’nikmalarning rivojlanganlik darjasini hamda ta’lim olishga nisbatan moyillik diagnostika qilinadi.

 Ijtimoiy-pedagogik diagnostika

Talabalarning pedagogik qarovsizligi va moslashganlik darajasini o’rganuvchi hamda tarbiyasi og’ir bolalarni diagnostika qilishda ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi yo’nalishdir. Diagnostika pedagoglar tomonidan maktab va o’quv yurtidan tashqarida olib boriladi. Shu sababli diagnostika jarayoni “oila sosiologiyasi va iqtisodi”, “huquq sosiologiyasi”, “dam olish sosiologiyasi”, “iqtisodiy sosiologiya” kabi sohalarda qo’llaniladigan metodikalar va ko’rsatkichlardan foydalanishni taqozo qiladi.

 Ijtimoiy-psixologik va pedagogik diagnostika

Bu yo’nalish sosiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikani o’z ichiga qamrab olgan. U talabalar, pedagoglar va ota-onalar guruhlarini o’rganishga; talabalarga ommaviy kommunikasiya vositalarining (radio, televideniye, gazetalar va hokazo) ta’sirini aniqlashga; talabalarning burch va huquqlari hamda o’zaro munosabatlarini yoritishga yo’naltirilgan xatti-harakatlar majmuidir.

 Pedagogik diagnostika

Psixologik va pedagogik diagnostikaning eng yaxshi rivojlangan va dolzabr yo’nalishlaridan biri bo’lib, u talabalarning aqliy rivojlanish darajasini aniqlashga; o’z-o’zini baholashiga; psixologik “himoya usullari” ajratishga; talaba xarakterining asosiy sifatlari hamda qator va individual-psixologik xususiyatlarini o’rganishga qaratilgandir.

## **6.4. Zamonaviy psixodiagnostika metodlariga qo'yiladigan jarayonlashtirish va verifikasiya talablari hamda ularning qo'llanilishi darajasi**

**S**o'ngi yillarda psixodiagnostikaning zamonaviy metodlari yaratilib, ulardan inson omili predmeti sanalgan fanlarning amaliyot jarayonida samarali foydalanib kelimmoqda. Psixodiagnostik usullarning tadbiqiy o'r ganilishi, yangi ilmiy tushunchalar va ularga xos xususiyatlarning yaratilishi, izohlanishi, tan olinishi hamda tajribada qo'llanilishi bilan bir vaqtda amalga oshirilmoqda. Psixologiyada faoliyatning yuksalib borilishi XX asr boshlarida tadqiqot metodlari va yo'riqnomalariga aloqador shakllangan zamonaviy fanlarga taqdim etiladigan, rasmiy tan olingan va qabul qilingan talablarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bunday talablar asosida jarayonlashtirish va verifikasiya tashkil etadi.

Jarayonlashtirish deganda kiritilayotgan yangi ilmiy tushunchalarning fonda ifoda etilishi hamda mavjudligini namoyon bo'l shiga maslahat va metodlarni ko'rsatilishi jarayonlashtirish deyiladi. Shuningdek, u har bir tadqiqotchining mazkur tushunchani o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga ishon hosil qilish uchun, ayrim amaliy harakatlar va jarayonlarni bajarilishini tizimiylashtirishini ham ifoda etadi.

Har qanday yangi tushunchaning ilmiylik mavqyeiga ega bo'l shi uchun tekshirilishdan o'tishi vetifikasiya, deb ataladi. Shu bois, "verifikasiya" lo'g'aviy so'zining ma'nosini ham aynan "tekshirish" mazmunga egadir.

Tushunchalarning mazmundorligi aniqlash uchun o'tkaziladigan bunday tekshirish, ularga mos keluvchi psixodiagnostik jarayonlar yordamida amalga oshiriladi.

Agar, biz "motiv" atamasini ilmiy tushuncha sifatida fanga kiritadigan bo'lsak, unda ushbu ifodaning aniq izohini boshqa ma'lum so'zlar yordamida yoki uni o'z ichiga qamrab oladigan ayrim holatlarning tashxis qilnishi (jarayonlashtirish) orqali amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Masalan; "Motiv – shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan moyillik va hozirlikni tushuntirib beruvchi sababdir". Bu tushunchani jarayonlashtirish uchun uning keyingi bosqichida psixodiagnostik metodikani qo'llashi kerak bo'ladi. Natijada uning mazkur tushuncha yuzasidan aniqlovchi qismida nimanidir tasdiqlanayotganligi hamda uning haqiqatdan ham mavjud ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Yakunlovchi bosqichda esa "motiv" ko'rinishlarining mavjudligini amaliy jihatdan tekshiruvni amalga oshirish talab qilinadi. Aynan mana shu verifikasiya, deb ataladi.

Shunday qilib, jarayonlashtirish va verifikasiya tushunchalari psixodiagnostika sohasiga dalxdor bo'lib, unda jarayonlashtirish nazariy ahamiyat kasb etsa, verifikasiya – uning amaliy jihatdan namoyon bo'l shini anglatadi.

Hozirgacha yaratilgan va qo'llanilib kelinayotgan psixodiagnostik metodikalarning asosiy qismini – blankali metodikalar tashkil qiladi. Ya'ni kishilarga bir qator hukmlar to'plami taqdim etilib, uning javoblarini yozma yoki og'zaki ravishda bayon etishlari kerak bo'ladi. Sinaluvchi javoblariga asoslanib ularning psixologiyasi haqida xulosa chiqariladi. Blankali metodikalarni keng tarqalganligi

hamda amaliy qiziqishni yuqoriligi, ularni ish jarayonida qo'llash, saralash va tahlil qilishning juda oddiyligi bilan izohlanadi.

Qo'llanilish jihatdan metodikalar orasida ikkinchi o'rinni so'rovnomalari egallaydi. Ish jarayonida sinaluvchilarga psixolog qator og'zaki savollarni taklif etib, ularni qayd qilib boradi va javoblarini tahlil qiladi. Bu metodikalar maxsus blankalarning tuzilmasligi va qo'llanilishining yengilligi bilan ijobiy xususiyat kasb etadi. Ularning kamchiligi esa, savolni tuzish va unga javob berish jarayonini subyektiv tarzda amalga oshirilishidir. Standartlashtirishning murakkabligi pirovard va olingan natijalarni solishtirish va ishonchlilik darajasini anmqlashni qiyinlashuviga olib keladi.

Qo'llanilishiga ko'ra, uchinchi o'rinni egallaydigan metodikalar qatoriga-rasmli psixodiagnostik metodlarni kiritish mumkin. Bunda kishilarning xulq-atvorini psixologik jihatdan yanada yaxshiroq o'rganish maqsadida har xil xarakterligi rasmlar to'plamidan foydalaniladi. Ayrim hollarda esa tayyor standart hisoblangan tasvirlar interpritasiyasi ham qo'llanilishi mumkin. Ushbu tasvirlarning mohiyati yechish talab etiladigan masalalar to'plamidan iborat bo'ladi (Raven testi va boshqalar).

Psixodiagnostik metodikalarning birinchi hamda uchinchi tiplari ikki xil, qo'l bola va kompyuterli variantga ega bo'lishi mumkin. Qo'l bola variantda tadqiqot materialini qayta ishslash va tahlil qilish elektron-hisoblash texnika usullarisiz amalga oshiriladi.

Psixodiagnostik metodikalar ichida proyektivlarining ham ahamiyati cheksizdir. Ular blankali, so'rovnomali va rasm ko'rinishida bo'lishi mumkin. Mazkur metodikaning amaliy jihatdan qo'llanilishi yildan-yilga ortib bormokda. Chunki ular boshqalarga nisbatan validli va informativliliroqdir.

Navbatdagi metodik guruhlar sirasiga obyektiv-manipulyasion turlar kiradi.

Unda yechiladigan masalalar sinaluvchilar hukmiga haqiqiy predmetlar shaklida taqdim etiladi. Sinaluvchilar esa, ulardan biror narsa yasashlari kerak bo'ladi.

## **6.5. Psixodiagnostika metodlarning sifat va miqdoriy xarakteristikasi hamda individual-tipologik xususiyatlar klassifikasiyasি**

### ***6.5.1. Metodlarning sifat va miqdoriy xarakteristikasi***

**A**lovida guruh tarkibiga tajriba ma'lumotlarining sifat va miqdoriy tahliliga asoslanadigan psixodiagnostik metodlarni kiritish mumkin. Ularga birinchi holda, tashxis qilinayotgan xususiyat ma'lum ilmiy tushunchalar yordamida ifoda etilsa, ikkinchi holda, uning shakllanganligini boshqa kishilar ko'rsatgichlari bilan solishtirgan nisbiy jihatini bayon etadi. Ba'zan sifat va miqdoriy xarakteristikalar bir metodikaning o'zida uyg'unlashib ketganligi bois, o'rganilayotgan xususiyat, ikkilamchi miqdoriy-sifat ko'rinishiga ega bo'ladi. Masalan, o'smirlardagi xarakter aksentuasiyasini diagnostikasiga aloqador A.Ye.Lichko testida, har bir o'rganilayotgan xislatlar xususiyat kasb etadi.

### **6.5.2. Individual-tipologik xususiyatlar klassifikasiyasi**

Ma'lumki, har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan o'xhash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo'yi-basti bilan boshqa biror kimsaga o'xhashi mumkin, lekin fe'li, mijozni va shaxs xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil inson bo'la olmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumdan rivojlangan egizaklarda aynan o'xhashlikni qayd qilishgan bo'lishsa-da shaxsiy sifatlari korrelyasiyasida ba'zi bir tafovutlar borligini aniqlashgan.

Shaxs – qaytarilmas, u o'z sifatlari va borlig'i bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida, uning individual-psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Shu bois, shaxs tushunchasi bilan yonma-yon ishlataladigan yana ikki tushunchaga izoh berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu – “individ” va “individuallik” tushunchalaridir.

“Individ”, “odam” degan tushunchani to'ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi. Shuningdek, u o'ziga bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarni; ikkinchi tomondan, o'ziga va o'ziga o'xhashlarga xos bo'lgan umumiylar hamda xarakterli sifatlarni qamrab oladi. Demak, individ – insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

“Individuallik” – yuqoridagi har ikkala tushunchaga nisbatan torroq mazmun kasb etib, u konkret odamni boshqasidan farqlovchi barcha xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxs individualligiga, uning qobiliyatlarini, temperamentini, xarakteri, irodaviy sifatlari, emosiyalari, xulqiga xos motivasiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o'tilgan kategoriyalarning barchasi shaxsdagi individuallikni ta'minlaydi. Shu bois, bo'yi, eni, yoshi, sochining rangi, ko'z qarashlari, barmoq harakatlari bir xil bo'lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qibiliyatlarini, temperamentini, faoliyat motivasiyasi va boshqalarga aloqador sifatlari majmuui o'xhash odamni topib bo'lmaydi. Ular - individualdir.

## **6.6. Xalq xo'jaligini yuksaltirishda psixodiagnostik metodlarning o'rni**

Ijtimoiy-psixologik ta'sir amaliy psixologiyaning muhim masalalaridan biridir. Ijtimoiy ta'sir bir necha bosqichlarda ro'y beradi:

- ⊕ makro bosqichda (*siyosat va iqtisod sohalarida*);
- ⊕ o'rta bosqich (*ijtimoiy tashkilotlar*);
- ⊕ mikro bosqich (*guruuhlar ichida*);
- ⊕ shaxs darajasida ("Men" tarkibida).

Amaliyotchi psixologlar, asosan, mikro bosqichda faoliyat ko'rsatadilar. Bu yerda xodimlar boshqaruvi, tashkilotlardagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ma'lumotlar tizimini tartibga solish masalalari doirasida shaxslararo ta'sir sodir bo'ladi.

Mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatlarda hozirgi bozor munosabatlari sharoitida tashkilotlar va ulardagi ishlovchi xodimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalaridagina ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi. Shu munosabat orqali paydo bo'ladigan muammolarni quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

### ***6.6.1. Ijtimoiy faoliyat sohalarida xodimlar boshqaruvini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik muammolari***

Hozirda qator kichik va o’rta biznes subyektlari xususiy mulkka ega bo’lgani uchun ham ish beruvchi bilan yollanib ishlovchilar o’rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlari tubdan o’zgardi. Hozirda ko’p tashkilotlar xodimlarini moddiy manfaatdorligini bildirishuchun, ularni ishga jalb etishdan ko’ra nomoddiy rag’batlantirish va qiziqtirish yo’llaridan samarali foydalanimishmoqda. Shu o’rinda, ofisning bashang jihozlanishi, uning “qo’shma korxona” ekanligi, xodimlarning o’ziga xos kiyinish uslubi kabi omillar ham katta rol o’ynamoqda. Shu bois, insoniy munosabatlar ta’siridan kelib chiqadigan ishni tashkil etish yo’llari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, fuqarolarimiz ongida eskicha stereotiplarning hamon mavjudligi maosh kabi moddiy manfaatdorlikni ham chetga surmaydi. Bu ham ta’sirning bir yo’li hisoblanadi.

Bundan tashqari, boshqliqning mahorati shu jamoadagi norasmiy liderlar va ular atrofidagi muhitni o’rganishga bo’lgan ta’sir yo’llarini aniqlashi ham muhim. Chunki yaxshi rahbar birinchidan, o’zida rahbarlik va liderlik fazilatlarini uyg’unlashtiradi, ikkinchidan, paydo bo’lgan norasmiy tuzilmalarning manfaatlarini o’rganish orqali xodimlar boshqaruvini qo’lga oladi.

### ***6.6.2. Tashkilot imijini yaratish va uning vakolatlari doirasini kuchaytirish***


Bu omil korxona yoki tashkilotning boshqalari oldidagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Ana shunday imijga ochiq intilgan tashkilotlar sirasiga aviakompaniyalar, DAN xodimlari, qo’riqlash xizmati va boshqalar kiradi. Ularda o’ziga xos ramzlardan tashqari, yagona kiyim-bosh, intizom normalari ham mavjud. Ko’p yoshlar ana shu simvolikalar tufayli ushbu tashkilotlarda ishlashni xohlaydilar. Imijning ijobiyligi korxonaning o’zini reklama qilishga ketadigan mablag’ini tejaydi, aks holda – bu anchagina qimmatga tushadi. Hozirda rivojlangan G’arb mamlakatlarida va xususiy mayda korxona va ularning tashkilot ko’p bo’lgaligi uchun, ularning har biri yiliga o’rtacha 500 million dollar mablag’ini reklamaga sarf qiladi. Ko’pincha imijni oshirishga ayrim shaxslarning obro’si kompaniya tarkibida taniqli shaxslarning bo’lishi yoki bo’lganligi ham xizmat qiladi. Masalan, bizda ham yangi partiyalar (“O’zbekiston leberial demokratlar partiyasi (O’zLDP)”, “Fidokorlar (FMDP)”, “Adolat (ASDP)”, “Milliy tiklanish (MTP)” kabilar) o’z a’zolari sifatida taniqli shaxslarni, tadbirkorlarni, yozuvchi va adiblarni, siyosiy arboblarni jalb etishgan. Bunday a’zolik o’ziga xos reklama rolini o’ynab partiyasining obro’sini oshirgan.

### ***6.6.3. Rahbarning jamoa ichida xodimlarga bo’lgan psixologik ta’siri***

Alovida shaxsning xodimlar yoki hamkasblar ongi va e’tiqodiga bo’lgan munosabati orqali, ularni o’ziga ishontirishga urinishi ham ijtimoiy ta’sirning bir shakli hisoblanadi. Agar bu urinish samarali bo’lsa, hamda ta’sirlanish ro’y beradi. G’arb olimlari ta’sirlanishning to’rtta turini farqlaydilar:

-  *ma'lumot berish;*
-  *tushuntirish;*
-  *isbot qilish;*
-  *e'tiroz bildirish orqali.*

Har bir ta'sir ko'rsatish va ta'sirlanish ma'lum bir psixologik holatlar fonida ro'y bergani uchun ham fanda ishontirish bu munosabatlarning vositalari tafovutlanadi.



#### 6.6.1-rasm E'tiqodga ta'sir etish yo'llari

6.6.1-rasmda keltirilgan emosional holatlar va ularga mos tarzda ta'sir ko'rsatadigan psixologik yo'llarning mohiyatiga ko'ra, ta'sir ko'rsatishga "qasd" qilgan odam avvalo raqibining emosional holati va kayfiyatini inobatga olishi zarur. Masalan, relaksasiya, ya'ni xotirjamlik, begamlik, xursandchilik kayfiyatidagi odamga ta'sir ko'rsatish uchun, unga oddiygina maslahat berish yoki amalga oshirgan ishlarini ma'qullash orqali yangi faoliyatga chorlash mumkin bo'ladi. Bundan

tashqari, mashhur “Sokrat usuli”ga ko’ra, tinglovchining ishonchini oqlash va uni ko’ndirish uchun suhbat boshida berilgan kamida uchta savolga “ha” degan ijobiy javob olinishiga erishish lozim. Ya’ni bu suhbat boshidanoq nima qilib bo’lsa ham tenglovchining“yo’q” demasligiga erishishdir.

Agar odamning kayfiyati yomon, ma’lum stress yoki tang holatda bo’lsa-chi? Bunday holatlarda raqibga aniq buyruq yoki ko’rsatmalar berish, kutishlariga nisbatan zid choralarni taklif etish, qat’iy talablar qo’yish, ta’qiqlash kabi shaxsni tormozlovchi ta’sir ko’rsatish yo’llardan foydalanish qo’l keladi.

Identifikasiya holatida esa, ta’sir ko’rsatuvchi raqibga nisbatan qattiq hurmat hissini boshdan kechirishi, maslahat berishi, boshliqlik imijini kuchaytiruvchi plasebo vositalaridan foydalanishi yoki o’zini shunga majburlashi mumkin.

Agar odam juda ko’tarinki kayfiyatda bo’lsa, unga oddiy sha’ma va hazil qilish yo’llari orqali maqsadni bildirish, xushomad qilish hamda o’z shartiga ko’ndirish mumkin bo’ladi.

Demak, odamning e’tiqodini o’zgartirish uchun albatta, uning holati, kayfiyati va his-kechinmalarini hisobga olish shart. Shundagina ijtimoiy ta’sir samarali bo’lishi mumkin.

Bundan tashqari, tashkilot va korxona faoliyatining samaradorligi, bevosita, rahbarning ish uslubi, uning shaxsiy sifatlariga bog’liqdir. Bu haqda esa, alohida mavzuda so’z yuritiladi.

## **6.7. Rezyume**

Demak, psixodiagnostik metodlarni tadqiqot metodlaridan farqi ularning klassifikasiya mezonlari va asoslarining tavsifiga bog’liqdir. Natijada bu: mezonlar test vazifalari qo’llaniladigan metodika tiplarida; metodikada qo’llaniladigan test materiallari adresatiga; sinaluvchi kishilar tomonidan test materiallarining tasavvur qilinish shakliga; psixodiagnostik xulosalar uchun qo’llaniladigan ma’lumotlar xarakteriga; metodikalardagi test normalarining mavjudligiga hamda metodikalarning ichki tuzilmasi kabi klassifikasiyalarga ajratib o’rganilishi bilan asoslanadi. Shuningdek, psixologik-pedagogik jihatdan diagnostikaning asosiy yo’nalishlarini ham – tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish; tashkiliy-metodik diagnostika; didaktik diagnostika; ijtimoiy-pedagogik diagnostika; ijtimoiy-psixologik va pedagogik diagnostika; pedagogik diagnostikaga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq qabul qilingan. Zamonaviy psixodiagnostika metodlariga qo’yiladigan jarayonlashtirish va verifikasiya talablari esa o’z navbatida xalq xo’jaligini yuksaltirishda psixodiagnostik metodlarning o’rnini belgilab beradi.

## **6.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Metod, jarayonlashtirish, metod, mezon, tiplar, adresatlik, tasavvur, ma’lumotlar xarakteri, test normalari, didaktika, xalq xo’jaligi

## 6.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Psixodiagnostik metodlarning tadqiqot metodlaridan qanday o'zaro farqi bor?
2. Metodlar klassifikasiyasining mezonlari necha tipda farqlanadi?
3. Psixologik-pedagogik diagnostikaning yo'nalishlari qanday?
4. Jarayonlashtirishi va verifikasiya talablari nimalardan tashkil topgan?
5. Individual xususiyatlar klassifikasiysi deganda nimani tushunasiz?
6. Ijtimoiy ta'sir bosqichlari necha xil?

## 6.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar

*Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.

*Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolnih zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya". – T., TGEU. 2005.

*Mayers D.* Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.

*Nemov R.S.* Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.

*Nemov R.S.* Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vo'ssh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. - M., 2003

Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.

Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye / Pod red. K.M.Gurevicha, Ye.M.Borisovoy. 2-ye izd., ispr. – M.: 2000.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.

*Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Pedagogik psixologiya" kursi bo'yicha vaziyatli va ishchi o'yinlar to'plami. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixologiya" fani bo'yicha shaxsni o'rganishga doir testlar va metodikalar to'plami. – T., TDIU. 2005.

### Internet ssilka:

[http://ncdo.levsha.ru/ncdo\\_recr.htm](http://ncdo.levsha.ru/ncdo_recr.htm)

<http://science-education-books.webshops.ru/g10145>

<http://www.alfaconsultant.ru/collection/ref-order....>

<http://oz.by/books/more101335.html>

## VII bob

---

### **METODLARNI QO'LLASHDA VA TAHLIL QILISHDAGI TALABLAR. STANDARTLASHTIRISH. ISHONCHLILIK VA VALIDLIK**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Psixodiagnostik tajribalarga qo'yiladigan asosiy talablar.** Tajriba o'tkazish davomida rioya qilish kerak bo'lgan talablar.

**Tajriba jarayonini standartlashtirish va statistik normalar.** Eksperimentni o'tkazish instruksiya (yo'riqnama). testlashtirish jarayonining tasviri. Test vazifalarining qo'llanilish tiplari.

**Ma'lumotlarni to'plash bosqichi va psixodiagnostik vaziyatlar klassifikasiyası.** Vaziyatlari o'zgaruvchanlar. Tadqiqot vazifasining o'zgaruvchan maqsadlari. Tadqiqotchi va sinaluvchining o'zgaruvchanligi.

**Interpretasiya va qayta ishlash bosqichi.** P.Mil va uning bu boradagi qarashlari.

**Ishonchlilik.** Metodning obyektivligi. Test misollarining bir xilligi. Tekshirilayotgan shaxs xususiyatlarining muvozanatlashganligi.

**Validlik.** Konstruktiv validlik. Kriterial validlik. Prognostik validlik.

---

## 7.1. Psixodiagnostik tajribalarga qo'yiladigan asosiy talablar

Tajriba o'tkazish davomida rioya qilish kerak bo'lgan talablar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- + sinaluvchilarga ko'rsatmalarni yozma ravishda bir xil tarzda ma'lum qilmoqlik, og'zaki shaklda berilgan taqdirda esa, aynan, o'sha so'zlar yordamida bir xil tarzda eshittirilishi;
- + biror sinaluvchiga boshqalarga nisbatan hyech qanday imkoniyat yaratmaslik;
- + eksperiment davomida ayrim sinaluvchilar uchun qo'shimcha tushuntirilishlar berilmaslik;
- + turli guruhlar bilan bo'ladigan eksperimentning doimo imkon darajasida bir xil vaqt va sharoitda o'tkazilishi;
- + barcha sinaluvchilar uchun topshiriqlarni bajarish vaqtining bir xil belgilanishi va hokazo;

Shunga qaramasdan odatda, metodika mualliflari, qo'shimcha ravishda uning o'tkazilish jarayoni haqida aniq ko'rsatmalar beradilar.

## 7.2. Tajriba jarayonini standartlashtirish va statistik normalar

Dagnostik metodikalar tadqiqot metodlaridan standartlashgan holda bo'lishi bilan ajratib turadi. Standartizasiya – testni o'tkazish va bajarishni baholash jarayonining bir xilligidir. U ikki xil, eksperiment jarayoniga yakka talablarni ishlab chiqish va diagnostik sinovlar natijalarini baholashdagi yakka mezonni (kriteriy) aniqlashdan iborat tarzda izoh etiladi.

Diagnostik metodlarni adekvat ishlab chiqish uchun, tajriba o'tkazish sharoitlarini va uning natijalari tahlilini maksimal darajada standartlashtirish lozim bo'ladi. Tajriba shartlarini standartlashtirishga esa, quyidagilar kiradi:

- + eksperimentni o'tkazish;
- + instruksiya (yo'rinqoma);
- + testlashtirish jarayonining tasviri.

Diagnostik tajriba (eksperiment)larni standartlashtirish jarayoni o'tkaziladigan tadqiqotning shart-sharoitlari, ko'rsatmalar, blankalari, qayd qilish usullarini bir xil shakldagilagini anglatadi.

Metodikalarni standartlashtirishning yana bir muhim bosqichi diagnostik tadqiqot natijalarini taqqoslash imkoniyatini beradigan mezonlarni tanlashdan iborat bo'ladi. (Chunki diagnostik metodikalarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bajarishishi uchun, oldindan tayyorlangan standartlari mavjud emas.)

Umuman olganda, diagnostik metodikalarning normaga asoslangan holda standartlashtirilishi – bu metodika mo'ljalangan guruhdan farqlanmaydigan boshqa kattaroq sinaluvchilar ishtirokida amalga oshirilishidir. Saralangan standartlashtirishda sinaluvchilar guruhi uchun maxsus normalar ishlab chiqiladi. Bunda aniqlanishi lozim bo'lgan xususiyat berilgan topshiriqning nafaqat o'rta, balki undan kam yoki ko'p jihatli bosqichlarida ham o'rganiladi. Natijada, diagnostik tajribani muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bajarilishining turli bosqichlarini

baholash mumkin bo'ladi. Bu esa, sinaluvchining saralangan standartlashtirishga nisbatan psixik holatini aniqlash imkoniyatini beradi (A.Anastazi, 1982).

Jumladan, Stenford-Bine testi uchun statistik norma 2,5 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan (4498 kishidan tashkil topgan) sinaluvchilardan iborat saralashda aniqlangan edi. Natijada, matematik-statistika asosida bajarilgan murakkab ish yordamida, aqliy rivojlanish yoshning norma va chegaralari aniqlangan. Ular 84 dan 116 gacha bo'lgan diapozonda joylashgan. Shunga ko'ra, ushbu chegaralarga kirmaydigan sinaluvchilarning natijalari norma atrofida deb baholanadi. Kimning natijalari 84 dan kam bo'lsa, normadan past, 116 dan yuqoriligi esa, normadan balandligini ifoda etadi.

Psixodiagnostikada diagnostik tajribalarni baholashda boshqacha yondoshish ham mavjud bo'lib, u K.M.Gurevich tomonidan yaratilgan. Unga ko'ra, testlarni hisoblashda statistik norma ahamiyat kasb etmasdan, tajribaning natijalariga bog'liq bo'lman, obyektiv tarzda berilgan ijtimoiy-psixologik normativ ahamiyatlariq hisoblanadi. Bu o'rinda, ijtimoiy-psixologik normativ testni tashkil qiladigan topshiriqlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Binobarin, testning o'zi ham mavjud hajmi bilan bunday normativ vazifasini bajara oladi. Testni individual va guruhiy natijalarning taqqoslanishi talabga muvofiq maksimum darajada amalga oshiriladi. Baholash mezoni bo'lib normativga yaqin natijalarni aks ettiradigan ko'rsatkichlar hisoblanadi.

### **7.3. Ma'lumotlarni to'plash bosqichi va psixodiagnostik vaziyatlar klassifikasiyasи**

**D**iagnostik metodlar yordamida ma'lumotlar to'plash jarayoni o'rganilayotgan hodisa va sinaluvchi haqidagi obyektiv halqa subyektiv ko'rsatkichlar jamlanmasi bilan tanishishdan boshlanadi. Barcha mashhur psixodiagnostik metodikalar mualliflari, tadqiq qilinayotgan sinaluvchining o'tmishi va hozirgi hayoti haqida mukammal o'rganib chiqishga katta ahamiyat beradilar. Bu bilan tadqiqotning asosiy foni yaratilib, tashxis va tahlil uchun zarur bulgan shaxsni umumiyl obraz elementlari belgilanadi.

Psixologik adabiyotlarda psixodiagnostik jarayon hisoblangan "tadqiqotchi-sinaluvchi" kabi o'zaro munosabat tizimini yaratilishiga daxldor turli o'zgaruvchanlar ta'sirini tahlil qilishga keng o'rin ajratilgan. Odatda bu ta'sirning:

- ⊕ vaziyatli o'zgaruvchanlar;
- ⊕ tadqiqot vazifasining o'zgaruvchan maqsadlari;
- ⊕ tadqiqotchi va sinaluvchining o'zgaruvchanligi kabi turlari ajratiladi.

Bu ko'rsatkichlarning ahamiyati tadqiqot o'tkazish, uni tahlil qilish va olingan natijalarni qo'llay bilish kabi jarayonlardagina inobatga olinishi lozim. Ma'lumki, testlashtirish jarayoniga kuchli ta'sir etuvchi omillarning barchasini ham nazorat qilib bo'lmaydi. Shu bois, testlashtirish tayyorgarligi jarayonida favqulodda kutilmagan vaziyatlarni yuzaga kelishini inkor etmasdan, uning bir maromda o'tkazilishini ta'minlash dolzarbdir. Testdan foydalanayotgan psixolog sinaluvchining hukmiga havola etilayotgan topshiriq va vazifalarni bajarilishi uchun barcha diqqat-e'tiborini

yo'naltirishiga hamda bor kuch-quvvatini safarbar eta olishiga to'la ishonch hosil qilishi kerak.

Fanda psixodiagnostik vaziyatlar klassifikasiyasi yaratilgan bo'lib, V.I.Drujinin (1990) uning to'rtta varianti mavjudligini ta'kidlaydi:

- ⊕ *tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etish va keyingi bosqichlarning mustaqil tanlovi* (psixologik maslahat);
- ⊕ *tadqiqotda majburiy ishtirok etishi, ammo keyingi harakatlarda mustaqil tanlovga ega bo'lishi* (testni ishlab chiqishda talablarni o'rghanish);
- ⊕ *tadqiqotda majburiy ishtirok etish va tadqiqotdan so'nggi harakat tanlovi cheklangan* (egallab turgan mavqyei talablariga ko'ra mos keluvchi testlashtirish);
- ⊕ *tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok, lekin keyingi harakatlarning cheklanganligi* (professional tanlov).

Qo'shimcha sifatida shuni aytish kerakki, har qanday psixodiagnostik tadqiqotlar sinaluvchilarda tajriba motivini faollashtiradi. Uni minimal darajaga olib kelish esa, psixologning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Metodikalarni tanlash jarayoni iloji boricha shaxsnинг individual xususiyatlarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi kerak bo'ladi. Bu – o'z o'mida diagnostik yechim va tahlilning aniqligini kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, diagnostik vazifalarga mos keladigan metodikalarning tanlanishi tadqiqotni o'tkazlishni shakllantirilishi va undan olinadigan natijalar foydalanilayotgan usul xususiyati asosida ham aniqlanadigan bo'lishi kerak. "Taxminiy" baholar standart kattaliklar va aqliy koeffisiyentlarga aylanadi hamda "shaxs ko'rinishi – chizmasi" yaratiladi.

#### **7.4. Interpretasiya va qayta ishslash bosqichi**

**P**simodiagnostik sohaning qator mutaxassislari, tadqiqotdan olingan natijalarni miqdoriy baholanishini foydali ekanligi xususida fikr bildiradilar. Ammo tadqiqot ma'lumotlarini umumlashtirishning qanday yo'llari ishonchliroq ekanligini bashorat qilish borasida qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Shu bois, klinik-subyektiv tajriba va intuisiyaga yoki statistik-obyektiv va kriteriyalarga yo'naltirilgan umumlashtirish afzalmi, degan mushohadalar hamon davom etmoqda.

Klinik yondoshuv sifatli tahlillarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning muhim xususiyatlari "subyektiv hukm" va professional tajribaga asoslanganligidadir. Natijada, "sof holda"gi klinik yondoshuv haqiqiy fikrlashdan uzoq bo'lmaydi.

Statistik yondoshuv obyektiv ko'rsatkichlarning miqdoriy qayta ishlanishini inobatga olishni e'tirof etadi. Subyektiv hukm ahamiyatliligi minimum darajaga olib kelinadi. Interpretasiya empirik jihatdan aniqlangan statistik mos kelishlik asosida amalga oshiriladi. Klinik va statistik interpretasiya samaradorligi masalasi psixologlar tomonidan ko'p marotaba muhokama qilinganligiga qaramay hozirgacha munozaralar predmeti bo'lib kelmoqda.

Ushbu munozaralarning asoschisi P.Mil (1954) hisoblanadi. Bu sohada u ancha tajribaga ega bo'lganligi bois, statistik interpretasiya klinikka nisbatan samaraliroq ekanligi to'g'risida xulosa qiladi. Chunki, psixolog inobatga oladigan diagnostik

ma'lumotlar hajmining kengayib borishi avval o'sishga, so'ngra esa interpretasiya aniqligini kamayishiga xizmat qiladi. Lekin bu klinik yondoshishlar psixodiagnostikada ahamiyatli o'rinni egallamaydi, degani emas. Shaxsni har tomonlama bog'lanish va munosabatlar doirasida ta'riflash vazifasi yuklanganda statistik yondoshish klinikni o'mini bosa olmaydi. Klinik yondoshuvga muqobilini topish juda murakkab jarayondir.

Diagnostik tadqiqotlarni to'laligicha amalga oshirish uchun, uning yakunida asoslangan psixologik xulosalarni qilish zarur. Aksariyat diagnostik vaziyatlar klinik va statistik yondoshuvlarning qarama-qarshi taqqoslanishini emas, balki garmonik jihatdan mosligini ta'minlanishini taqozo etadi.

## 7.5. Ishonchlilik

Ishonchlilik – bu jarayonning obyektga nisbatan barqarorligidir. Diagnostik ma'lumotlarning ishonchliligi va sifati ma'lum darajada tekshiruv metodiga bog'liq bo'ladi. Bu jarayon mos keluvchi texnik tekshiruv, ya'ni korreksion statistik metod yordamida aniqlanadi.

Psixodiagnostik metodning ishonchlilik darjasini uchta shartga bog'liq bo'lib, ular quyidagilar:

- + *metodning obyektivligi;*
- + *test misollarining bir xilligi;*
- + *tekshirilayotgan shaxs xususiyatlarining muvozanatlashganligi.*

Metodning obyektivliliği – bu olingan ma'lumotlar va ularning psixodiagnostik interpretasiyasini tadqiqotchiga bog'liq emasligi.

G.Vislak o'z qarashlarida metodning obyektivligini uch turga bo'lib o'rganadi.

- + *test o'tkazishning obyektivligi;*
- + *tahlilning obyektivligi;*
- + *olingan ma'lumotlar interpretasiyasining obyektivligi.*

Ma'lumki, turli tadqiqotchilar izlanishlari uchun bir-biridan mustaqil ravishda ayni psixologik metoddan bilan, bir xil eksperimental sharoitlarda foydalanadilar. Ular olgan natijalar solishtirilib, metodning obyektivlik koeffesenti chiqariladi. Ammo metod obyektivligini amaliy jihatdan tekshirishda bir muncha qiyinchiliklar vujudga keladi. Chunki aynan bir xil eksperimental sharoitlarni vujudga keltirish juda qiyindir.

Ishonchlilik har doim ham validlikni ifodalamaydi. Aksariyat psixologlar tekshirishning ma'lum bir prosedurasini taklif etish orqali obyektlarni barqaror farq qila olishga bo'lgan ishonchliligni ko'rsatishadi, Ammo validlik haqidagi masalaning ochiq qolishida xatoga yo'l qo'yishida. Masalan, sensor psixofizikada o'rganilayotgan sezgi xususiyatlarining oddiy jismoniy stimullar bilan bir xil determinasiyalashgani uchun validlik darjasini sezilarli ahamiyat kasb etmasa-da, diferensial psixometrikada ayni shu holatda validlik muammosining ahamiyati keskin oshib ketadi. Shu bois, validlik muammosiga alohida e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

## 7.6. Validlik

**P**sixodiagnostikada validlik – hatti harakatni o'zlashtirishga bo'lgan muvaffaqiyatni tekshirish va test masalalarining ayni shu faoliyat xususiyatlariga mos kelishini sinab ko'rish jarayonlarida qo'llaniladi. Fanda validlikning bir necha turlari farqlanadi:

- **Konstruktiv validlik** – testlashtirish obyektini psixologik tahlil qilishni taqozo etadi, ya'ni test natijalari ajratilgan xususiyatning tekshirish yo'nalishini o'rganadi. Masalan, o'zlashtirishning diagnostik nazoratida mujassam bo'limgan indikatorlar, haqiqatdan ham o'quv jarayonining shart-sharoitlarini namoyon qiladimi yoki yo'qmi?
- **Kriterial validlik** – tadqiqotchi uchun test natijalari yordamida individ xattiharakati aspektining hozirgi va kelajakdagи holati haqida hukm chiqarishi masalasini aniqlash imkonini beradi. Buni aniqlash uchun qo'lga kiritilgan natijalar tashqi kriteriyalar (mezon) orqali solishtiriladi yoki turli testlar ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.
- **Prognostik validlik** – tashqi kriteriyalar (mezon) va sinaluvchining xulq-atvori interpretasiyasi aniqlanadi.

Metodning validligi – psixodiagnostik metodning natijalari ayni o'rganilayotgan obyekt xususiyatlariga mos kelishini ifodalanishidir. Validlikni ishonchlilik tushunchasidan tafovuti o'rganilayotgan holatni tadqiqotning “obyekti” va “predmeti” farqini ajratish orqali tushuntirish qulaydir.

Shuningdek, test validligi, uning ishonchlilik darajasidan oshib ketmasligi zarur.

## 7.7. Rezyume

Xullas, psixodiagnostik tajribalarga qo'yiladigan asosiy talablar, jarayonni standartlashtirishni taqozo etadi. Standartizasiya – diagnostik metodlarni adekvat ishlab chiqish va diagnostikani standartlashtirish jarayonidir. Undagi ma'lumotlarni to'plash bosqichi esa, psixodiagnostik jarayonda “tadqiqotchi – sinaluvchi” munosabatlari tizimini yaratishdan iboratdir. Metodikalarni tanlash, ularning interpretasiya va qayta ishlash bosqichini ham nazardan qochirmaslik ehtimolini qo'yadi. Olingan natijalarning miqdoriy baholanishi, diagnostik tadqiqotlarning asoslangan psixologik xulosalari, ularning ishonchlilik darjasini hamda validligi orqali tavsiflanadi.

## 7.8. Asosiy tushuncha va atamalar

Metod, metodika, validlik, baholash, tajriba, ishonchlilik, standartlashtirish, mezonlar, tekshirish, tahlil qilish, natija, taqqoslash.

## 7.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Diagnostik tajriba o'tkazish uchun necha xildagi talablar bor va ular qaysilar?

2. Standartlashtirish va statistik norma deganda nimani tushunasiz?
3. V.I.Drujininning psixodiagnostik vaziyatlar klassifikasiyasini qanday?
4. Interpretasiya nima? Unga xos necha turdagisi yondoshuv mavjud?
5. Ishonchlilik nimani ifodalaydi?
6. Fanda validlikning necha turi farqlanadi?

## **7.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Bolotova A.K.* Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / A.K. Bolotova. – M.: Gardariki, 2006. – 382 s.

*Borozdina G.V.* Psixologiya delovogo obshyeniya: Uchebnik. – 2-ye izd. – M.: INFRA-M, 2006. – 295 s.

*Burlachuk L.* Psixodiagnostika. – SPb., 2002.

*Dukarevich M.Z.* Praktikum po psixodiagnostike. Motivasiya i samoregulyasiya. – M.: 1989.

*Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.

*Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* Sbornik situasionníx zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolníx zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya". – T., TGEU. 2005.

*Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye* / Pod red. *K.M.Gurevicha, Ye.M.Borisovoy*. 2-ye izd., ispr. – M.: 2000.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.

*Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.

### **Internet ssilka:**

<http://www.my-shop.ru/shop/books/12594.html>

<http://www.psyho.ru/books/psyhoanalys/book1.htm>

<http://www.etel.dn.ua/~psychology/stat/NauchnRaz/BurlachukLF.htm>

<http://psychoanalyse.narod.ru/rorsch1.htm>

## VIII bob

---

### TESTLASHTIRISH. GURUHIY TESTLAR VA ULARNING QO'LLANILISHI

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Psixodiagnostikada testlashtirish muammosi.** Testlashtirishni o'tkazish uchun test normalariga qo'yiladigan qoidalar. Amaliy testlashtirishga nisbatan tayyorgarlik ishlari.

**Frensis Galton va individual farqlanishni aniqlash.** F.Galtonning "fikrlar assosiasiyasi'sini o'rghanish tajribasi mohiyati.

**Guruhiy testlar haqida tushuncha.** Artur Otis va uning "Alfa" va "Beta" testlari.

**Bine-Simonning ikki o'lchovi.** A.Bine va uning bu boradagi qarashlari.

**Psixodiagnostika va psixologik baholash.** "Psixologik baholash" (psychologocal assesment) atamasi. "Yillik psixologik holat".

**Xorijiy testlarning mahalliy sharoitga moslanish darjasи.** O'lchov vositasining mohiyatini birma-bir izoh etilganligi. Olingan natijalarni qayta ishlash va o'tkazish jarayoni haqida ma'lumot. Normalarni yoritilishi. Ishonchlilik haqida ma'lumot. Validlik haqida ma'lumot.

---

## 8.1. Psixodiagnostikada testlashtirish muammosi

**T**yestlashtirish individual farqlarni tahlil qilishning obyektiv metodi sifatida XX asrning boshlarida vujudga kelgan.

“Test” tushunchasini fanga birinchi bo’lib, u yoki bu psixik jarayonlar va xususiyatlarning rivojlanganlik darajasini obyektiv o’lchashga qaratilgan qisqa standartlashtirilgan vazifalar (savollar) hamda topshiriqlar tizimi sifatida ingлиз psixolog F.Galton tomonidan kiritilgan. U insonning psixik xususiyatlarini aniqlashda, sinaluvchilarining turli xil sezuvchanlik xislatlari o’lchashga harakat qilgan.

Galtonning g’oyalari keyinchalik amerikalik psixolog D.Kettell tadqiqotlarida rivojlantirildi.

Testlashtirish jarayonida diagnostik normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday norma vaqt o’tishi bilan insonlarning psixologik shakllanishi ta’sirida ro’y beradigan tabiiy almashinishlar qatorida o’zgarib boradi. Jumladan, XX asrning birinchi choragida o’rnatilgan intellektual rivojlanish normasi so’ngi chorakka to’g’ri kelmay qoldi buning sababi o’tgan vaqt oralig’ida kishilarning fikrlash jarayonidagi rivojlanish darajasi ancha oshib ketgan. O’rnatilgan qoida tartibiga ko’ra, test normalari, ayniqsa, ularning intellektga aloqadorlari har besh yilda bir marotaba qayta ko’rib chiqilishi lozim. Mavjud normalarni qayta ko’rib chiqish va yangilarni o’rnatish tipik shaklga ega bo’lib, quyidagi ko’rinish kasb etadi. Avval, test yordamida amalga oshirilishi lozim bo’lgan tadqiqot uchun sinaluvchi guruhi tanlanadi. So’ngra, ushbu sinaluvchi guruhi ijtimoiy-demografik tasnifi jihatdan kichik guruhlarga bo’linadi. Har bir kichik guruhdagi tanlangan sinaluvchi tadqiqot maqsadi yuzasidan ishlab chiqilgan test yordamida o’rganiladi. Olingan ko’rsatkichlarning o’rtacha qiymatlari asosida, mazkur sinaluvchilar auditoriyasi uchun test normasi vujudga keladi. Testda kiritilgan barcha normalarni yoritilishi uchun, albatta, uning qayerda, qanday, qachon va kim tomonidan o’rnatilganligi etilishi lozim.

Testlashtirishni o’tkazish uchun test normalariga qo’yiladigan talablardan tashqari olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish qoidalari ham mavjud. Bu toifa qoidalarning eng muhimlari quyidagilardir:

- Mutaxassis biror testni qo’llashdan oldin, u bilan tanishib chiqishi va kerak bo’lsa o’zida qo’llab ko’rishi lozim. Bu testlashtirish jarayonida uchraydigan kamchiliklarning oldini olish imkonini beradi.
- Test topshiriqlarini bajarishdan oldin sinaluvchilar uning barcha ko’rsatmalarini yaxshi tushunganliklariga e’tiborni qaratish kerak.
- Testlashtirish jarayonida barcha sinaluvchilarining mustaqil va erkin ishlashlariga, bir-birlariga xalaqit bermasliklariga imkon yaratish va nazorat qilib turish zarur.
- Testlashtirish bosqichida yuzaga keladigan xatolarni chetlab o’tish maqsadida, barcha testlar uchun asoslangan va tekshirilgan qayta ishlash hamda tahlil qilish jarayonlari bo’lishi kerak. Bu birlamchi ma’lumotlarning matematik-statistik qayta ishlanish usullariga daxldor bo’lib, oldindan jiddiy ko’rib chiqilgan bo’lishi lozim.

Amaliy testlashtirishga o'tishdan oldin, unga nisbatan tayyorgarlik ishlarini bajarish kerak. U quyidagilardan iborat:

© Sinaluvchilarga test taqdim etilib, uni qanday o'tkazilishi maqsadi, olingen natijalarining kelajagi va uni hayotda qay tarzda qo'llash mumkinligi tushuntiriladi.

© So'ogra barcha sinaluvchilarga tushunarli holda test ko'rsatmalari beriladi.

Sinaluvchilar hamma ko'rsatmalarini yaxshi tushunganliklariga ishonch hosil qilingandan so'ng, psixolog hamma talablarga riosa qilgan holda testlashtirish jarayonini amalga oshirishi mumkin.

## **8.2. Frencsis Galton va individual farqlanishni aniqlash**

Individual farqlanishni ilmiy jihatdan o'rganishni birinchi bor angliyalik Frencsis Galton test-o'lchovi yordamida amalga oshirgan. Uning bundan asosiy maqsadi inson qobiliyatini o'rganishdan iborat bo'lgan. Shu bois, olimning oldida qobiliyatning irsiyili muammosi turgan. Uning fikriga ko'ra, insoniyatning ijobjiy hulqlilarini shakllantirish uchun, ba'zi qobiliyatlarga ko'ra tanlash jarayonini o'tkazish kerak. Shuning uchun u kishilar seleksiyasi sharoitida qobiliyatlarni o'lhash metodini yaratishga intildi.

J.Lokkning falsafiy qarashlariga va o'zining shaxsiy kuzatishlarga asoslangan holda F. Galton, sensor farqlanish qobiliyatlariga ko'ra, inson aqlini (intellekt) o'lhash mumkin ekanligini aniqlaydi.

U sezgirlik chegaralarini, reaksiya vaqtini tezligini aniqlashning mavjud eksperimental-psixologik usullarini yanada rivojlantirib boradi.

Shu sababli, F.Galton psixologiyada individual farqlanish bo'yicha olingen ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslanadigan statistik amallar sohasida ixtirochi sifatida tanildi. 1888 yili u korrelyasion koeffisiyentni ishlab chiqish metodini taklif etadi. F.Galton o'z faoliyati davomida qobiliyatli matematik va uning biografi bo'lgan Karl Pirson (1857-1936), bilan hamkorlik qiladi. Pirson korrelyasiyani hisoblashda matematik usulni mukammallashtirib beradi. Natijada, hozirgi davrda ham mashhur bo'lgan Pirson bo'yicha korrelyasiya koeffisiyenti yuzaga keladi.

Aqliy testlarning yaratuvchisi hisoblanadigan F.Galton, birinchilardan bo'lib shaxs (xarakterologik) xususiyatlarini ham o'lhash zaruratini dolzabr maummo sifatida o'rta ga qo'yadi. U xarakterni aniq o'lhash uchun "har bir kishining kichik kundalik ishlardagi xulq-atvorini statistikasi" orqaligini xulosa qilish mumkin, degan fikrni oldinga suradi.

Bundan tashqari, F.Galton "fikrlar assosiasiysi"sin o'rganish jarayonida shaxs diagnostikasining proyektiv texnikasi masalalariga ham juda yaqinlashgan edi. U assosiativ tajribalarini e'lon qila turib: "Mening metodim qisqa vaqt oralig'ida ongning erkin o'yinini ta'minlashni, undan o'tayotgan biror fikrlarning izi sekinlashib borayotganida diqqatni ularga qaratishni, darrov ilg'ab olishni, ongda ushlab turgan holda o'rganishni va xotirada aniq qayd qilib borishdan iboratdir"- deb aytadi.

Olimning birinchi tajribasi sayr qilish jarayonida o'tkazildi. Mazkur vaqt

oralig'ida uning diqqatini 300 xil turli obyektlar jalb qilganligi aniqladi. Natijada, "noaniq" yo'llar bilan onga kirib kelgan ko'p "fikr"larni to'play oldi. Ko'z o'ngida o'z hayotining ayrim voqyealari o'tmish xotiralari namoyon bo'ldi. Bir necha kundan keyin yana bir bor tajriba jarayoni qaytariladi. Unda talaygina turli fikrlar mavjud bo'lsa-da, ulardan aksariyat qismi qaytargan edi. Assosiasiyaning tabiatini va uning qaytarilish chastotasini tekshirish maqsadida hal qiluvchi tajriba o'tkaziladi. Buning uchun 75 ta so'zdan iborat ro'yxat tuziladi. F.Galton ularni birma-bir o'qir edi. So'ngra so'z bilan assosiasiyalashgan ikki fikrni yuzaga kelishini kutib turib, xronometr yordamida vaqtini qayd qilib borgan. Ikkinci assosiasiya doimo eksperimental so'z o'qilgandan kelib chiqqan. Bu tajriba to'rt marotaba bir oy vaqt oralig'i bilan takrorlangan. Tadqiqotchi unda 505 ta "assosiasiyalashgan fikrlar"ni yozib olgan. Ularni yuzaga kelishida 560 sekund vaqt sarflangan. Natijada, F.Galton, o'z tajrabilariga suyangan holda quyidagi xulosalarga keladi:

✓ qaytariladigan assosiasiyalar chastotasi kutilgandan ancha yuqoriroq; ya'ni "ruh doimo tanish bo'lган yo'llardan sayohat qiladi, ammo xotira ushbu sayohatdagi taassurotni esda olib qolmaydi";

✓ assosiasiyalar individualdir; ya'ni "ikki katta yoshli kishining aqlini bir-biriga,nisbatan murosaga kelish darajasigacha yaqinlashtirishmaguncha, o'lchash imkoniyati mavjud emas";

✓ bolalik bilan bog'langan ilk assosiasiyalar ancha muqarrardir;

✓ assosiasiyalar-bevosita ongsizlik jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

### **8.3. Guruhiy testlar haqida tushuncha**

**P**sixologik testlashtirishning rivojlanishidagi ahamiyatli bosqichlaridan biri, test tadqiqotlarini o'tkazish shakllarining o'zgarganligi bilan xarakterlanadi. Chunki, barcha testlar XX asrning birinchi o'n yilliklarida yaratilgan bo'lib, individual ko'rinish kasb etar va bir kishi uchun qo'llanilar edi. Ulardan faqat yuqori malakaga ega, maxsus tayyorlangan mutaxassislar, psixologlar foydalanishlari mumkin bo'lgan.

Dastlabgi, testlarning bunday xususiyatlari, ularni keng miqyosdatarqalishini cheklar edi. Amaliyot esa, (jamiyat) katta guruhdagi kishilarni biror faoliyat turiga nisbatan psixik tayyorlarini tanlab olish hamda kishilarning individual xususiyatlariga ko'ra, yo'naltirish maqsadida psixologik diagnostika qilishni talab qilar edi. Shuning uchun ham AQShda ikkinchi jahon urushi davrida test ustida yangi tadqiqotlar olib borilib – guruhiy testlar paydo bo'ldi.

Bir yarim million kishilik armiyaga turli xizmatlar uchun odamlarni tanlab olish va taqsimlash zaruratini maxsus tuzilgan qumita Artur Otis oldiga yangi testlarni yaratish vazifasini qo'yadi. Shu tarzda armiyaviy testlarning ikki xil shakli – "Alfa" va "Beta" paydo bo'lgan.

"Alfa" testi ingliz tilini yaxshi biladigan kishilarga mo'ljallangan bo'lsa, "Beta" testi ma'lumotsiz va ajnabiylar uchun edi. Urush tugagan bo'lsa-da, ushbu testlar va ularning modifikasiyasini hozirgi vaqtda ham keng qo'llanishda davom etmoqdi.

Mutaxassislar guruhiy (kollektiv) testlardan katta guruhlarda haqiqiy

tadqiqotlarni o'tkazish bilan bir qatorda, ularga o'zgartirish kiritish orqali ko'rsatmalarni, o'tkazish jarayonlarini va natija baholarini yengillashtirishga harakat qilganlar. Testlashtirish jarayonlariga, avval, psixologik ma'lumotga ega bo'limgan, ammo test tadqiqotlarini o'tkazishga o'rgatilgan kishilar jalb etilgandi.

Usha davrlarda guruhiy testlar xalq ta'limida, ishlab chiqarishda hamda harbiy sohada qo'llanilar edi.

XX asrning 20-yillari haqiqiy testli "portlash" bilan alohida tavsiflanadi. Testologiyaning keng va tez tarqalishi, uning amaliy vazifalarni jadal hal qilishga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi. Testlar yordamida intellektni o'lchash ta'lim olish profotbor hamda muvaffaqiyatga erishish masalalariga ilmiy yondoshish usuli sifatida qaralar edi.

XX asrning birinchi yarmida psixo diagnostika sohasidagi mutaxassislar ko'plab turli xildagi testlarni yaratdilar. Natijada, testlarning metodik jihatlarini ishlab chiqish yo'li bilan, ularni yuqori shakllangan darajagacha olib bordilar. Barcha testlar mukammal tarzda katta hajmli tanlovlardan standartlashtirilgan bo'lib testologlar ularni yuqori darajadagi ishonchlilik va validlik bilan ajralib turishini ta'minlashga harakat qilganlar. Shunga qaramay bular ham Bine testlariga xos kamchiliklar uchraydi.

Testlar yordamida intellektning umumiyl bosqichini aniqlash jarayonida inson psixikasiga xos ayrim xususiyatlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar kerak edi. Natijada testologiyada yangi yo'nalish – "maxsus qobiliyatlarni testlashtirish" vujudga keldi.

#### **8.4. Bine-Simonning ikki o'lchovi**

**T**adbiqiy psixologiyaning asoschilaridan biri Alfred Bine o'z qarashlarida, ushbu fanning diqqat markazida shakllangan psixik jarayonlar katta o'rinni egallashi lozim, deb ta'kidlaydi. Intellektni o'lchashning ilk bosqichida Bine, u bilan xiromantiya va frenologiyada ko'rib chiqiladigan "o'zgaruvchilar" o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishga intildi. Bundan tashqari u Galton va Kettell foydalangan testlar yordamida ayrim tajribalarni ham o'tkazgan edi. Ammo 1890 yillarda Bine intellektdagi individual farqlanishni o'rganish uchun murakkab psixik jarayonlarga murojaat qilish kerakligini anglatdi. Natijada, Bine Anri bilan hamkorlikda 1896 yil diqqat, xotira, tushunish, tasavvur, fazoni estetik baholash, axloqiy fikrlash va vizual sezgini o'lchashga mo'ljalangan testlar seriyasini yaratdi. So'ngi yillar davomida A.Bine sifatli aqliy o'zgaruvchilarga, jumladan, shaxsning aqliy faoliyatga ta'siri ahamiyatli ekanligiga o'z diqqatini qaratgan edi. Binening mashhur ishlari sirasiga 1902 yilda yaratilgan "Eksperimentalnoye isledovaniye intellekta" nomli kitobi bo'ldi.

Bine birinchi o'rinda hukm va xulosa qilish qobiliyatini o'rganishga xotira hamda tasavvurni aniqlovchi psixologik testlarni qo'llash kerakligini tavsiya etadi. Shuningdek, u birinchilardan bo'lib, siyoh dog'lari yordamida tasavvurni baholashni ham taklif etgan.

Bine o'z qarashlari asosida fanda norma va undan chetlanishni individual psixologiyaning asosiy tushunchalari sifatida kiritgan. 1905 yili A.Bine Teodor

Simon bilan birgalikda bolalar intellektini o'lchashga mo'ljallangan bиринчи шкаланы yaratadi. U бирин-кетин murakkablashib boradigan 30 ta vazifani o'z ichiga qamrab olgan edi. 1908 yilda esa Bine-Simonlarning shakllantirilgan shkalasi e'lon qilinadi. Bu shkala 3 yoshdan 13 yoshgacha bo'lган yosh davrlari xususiyatiga ko'ra guruhlashtirilgan 59 ta testdan iborat edi. Mazkur shkalani belgilovchi foizli diapazon 67% dan 75% gacha. Agar foizga nisbatan bolalarning ko'p qismi ushbu testdan o'tgan bo'lsa, bu test ushbu yosh uchun yengil hisoblanadi; agar mazkur testni bolalarning kam foizi yechgan bo'lsalar, u bu yosh uchun murakkab hisoblanadi.

Diagnostikaning intellektual bosqichi muammosini genial darajada hal etgan A.Bine fikricha, bolalarga shunday murakkab vazifalar (test) topshirilish kerakki, natijada normadagi bolalar qaysi yoshda ularni to'g'ri hal eta olishlari mumkinligini aniqlashning imkoniyat bo'lsin. Qachonki bola vazifani guruhdagi o'z tengdoshlari qatori muvaffaqiyatlidir hal eta olsa, normada deb tan olinish lozim. Shuningdek, Bine bu vazifalar orqali bolaning xronologik yoshi bilan oson taqqoslanadigan aqliy yoshni ham aniqlash mumkin, degan taklifni kiritgan.

## **8.5. Psixodiagnostika va psixologik baholash**

**1** 970 yillarda individual farqlar sohasida eng ko'p qo'llaniladigan atama – bu “psixologik baholash” (psychological assesment) bo'ldi. Hozirgi paytga kelib u aksariyat G'arbiy Yevropa davlatlari va AQShda butunlay “psixologik testlash” atamasini siqib chiqardi.

“Psixologik baholash” atamasini II chi Jaxon urushi davrida bir guruh amerikalik psixolog va psixiatrlar tomonidan ishlatalgan (“Plash va xanjar risarlari”ini tanlab olish yuzasidan. Psixologik adabiyotlarda bu atamaning bиринчи bor qo'llanishi, alohida dasturni tanlab olishni tasvirlovchi kitobning nomi – The Assessment of Men (Office of Strategic Services; 1942) – bilan bog'liqdir.

1953 yili “Yillik psixologik holat” (AQSh) markazida “Nazariya va baholash texnikasi”, degan bo'lim paydo bo'ldi. Shu bois, u psixologlar tomonidan borgan sari ko'proq foydalanila boshlandi.

Bu atama oxirgi paytda psixodiagnostika sohasida keng tarqalib rasmiy miqyosda maqomni oldi. Bunga psixologik baholashning muammolariga qator bag'ishlangan qo'llanmalar va har xil jurnallar tasdiq bo'la oladi. “Qisqa psixologik ensiklopediya” bu tushunchaning mazmunini quyidagi maqsad orqali ochadi: Individuallilikni o'rganish uning hayotiy faoliyatida kelib chiqadigan muammolar (psixik sihat-salomatlik, yon atrofdagilar bilan murakkab o'zaro kelishuv, o'qishga qobiliyatsizlik va hokazo). Yuqorida eslatib o'tilgan ensiklopediyada ko'rsatilishicha psixologik baholash bilan testlash orasidagi farqlarni o'tkazish kerak.

Baho – turli yo'llar bilan olingan, masalan intervyu yordamida; psixologik testlar, fiziologik yoki psixofiziologik o'lchovlar, apparaturalarning holatini kuzatish va boshqalar. Test qilish – psixologik xarakteristikani o'lchashdir. Psixologik baho uzoq davrdagi tarixga ega. (Qadimgi Xitoyda chinovniklarni tanlab olish sistemasi). Shunday qilib psixologik baho – psixologik testlashga qaraganda yanada kengroq tushunchadir. Baholash faqatgina test orqali o'tkazilmaydi. Ayni paytda psixologik baholash jurnalni va boshqarish mazmunini tahlil qilinadigan bo'lsa, unda osongina

ishonch hosil qilish mumkinligi bu tushuncha ko'p holda psixologik testlashning sinonimi sifatida chiqib, psixologik o'lchovlarning hamma spektrlarini qamrab oladi: psixik funksiyadan tortib to shaxsgacha. Testlar (standartlashgan muolajalar) dan tashqari testdan tashqari tashxis rivojlanadi. Bu ma'noda psixologik baho tushunchasi oldin biz kiritgan psixologik diagnostika predmetiga yaqindir.

## **8.6. Xorijiy testlarning mahalliy sharoitga moslanish darajasi**

**P**sixodiagnostika fani yangi zamon fanlaridan biri bo'lganligi sababli ham g'arb mamlakatlaridan Rossiya, MDH va qo'shni davlatlarga sekin-astalik bilan kirib kelgan. Psixodiagnostika fanining kirib kelishi testlar bilan bog'langan bo'lib, ushbu davrda qo'llaniladigan testlar faqat aqliy taraqqiyotni diagnostika qilish bilan cheklanib qolgan edi. Vaholanki, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, xalq ta'limi va nihoyat psixologik amaliyot turli yunalishdagi metodikalarga muhtoj edilar. Shu sababli ham mutaxassislarning ko'pgina xorijiy testlarga bo'lgan intilishlarini, qiziqishlarini tushunish mumkin edi. Ular o'z tadqiqotlarini tarjima qilingan testlar yordamida amalga oshiradilar. Test tarjimalari qanchalik professional darajada bajarilmasin metodika – uzoq muddatli va mehnatni talab etuvchi moslanish jarayonining boshlanishini anglatar edi. O'sha davrlarda testlarga "ocharchilik" shunchalik kuchli ediki, oddiygina tarjima qilingan materiallar, tijorat nashriyotlarida "eng yaxshi testlar" to'planmasi sifatida yaratila boshladi. Ammo bunday psixologik testlar ma'lum bir tartibga keltirilmagan edi. Ma'lumki, ayrim vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan psixodiagnostik test bo'yicha ma'lumotlar minimum darajada quyidagilardan iborat bulishi kerak:

- ⊕ o'lchov vositasining mohiyatini birma-bir izoh etilganligi;
- ⊕ olingen natijalarini qayta ishlash va o'tkazish jarayoni haqida ma'lumot;
- ⊕ normalarni yoritilishi;
- ⊕ ishonchlilik haqida ma'lumot;
- ⊕ validlik haqida ma'lumot.

Moslashtirish jarayonida proyektiv testlar murakkablik bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, noverbal testlar haqida ham so'zlash mumkin. Moslashtirishdagi qiyinchiliklar hatto shaxsiy so'rovnomalarda uchraydi. Ularning moslashtirish jarayoni quyidagi bosqichlar bilan ifodalanadilar:

- © originaldan mahalliy tilga tarjima qilingan variantni tayyorlash;
- © tayyorlangan tarjimaga lingvist va professional mutaxassisni jalg qilish bilan uning ekspert bahosi, xulosani chiqarish;
- © original va shkalaning eksperimental tarjimasining ekvivalentligini tekshirish;
- © mahalliy tanlovga mos keluvchi normalarni to'plash va yangi shkalalarni o'rnatish.

D.Kempbell tarjimaning ikki xil ko'rinishini – simmetrik va assimetrik belgilar ekan, oddiy standartlashtirilgan so'rovnomalarni tarjima qilishda ularning originalligini saqlab qolish maqsadi bilan amalga oshirish natijasida testning beo'xshov, ekzotik varianti paydo bo'ladi.

Shaxsiy so'rovnomalarni moslashtirishning lingvistik jihatni mo'ljallangan ommaning yoshi va ma'lumot darajasi asosidagi leksik va garammatik moslanishni

bildiradi.

Shuni yodda tutish kerakki, har kanday so'rovnama tarjimasi murakkab lingvistik vazifadir. Bunday so'rovnomalarda ular yaratilgan jamiyatdagi o'ziga xos madaniyat ham aks etadi. Bir jamiyatning norma va qadriyatlari boshqa madaniyatga mos kelmasligi va ayni paytda uning ekvivalentligini topish qiyinligni unutmaslik kerak. Tarjima jarayonida lingvistik va ijtimoiy madaniyat to'siqlar yengib o'tilgandan so'ngina yangi moslashtirilgan so'rovnama vujudga keladi.

Yuqorida qayd qilinganlarga binoan so'rovnomalarning tugallangan moslashtirilish jarayoni o'z hajmiga ko'ra original metodikaning yaratishdan qolishmaydi.

## **8.7. Rezyume**

Psixodiagnostikada testlashtirish muammosi avvalo test metodlarini yaratilishi va ularga qo'yiladigan talablarga bog'liqdir. Guruhiy testlar va ular orqali ma'lum faoliyatga qobiliyatlari bo'lgan kishilarni tanlash maqsadining joriy qilinishi o'ziga xos psixologik tashxis qilishni tadbiq qildi. Ta'lim, sanoat va harbiy sohalarda foydalananadigan guruhli testlar esa individual farqlar sohasi va psixologik baholashning yangidan-yangi xulosalar bilan boyitdi. Xorijiy testlarning mahalliy sharoitga moslantirilishi tadqiqotlar yuzasidan qo'lga kiritilgan natijalarning ishonchhlilik darajasi va validligi oshishiga xizmat qildi.

## **8.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Test, testlashtirish, individual farq, korrelyasiya koeffisiyenti, assosiativ tajriba, shkala, psixologik baholash, modifikasiya.

## **8.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Psixodiagnostikada testlashtirish muammosining hal etilish darajasi qanday?
2. Individual farqlanishni ilmiy jihatdan kim tomonidan o'rganilgan?
3. Guruhiy testlar deganda nimani tushunasiz?
4. Bine-Simonning ikki o'lchovini asoslab bering?
5. Psixodiagnostika va psixologik baholash orasidagi tafovutni aniqlang.
6. Qanday qilib xorijiy testlar mahalliy sharoitga moslashtiriladi?

## **8.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Anastazi A. Psixologicheskoye testirovaniye / Per. s angl. T.1,2. – M.: 1982.*

*Bolotova A.K. Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / A.K. Bolotova. – M.: Gardariki, 2006. – 382 s.*

*Dukarevich M.Z. Praktikum po psixodiagnostike. Motivasiya i samoregulyasiya. – M.: 1989.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat: Universitetlar va*

pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.  
*Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.*  
 Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolnix  
 zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya  
 psixologiya". – T., TGEU. 2005.

*Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye / Pod red. K.M.Gurevicha,  
 Ye.M.Borisovoy. 2-ye izd., ispr. – M.: 2000.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar  
 matni. – T., 2005.*

*Hayitov O.E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU.  
 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. "Psixodiagnostika va amaliy  
 psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik  
 masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. "Psixologiya" fani bo'yicha shaxsni  
 o'r ganishga doir testlar va metodikalar to'plami. – T., TDIU. 2005.*

**Internet ssilka:**

<http://psy.1september.ru/...>

<http://www.psifaktor.com>

<http://psychoanalyse.naro...>

<http://www.successful-bra...>

## **IX bob**

---

### **INTELLEKT VA UNI O'RGANISHGA OID YONDOSHUVLAR**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Intellektni aniqlashga oid yondoshuvlar.** Intellekt o'zi nima? Intellektni guruh sinovlari orqali qay darajada o'rganish mumkin? Intellektni o'rganishdagi keyingi qadam qanday bo'lmog'i lozim? Intellekt bo'yicha asosiy yondoshuvlar mazmuni.

**Intellektning o'lchaydigan testlar va ularning turlari.** "Intellekt testlari" (*intelligence tests*). "Aql testlari" (*mental tests*). "Maxsus qobiliyatlar o'lchaydigan testlar" (*special abilities tests ili attitudes test*). "Umumiy intellekt testlari" (*general tests*) yoki sinonim sifatidagi "umumiy qobiliyat testlari" (*abilities tests*). "Kognitiv testlar" yangi klassifikasiyasi sifatida.

**Intellekt nazariyalarning tabaqlanishi.** Intellekt omillarining iyerarxik modeli. Stenford-Bine testining nazariy modeli.

**Intellektning Terstoun modeli.** "Sodda tuzilma"ning ideal ko'rinishi. Intellektni guruh omillari.

**Intellektning Gilford modeli.** Guilfordning birlamchi o'lchovi. Uning ikkilamchi hamda uchinchi o'lchovlari.

**Ayzenkning intellektual modeli.** Ayzenk modelining mazmun va mohiyati.

---

## 9.1. Intellektni aniqlashga oid yondoshuvlar

**1** 921 yilda o'n yetti nafar amerikalik psixologga quyidagi uch savol bilan murojaat qilingan:

- ⊕ *Intellekt o'zi nima?*
- ⊕ *Intellektni guruh sinovlari orqali qay darajada o'rganish mumkin?*
- ⊕ *Intellektni o'rganishdagi keyingi qadam qanday bo'lmos i lozim?*

Natijada ikkita bir-biriga o'xshash bo'lgan javob olinmagan. Bu hol bugungi kunda ham takrorlanadi, deyish qiyin-u, ammo hozirgi psixologlarga ham shu savollar berilsa, bir-biriga o'xshash javoblar olish qiyin.

Shunday qilib, intellektni aniqlashda yetarli qiyinchiliklar bilan to'qnash kelamiz. Quyida esa intellekt bo'yicha asosiy yondoshuvlarni keltirishimiz mumkin:

- ⊕ *Intellekt – bu intellektual testlar orqali aniqlanadigan jarayon.*
- ⊕ *Intellekt – bu umumlashtirilgan ta'lim olish qobiliyati.*
- ⊕ *Intellekt – bu majoziy abstrakt fikrlash qobiliyati.*
- ⊕ *Intellekt – bu murakkab muhitga moslashuv, unda o'zini tutish samaradorligini ta'minlaydigan jarayon.*

Bu ta'riflarni chuqurroq ko'rib chiqamiz. Birinchi ta'rifni birinchi bo'lib Edvin Boring (Boring) taklif etgan. Bu nuqtai nazar intellektni tushunishda yagona yondoshuv yo'qligidan darak berar edi. O'lchov vositasi orqali intellektga ta'rif berish uning tarkibiy tahlilidan voz kechish sifatida qabul qilingan.

Intellektga bunday ta'rif berish orqali tadqiqotchilar, yuzaki ma'noda aqliy holat, balki inson hayotida kunda hal qilinadigan masalalarga o'xshash turli masalalarni yechishga imkon beradigan aniq intelekt holda borayotganini yoritib berishga intilganlar. IQ testlar yordamida namoyon bo'ladigan psixometrik sifatlar asosida intellektga ta'rif berish osonroq, shuning uchun qam foydalanishga qulay. Birinchi qarashda u sodda va oddiy ko'rindi, lekin aslida unday emas. Intelekt testlari Xudo ko'ngilga solganday tuzilmaydi: ular tabiat qonun qoidalariiga asoslanadi, masalan, ijobjiy turli-tumanli, sinaluvchilarni tabiatini qay darajada ajralib tursa ham, test sinovidan o'tkazilganda ijobjiy taraflari aniqlanadi. O'zaro testlardagi aloqalarda, umumiylak aniqlanadi, bu birga teng, bu umumiylak kuchli omil borligidan darakdir (Ayzenberg).

Intellektni eng qadimiyligi tushunchasi, bu ma'lumot olishga qobiliyatdir. Lekin bunda biz intellektni insonning bir taraflama o'qish, ma'lumot olish qobiliyatini bog'lab qo'yamiz. Bu masalani ko'rib chiqib, Anastazi savol beradi: nimani o'rganish, nimadan ma'lumot olish? Va o'zi javob beradi, bizning tushunchamizda bu muktabda ma'lumot olish bilan bog'liqidir.

Ko'p ilmiy izlanishlar intellektni aniqlash testlari ma'lumotli bo'lishdagi muvafaqqiyatlar bilan bog'liq (korrelyasiya koeffisiyenti 0,50 ga teng, bog'liqlik boshlang'ich sinflarda balandroqdir, keyin esa sekin asta pasayish kuzatiladi). O'qitilishda qo'yilgan baholar, uning jarayonini emas, natijasini aniqlab beradi. Intellekt testlari ham, muktab baholari ham, insonni hayotiy vaziyatlarda qay darajada o'zini tuta bilishini aniqlab bera olmaydi.

Intellektni ma'lumot olish qobiliyati bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki intellekt bu rivojlangan fikrlash qobiliyatidir. Shuningdek, uni abstrakt fikrlash

qobiliyatiga ham tenglashtirib bo'lmaydi. Kognitiv psixologiyada esa bu masalalarni yechishga tenglashtirilib o'r ganiladi. Intellektni abstrakt fikrlash qobiliyati cheksiz hisoblanib, uni intellekt testlari bilan o'lchab bo'lmaydi.

Hozirda intellektning moslashuv faoliyati ko'proq tarafdarlarini topayapti, Piaje (Piaget) uchun intellekt mohiyati muhit bilan organizmni moslashuvi, rivojlanish esa bundan ham ko'proq moslashuvda (adaptasiyada) namoyon bo'lishi demakdir. Vernon (Vernon) shaxsning intellekti, uning xulq-atvorining egiluvchanligi va murakkabligi, hayot davomida shakllangan xulqiga mosdir, deb ta'kidlaydi.

Intellektni shaxsning atrof-muhitdan alohida ta'riflab bo'lmaydi. Atrof-muhit bilan bog'liqlik oddiy moslashuv emas, balki faol harakatdagi bog'liqlik sanaladi. "Intellekt tushunchasi individning faol harakatlari va o'rab turgan atrof-muhit bilan o'zaro aloqalari samaradorligi oqibatida belgilanadi".

Intellektning bunday tushunchasini, ma'lumot olishga bo'lgan qobiliyat, abstrakt fikrlash yoki boshqalar emas, balki rivojlanib kelayotgan bir jarayon deb tan olinishi maqsadga muvofiqdir. Intellekt – natija emas, balki jarayondir. Bu yuzadan muhokama qilingan masalalarning barchasi nazariy xarakterga ega. Bizni esa avvalo intellektni o'lchangani qiziqtiradi.

Bir necha yillardan beri nazariy izlanishlar natijasida endi amaliyotda intellektning o'lchovlarini aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi.

Binening intellektni aniqlash testlarining amaliy va nazariy bahosi qay darajada past bo'lmasisin bu fikr metodologik tamoyil va kelajak uchun ahamiyati kattadir.

Shunday qilib, intellekt testlar asosida o'lchanadi. Ular o'zi nima?

## **9.2. Intellektni o'lchaydigan testlar va ularning turlari**

**S**huni ta'kidlab o'tish joizki, testlarning kuchli sinfi ongni o'lchovchi xususiyatiga ega emas. Bugungi kunda o'zimizning va xorij adabiyotlarida ham quyidagi iboralar ishlataladi: omma va ko'pchilik qo'llaydigan – "intellekt testlari" (*intelligence tests*) yoki uning eskirmagan turi – "aql testlari" (*mental tests*). Bular bilan birgalikda quyidagi turlar ham ishlataladi: "maxsus qobiliyatlar o'lchaydigan testlar" (*special abilities tests ili attitudes test*), "umumiyl intellekt testlari" (*general tests*) yoki sinonim sifatida "umumiyl qobiliyat testlari" (*abilities tests*). Umuman olganda tarixan testlar umumiyl intellektni o'lchash, qobiliyatni o'lchashga bo'lingan va bugungi kunda bu "kognitiv testlar" kabi yangi klassifikasiyalarga ehtiyoj yo'q.

Testdagi topshiriqlarga qarab, ular quyidagicha turkumlanadi: verbal (masalan, so'zlar klassifikasiysi testi) va noverbal (masalan, Raven matrisalari). Bundan tashqari, intellekt testlari individual (masalan, Veksler shkalasi) va guruhiy (masalan, Alfaning harbiy xizmat testi)ga bo'linadi. Aytib o'tilgan turli xil testlardan tashqari, spesifik populyasiya testlari gohida ajralib turadi. Bu testlar chaqaloqlar, jismoniy nosog'lom va har xil madaniyatga bo'linuvchilar uchun mo'ljallangandir.


Psixodiagnostikani kompyuterlashtirish intellektning moslashtirilgan testlarini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Psixodiagnostika tarixidan ma'lum bo'lishicha, psixometrik intellekt bugungi kunda ikki matab: ingliz va AQSh maktabi namoyondalari ishlarida ko'rindi. Intellektni o'r ganuvchi testlarda umumiyl baholash har xil mashqlarga qarab

o'lchanadi, ularda sinaluvchilar intellektning bir-biri bilan bog'liq va bog'liq bo'lmanan guruhiy test mashqlarini bajaradilar. Oxirgi o'n yil ichida Sharqda mashhur nazariya yuzaga keldi, unga ko'ra intellekt davom etuvchi va krisstallashgan (maktab miqyosida, umumiyl intellekt testlarini tan oluvchi) bo'ladi. Yuqoridagi komponentlarga qarab testlar mavjud va ularning hammasi intellektni o'lchaydi.

### **9.3. Intellekt nazariyalarning tabaqlanishi**

**S**pirmen tadqiqotlarida bir guruh har xil ko'rsatgichlar bir-biri bilan bog'liq va bir qobiliyatni aniqlaydi. Buni guruhiy omillar deb nomlashdi va ular barcha qobiliyat ko'rsatgichlarida mavjud emas, balki ko'proq yoki kamroq chegaralangan guruh testlar uchun umumiydir.




**9.3.1-rasm. Intellekt omillarining iyerarxik modeli**

Shu asosda ingliz psixologi Vernon intellektni tabaqlanish nazariyasiga o'z hissasini qo'shdi. Eng yuqorida bosh omil turadi (Spirmen tomonidan ochilgan), undan so'ng keng qamrovdag'i guruhiy omillar verbal-ta'lim (v:ed) va amaliy-mexanik (k:m) intellektlar joylashadi.

Bu omillar yana bo'linishi mumkin, masalan, verbal-ta'lim – verbal va hisoblash subomillari, amaliy-mexanik esa mexanik-ma'lumot, fazoviy va manual (so'zma-so'z paypaslash) subomillardan iboratdir (9.3.1-rasm).

Pastki darajalarda maxsus omillar joylashgan. Ko'p ingliz psixologlari shu nazariyani o'z izlanishlarida asos qilib olganlar. Zamonaviy Stenford-Binening testlar nazariyasi bunga misoldir (9.3.2-rasm).

O'z davrida Gans Ayzenkning mashhur asarlarida esa bu nazariya shaxsga xos xususiyatlarni ifodalashda qo'llanilgan.

**1-daraja****9.3.2-rasm. Stenford-Bine testining nazariy modeli****9.4. Intellektning Terstoun modeli**

Inson qobiliyatini tabaqalash va pog'onalashda bosh omilning asosiy deb topgan ingliz olimlarini nazariyalarini amerikalik psixologlar tan olishmadi, ular asosiy urg'uni guruh omillariga berishadi.

Bunga amerikalik psixolog Kellining “Inson tafakkuri chorrahaları” (1928) asari asos soldi, bu asarda u Spirmenni nazariyasini tanqid qildi.

Testlar orasidagi aloqalarni guruh omillari: atrofiy munosabatlardan, sonlar bilan operasiyalar, eslash va fikrlash tezligidir. Kellini davomchilaridan biri Terstoun bo'lib, u intellektning multiomil nazariyasini yaratdi.

#### **9.4.1-jadval. “Sodda tuzilma”ning ideal ko’rinishi**

Test	Omil		
	A	B	C
1	Ch	0	0
2	Ch	0	0
3	Ch	0	0
4	0	Ch	0
5	0	Ch	0
6	0	Ch	0
7	0	0	Ch
8	0	0	Ch
9	0	0	Ch

Spirmenning tahlil metodida barcha korrelyasiya juftliklari matrisada mavjud bo’ladi, yagona omil Terstoun ishlab chiqargan statistik apparat bo’yicha matrisada eng kam miqdorda qaror topgan va u test topshiriqlarini bajara olish qobiliyatini aniqlaydi. U “Sodda tuzilma” tamoyiliga asoslanib, omillar aylanma harakatini tasdiqlaydi va eng katta, eng kichik miqdordagi, nol va nolga yaqin omil o’lchovlarini aniqlaydi.

#### **9.4.2-jadval. Intellektni guruh omillari**

Test	Guruh omil			
	A	B	C	D
1	Ch		Ch	Ch
2	Ch	Ch	Ch	
3		Ch		
4	Ch	Ch	Ch	Ch
5	Ch	Ch		Ch
6		Ch	Ch	

“Sodda tuzilma” nazariyasi bo’yicha insonni ko’rish qobiliyati zaiflashgan bo’lsa, bu unga qadam bosishi uchun xalaqit bermaydi, bundan kelib chiqadiki, miyaning u yoki bu vazifalari insonga barcha vazifalarni yechish uchun emas, balki ba’zilarini yechishi kerak. Shu “Sodda tuzilma” tamoyilidir.

Shunday qilib, aqliy operasiyalar guruhnini tashkil qiladilar va ular uchun birlamchi omil mavjud (9.4.2-jadval).

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, 1,2,4,5 testlarda uchadan guruh omillari, 3 va 6 testda esa – ikkita omil ta’siri kuzatiladi.

Terstoun avvaliga Spirmenning bosh omil nazariyasini butunlay yoqlamagan.

Intellekt koeffisiyenti (IQ)ni ishlatish zaruriyati yo'q deb hisoblagan.

Birlamchi omillar bilan intellektni o'lchashni yoqlagan. Ammo bu ikkala olimning nazariyalarida umumiy katta farq sezirmaydi.

Spirmen va uning tarafdarlari o'z izlanishlarida tajribalarni kichik maktab yoshidagi bolalarda o'tkazishgan va buni hisobga olish lozim. Shuning uchun bu nazariyalarda omil Q ga urg'u beriladi. Ulardan farqli o'laroq Amerika olimlari kollej talabalarida sinovlar o'tkazishdi. Endi tajribalarda guruh omillariga ko'proq ahamiyat berildi va natijada o'ziga xos simptom komplekslar ham ajralib chiqdi.

Intellektni o'rghanish bo'yicha Amerika va Ingliz maktablarining qarashlarini ikkinchi darajali omillar yordamida yaqinlashuvini 1940 yildayoq R. Kettel belgilab bergen. Keyingi ishlarida Terstoun Spirmenning bosh omiliga o'xshash omilni mavjud ekanligini tan oldi.

Ikkinci tarafdan Spirmen ham Terstounning natijalari bilan o'zaro fikr almashdi, ammo amalda ular o'z fikrlarida qolishdi. Keyinchalik Terstounning nazariyasini yorqin namoyondasi bo'lib Gilford yetishib chiqdi.

## 9.5. Intellektning Gilford modeli

**A**merika psixologi Gilford (Guilford)ning nazariyasida omil intellekt modelining atasdig'idir, lekin uning qurish asbobi emas. Bu model uch o'lchovga va ularni bir-biriga nisbatiga o'zgarishiga asoslangan va har xil intellektual qobiliyatni aniqlaydi.

Intellekt omili bir sohada o'tkazilgan intellektual operasiyalar turi va undan hosil bo'lgan natija turkumidan iborat (9.5.1-rasm).


Gilford intellektual modelning *birlamchi o'lchovini* besh xil turdag'i operasiya orqali asoslashga harakat qilgan va ular quyidagilar:

- + *ma'lumotni tushunish* – (C);
- + *eslab qolish* (xotira) – (M);
- + *divergent fikrlash* – (D)
- + *konvergent fikrlash* (berilgan ma'lumotlardan mantiqan afzalroqlarini ishlab chiqarish) – (N)
- + *asoslangan xulosa chiqarish va baholash* (ma'lumot birliklarini solishtirish va baholash) – (E).

Mutaxassislarning fikricha, *ikkilamchi o'lchov* – berilgan atamalarni mazmun va mohiyati izohlash orqali aniqlanadi. Unga ko'ra:

- + *berilgan informasiya obrazli* – (F);
- + *ramziy* – (S);
- + *semantik* – (M);
- + *xulq-atvorli* – (B) *bo'lishi mumkin.*

### 9.5.1-rasm. Intellektning Gilford modeli



**Uchinchi o'lchov.** Bu ma'lum intellektual operasiyani konkret mazmunga qo'llanilishi natijasida paydo bo'lgan hosiladir.

Natijalar quyidagi alohida elementlar:

- ⊕ *birliklar* – (U);
- ⊕ *sinflar* – (C);
- ⊕ *munosabatlar* – (R);
- ⊕ *sistemalar* – (S);
- ⊕ *transformasiyalar* – (T);
- ⊕ *implikasiyalar* – (I) kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlari asosida 120 xil (5Ch4Ch6) intellekt omillari mavjudligi taxmin qilinadi va ularning har biri quyidagi uch shartli belgilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- ⊕ operasiya tipi;
- ⊕ axborot berish formasi;
- ⊕ olingan natija.

Yashirin obyektlarni aniqlash CFU belgisi bilan belgilanadi (operasiya – topish va aniqlash mazmun – obrazli natija – birlik, element ma'lumot). Boshqa insonni xulq-atvorini baholash qobiliyatini CBI oxirgi paytgacha 88 omil aniqlangan va ularni aniqlash testlari ishlab chiqarilgan.

Modelda aniqlangan omillar ortogonal (mustaqil) deb ataladi, bu yuqori daraja omillari borligini inkor etadi. Shu bilan bu nazariya intellektning umumiyligi asosini inkor etadi. Gilford ma'lumotlariga asosan barcha korrelyasiya koeffisiyentlarini 18% testlar oraliq'i – 0,10 dan +0,10 gacha (8677 tasi 48140 koeffisiyentdan) 24%da nolga teng ( $r=0$ ).

Bir qarashda, bu ma'lumotlar intellektni umumiyligi mavjudligini tasdiqlamaydi. Ammo, qo'lga kiritilgan natijalarini to'g'ri deb hisoblasak ham 76% r>0, mustaqil intellekt omillari ajratib olingan. Shuning uchun bu model o'zgarishlar ko'pligini yoki noldan ortiqligini tushuntirib bera olmaydi.

Gilford tomonidan fanga kiritilgan nazariy tushunchasi intellektning bir qator mustaqil qobiliyatlarga turlariga bo'linishiga olib keladi.

## 9.6. Ayzenkning intellektual modeli

Ingliz maktabining atoqli nomoyondalaridan biri Ayzenk (Eysenck), Gilford tomonidan kiritilgan chizmaning ayrim elementlaridan foydalaniadi.

Uning modeli chizmasi ham kub shaklida bo'lib, har tomoni har xil nomlanishlar bilan belgilangan va quyidagi ko'rinish hosil qilgan:


- *intellektual jarayonlar* (fikrlash, xotira, qabul qilish);
- *test materiallari* (verbal, atrofli);
- "sifat" (intellektual jarayonlari tezligi va kuchi).

Aniqlanishicha, intellekt kuchi vazifani bajarishdagi o'ta qattiq hafsalaga bilan bajarish va xatolarni tekshirishga moyillikdan tuziladi.

Gilfordning operasiyalarini o'zining "intellektual operasiyalari" o'xshashligini Ayzenk o'zi ham tasdiqlaydi.

"Test materiallari" va "mohiyat" kategoriyalari ham o'xshashdir. Faqat "fikrlash natijasi" kategoriysi o'rniga avtor "sifat" kategoriyasini kiritadi.

Ayzenk umumiyligi mavjudligini inkor qilmagan holda o'zining modellari Q-omil (Spirmenni) va birlamchi omillar (Terstounni) va IQ ni tezlik, qattiq xafsosalilik va xatolarni tekshirishga loyillik deb asoslaydi. Ayzenkning fikricha "Bugun bu model eng effektli va eng yaxshi" (Eysenck).



**9.6.1-rasm. Ayzenkning intellektual modeli**

Ayzenkning nomi uzoq vaqt davomida ingliz intellekt tadqiqotchilari orasida yetakchi o'rin egallagan.

## **9.7. Rezyume**

Intellektni aniqlashga oid yondoshuvlar bu davrda psixodiagnostikaning rivojlanish markazida bo'lib, natijada, uni o'lchaydigan testlar va ularning xilma-xil turlari taraqqiy etdi. Intellektni o'lchash muammosi esa, o'z navbatida intellekt testlari, aql testlari, maxsus qobiliyatlarni aniqlash testlari, umumiyligi intellektni aniqlash testi, kognitiv testlar, verbal va noverbal testlar, individual testlar, guruhiy testlarning rivojlanishi beqiyos hissasini qo'shdi. Natijada intellekt omillarining iyerarxik modeli yaratildi.

## **9.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Intellekt, aql, maxsus qobiliyat, kognitiv, verbal va noverbal, model, retikulyar omil, multifaktor nazariya.

## **9.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Intellektni aniqlashga oid qanday yondoshuvlarni bilasiz?
2. Intellektning o'lchaydigan testlar va ularning turlarini ajratib ko'rsating.
3. Intellekt nazariyalarining tabaqalanishiga kim asos solgan?
4. Intellektning Terstoun modelini sharhlab bering.
5. Intellektning Gilford modelini asoslang.
6. Ayzenkning intellektual modelini ta'riflab bering.

## **9.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Bolotova A.K. Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / A.K. Bolotova. – M.: Gardariki, 2006. – 382 s.*

*Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.*

*Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolnih zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya". – T., TGEU. 2005.*

*Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye / Pod red. K.M.Gurevicha, Ye.M.Borisovoy. 2-ye izd., ispr. – M.: 2000.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2005.*

*Hayitov O.E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Pedagogik psixologiya” kursi bo’yicha vaziyatli va ishchi o’yinlar to’plami. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixologiya” fani bo’yicha shaxsni o’rganishga doir testlar va metodikalar to’plami. – T., TDIU. 2005.

**Internet ssilka:**

<http://www.msu.ru/study/d...>

<http://psychol.ras.ru/ipp...>

<http://sobchik.newmail.ru/ApiLns/metod.html>

[http://www.piter.com/display.phtml?c\\_id=104&t\\_id=4...](http://www.piter.com/display.phtml?c_id=104&t_id=4...)

**X bob**

---

## **SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI O'RGANISH METODLARI**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Ijtimoiy munosabatlarning ko'pqirraligi.** Odamlar o'rtaida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlarining mexanizmlarini aniqlash.

**Ijtimoiy munosabatlar va muomalani o'rganish mezonlari.** Sosiometrik mezon. Kommunikativ mezon. Gnostik (bilish) mezonlar. Bevosita munosabatlarni baholash usullari. Munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi odamning xususiyatlarini baholash metodlari.

**Muomalaning turli vositalarini diagnostika qilish.** Intim (yaqin) masofa. Personal (shaxsiy) masofa. Ijtimoiy masofa. Ommaviy masofa. P. Ekmanning "FAST" – Facial Affect Scoring Technique deb nomlangan metodikasi.

**Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik – muomala madaniyati va kommunikativ mahorat ekanligi.** Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik. Kommunikativ bilimdonlik. Perseptiv bilimdonlik. Interaktiv bilimdonlik.

**Ijtimoiy-psixologik bilimdonlikni o'rganish metodlari.** Autopsixologik bilimdonlik. KOS-1 metodi. "Muloqotga kirishuvchanlik darajasi", "Muloqot", "Tinglashni bilasizmi?", "Fikrni bayon eta olish" kabi metodikalar.

**Sosiometrik usulda shaxsning ijtimoiy mavqyeini aniqlash imkoniyatlari.** V.Grabalning sosiometrik so'rovni o'tkazish shakli.

---

## 10.1. Ijtimoiy munosabatlarning ko'pqirraligi

Ijtimoiy munosabatlar aslida odamning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Bu jarayonni turli nazariy oqim vakillari o'zlaricha o'rghanishlari ma'lum. Masalan, interksionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari – odamlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur qiladilar. Shunga o'xshash hozirda turli tuman yondoshuvlar mavjud, lekin ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya – bu odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlarining mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu jarayonni boshqarish usullarini ishlab chiqishdir.

Yana bir muhim fikr shunday iboratki, har qanday ijtimoiy munosabatlar ko'pqirrali, bo'lib, har birining o'ziga xos kechish xususiyatlari va shart-sharoitlari, qonuniyatlari bo'ladi. Agar rahbar o'z jamoasidagi insoniy munosabatlar asosan nimaga asosan kechishini bilsa, uni boshqarish oson. Shunga ko'ra ta'kidlash mumkinki, agar jamoada haqiqiy smarali, ijodiy mehnatga safarbar etuvchi iqlim tashkil qilinmagan bo'lsa, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va muomala ham asosan hissiyotlarga, odamlarning bir-birlarini hurmat qilishlari, yoqtirish-yoqtirmasliklariga asoslanib qoladi. Odamlar ishga otlanar ekanlar, avvalo kimlarni ko'rishlari, kimlar bilan tushlikka chiqishlari yoki bir stol atrofida o'tirishlari, vaqtini o'tkazish uchun qaysi krossvord yoki gazetani o'qishini g'amin yeb keladi. Demak, bunday jamoada ish qoniqarsiz tashkil etilgan bo'lib, odamlar o'rtasidagi munosabatlar sof emosional-hissiy muomalaga tayanadi. Ana shunday yerlarda guruhbozlik, jamoaning kichik-kichik guruhchalarga bo'linib ketishi, buning oqibatida bir nechta norasmiy liderlarning paydo bo'lib, har biri o'z "ixlosmandlarini" o'ziga xos manfaatlar bilan atrofida birlashtirayotganligini ko'rish mumkin.

Boshqa jamoada esa ish butunlay boshqacha tashkil etilgan bo'lishi mumkin. Oqil va tashabbuskor rahbar qo'l ostida ishlayotganlar jamoani bir yaxlitlik deb tasavvur qilib, ishga ketayotganda, eng avvalo kecha oxiriga yetkazolmagan ishlari bor-yo'qligini, bugun qanday ishni va kim bilan, kim orqali bitkazishini, ishni yanada yaxshilash uchun bugun yana qanday choralar ko'ra olishi haqida o'ylaydi. Jamoaning har bir a'zosi eng avvalo ishni o'ylab uyidan chiqadi. Demak, bunday jamoadagi o'zaro shaxslararo munosabatlar ham ishchanlikka asoslannadi va jamoaning eng tashabbuskor, fidoiy, aqli a'zosi kim bo'lishidan, yoshi yoki jinsidan qat'iy nazar, norasmiy obro'ga ega bo'lishi va liderlikka da'vogar bo'lishi mumkin. Rahbar esa ana shunday tashabbuskor, mehnatkash, jonkuyar odamlar bilan doimo hisoblashadi va ular fikriga quloq soladi. Bundan rahbarning mahorati uning ana shu jamoadagi norasmiy va rasmiy liderlar bilan hamkorlikda ishslash olish san'ati bilan baholanadi.

Bundan tashqari, har bir konkret vaziyatda va jamoada odamlar o'rtasidagi munosabatlarning tukrli shakllari namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, ular o'rtasidagi o'zaro munosabat faqat rasmiy aloqalar bilan cheklanmay, bir vaqtning

o'zida norasmiy, shaxsiy munosabatlar bilan uyg'unlashadi. Agar umuman jamiyat miqyosida oladigan bo'lsak, ijtimoiy munosabatlarning siyosi, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy, diniy, ma'naviy sohalarda ro'y beradigan shakllarini ham farqlash mumkin.

## 10.2. Ijtimoiy munosabatlar va muomalani o'rganish mezonlari

Ijtimoiy munosabatlarni qanday yo'l bilan, qanday mezonlarga asoslanib o'rganish masalasi ham katta ahamiyatga ega. Bunda asosan 3 ta mezon nazarda tutiladi:

-  *sosiometrik mezon;*
-  *kommunikativ mezon;*
-  *gnostik (bilish) mezonlar.*

Shunga mos holda asosan ikki toifali uslublar qo'llaniladi:

-  bevosita munosabatlarni baholash usullari;
-  munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi odamning xususiyatlarini baholash metodlari.

Birinchi toifali uslublardan birini yuqorida ko'rib chiqdik, bu – sosiometrik uslub. Bu usulning o'ziga xosligi, tanlov mezonlari va savollarga qo'yildigan barcha talablar to'g'risida ko'plab adabiyotlarda batafsil yozilgan. Shuning uchun uning imkoniyatlari katta baho bergan tarzda unga alohida to'xtamaymiz. Alohida ta'kidlaymizki, oxirgi yillarda bu metod nafaqat konkret jamoada har bir shaxsning ijtimoiy mavqyeini aniqlash uchun emas, balki rahbarlikka zaxira shakllantirishda ham, iqtidorli talabalar yoki o'quvchilar to'g'risida birlamchi ma'lumot toplashda ham, "Kamolot" yetakchilari zahirasini aniqlashda ham ishlatilishi mumkin.

Demak, sosiometrik mezon shunday savolni nazarda tutadiki, uning yordamida jamoadagi odamlar o'rtaсидаги munosabatlar aniqlanadi.

Kommunikativ mezon esa sosiometrik tanlov sharoitlarida kimni, nima uchun tanlayotganligi to'g'risida aniq tasavvur xosil bo'lismeni nazarda tutadi. Beriladigan savollar mazmuniga ko'ra kuchli yoki kuchsiz xarakterli bo'lismi mumkin. Quyida biz ana shunday kuchli-kuchsiz savollarga misol keltiramiz:

- 1) Kuchsiz: "Kim bilan bo'sh vaqtingizni o'tkazishni xohlardingiz?"  
Kuchli: "Ish orasidagi tanaffuslarni kim bilan birga o'tkazishni xohlaysiz?"
- 2) Kuchsiz: "Kim bilan birga ishlashni xohlaysiz?"  
Kuchli: "Yangi chiqqan Farmoyishda belgilangan vazifalarni bajarishga kimni sherik qilishni istaysiz?"
- 3) Kuchsiz: "Bo'lim boshlig'ilikka kimni tanlagan bo'lardingiz?"  
Kuchli: "Yaqinda bo'limingizga yangi, manfaatli loyihami bajarish topshirigi beriladi. Ushbu loyiha boshliqlik qilishga eng loyiq shaxsni belgilang".

Demak, tanlov amalga oshiriladigan sharoitdan kelib chiqqan tarzda rasmiy va norasmiy savollar bo'lismi mumkin. Rasmiy savollar odamlarni ish-faoliyat maqsadlaridan kelib chiqqan tarzda bir-birlariga munosabatlarini izhor etishni nazarda tutsa, norasmiy savollar odamlar bo'sh vaqtlariga aloqador vaziyatlardagi munosabatlarini aniqlashga imkon beradi.

Uchinchi mezon – muloqatga kirishuvchi shaxslarning bevosita shaxsiy xususiyatlarini bilishni asos qilib olgan tarzda munosabatlarni qurishni nazarda

tutadi. Ma'lumki, psixologiyada verbal-lingvistik, paralingvistik hamda noverbal muloqat vositalari farqlanadi. Odamning gapirayotgan gapining mazsuniga qarab, suhbatdosh uning niyat, maslaklarini, munosabatlarini bila olishi masalaning bir tomoni. To'g'ri aynan shu yo'l suhbatdoshlarning ijtimoiy muloqoti xarakterini ma'lum ma'noda belgilaydi. Lekin gnostik nuqtai nazardan muloqot jarayonida suhbatdoshning suzlari mazmunidan tashqari ishlata digan belgilari katta informasion xususiyatga ega.

Muloqotning paralingvistik vositalari deganda, nutqning atrofidagi belgilar nazarda tutiladi. Bu nutqdagi intonasiya, gapirish tezligi, baladligi va tovushlarga xos xususiyatlardir.

Noverbal vositalar esa so'zsiz va umuman nutqqa aloqasi bo'limgan, lekin har qanday muomala jarayonida bo'ladigan belgilar nazarda tutiladi. Bu – odamning qiliqlari, yuzidagi belgilari, pantomimika, suhbatdoshlarning o'zaro fazoviy joylashishlari, uchrashuv vaqtisi-soati, kulgi yoki yig'i kabilardir.

### **10.3. Muomalaning turli vositalarini diagnostika qilish**

**A**gar muloqot jarayonini yaxlit bir faoliyat sifatida undagi asosiy maqsad – muomalaga kirishgan shaxslarning umumiyligi muammolarini yechish bo'ladigan bo'lsa, muloqotning tashabbuskori bo'lgan shaxsning ta'siri qanchalik adresatga – ta'sir yo'naltirilgan kimsaga yetib borishi katta amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham olimlar muloqotning samaradorligi ko'proq qaysi vositalarga bog'liqligiga qiziqadilar. Amerikalik olim Megrabyanning ma'lumotlariga ko'ra, birinchi uchrashuvda biz boshqalardan kelayotgan noverbal signallarga 55% ga ishonamiz, ulardan ta'sirlanamiz; 38% – paralingvistik va 7% gina nutqning bevosita mazmuniga ishonamiz. Shuning uchun ham obrazli tarzda "Kiyimga qarab kutib olinadi, aqlga qarab kuzatiladi" deyiladi. Keyingi uchrashuvlarda bu mutonosiblik, tabiiy, o'zgaradi.

Albatta, paralingvistik hamda noverbal vositalarning muloqatdagi o'mi va ulushi masalasi suhbatdoshlarning yosh, jins, kasb, hattoki, milliy xususiyatlariga bog'liq. Masalan, boshqa bir amerikalik olim Argayl turli millatlar vakillari muomalasida qiliqlar va qo'l harakatlarining kuchi va takrorlanishini o'rgangan. Ma'lum bo'lishicha, 1 soat mobaynida finlar bir marta qiliq qilarkan, italiyaliklar – 80 marotaba, fransuzlar – 20 va meksikaliklar 180 marta. Demak, har bir xalq vakilining asriy udumlari, rasm-rusmlari, odatlari va emosionalligiga qarab qiliq va harakatlar ma'lum o'rinni egallar va bu narsa o'z navbatida muloqotni kuchaytiradi, uni boyitadi.

Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning fazoviy joylashishlari hamda vaqt mezonlari amaliy ahamiyatga ega. Masalan, yuzma-yuz turib gaplashish, telefon orqali yoki qichqirib gapirishdan farq qiladi. Yoki muloqotning vaqt mezonlari ayniqsa diplomatik uchrashuvga o'z vaqtida kelish va unda odob-axloqqa qat'iy riosa qilish yoki aksincha, sherikni hurmat qilmaslik, uchrashuvga kechikib kelish, uzoqdan turib gaplashish, iyaklarni tepaga qaratib, kibor bilan gapni boshlash, muzokalararning har bir sekundi o'ziga xos ma'no va mazmun kasb etadi va mos tarzda sharxlanadi.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar psixologiyadagi maxsus bo'lim – **proksemika** tomonidan o'r ganiladi. Bu yo'nalishning asoschisi amerikalik E.Xoll bo'lib, uning o'zi proksemikani "fazoviy psixologiya" deb atagan. Masalan, u amerikaliklarga xos bo'lgan suhbatdoshning sheringiga nisbatan fazoviy joylashuvi xususiyatlarini aniqlab, muloqotning turli sharoiti va shakliga qarab, fazoviy yaqinlashuvning o'rtacha qiymatini aniqlagan:

-  *intim (yaqin) masofa – 0-45 sm;*
-  *personal (shaxsiy) masofa – 45-120 sm;*
-  *ijtimoiy masofa – 120-400 sm;*
-  *ommaviy masofa – 400-750 sm.*

Har bir masofa o'ziga xos muloqot vaziyatlariga mos. Vaqt va fazo bilan bog'liq aloqalarning o'ziga xos majmui *xronotoplar* deb ataladi. Amaliyotda "kasalxona palatasi xronotopi", "vagon yo'lovchilari xronotopi" va boshqalar aniqlangan.

Muloqotda suhbatdoshlarning ko'z qarashlari – vizual kontaktlari ham katta ahamiyatga ega. Vizual kontakt – bu qarashlar soni, ularning uzoqligi, qarashlardagi statika va dinamik almashinuvlar, ko'z olibqochishlar va boshqalardir. Argayl shulardan kelib chiqib, "yaqinlik (intimlik) formulasini" ishlab chiqqan va bunda intimlilik darajasi suhbatdoshlarning o'rtasidagi masofaga va ko'z qarashlarga bog'liqligini isbotlagan. Chunki ko'z qarashlar suhbatdoshning muloqotga tayyorligi, uni davom ettirish kerak yoki kerak emasligi haqida ma'lumot berib, suhbatning yo'nalishini belgilaydi.

Yana bir muhim ta'sirchan belgilar majmuini o'ziga mujassam etgan soha – bu yuzimizdir. Ilmiy adabiyotda yuz qiyofasining 2000 dan ziyod qirralari aniqlangan. Ularni ma'lum tartibda tizimga solish uchun **P. Ekman** "FAST" – *Facial Affect Scoring Technique* deb nomlangan metodikani ham taklif etgan. Unga ko'ra yuz uch zonaga bo'linadi: I – ko'z va peshona, II – burun va burun oldi, III – og'iz va iyak zonasi. Ularning har birida turlicha bo'ladigan 6 xil emosional holatlar ajratiladi – quvonch, jahl, hayrat, qo'rquv, g'am va nafrat.

Jon Chestara o'zining "Delovoy etiket" nomli kitobida (M., 1997) muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan va aniq ma'no va mohiyat kasb etadigan noverbal qiliqlarga tasnif bergan.

1. Agar suhbatdoshingiz barmoqlari bilan stolni tinmay chertayotgan bo'lsa, demak, u betoqat, yoki unga siz bilan suhbatlashish zerikarli, shuning uchun u asabiyashmoqda.
2. Agar suhbatdosh yelkalarini qisayotgan bo'lsa, demak, uni siz bilan bo'lgan suhbat befarq qoldirdi, unga baribir.
3. Agar u qo'l barmoqlarini qisayotgan bo'lsa, demak, u nimadandir juda xavotir, o'zini himoyasiz his qilmoqda.
4. Suhbatdoshning qo'llarini musht qilib turishi undagi vajohat belgisi, lekin u bu holatni, badjahlikni nazorat qilmoqchi.
5. Agar suhbatdoshning qo'llari behol bo'lib, kaftlari yuqoriga qaratilgan tarzda oldinga intilgan bo'lsa, demak, u nimadandir taajjubda, tashvishda, qiyinchilikda.
6. Agar sheringiz kostyuming tugmalarini yechsa, demak, u faollikga hozirlangan bo'ladi.
7. Qo'llar ko'krakda bog'langan bo'lsa, bu uning chaqirigi, nimanidir muhokama

qilishga tayyorligi ramzi.

8. Agar odam tez yurib borayotib, iyaklarini ko'targan holda qo'llarini erkin tashlab qo'yan bo'lsa, demak, u o'ziga ishonadi, u – qat'iyatli.
9. Odam ketayotganda, ikki quli cho'ntakda, boshi egik bo'lsa, demak uning ruhi tushgan, xafa, depressiya holatida bo'ladi.
10. Qo'l kaftlarining chakkaga qo'yilganligi uning nimagadir juda hayratlanib, qiziqayotganligining belgisidir.
11. Agar suhbatdosh qo'l mushti bilan o'zining iyagiga urayotgan bo'lsa, u nimanidir aniqlamoqchi, tashvishda bo'ladi.
12. Agar odam burniga tegib, yoki uni ishqalayotgan bo'lsa, demak, u nimanidir ustida o'yalamoqda.
13. Agar suhbatdosh qo'lini beliga tirab olgan bo'lsa, demak, u o'zining ustunligini bildirib, ochiq gaplashib olishga chaqirayotgan bo'ladi.
14. Agar qo'llarining uchlarini birlashtirib "uycha" shaklini eslatayotgan bo'lsa, bu – uning nimanidir o'playotganligi yoki nimagadir qiziqayotganligi ramzidir.
15. Agar siz gapi rayotganingizda suhbatdosh boshini yonbosh qilib tinglasa, demak, u jiddiy emas, hazilga moyil.
16. Agar suhbatdosh ko'z oynagini burun ustiga tushirib, tepasidan qarasa, bu uning sizdan ko'proq ma'lumotlarni kutayotganligi belgisidir.
17. Odam u yoqdan bu yoqqa borib kelayotgan bo'lsa, demak, u nimadandir tashvishda, asabiy lashmoqda.
18. Agar odam qansharini bosayotgan bo'lsa, demak, u charchagan (agar ko'zoynagi qismayotgan bo'lsa).
19. Agar odam stulning qirg'og'iga o'tirib olgan bo'lsa, bu yo sabrsizlik bilan kutayotganligi, yoki nimagadir qiziqish bildirayotganligi ramzidir.
20. Odam oyoqlarini bir-birining ustiga qo'yib olib, oyog'ini yengil tebratayotgan bo'lsa, demak, u zerikmoqda.
21. Agar odam ko'rsatgich barmog'i bilan o'qtalib, o'ziga xos tarzda harakat qilayotgan bo'lsa, u o'z qarashini ta'kidlamoqchi.
22. Agar odam oyoqlarini xontaxta yoki stol ustida ustma-ust qo'yib o'tirgan bo'lsa, u boshqalarda o'ziga xos taassurot qoldirmoqchi, o'zining tobe emasligini ko'rsatmoqchi.
23. Agar odam o'zini orqaga tashlab, qo'llarini bir-biriga bog'lab, bo'ynida ushlagan bo'lsa, demak, u dam olmoqchi, va boshqalarda taassurot qoldirmoqchi.
24. Gapi rayotgan paytida og'zini berkitishi, uning "tushunishingiz shart emas" degani.

Odamning bir qo'lini orqaga qilib, boshqa qo'li bilan tirsagini ushlab turishi, uning tajangligi va birov bilan gaplashish xohishi yo'qligini bildiradi".

Shunday qilib, biz odatiy, tabiiy deb idrok qiladigan faoliyatimiz bo'lgan – muloqotda ham ko'plab sirlar va o'ziga xos nozik tomonlar borki, ularning barchasi bizdan muloqotdagи bilimdonlikni va o'zgalarga va o'zimizga e'tiborliroq bo'lishimizni talab qiladi.

## 10.4. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik – muomala madaniyati va kommunikativ mahorat ekanligi

**K**o'pincha kundalik muloqotda biz "bilimdonlik" tushunchasini tez-tez ishlatalamiz. Ayniqsa, "professional bilimdonlik" tushunchasi ko'proq diqqatni tortadi. Lekin, ayniqsa, insonlar bilan ishslash borasida "kommunikativ bilimdonlik" tushunchasi ham ishlataladi. Bu aslida o'zgalar bilan til topisha bilish, o'z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog'lanadi. Psixologiyada, birinchi navbatda, boshqaruv psixologiyasida oxirgi paytlarda "ijtimoiy-psixologik bilimdonlik" tushunchasi ajratilmoqdaki, mohiyatan u – kommunikativ bilimdonlikdan kengroq va ko'pqamrovlidir.

*Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik* – bu shaxsning ijtimoiy-psixologik hodisalar hamda muomala qonuniyatlari, o'zgalarni bilish, to'g'ri idrok qilish, dili dagini anglash va shu asosda o'zaro hamkorlikni tashkil qilish borasidagi savodxonligidir.

"Amaliy ijtimoiy psixologiya" (1998) kitobining mualliflari ijtimoiy-psixologik bilimdonlikning 3 asosiy tarkibiy qismlarini ajratadi:

- ④ *kommunikativ bilimdonlik;*
- ④ *perseptiv bilimdonlik;*
- ④ *interaktiv bilimdonlik.*

Agar diqqat bilan bu tizimga qaralsa, u G.M.Andreyevaning uch tizimli muloqot to'g'risidagi nazariy qarashlaridan kelib chiqqanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (kommunikativ, perseptiv va interaktiv). (Andreyeva G.M. Sosialnaya psixologiya. M., 2000). Har qalay, bunday yondoshuv o'sha ko'pqirrali muloqot jarayonining asosiy sohalarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi.

## 10.5. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlikni o'rghanish metodlari. Autopsixologik bilimdonlik

**S**haxsning, birinchi navbatda, rahbarning ijtimoiy-psixologik bilimdonligini aniqlash uchun turli metodlar ishlataladi. Bular o'sha biz bilgan ko'plab muloqatga kirishuvchanlik sifatlarini aniqlash metodlaridir. Lekin ularning ko'pchiligi nazariy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq emas. Barcha metodik usullar ichida aynan shaxsning o'zgalar bilan tez va aniq ishchanlik va shaxsiy muloqotni o'rnata olishi, va tariqa boshqalarga ta'sir ko'rsata olish malakasini aniqlovchi KOS-1 metodi tadqiqotchilarda ko'proq ishonch uyg'otmoqda. Metodning qulayligi shundaki, u ko'p vaqt ni olmagan holda (10-15 daqiqa) 40 ta savolga "ha" yoki "yo'q" deb javob berishni taqozo etadi.

Bevosita kommunikativ bilimdonlikni aniqlash uchun "Muloqotga kirishuvchanlik darjasisi", "Muloqot", "Tinglashni bilasizmi?", "Fikrni bayon eta olish" kabi qator metodikalar qo'llaniladi. Muloqot jarayonida odam o'zini qanchalik nazorat qila olishi M. Snayderning maxsus testi ishlataladi.

Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik bevosita odam tomonidan o'zini o'zi bilish – autopsixologik bilimdonlik bilan ham bog'liq. Bu odamdag'i shunday malakalarki,

ular uni o'z sifatlarini diagnostika qila olish – o'z-o'zini diagnostika, o'z-o'zini tuzata olish (o'zini korreksiya), o'z-o'zini takomillashtira olish, o'ziga o'zi motivasiya bera olish, har qanday ma'lumotdan samarali foydalana olish, psixolingvistik bilimdonlikni nazarda tutadi.

## **10.6. Sosiometrik usulda shaxsning ijtimoiy mavqyeini aniqlash imkoniyatlari**

Jamoadagi har bir konkret odamning ijtimoiy mavqyei asosan sosiometrik usulda o'r ganib kelingan. Hozirgi vaqtga kelib, bu usulning yuzlab modifikasiyalari – shakllari mavjud. Lekin jamoadagi ma'naviy iqlimni, har bir jamaa a'zosining unda tutgan o'rni va mavqyeini aniqlashda sosiometriyaning qaysi shakli yoki ko'rinishidan foydalanmaylik, quydagilarni albatta belgilab olish kerak bo'ladi: maqsad nima, savollar mazmuni, savollar uchun mezonni aniqlash, tanlovnini ma'lum tarzda cheklash, so'rovni o'tkazish va natijalarni qayta ishlash. V.Grabal sosiometrik so'rovning o'ziga mos shaklini taklif etadi. Ma'lumki, sosiometriyaning an'anaviy shaklida shaxs mavqyei quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$C = \frac{guruh \cdot a'zosi \cdot tomonidan \cdot to'plangan \cdot ballar \cdot miqdori}{h - 1}$$

V.Grabal bu yerga yana boshqa indekslarni ham qo'shamdi: ta'sir, mashhurlik va yoqimtoylilik.

## **10.7. Rezyume**

Ijtimoiy munosabatlarning ko'pqirraligi, bu munosabatlarning o'ziga xos kechish xususiyatini xarakterlaydi. Ijtimoiy munosabatlar va muomalani o'r ganish, uning sosiometrik, kommunikativ va gnostik (bilish) mezonlarini tadqiq etilishini ta'minladi. Muloqotning paralingvistik vositalari hamda noverbal vositalari, uning diagnostika qilish jarayonini ko'pqirraligini ta'minlaydi. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik – muomala madaniyati va kommunikativ mahorat ekanligini tasdiqlab, kommunikativ, perceptiv va interaktiv bilimdonlikda namoyon bo'ladi.

## **10.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Munosabat, muomala, muloqot, sosometrik, kommunikativ, gnostik, paralingvistik, noverbal, proksemika, autopsixologiya, interaktiv.

## **10.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Ijtimoiy munosabatlarning ko'pqirraligi qaysi omillarga bog'liq?
2. Ijtimoiy munosabatlar va muomalani o'r ganishning necha turdag'i mezonini farqlanadi?
3. Muomalaning turli vositalarini diagnostika qilish deganda nimani tushunasiz?

4. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik – muomala madaniyatni va kommunikativ mahorat ekanligini asoslab bering.
5. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlikni o’rganish metodlari ajratib ko’rsating.
6. Sosiometriya usul orqali nimani aniqlash mumkin?

## **10.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Burlachuk L. Psixodiagnostika.* – SPb.: 2002.

*Karimova V.M. Psixologiya.* O’quv qo’llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O’AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.

*Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o’quv qo’llanma. – T.: “Universitet”, 1999. – 96 b.

*Karimova V.M., Akramova F.A. “Psixologiya”.* 1-qism. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.

*Karimova V.M., Akramova F.A. “Psixologiya”.* 2-qism. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 125 b.

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.* – T.: 1994

*Kvinn V. Prikladnaya psixologiya.* – SPb: Izdatelstvo “Piter”, 2000. – 560 s.

*Klimov Ye.A. Osnovi psixologii:* Uchebnik. – M.: 1997

*Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl.* – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.

*Meliya M. Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremennoego delovogo cheloveka / Marina Meliya.* – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.

*Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy:* V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.

*Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha.* – M.: Izd-vo “Institut prakticheskoy psixologii”; Voronej: Izd-vo NPO “MODEK”, 1998. – 688 s.

*Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov.* – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.

*Sherbakova Yu.V. Spesialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye.* – M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. – 80 s.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar matni.* – T.: TDIU, 2005. – 338 b.

*Hayitov O.E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik.* – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami.* – T., TDIU. 2005.

### **Internet ssilka:**

<http://www.my-shop.ru/shop/books/12594.html>

<http://www.psyho.ru/books/psyhoanalys/book1.htm>

<http://www.etel.dn.ua/~psychology/stat/NauchnRaz/BurlachukLF.htm>

<http://psychoanalyse.narod.ru/rorsch1.htm>

## XI bob

---

### PSIXODIAGNOSTIKANING YUQORI SHAKLLANGAN METODIKALARI

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Test – so'rov.** Test – so'rov haqida qisqacha tushuncha. Shaxsdagi kommunikativ va tashkilotchilik layoqatlarini aniqlashga qaratilgan 40 savoldan iborat KOS-2 metodikasi.

**Test – topshiriq.** Test – topshiriq haqida qisqacha tushuncha.

**Proyektiv metodlar.** Proyektiv usullar va ularning sharhi.

**Shaxsiy so'rovnomalar va shaxs nazariyasi.** Empirik va faktorli so'rovnomalar. G.Ayzenk bo'yicha psixotizm shkalasi.

**Anketa metodi.** Kirish qismi yoki "respondentga murojaat". Asosiy qism. Yakuniy qism yoki "pasportichka". Anketalar tarqatilish uslubi.

**Tabiiy va laboratoriya (klinik) metodlar.** F.Lazurskiyning tabiiy metod xususidagi fikrlari. Laboratoriya eksperimenti.

---

## 11.1. Test – so’rov

**T**est – so’rov oldindan qat’iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, shaxsdagi kommunikativ va tashkilotchilik layoqatlarini aniqlashga qaratilgan 40 savoldan iborat KOS-2 metodikasi.

Ushbu uslub yordamida shaxsdagi kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyati (odamlar bilan aniq va tez ishchanlik muloqotini o’rnata olish, o’z tanishlari davrasini kengaytira olish, ommaviy tadbirdarda qatnashuvi, odamlarga ta’sir ko’rsata olish va bunda tashabbuskorlik sifatlarini namoyon qila olish kabilalar)ni aniqlashga imkon beradi.

Metodika 40 ta savollardan iborat bo’lib, tekshiriluvchi savollarga 10-15 daqiqa davomida “**ha**” yoki “**yo’q**” javoblarini berishi kerak.

1. Sizda odamlarni o’rganish va turli xil odamlar bilan tanishishga ishtiyoq bormi?
2. Sizga jamoatchilik ishlari bilan shug’ullanish yoqadimi?
3. O’rtoqlarinigizdan kimdir sizni xafa qilsa, uzoq vaqt gina saqlaysizmi?
4. Paydo bo’lgan jiddiy vaziyatlarga moslashishingiz qiyinmi?
5. Siz doimo muloqotda bo’ladigan do’stlaringiz ko’pmi?
6. Siz ko’pincha do’stlaringizni o’z fikringizga ko’ndira olasizmi?
7. Siz odamlar bilan muloqotda bo’lishdan ko’ra bo’sh vaqtingizda kitob o’qib yoki boshqa mashg’ulotlar bilan band bo’lib o’tkazishingizni afzal ko’rishingiz rostmi?
8. O’z niyatlariningizga yetish yo’lida qiyinchilik paydo bo’lsa, o’z niyatningizdan qaytishingiz osonmi?
9. Siz o’zingizdan kattaroq yoshli odamlar bilan til topishib ketishingiz osonmi?
10. Siz o’zingiz yoki do’stlaringiz bilan turli o’yinlar va mashg’ulotlar o’ylab topishni yaxshi ko’rasizmi?
11. Siz uchun begona bo’lgan yangi odamlar davrasiga qo’shilib ketishingiz qiyinmi?
12. Siz tez-tez mo’ljallab qo’yan ishlaringizni boshqa kunga ko’chirasizmi?
13. Siz notanish odamlar bilan tez va oson muomalaga kirishib ketaversizmi?
14. Siz o’z o’rtoqlaringizning sizning nuqtai nazaringizni qabul qilishlariga intilasizmi?
15. Siz yangi jamoaga tez kirishib ketasizmi?
16. Sizning o’rtoqlaringiz o’z so’zları yoki va’dalari ustidan chiqmasalar ham ular bilan nizoga bormasligingiz rostmi?
17. Har qanday qulay vaziyatda yangi tanishlar orttirishga harakat qilasizmi?
18. Muhim masalalar yuzasidan qaror qabul qilish kerak bo’lganda, har doim tashabbusni o’z bo’yningizga olishingiz rostmi?
19. Sizning odamlarni yoqtirmay qolib, o’zingiz yolgiz qolishga intilishingiz rostmi?
20. Notanish vaziyatlarda o’zingizni yo’qotib qo’yishingiz rostmi?
21. Doimo odamlar davrasida bo’lish Sizga yoqadimi?
22. Boshlagan ishingizni oxiriga yetkaza olmasangiz, achchiqlanasizmi?
23. Notanish odam bilan tanishish uchun tashabbus ko’rsatish kerak bo’lsa, o’zingizni noqulay sezasizmi?
24. Siz muntazam urtoqlar bilan birga bo’lishdan charchaysizmi?
25. Siz ommaviy o’yinlarda qatnashishni yoqtirasizmi?
26. Do’stlaringiz manfaatlariga aloqador ishlarda tez-tez tashabbus ko’rsatib turasizmi?
27. Notanish odamlar orasida o’zingizni noqulay sezishingiz rostmi?
28. Siz o’zingizning xaqligingizni isbot qilishdan tortinishingiz rostmi?

29. Notanishlar davrasiga xursandchilik muhitini olib kirish Siz uchun qiyinchilik tugdirmaydimi?
30. Jamoat ishlariga faol ishtirok etishingiz rostmi?
31. Siz o'z tanishlaringiz doirasini toraytirishga intilasizmi?
32. O'z tanishlaringiz va o'rtoqlaringiz qullab-quvvatlamagan fikrni himoya qilishga intilmasligingiz rostmi?
33. Umuman notanish davrada o'zingizni erkin tutasizmi?
34. O'z o'rtoqlaringiz uchun turli tadbirlar o'tkazishga bajonidil kirishasizmi?
35. Katta auditoriyada yoki ko'pchilik ichida gapirish lozim bo'lganda, o'zingizni unchalik erkin va dadil his qila olmasligingiz rostmi?
36. Amaliy uchrashuv va uchrashuvlarga tez-tez kech qoladigan odatingiz bormi?
37. Do'stlaringiz ko'pligi rostmi?
38. Siz o'z do'stlaringiz davrasida doimo diqqat markazida bo'lasizmi?
39. Notanish odamlar bilan gaplashganda, doimo o'zingizni behalovat his qilib, uyalishingiz rostmi?
40. Katta tanishlar davrasida xijolat chekishingiz rostmi?

Qayta ishslash uchun kalit:

Kommunikativ layoqatlar:

(+) **Ha** 1, 5, 9, 13, 17, 21, 25, 29, 33, 37

(-) **Yo'q** 3, 7, 11, 15, 19, 23, 27, 31, 35, 39.

Tashkilotchilik layoqatlari:

(+) **Ha** 2, 6, 10, 14, 18, 22, 26, 30, 34, 38

(-) **Yo'q** 4, 8, 12, 16, 20, 24, 28, 32, 36, 40.

## **11.2. Test – topshiriq**

**T**est – topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreativlilikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandard, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiyligi afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi – ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikasiya qilishi mumkinligidir.

### ***Topshiriq***

Autodiagnostika metodlaridan xohlaganini tanlab, o'zingiz haqingizda "avtopsixologik portret" yozing.

### 11.3. Proyektiv metodlar

**P**royektiv metodlar test usullarining bir ko'rinishi hisoblanib, ularda tekshiriluvchiga aniq tizimga yoki ko'rinishga ega bo'lmanan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharhlash topshirig'i beriladi. Binobarin, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo'lgan rasmlar, tugallanmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishi mavjud emas buyumlar, yog'ochlar berilishi, yoki ularga qarab tekshiriluvchi o'zining hissiy kechinmalari, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baholashi kutiladi.

Proyektiv usullar qatoriga mashhur "Rorshaxning siyoh dog'lari" testini kiritish mumkin (1921y.). Bu – ikki tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil dog'lardan iborat bo'lib, har bir "dog'" nimaning shaklini eslatishi so'raladi. Uning og'zidan chiqqan so'zlar, assosiasiyalarga qarab (kontent-tahlil qilinib), shaxs xususiyatlari yuzasidan xulosa chiqariladi.

Yana bir proyektiv usul – bu S.Rozensvegning rasmli assosiasiyalaridir. Bunda turmushda tez-tez uchrab turadiganziddiyatlari vaziyatlarni aks ettirgan rasmlar tekshiriluvchiga tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda gavdalantiriladi, unga qarama-qarshi tomondag'i shaxs hali javob qaytarib ulgurmagan, tekshiriluvchidan tekshiruvchi tez, qisqa muddat ichida bo'sh kataklarga qaytarilishi kutilayotgan javobni yozishni so'raydi. Berilgan javoblarga qarab shaxsning yo'nalishi, uning ziddiyatlarga munosabati, jaholat hissining xususiyatlari, bu hisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash faktlar to'planadi.

### 11.4. Shaxsiy so'rovnomalari va shaxs nazariyasi

**Y**uqorida aytilganidek, so'rovnomalari empirik va faktorli bo'lishi mumkin. Empirik so'rovnomalari – shaxsning test qilinayotgan xulqi yoki xususiyatiga aloqador tanlangan biror bir kriteriy asosida sinalgan guruhlarga ajratish imkonini beradigan, savol (topshiriq)larni izlash, yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday kriteriyalar klinik tashxis yoki sindrom bo'lishi mumkin. Masalan, MMRI lar shkalalarining tasdiqlari ko'pincha turli nazariyaga tegishli bo'lgan bemorlar javoblari bilan shakllantirildi. Shunga ko'ra bunday so'rovnomalarni qo'llab biz tekshirilayotgan shaxs disgarmonik rivojlanishi turlaridan biri "yaqinlik"ni o'rnatamiz. Bunday yondoshuv tekshiruv aloqalari tahlilini talab qilmaydi va javoblarni empirik ko'rsatkichlar sifatida tushunish bilan chegaralanishga imkon beradi. Ko'pgina chet el psixolog-amaliyotchilar faoliyatlarida empirik so'rovnomalardan foydalanadi. (Hathaway; Wade s Baker)

Simptom tashxis uchun "Empirik" so'rovnomalarni qo'llash inkor qilinmaydi, ammo bu bilan bog'liq bo'lgan muammolarning ko'p qismi esa texnik xarakterga ega. Ularning yordami bilan amalga oshirilgan tashxisning anqligi, ko'pincha statistik qonuniyatlarni to'liq ochib berish bilan bog'liq bo'ladi. So'rovnomalarni tashkil qilayotganlar uchun javoblarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi ahamiyatsiz bo'lib, ularning har ikkalasi ham biror bir qarorga kelish uchun imkon yaratadi,

masalan, klinik-psixologik tashxis masalalarida olingen javoblar yordamida “kodlar va egrilar kasalxonaga o’z sindromlari, nozologik shakllari hamda psixologiya turlari va hokazoni faqat formal ko’rinishda qaytaradi”. Bunday so’rovnomalardan foydalanish kasallikning individual suratini korreksiya va terapiyaning qulay yo’llarini belgilashda imkon berib, uning samarasini obyektiv baholashga erishishga olib keldi.

“Faktorli so’rovnomalari” terminida ularning 2 turi birlashadi – shaxs belgilari so’rovnomasni va tipologik so’rovnomalari. Masalan, Ayzenk so’rovnomasni belgi (omillar) to’plashiga tegishli bo’lmagan turli shaxslar haqida to’liq ma’lumot sifatida ajratib ko’rsatish asosida ishlab chiqilgan. Bunday yondoshuv shaxsiy belgilar emas, balki so’rovnomalarni konstruksiyalash tekshirilayotganlarni guruhlashni talab qiladi. (V.M.Meshnikov, L.T.Yampolskiy). Bunda, tashxis shaxsga mos keladigan belgilarni taqqoslash bilan amalga oshirilib sinalayotganlarni guruhlash uchun shaxs belgilarini yaqinlik darajasida o’lchashda Faktorli tahlildan foydalaniadi. Ya’ni Ayzenk izlanishlari “tekshirishga berilgan guruhlarni birlashtirish” haqida boradi (har bir sinaluvchi oldindan qaysi guruhga mansubligi ma’lum bo’ladi). Topshiriq tekshirilayotgan guruhlarni ruhiy belgilariga ko’ra ajratish qoidasini topishga qaratilgan.

Boshqa yo’li ham bo’lib, u tekshirilganmagan shaxs belgilarini guruhlash (belgi). Bu belgilar ko’rinishi darajasiga muvofiq tashxis amalga oshiriladi. Shaxs belgilar bo’yicha so’rovnomalarning tipik vakili deb Kettelning *16RF*ini aytish bilan kifoyalanish mumkin. Bu yerda Kettellning fikri “Shaxsning dastlabki asosiy xususiyatlarini ochib berish” bo’yicha uslublarning yana ham mazmunli va oddiy o’zaro zinch bog’langan yetarli darajada katta guruhlар to’plamining oldingi uslubini o’zgartirish Faktorli tahlil hisoblanadi.

G.Ayzenk bo’yicha psixotizm shkalasi:

### **“Ha” tayanch javobi uchun savollar.**

22. Siz og’ir yoki kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqaruvchi narkotik preparatlarni iste’mol qilasizmi?
26. Sevgan kishilaringizni xafa qilganda rohatlanish hissini sezasizmi?
30. Sizga noxushlikni keltirishni xohlovchi dushmaningiz bormi?
33. Sizning xazillaringiz kishilarga og’ir botishidan rohatlanasizmi?
43. Siz oilaviy turmushni bekor qilinishi zarur bo’lgan ijtimoiy institut deb hisoblaysizmi?
46. Mashinani sekin, ehtiyyotkorlik bilan boshqaradigan haydovchilar sizga salbiy ta’sir etadimi?
50. Turli taomlarning mazasi deyarli bir xil deb aytta olasizmi?
65. Sizdan o’zini chetga tortadigan insonlar ham bormi?
67. Insonlar o’zining ko’p vaqtini kelajak uchun mablag’ yig’ish yoki sug’urta qilishga sarflaydi deb o’ylaysizmi?
74. Poyezdga shoshayotganingizda ko’pincha vokzalga so’nggi daqiqalarda yetib kelasizmi?
76. Kishilar bilan do’stona munosabatingiz tez-tez sizning aybingizsiz yakun topadimi?
79. Hayvonlarga ba’zida jig’iga tegish sizga yoqadimi?
83. Kishilarning sizdan hayiqishi yoqadimi?

87. Kishilar sizni tez-tez aldaydi deb hisoblaysizmi?

### **“Yo’q” tayanch javobi uchun savollar:**

- 2.Harakatlaringizni amalga oshirishdan oldin, ularni o’ylab ko’rasizmi?
- 6.Nimanidir, kimgadir berishingiz kerakligini tan olishdan xavotirlanmaysizmi?
- 9.Tunda uyingiz eshigini puxta berkitasizmi?
- 11.Qiynalayotgan bola yoki hayvonni ko’rganingizda qattiq xafa bo’lasizmi?
- 18.Hayoti va mulkini sug’urtalash ma’noga ega deb hisoblaysizmi?
- 37.Yaxshi xulq, ozodalik va pokizalik siz uchun katta ahamiyatga egami?
- 53.Ishingiz xatoligini sezsangiz xavotir bo’lasizmi?
- 57.Uchrashuv va ko’rishuvlarga o’z vaqtida kelishni afzal bilasizmi?
- 61.Onangiz – mehribon, halol ayol (halol va mehribon ayol edi?)
- 71.Insonlar bilan qo’pol muomala qilmaslikka harakat qilasizmi?
- 90.Qopqonga tushgan hayvonlarga achinish, rahmdillik hissini sezasizmi?

Empirik so’rovnomalari omillaridan farqli ravishda ba’zi bir mavqye, nazariy qarashlarga asoslanmaydi deb bo’lmaydi. Qat’iy aytganda, har bir empirik so’rovnoma muayyan nazariya amalga oshiriladi. Masalan, MMRI larda bunday ko’rinishida Krepelining klinik tasnifi qatnashadi, shuningdek me’yor patologiya “qo’shilgan” sifatida ko’rsatiladi. Faktorli so’rovnomalari mualliflarining nazariyalari yana ham aniq, ravshan qatnashadi. Har qanday holatda ham nazariyani, e’tiborga olmaslik asosida ba’zida faqatgina miqdoriy dalillar bo’yicha u yoki bu uslubiy ko’rsatkichlar bilan – bashorat va tashxisda xatoga yo’l qo’yish mumkin. Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, so’rovnomalari yaratish bo’yicha MDH davlatlarining mashhur mualliflaridan biri G.Ayzenkning nazariy qarashlarida yana ham chuqurroq to’xtalib o’tamiz (nafaqat MDHda!). Ma’lum bo’lishicha bu so’rovnama dastlab neyrotizm tashxisi uchun mo’ljallanib, tez orada ekstroversiya-introversiya keyinchalik esa psixotizmga o’xhash shaxsiy o’lchovlar qo’shildi. Ayzenk so’rovnomasiga ushbu o’lchovlar bilan to’ldirilgan bo’lsa ham u MDH psixologlari izlanishlarida keng tatbiq etilmay, aynan shu o’lchovda shaxs uslubining bunday turini loyihalashga nazariyaning ta’sirini ko’rsatish uchun bu o’lchovlar ustida chuqurroq to’xtalish lozim.

G.Ayzenk (Eysenck) E.Krechmer fikrlari ta’siri ostida o’zining ishlarida psixotizmni shaxsnинг alohida parametrlari sifatida ko’rib chiqadi. Psixotizm shkalasini<sup>1</sup> (R) o’z ichiga olgan ilk so’rovnama keyinroq ro’yobga chiqdi (H.Eysenck, S. Eysenck).

Yuqorida ushbu shkalani tashkil etuvchi savollar keltirilgan.

G.Ayzenk va S. Ayzenk (1975) psixotizmni shaxsiy o’lchovlar sifatida ajratib ko’rsatishda quyidagilardan foydalandi:

- ✚ ruhiy parokandalik va me’yorni ba’zi bir kontinumlar keltirib chiqaradi;
- ✚ nevroz va psixoz – turli va bir-biriga bog’liq bo’lmagan o’lchovlar (di-

---

<sup>1</sup>Bu o’lchov G.Ayzenk tomonidan tough-mindedness (qat’iy qiziqish, arang fikrlash) sifatida ham aniqlangan. Psixotizmga bunday sinonimini kiritishning maqsadga muvofiqligi asoslanmagan. O’zini dono hisoblab, atrofdagilar ichida zerikish hissini uyg’otadigan insonni, sut sotuvchi xayolida Napoleon bo’lganiga o’xshatish mumkin. (Bishop, 1977,127-r.)

mensions). Psixoz va me'yorning o'zaro ajralmas aloqasini e'lon qilish opponentlarning keskin tanqidiga uchradi.

Ta'kidlaganimizdek, "kontinuumning mavjudligi haqidagi so'nggi holat" ruhiy parokandalik – me'yor yangilik emas (me'yorning so'nggi darajasi ko'rinishi). Ilgari shu asosda (E va N) shaxsiylik shkalalari yaratilgan. Ularning muallifi hisoblashicha, ruhiy tetik insonlarni tekshirish asosida aniqlangan shaxsning muhim xarakteristikasi ko'rsatilgan, o'lchov tizimini ishlab chiqish va foydalanish zarur bo'lgan ko'pgina bir biridan farqli rubrikalar bilan kasalliklarning an'anaviy tasnifi o'rniga har bir inson uchun miqdoriy baho berish va martabali o'rinni topish mumkinligi bo'yicha, bo'yicha ikki (E va N – L.B.) o'lchovga egamiz, turfa psixologlarning kasallik nomini o'zgaruvchan sonlari o'rniga tashxisning ishonchlilik darajasi pastligi bilan (Eysenck).

Eskirgan va hatto "kasallik modeli" o'lhash tizimiga almashtirilishi lozim. "Kontinuallikni, diskontinuallikka shunday almashtiriladi, o'lhashni esa – diskret tasnifga". O'tgan vaqt davomida ikki o'lchov uchinchisini bilan to'dirilib, Ayzenkning keyingi qarashlarida esa o'zgarmas bo'lib, qolmoqda.

G.Ayzenk tomonidan ajratilgan shaxs o'lchovi psixotizm misolida ko'rib chiqilgan, lekin bu boshqa fikrlar qilinishi kerak degani emas. Shunday qilib, Gilford (*Gilford*) shaxsning muhim o'lchovaridan biri hisoblangan ekstrataxminni rad etmagan holda Ayzenkning qarashlari noto'g'rilingini isbotlaydi. Unda bu omil ikkinchi darajali – ikki birnchi darajali omilning mosligi: S (kirishimlilik) va R (ratimiya, yoki impulssivlik). Ayzenk (*Eysenck*) bu tanqidni asosli ravishda rad eta olmadi.

Shaxs xislatlarini ajratib ko'rsatishga asoslangan yondoshuv ancha zaif. Mazkur yondoshuvning yirik vakili Kettellning tadqiqotlariga ifodalangan empirizm, shaxs xislatlarini ifodalovchi son va mazmun haqidagi ba'zi dastlabki nazariy tasavvurlarni mensimaslik xos. Muallif tomonidan tanlagan *16PF* ma'lumotlarni yig'ish texnikasida o'zgaruvchi aloqalar o'rtasidagi funksional aloqalar haqida hyech qanday ma'lumot yo'q, bu aloqalar korrelyasiyalar – o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik choralar ko'rinda ifodalanadi. A.Anastazi (1982) ta'kidlaydiki, subyektiv baholar korrelyasiyasi yordamida aniqlanadigan omillar ijtimoiy stereotip va fikrlardagi boshqa xatolar, shaxs xususitlari tuzilmasiga ta'sirni aks ettirish mumkin.

Buning isboti Kattellning dastlabki omillarini tiklash imkoniyatining yo'qligi hisoblanadi. (H.Eysenck). Kettel kundalik hayotdagisi inson fe'l-atvorini ro'yxatga olish yo'li bilan olingan I – ma'lumotlar asosida va so'rovnomalar yordamida olingan Q – ma'lumotlar asosida ajratilgan tuzilmali elementlarning omillardagi identivligi haqidagi so'nggi ilmiy farzga aniqlik krita olmadi. Shunday qilib, Faktorli so'rovnomalar yordamida olingan natijalarni baholashda ehtiyojkorlik zarur.

## 11.5. Anketa metodi

**A**nketa metodi hammaga tanish bo'lgan usullardan biri. Lekin ko'pincha anketani o'tkazgan odam uning tuzilishi qanchalik qiyinligini yoki olingach ma'lumotlarni qayta ishslash, ulami to'g'ri sharhslash naqadar qiyin ekanligini tasavvur qilmaydi. Kiritilgan savollar mazmuniga ko'ra anketa ochiq va yopiq

turlarga bo'linadi. Ochiq anketa respondentdan o'z fikrini erkin bayon etishni talab qiladi, yopiq shakldagi anketa savollarining esa javoblari oldindan berilgan bo'lib, tekshiriluvchi o'ziga ma'qul bo'lgan, o'zining qarashlari, fikrlari bilan mos kelgan javobni belgilab beradi. Ochiq savollarning kamchiligi – respondentlarning har doim ham qo'yilgan vazifaga yetarli darajada – mas'uliyat bilan qaramasliklari hamda berilgan javoblarni statistik jihatdan ishlov berishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, yopiq anketada respondentga tekshiriluvchi tomonidan o'z fikriga ergashtirishga o'xshash holat yoki har doim ham hamma savolning barcha javob variantlarini topib bo'lmaslikdir.

Shuning uchun oxirgi paytda yarim yopiq savaollardan iborat anketalar tuzilmoqdaki, ularda javob varinatlaridan tashqari, yana fikr bildirish uchun qo'shimcha qatorlar qoldiriladi.

Odatda anketa tuzilishi jihatdan uch qismga bo'linadi:

1. **Kirish qismi yoki “respondentga murojaat”.** Bu qismda odatda tadqiqot maqsadlari va ularning qanday foydasi borligi, tekshiriluvchining shaxsiy ishtiroki nima berishi, olingan ma'lumotlarning umumlashtirilgan holda ishlatalishi (anonimlik), anketaning to'ldirish yo'llari va boshqalar yoziladi. Yo'riqnomalar – murojaatning qanchalik yaxshi yozilganligi bevosita tekshiriluvchining ishga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

2. **Asosiy qism.** Bunga savollar kiritiladi.

3. **Yakuniy qism yoki “pasportichka”.** Bu qism respondentning shaxsiy sifatidagi obyektiv ma'lumotlarni olishga qaratilgan bo'lib, unda tekshiriluvchining jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, kasb-kori va boshqalar so'raladi.

Anketalar tarqatilish uslubiga ko'ra:

- ⊕ *qo'l bilan tarqatiladigan;*
- ⊕ *pochta, E-mail yoki SMS orqali yuboriladigan;*
- ⊕ *gazeta yoki jurnallar orqali to'ldiriladigan turlarga bo'linadi.*

Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga odatda, statistik qayta ishlov beriladi yoki ular kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilinadi.

## 11.6. Tabiiy va laboratoriya (klinik) metodlar

**P**sixodiagnostik eksperiment – bu ijtimoiy hodisalarni o'rganish maqsadida tekshiruvchi bilan tekshirilovi o'rtaida maqsadga yo'naltirilgan muloqotdir. Uning ikki xil shakli qo'llaniladi: tabiiy va laboratoriya eksperimenti.

Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Metodning ilmiy asosi 1910 yilda F.Lazurskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilar esperimentdan bexabar bo'lishi, tadqiqot dasturi shart-sharoit bilan muvofiqlashtirilishi hamda kundalik hayot tarzidan chetga og'ishlar bo'lmasligi lozimdir.

Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblar, yo'l-yo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron hisoblash mashinalari (dispoleylar), qurilmalar, moslama va jihozlar mavjud. Ular odamdagini

psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o'lchashda qo'llannadi. Ko'pincha detektorlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, xronorefleksometr, lyuksmetr, anomaloskop, tahistoskop, audiometr, esteziometr, elektromiogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi.

Laboratoriya metodi yordami bilan diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari, emosional hamda irodaviy va aqliy zo'riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, shofyor, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko'tarish)ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko'rsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, hissiy-irodaviy, asabiy zo'riqish, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi.

Laboratoriya eksperimenti odatda maxsus sharoitlarda, alohida xonalarda, zarur asbob-uskunalar yordamida o'tkaziladi. Xorijda birinchi marta laboratoriya sharoitida ijtimoiy-psixologik hodisalar va jarayonlarning namoyon bo'lismeni aniqlashni G.Olport, V.Mede, Mayer, K.Levin va boshqalar o'rgangan bo'lsa, Rossiyada V.Bextirov faoliyat yuritgan.

Keyinchalik B.Ananyev, Ye.Kuzmin, V.Merlin, V.Myasishyev, L.Umanskiylar tomonidan bu metodning yangi qirralari ishlab chiqildi va psixodiagnostikada **apparatura** uslubi keng qo'llanila boshlandi. R.Eshbi tomonidan kashf qilinib, F.Gorbov tomonidan takomillashtirilgan **gomeostat** metodi, L.Umanskiy tomonidan yaratilgan guruh uchun **integratorlar** paydo bo'ladi.

## 11.7. Rezyume

Psixika tashxisida shaxsiyat so'rovnomalardan foydalanish uzoq tarixga ega. Psixolog-amaliyotchilar o'rtaсидаги оммабоплиги bo'yicha ular bir necha o'n yilliklar davomida shaxsiyatni baholash vositalari qatoridan birinchi o'rinni egallaydi. Bu uslubiyatning turli-tumanligi shunday kengki unga mos sifat yoki shaxsiyat turini topish juda mushkul bo'lib, ularni o'lhash uchun mos so'rovnomalarni ishlab chiqishning iloji bo'lmaydi. So'rovnomalardan foydalanishni afzal ko'rish psixolog-amaliyotchilarni shaxsiyatni baholash zaruriyatiga ro'para qilishi, tushunarli. Ma'lumotlarni ishlab chiqishdagi taqqoslashi yengilligi, qo'llash oddiyligi shaxsiy so'rovnomalarining o'ziga jalb qiluvchi tomoni bo'lgan va bo'lib qoladi.

Bunda oson va tez olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bilan bog'liq muammolar o'rganilmay qolib ketmoqda. Bu bobda ko'rib chiqilgan tadqiqotlar biz tekshirayotgan bemorlarga taklif etilayotgan savollarga javoblar (tasdiqlovlar) shakllanish jarayoniga nazar solish, bu jarayondagi natijalarning ishonchliligi nuqtai nazaridan zaifroq bo'g'inlarini aniqoash imkonini beradi. Nihoyat, bunday yondoshuv tekshirayotganlarning javoblari omillarining sezilarli miqdori ta'sirida shakllanishini tushunish imkonini beradi. Ulardan biri, masalan, biz o'lhashga intilayotgan shaxsiyat xususiyati bo'lishi mumkin.

Shaxs haqidagi so'rovnomalar yordamida olinayotgan bilimlarning ishonchliligida ularning mualliflarining nazariy qarashlari bevosita aloqaga ega.

Asosiy shaxs, uning tuzilishi haqidagi ba'zi tasavvurlar bo'lmagan so'rovnomanini tasavvur qilish juda mushkul. Bunday tasavvurlar empirik so'rovnomalardagi kabi noaniq va juda oddiy bo'lishi mumkin. Boshqa so'rovnomalar ortida (ular kam emas) uzoq vaqt davomida ishlab chiqiladigan shaxs nazariyasi, bundan tashqari, universiallikka da'vogar nazariyalar turadi.

Shaxsiy so'rovnomalar bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqishga xulosa qilib yana bir bor ta'kidlaymizki, ular yordamida olinadigan ma'lumotlar ehtimoliy-mo'jal ma'nosiga ega. Ular subyekt haqidagi tayyor haqiqat emas, balki kelajakda shaxsni o'rganish uchun asos hisoblanadi.

## **11.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Test-so'rov, test-topshiriq, anketa, autodiagnostika, kontinuallik, diskontinuallik, proyektiv test, psixotizm, so'rovnoma, shkala, tabiiy, laborator

## **11.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Test – so'rov usuli qisqacha axborot bering.
2. Test – topshiriq qanaqa usul ekanligini asoslang.
3. Proyektiv testlarga nima va ularga misol keltiring.
4. Shaxsiy so'rovnomalar sirasiga kiruvchi G.Ayzenkning psixotizm shkalasini ta'riflang.
5. Anketaning tuzilishi necha qismdan tashkil topgan?
6. Tabiiy va laboratoriya (klinika) metodlarini bir-biridan farqlab bering.

## **11.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Anastazi A. Psixologicheskoye testirovaniye / Per. s angl. – T.1,2. – M.: 1982.*

*Dukarevich M.Z. Praktikum po psixodiagnostike. Motivasiya i samoregulyasiya. – M.: 1989.*

*Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.*

*Karimova V.M., Akramova F.A. "Psixologiya". 1-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.*

*Karimova V.M., Akramova F.A. "Psixologiya". 2-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 125 b.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994*

*Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo "Piter", 2000. – 560 s.*

*Klimov Ye.A. Osnovi psixologii: Uchebnik. – M.: 1997*

*Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.*

*Meliya M. Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremennoogo delovogo cheloveka / Marina Meliya. – 3-ye izd. dop. – M.:*

- Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.
- Nemov R.S.* Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.
- Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-vo “Institut prakticheskoy psixologii”; Voronej: Izd-vo NPO “MODEK”, 1998. – 688 s.
- Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.
- Sherbakova Yu.V.* Spesialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. – M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. – 80 s.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.
- Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” kursi bo’yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to’plami. – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Pedagogik psixologiya” kursi bo’yicha vaziyatli va ishchi o’yinlar to’plami. – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixologiya” fani bo’yicha shaxsni o’rganishga doir testlar va metodikalar to’plami. – T., TDIU. 2005.
- Internet ssilka:**
- [http://ncdo.levsha.ru/ncdo\\_recr.htm](http://ncdo.levsha.ru/ncdo_recr.htm)
- <http://science-education-books.webshops.ru/g10145>
- <http://www.alfaconsultant.ru/collection/ref-order...>
- <http://oz.by/books/more101335.html>

## XII bob

---

### PSIXODIAGNOSTIKANING KAM SHAKLLANGAN METODIKALARI

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Kuzatish metodi.** Tashqi kuzatuv. O’z-o’zini kuzatish. Erkin kuzatuv. Standartlashtirilgan kuzatuv. Ichkaridan kuzatuv.

**So’roq metodi.** Suhbat metodi. So’rov metodi. Og’zaki so’roq. Yozma so’roq. So’roqning erkin va standartlashtirilgan shakllari.

**Intervyu metodi.** Intervyu va u haqida qisqacha ma’lumot.

**Kontent-analiz metodi.** “Content - analysis” so’zining mazmun va mohiyati.

**Tarjimai hol (biografiya) metodi.** Biografik ma’lumotlar va ularni tartiblash.

**Modellashtirish.** Matematik. Texnik. Mantiqiy. Kibernetik modellashtirishlar.

---

## 12.1. Kuzatish metodi

**K**uzatish. Psixodiagnostikada keng qo'llaniladigan bu metodning mohiyati shundan iboratki, tadqiqotchi mutaxassis boshqa kishining xatti-harakatlarini, xulq-atvorini, psixikasining tashqi ko'rinishlarini, uning ish tutishini sistemali ravishda kuzatadi va shu asosda muayyan kishining psixik jarayonlari, holati va psixik xususiyatlari haqida xulosa chiqaradi. Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar toplash usulidir. O'z-o'zini kuzatish esa, odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar toplash va qayd etish usulidir.

Erkin kuzatuv ko'pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Masalan, bayram arafasida aholining kayfiyatini bilish maqsadida kuzatuv tashkil qilinsa, oldindan maxsus reja yoki dastur bo'lmaydi, kuzatuv obyekti ham qat'iy bo'lishi shart emas. Yoki dars jarayonida bolalarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. Standartlashtirilgan kuzatuv esa, buning aksi bo'lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan, kuzatuv olib boriladi.

Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Bu bir qarashda kontrrazvedkachilarining faoliyatini ham eslatadi. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlar bir tomonidan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomonidan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni subyektiv ravishda qayd etadigan bo'lib qolishi ham mumkin. Guruhiy fenomenlarni tashqaridan kuzatish buning aksi – ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida xulosalar chiqaradi.

Umuman, kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatgichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr-qanoatiga bog'liq bo'lgan jihatlar, yana to'plangan ma'lumotlarni subyektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham biroz noqulayliklari ham bor, shuning uchun ham u boshqa metodlar bilan birgalikda ishlataladi.

## 12.2. So'roq metodi

**S**uhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning obyekti va subyekti tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqt aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal

qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi kishilarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, e'tiqodi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi.

So'rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki so'roqni yoki ba'zan uni oddiygina qilib, suhbat metodi deb ataladi, o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach so'roq o'tkazadi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so'rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, komp'yuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

### **12.3. Intervyu metodi**

**O**damlar tilidan yozma yoki og'zaki tarzda olingan fikrlar ma'lumotlarning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Intervyu – bu bevosita, erkin fikr almashinushi sharoitida o'zaro fikr almashinuviga qaratilgan muloqotdir. Chunki suhbatdan farqli o'laroq intervyu aniq muammo doirasida, qat'iy bir yo'nalishda olib boriladi. Intervyu oluvchi suhbatdoshga nisbatan neytral mavqyeda bo'lib, uning fikrlashiga xalaqit bermasligi, ayniqsa, unga taz'yiq o'tkazmasligi lozim. Intervyu jarayonining samarali kechishi uchun suhbatdoshda o'ziga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirib, birinchi so'zlarni aniq, ravon, ifodali bayon qilish muhimdir.

Intervyu o'tkazishga odam maxsus ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak, chunki u odamdan qator muhim sifatlarning bo'lismeni talab qiladi. Shuning uchun ham psixodiagnostikada "rolli o'yinlar" metodi yordamida psixodiagnost yoki amaliy psixolog maxsus tayyorgarlik kursidan o'tadilar.

### **12.4. Kontent-analiz metodi**

**K**ontent-analiz inglizcha "content - analysis" so'zidan olingan bo'lib, yozma hujjatlar, matnlar mazmunini ham miqdor, ham sifat jihatdan talhil qilishni nazarda tutadi. 20-30 yillardayoq bu usul yordamida uning asoschilari bo'lgan

amerikalik sosiologlar X.Lassuel va B.Berelsonlar ommaviy axborot vositalari mazmunini o'rganish orqali ushbu metodning Qator afzalliklarini isbot qilolganlar. Keyinchalik Boltiqbo'y hamda Rossiya olimlari ham bu uslubni umuman yozma matnlarni o'rganishdagi imkoniyatlarini keng yoritib berdilar. Endi kontent-analiz predmeti nafaqat matnning o'zi emas, balki undagi g'oya, mohiyat, mavzu yoki muammolar ham bo'lishi mumkinligi isbotlandi. Masalan, O'zbekistonda hamda Rossiyada chop etilayotgan eng ommabop davriy nashrni olib, unda yoshlar – ta'litarbiya muammolarining qay darajada yoritilishini bir yillik gazetalar saxifalaridan ushbu kategoriyalarning necha marta qayd etilayotiganligi miqdorini sanab chiqish orqali aniqlash eng sodda ko'rinishdagi kontent-analizdir. Muammoni yoki g'oyani ifodalovchi ijtimoiy simvollar, belgilar, ularning matndagi o'rni, abzaslar soni, qatorlar soni kabi qator miqdolriy ko'rsatgichlarni sifat jihatdan talhil qilish obyektiv, asosli, matematik metodlar vositasida asoslash mumkin bo'lgan usuldir. Shuning uchun ham oxirgi yillarda O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy psixologiya, sosiologiya, jurnalistika borasidagi izlanishlarda kontent-analiz ishonchli metod sifatida keng qo'llanilmoqda.

## 12.5. Tarjimai hol (biografiya) metodi

Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi log'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergen baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o'rinn egallaydi. Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan iarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, audio va videokassetalar, CD, DVD, MR3 disklar, multimedialar, hujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochib berishda yordam beradi. Masalan, mazkur ma'lumotlar orqali ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar: she'riyat, musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va kashfiyotdagi tafakkurning o'ziga xosligini, shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod singari fazilatlarini o'rganish mumkin. Inson ongingin xossasi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'ziga xos va ijtimoiy xususiyatlari atoqli shaxslar bildirgan mulohazalarida o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rifu tavsiflari orqali avloddan avlodga o'tadi.

Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini-o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

Badiiy adabiyotda yaratilgan talay asarlar, masalan, Sadriddin Ayniy, Oybek, Abdulla Qahhor, Lev Tolstoy, Maksim Gorkiy va boshqa qator adiblarning esdaliklari tarjimai hol shaklida bo'lib, ular bilan tanishish natijasida mualliflarning his-tuyg'usi, temperamenti, xarakteri, qobiliyat, iste'dodi, qiziqishi, intilishi, mayli, layoqati, dunyoqarashi e'tiqodi, nafosati, axloq va odobi to'g'risida ma'lumolar olish mumkin.

## 12.6. Modellashtirish

**M**odellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Modellashtirish:

-  matematik
-  texnik
-  mantiqiy
-  kibernetik tarzida bo'lishi mumkin.

Matematik model asosida o'rganilgan hodisaga mashhur tadqiqotchilar Veber-Fexnerlarning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi va shu asosda to'plangan ma'lumotlar tahlilini misol qilish mumkin.

Mantiqiy modellar yordamida ko'pincha inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish prinsiplari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oyalar va simvollar ishlatiladi.

Kibernetik modellashtirishda esa g'oyalar psixologiyasini EHM dagi matematik programmalashtirish tamoyillariga moslashtirish nazarda tutiladi. Hozir ko'pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham programmalashtirilgan bo'lib, ular algoritmlar asosda qisqa fursatda ko'pgina sifatlarni ko'plab parametrlar nuqtai nazaridan hisoblab natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda. Ko'pincha matematik o'yinlar g'oyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasini o'rganishda ham qo'llanilmoqda. Ma'lum bo'lischicha, odamning fikrlash operasiyalari bilan EHMLarning ishslash prinsiplari o'rtasida ma'lum uyg'unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali inson aqlu-zakovati chegarasini yanada kengaytirish istiqbolini beradi.

## 12.7. Rezyume

Kuzatish metodining ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish jarayonidagi ahamiyati beqiyosdir. So'roq, suhbat, og'zaki yoki yozma so'roq metodlari orqali tekshiruvchi tekshiriluvchi to'g'risidagi dastlabki umumiy ma'lumotlarga ega bo'lib, erkin va standartlashtirilgan metodlar orqali bu ma'lumotlar boyitiladi. Shuningdek, ushbu ma'lumotlar kontent-analiz metodi yordamida tahlil etilib tekshiruvchi tomonidan mantiqiy amaliy tavsiya va xulosalar yaratilishiga xizmat qiladi. Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlashdagi asosiy manba vositasi sifatida qo'llanilib, shaxsnинг o'zini-o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini bajarishdagi ahamiyatini belgilab beradi.

## 12.8. Asosiy tushuncha va atamalar

Kuzatish, so'roq, suhbat, og'zaki va yozma so'roq, kontent-analiz, taqriz, tarjimai hol, intervyu, modellashtirish.

## 12.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Kuzatish metodi nima va uning turlari qanday?.
2. So'roq metodining necha turi mavjud?.
3. Intervyu metodi haqida qisqacha bayon eting.
4. Kontent-analiz qanday usul?.
5. Tarjimai hol (biografiya) metodi nima va uning ahamiyati qanaqa?
6. Modellashtirishning zamonaviy turlari qanday amalga oshiriladi?

## 12.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar

*Anastazi A. Psixologicheskoye testirovaniye / Per. s angl. – T.1,2. – M.: 1982.*

*Dukarevich M.Z. Praktikum po psixodiagnostike. Motivasiya i samoregulyasiya. – M.: 1989.*

*Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.*

*Karimova V.M., Akramova F.A. "Psixologiya". 1-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.*

*Karimova V.M., Akramova F.A. "Psixologiya". 2-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 125 b.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994*

*Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo "Piter", 2000. – 560 s.*

*Klimov Ye.A. Osnovi psixologii: Uchebnik. – M.: 1997*

*Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.*

*Meliya M. Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremenennogo delovogo cheloveka / Marina Meliya. – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.*

*Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3- x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.*

*Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd- vo "Institut prakticheskoy psixologii"; Voronej: Izd-vo NPO "MODEK", 1998. – 688 s.*

*Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.*

*Sherbakova Yu.V. Spesialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. – M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. – 80 s.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar*

matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.

*Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” kursi bo’yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to’plami. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Pedagogik psixologiya” kursi bo’yicha vaziyatli va ishchi o’yinlar to’plami. – T., TDIU. 2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixologiya” fani bo’yicha shaxsni o’rganishga doir testlar va metodikalar to’plami. – T., TDIU. 2005.

**Internet ssilka:**

[http://ncdo.levsha.ru/ncdo\\_recr.htm](http://ncdo.levsha.ru/ncdo_recr.htm)

<http://science-education-books.webshops.ru/g10145>

<http://www.alfaconultant.ru/collection/ref-order...>

<http://oz.by/books/more101335.html>

## XIII bob

---

### “PSIXOLOGIK TASHXIS” JARAYONIDA PSIXOLOGIK BILIMLAR ASOSI

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Psixik jarayonlar.** Sezgi. Sezgining tarmoqlarga bo’linishi. Idrok. Xotira. Xotiraning turlarga bo’linishi. Tafakkur. Tafakkurning turlarga bo’linishi. Diqqat. Diqqatning turlari. Nutq. Nutqning bo’linish mexanizmi. Xayol. Iroda.

**Psixik holatlar.** His-tuyg’ular (emosiyalar), e’tiqod, qiziqishlar, bardamlik, tetiklik, apatiya, hayratlanish, ishonchlik, ijodiy ruhlanish.

**Psixik xususiyatlar.** Shaxsning iqtidori, xulqi, temperamenti, xarakteri, qobiliyatları, layoqati, yo’nalishlari, mas’uliyati yoki uning psixik xususiyatlari haqida.

**Psixologik bilimlarning ahamiyati.** Psixologik bilimlar ahamiyati yoki shaxsning o’z-o’zini anglash darajasi.

**Inson va faoliyatning emosional irodaviy xarakteristikasi.** Irodaviy sifatlar. Yolg’izlik ijtimoiy munosabatlardan yiroqlashgan odamning ruhiy hissiyotlarini ifodalovchi holat.

**Shaxs xususiyatlarining diagnostikasi haqida va “individuallikning o’lchananlik darajasi”.** Psixik xususiyat. Obyektiv o’ziga xoslik. Shaxsni baholashdagi obyektiv ma’lumotlarning ahamiyati.

---

### 13.1. Psixik jarayonlar


Insonning sezgisi, idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, xayoli, diqqati va irodasi psixik jarayonlar deb ataladi.

#### *Sezgi*

– odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagи narsa va hodisalar ta'sir ko'rsatgan paytida ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo'lган eng sodda psixik jarayondir.

Sezgi, asosan, eksteroseptorlar, interioseptorlar hamda proprioseptorlardan tashkil topadi. O'z navbatida ularning har bir tarmoqlanish xususiyatiga ega hisoblanadi.

Fanda, asosan, eng ko'p o'r ganilgan tarmoq – bu ekstroseptorlar sanalib, ularga ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm-maza bilish hamda teri-tuyish sezgilari kiradi.



13.1.1-rasm. Sezgining tarmoqlarga bo'linishi

#### *Idrok*

– ayni choqda sezgi organlarga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarining aks ettirilishidan iborat bo'lган psixik jarayondir.


### **Tasavvur**

– biz ilgari idrok qilgan narsa va hodisalar obrazini ayni choqda fikran qayta tiklashimizdir.

Tasavvurlar idrok bilan o’xhash bo’lib, idrok asosida maydonga keladi, ammolar, odatda, idrokka qaraganda birmuncha xiraroq, rangsiz bo’ladi va unchalik to’liq bo’lmaydi.

### **Tafakkur**

– fakt va hodisalarni mavhumlashtirgan, umumlashtirgan holda va vositali ravishda aks ettirishdan, ular o’rtasiga aloqa hamda munosabatlarni aniqlashdan iborat bo’lgan bilish jarayonidir.




**13.1.3-rasm. Tafakkurning turlarga bo’linishi**

### **Xotira**

– o’tmish tajribalarimizda nimaiki hodisa yuz bergan bo’lsa, shuni esda olib qolish, esda saqlash va keyinchalik esga tushirish yoki tanishdir.

U quyidagi psixik jarayonlardan: esda olib qolish, o’zlashtirilgan materialni esda saqlash, tanish va esga tushirishdan iboratdir.



### 13.1.2-rasm. Xotiraning turlarga bo'linishi

#### *Xayol*

– biz ilgari idrok qilmagan predmet va hodisalarni yaratishdan iborat bo'lgan psixik jarayondir.


#### *Iroda*

– kishining o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun ichki va tashqi to'siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayondir.

#### *Diqqat*

– ongning biron-bir predmet, hodisa yoki faoliyatga qaratilishi hamda to'planishidir.


Ongning qaratilishi deganda obyektni tanlab olish nazarda tutiladi, ongning biron-bir narsaga to'planishi esa ana shu obyektga aloqador bo'limgan barcha narsalarni ong doirasidan tashqarida qoldirish ma'nosini bildiradi.



### 13.1.4-rasm. Diqqatning turlari

#### *Nutq*

– kishilarning til vositasida o'zaro munosabatda bo'lish jarayonidir.



### 13.1.5-rasm. Nutqning bo'linish mexanizmi


Ovoz chiqarib talaffuz etiladigan nutqni tashqi nutq, o'ylayotgan paytimizda ovoz chiqarmasdan nutqdash foydalanishimiz ichki nutq deb ataladi.

## 13.2. Psixik holatlar

**S**haxsnинг his-tuyg'ular (emosiyalar)и, e'tiqodi, qiziqishlari, bardamligi, tetikligi, apatiyasi, hayratlanishi, ishonchliligi, ijodiy ruhlanishi kabi holatlari, fanda uning psixik holatlarini anglatadi.

### His-tuyg'ular (emosiyalar)

– odamlarning o'zi bilayotgan va bajarayotgan narsaga o'z munosabatini boshdan kechirish jarayonidir.



## ***E'tiqod***

- shaxsning shunday ongli yo'nalishi bo'lib, unga o'z qarashlari, tamoyillari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beruvchi holatdir.

## ***Qiziqishlar***

- anglangan motivlardan bo'lib, ular shaxsni atrofida ro'y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar toplash, ularni o'rganishga imkon beruvchi omildir.

### **13.3. Psixik xususiyatlar**

**S**haxsning iqtidori, xulqi, temperamenti, xarakteri, qobiliyatları, layoqati, yo'nalishlari, mas'uliyati kabi qator xususiyatlari, psixologiyada psixik xususiyatlar mohiyatini yoritib beruvchi omillar sanaladi.

#### ***Iqtidor***

- insonning o'z xatti-harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir.

#### ***Xulq motivasiyasi***

- inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

#### ***Yo'nalish***

- ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg'un, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlilikdir.

#### ***Temperament***

- insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, holatlar va insonlarning xatti-harakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir.

#### ***Xarakter***

- shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o'z-o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlardan orttiradigan xususiyatlaridir.

Xarakter quyidagi obyektlarga bo'lган munosabatlarda ifodalanadi:

- + *Mehnatga munosabat* – shaxsning mehnatkashligi yoki yalqovligi, biron topshiriqni oxirigacha yetkazishi yoki yarmisida tashlab ketishi, pala-partish yoki tartibli faoliyat yuritishi, yakka taribda yoki jamoaviy mehnat turini

- tanlashi va shu kabi sifatlari orqali namoyon bo'ladi.
-  *Odamlarga munosabat* – samimiylilik yoki ikkiyuzlamachilik, mulokotga moyil yoki yakkahol, haqiqatparvar yoki yolg'onga moyillik, o'zgalar manfaati haqida qayg'urish yoki o'z manfaatini har narsadan ustun qo'yish va shu kabi shaxs xislatlari.
-  *Narsalarga bo'lgan munosabatda* – buyumlarni tartibli saqlash yoki betartiblilik, narsalarni asrab-avaylash yoki ayamaslik, narsalarning qayerdaligini xotirada saqlash yoki parishonxotir.
-  *O'z-o'ziga munosabat* – g'urur, obro' saqlay olish, o'ziga talabchanlik, o'zini nazorat etishning kuchliligi, o'zini takomillashtirishga intilish va h.k.

### ***Mas'uliyat***

– ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatgichlaridir.

### ***Qobiliyat***

– shaxsdagi shunday individual, turg'un sifat hisoblanib, turli xil faoliyatdagi ko'rsatgichlar, yutuqlar va qiyinchiliklar sabablarini tushuntirib berishdir.

## **13.4. Psixologik bilimlarning ahamiyati**

**P**sixologiyani o'rganish odamning o'zidan boshqa kishilarni yaxshiroq tushunishga, ularning psixik holatlarini hisobga olgan holda ish ko'rishiga, odamlarning ijobiy, salbiy xususiyatlarini, ularning o'zlariga xos bo'lgan individual xususiyatlari qay yo'sinda va nima sababdan yuzaga kelishini ko'ra olishiga, tevarak-atrofini qurshab olgan boshqa odamlar aloqa o'mnatishga yordam beradi.

Psixologiyani jiddiy o'rganishga kirishgan har bir kishi o'zining ham kuchli, ham zaif tomonlarini ko'ra oladi, o'z ustida ishslash imkoniyatiga ega bo'ladi, o'zining ijobiy sifatlarini yanada yaxshilash, nuqsonlarini yo'qota olishga o'rganadi. Psixologiyani bilish odamlarga mehnat va o'quv faoliyatida yordam beradi, ya'ni yaxshiroq tushunish, esda olib qolish, diqqat, fikrlash faoliyatining shart-sharoitlarini ochib beradi. Kishining psixik hayotini aks ettiruvchi adabiyot, til, tarix va boshqa ijtimoiy fanlarning o'rganish psixologik bilimlarning ahamiyati kattadir.

## **13.5. Inson va faoliyatning emosional irodaviy xarakteristikasi**

**I**rodaviy sifatlar – har birimizning o'z oldimizga maqsad qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishimizni ta'minlovchi ma'lum sifatlarimiz majmuuni o'z ichiga oladi.

Emosiyalar va motivasiya esa atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning xatti-harakatlarini ruhan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni

vaziyatlardagi real holatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi.

Shaxsning har bir onda his qiladigan ichki kechinmalari va emosiyalari ham amaliyotga, ishning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillardir. Shuning uchun ham kayfiyati yomon xodimlarni ayrim mamlakatlardagi psixologlar o'sha kuni umuman ishdan chetlatishni ham afzal ko'radilar. Chunki bunday odam nafaqat bevosita zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatli vazifalarni sifatsiz, yuzaki yoki yomon bajaradi, balki yon-atrofidagi hamkasabali kayfiyatini ham buzib, ularning ishga salbiy munosabatini shakllantirib qo'yishi ham mumkin. Shu sababli ham hissiy kechinmalarning turlarini bilish va ularni diagnostika qila olish katta ahamiyatga egadir.

Odamning hissiy kechinmalari turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, organizmning biologik ehtiyojlarining qondirilishi yoki qondirilmasligiga bog'liq bo'lgan elementar hissiyotlar – chanqoqlik, ochlik, charchoq hislari; ehtiroslarga aloqador bo'lgan g'azablanish, vajoxat, achchiqlanish hislari; vaziyatga bog'liq bo'lgan xursandchilik, xushkayfiyat, ko'tarinkilik, alam, betoqatlik hislari; bevosita emosional holatlar va psixik jarayonlarning kechishiga bog'liq bo'lgan kayfiyatlar. Bular asosan har bir shaxsning bevosita hissiy olamiga bog'liq holatlar bo'lib, bundan tashqari, uning odamlar bilan muomalasi va muloqotidan kelib chiqadigan ijtimoiy hissiyotlari ham farqlanadi. Boshqa odamlar ta'sirida paydo bo'ladigan hissiyotlar faoliyat jarayoniga yoki ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, yoki salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy kayfiyat tushunchasi aynan mana shunday odamlarning bir-birlariga ko'rsatadigan hissiy ta'sirlarining oqibatidir.

Hayotda shunday ham bo'ladiki, odam ma'lum sabablarga ko'ra yon-atrofidagilar bilan bo'ladigan munosabatlardagi iliqlikdan mahrum bo'ladi, va shu holatdan kelib chiqqan holda o'ziga xos his-kechinmalarni boshdan kechiradi. *Yolg'izlik* ana shunday ijtimoiy munosabatlardan yiroqlashgan odamning ruhiy hissiyotlarini ifodalovchi holatidir. *Yolg'izlikni* psixologik holat ham deyish mumkin, psixik xususiyat deyish ham mumkin. Buning uchun turli shkalalarni o'z ichiga olgan tekshiruv uslubi ishlataladi. Bunda asosan ruhiy tushkunlik yoki ko'tarinkilik mezon qilib olinib, odamning kayfiyati o'r ganiladi. Ko'pincha shaxsning hissiy holatlarini o'r ganish uchun Lyusherning ranglar testidan foydalilanadi. Test jarayoni shundayki, tekshiriluvchiga 8 xil rangli kvadrat qilib kesilgan qog'ozlar tavsiya etiladi, u har bir rangni qay darajada o'ziga ayni paytda yoqishiga qarab, tabaqlab berishi kerak. Har bir rang odamdagи ma'lum psixologik holatni ifodalab, tahlil qiluvchi ularning ma'nosini "o'qib", odamning o'sha paytdagi ruhiy holatini tavsiflaydi. Masalan,

*ko'k rang (#1)* – sokinlik, tinchlik, bo'shashganlikning alomati;

*yashil rang (#2)* – irodaviy zo'riqish;

*qizil rang (#3)* – tetiklik, hayajon, ehtiros;

*sariq rang (#4)* – ruhiy tanglik;

*siyoh rang (#5)* – ruhiy va jinsiy yetuklik;

*jigarrang (#6)* – soddadillik, arzimagan narsalarga paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xursandchilik;

*qora rang (#7)* – ruhiy ziddiyatlar, tushkunlik, g'azab;

*kumush rang (#8)* – xotirjamlik, beg'amlik va befarqlik holatlarini ifodalaydi.

U yoki bu vaziyatlarda odamning ruhan o'zini qanday his qilayotganligi, faolligi va kayfiyati "SAN", ya'ni rus tilida "samochuvstviye, aktivnost, nastroyeniye" metodikasi yordamida o'rganiladi. Bundan tashqari, yana odamning o'zgalar holatiga tusha olish qobiliyati, o'zgalarni tushunish va hamdardligi kabi sifatlari ham maxsus usullarda o'rganiladi. Bular empatiya testlari deb nomlanadi. Bunda ham vizual diagnostikadan foydalanish mumkin. Masalan, ekspert baholash uchun 5 balli tizimda maxsus jadvalda odamning og'zi, ko'zlari, qoshlari, yuzining rangi, qo'llar harakati, nafas olish, gapirish tonlari tashqaridan kuzatib, qayd etiladi. Emosional holatning har bir baliga kuzatilayotgan belgilarning ma'lum mazmuni to'g'ri keladi.

Empatiyani o'rganish uchun A.Megrabyanning 83 savoldan iborat testi ham ishlataladi. Har bir savol 9 balli tizimda, -4 dan +4 gacha bo'lgan oraliqda baholanadi.

Demak, odamlar orasida ishlayotgan, faoliyat ko'rsatib, o'z kasb mahoratini oshirib borayotgan har bir inson tabiiy tarzda insoniy munosabatlarning ham ustasi bo'lib boradi. Bunda unga odamlarga qarab turib, avvalo o'zini o'rganish san'ati hamda har bir qarash yoki verbal muomala jarayonida o'zgalarni o'rganib borish tajribasi qo'l keladi. Yuqorida ta'kidlangan har bir holat va jarayonlarni bilish o'zini va o'zgalarni boshqarishning bosh mezonlaridandir.

### **13.6. Shaxs xususiyatlarning diagnostikasi haqida va “individuallikning o'lchanganlik darajasi”**

**P**sixik xususiyat tushunchasi – psixodiagnostika muhim tushunchalaridan biri hisoblanadi. Psixik xususiyat – bu nisbatan turg'un ma'lumot hisoblanib, ularni turg'un bo'limgan vaqt holatidagi dinamiklardan farqlash lozim. Ko'pgina fikrlardan ma'lum bo'lishicha, shaxsni psixologik xususiyatlarini aniqlashda, uning o'zini borligini isbotlash kerak. Hozirgi kunda bu xususiyatlarni ta'riflash uchun ko'pgina atamalar taklif qilingan (masalan: "bezovtalik", "introversiya", "radikalizm" va b.). O'z-o'zidan bu atamalar insonlarda axloqning qanday darajada ko'rsatilishish haqida savol tug'ilishiga olib keladi. Bu savolga olimlar o'zlarining javob variantlarida turli xil nomotetik va 148 ta idiografik yondoshishni bildirganlar.

Nomotetik yondoshish shu sohadagi tekshirishlar uchun bir xil hisoblangan, ayrim umumiyligini qonunlarni yuzaga chiqaradi, shaxsga qo'llanilganda umumiyligini mayjudligini tasdiqlaydi. Agar tekshiriluvchida masalan bezovtalik yuzaga kelsa, ayrim umumiyligini shaxs xususiyatlarini qayta ishlanishi hisoblanadi, bu esa hamma insonlarni uni yuzaga chiqish darajasiga bog'liq holda bo'lishga imkon beradi. Agar bunda ikkita tekshiriluvchida u yoki bu ko'rsatkichlarda (testda) bir xil ko'rsatkichga ega bo'linsa, ularni bir xil psixologik xususiyatlarga ega bo'lishiga kelishiladi.

Idiografik yondoshuvlar tarafidorlari alohida shaxsning psixik tashkillashtirishni qaytalanmasligini, "obyektiv" (miqdoriy) metodlardan uni o'rganilishidan xoli holda ekanligini ta'kidlashadi. Shaxsda ilmiy izlanish olib borish mumkin emas, chunki har bir uning yuzaga kelishi o'ziga xos umumiyyidan ajralgan chet el psixologiyasida nomotetik va idiografik qarshi turishlar dialektik bog'lanishlarni qarshi turishi

natijasida kelib chiqadi.

Oxirgi yillarda g'arb psixologlari nomotetik va idiografik yondoshgan holda shaxsni o'rganishda ishonchszilik bo'lmoqda. Ko'rsatilishicha psixodiagnostikani tarixida ushbu yondoshishlarni integrasiyasini boshlanishi. (Olport qimmatbaho buyumlar va shaxsiy hujjatlar o'rganilishini yo'lga qo'ygan). Taxmin qilinishicha nomotetik va idiografik yondoshish integrasiyasi "dialogik model" degan nomlanish psixolog va tekshiriluvchining o'zaro ta'siridan yuzaga kelgan. Bu modelda psixolog "umumiyl daraja eksperti" ko'rinishida, tekshiriluvchi esa "shaxsiy fikrlar va ahamiyatlar eksperti" ko'rinishida bo'ladi. Nomotetik yondoshishni mashhurligi shu bilan xulosa qilinadiki, hamma psixologik xususiyatlar hosil bo'lishini o'ziga xosligini isbotlovchi bir necha misollarni hyech bir qiyinchiliksiz keltirishimiz mumkin. Introvertirlirkni individda aniqlaganimizda bu xususiyat doimiy bo'lishiga va aniq bir sharoitlarga bog'liqmasligi haqida tez xulosa qilishimiz kerak emas. Inson ayrim hollarda va munosabatlarda introvert, boshqa hollarda esa ekstravert bo'lishi mumkin. Bundan kelib chiqishiga ko'ra individ aniq bir holatlarda qanday harakat qilganiga asoslangan holda, uning boshqa holatlarda qanday harakat qilishini aniq bilish mumkin emas.

Obyektiv o'ziga xoslik asosan shaxsni nekognitiv xususiyatlarida namoyon bo'lgan. "Ancha yuqori taqqoslash nekognitiv holatlararo kelishilganlak va kognitiv vazifalar vaqtidagi turg'unlik shaxsiy xususiyatlarga qaraganda individ reaksiyasini intellektual tomonda yuqori standartlashtirilganligi bilan tushuntiriladi (A.Anastazi).

Bunday shaxs xususiyatlarini turg'un emasligi skeptisizmni metodlarga va uni o'lchovchilarga nisbatan buziladi. V.Mishel (Mischel) tomonidan shaxsni psixologik xususiyatini turg'unligi ko'pincha o'tkir shaklida doimiylik bo'lmasligiga urg'u berilgan. Uning talqini har tomonlama ma'quldir, bunda qo'rslikka, shaxs xususiyatlarini o'zgartirmasligiga asos yo'qdir, ijtimoiy muhitdan tegishli bo'limgan holda olingan. Shu vaqtning o'zida agar insonlarda ularning axloqlari orqali yuzaga keluvchi nisbatan turg'un xususiyatlarni bo'lmasligi tan olinsa, unda individuallik tushunchasi ma'nosiz bo'lib qoladi.

Chet elda 1960 yillarda boshlangan shaxs xususiyatlari turg'unligi puxta o'yangan tasavvurida izlanuvchilarni (olimlarni) chetda joylashgan – obyektiv ijtimoiy va fizik atrofga e'tibor berishlariga majbur qiladi. Psixodiagnostika o'zining ancha uzoq rivojlanish davri axloqning ichki va subyektiv determinantini qidirishga qaratilgan.

A.V. Petrovskiyning (1981) yozishicha, ijtimoiy muhit teng huquqli o'zgarishsiz va amorf bo'ladi.

Muhit tahliliga qaratilgan axloq yuzaga keluvchi tekshirishlar, quyidagi fikrlarni shakllanishiga olib keladi, ya'ni individual-psixologik farqlarni o'lchash katta yutuqlar bilan shaxsni bilishni ijtimoiy holatlar o'rtasidagi farqni aniqlashga almashtiriladi, o'z navbatida bunda axloq yuzaga keladi. Bu shuni ko'rsatadiki ko'pgina shaxs metodlari nisbatan katta bo'limgan Validlikni ko'rsatadi (Mischel, 1968 va b.). Hozirgi kunda obyektiv farqlanish bilan axloq varitivligini asosiy qismini tushuntirish mumkinligini biz ishonchli ma'lumot deb hisoblay olmaymiz. Tekshirishlarga qarshi dispersion tahlillar yordamida olingan ma'lumotlarga ko'ra obyektiv omillar hissasi axloqda kam ahamiyatga ega va u 10,2 % tashkil qiladi

(Xekxauzen). Unday bo'lsa axloqdagi o'zgarishlarga shaxsni o'zaro ta'siri va holatida deb tushuntiriladi.

V.Mishel qarashlarini evolyusiyasi qiziqarlidir, u o'zida chet el psixologiyasida shaxsga tizimli yondoshishni asosiy joylarini aks ettirgan: subyektiv (shaxsiy) va obyektiv (holatiy) axloq determinantini o'zaro ta'sirini tahlil qilishda individual farqlash va shu bilan bog'liq bo'lgan obyektiv omillar giperbolizasiyasini tutgan o'rnini ko'rsatgan. Hozirgi kunda ham Mishel o'zining oldingi ishlari kabi, axloqga atrof muhit ta'siri haqidagi fikridan qaytmagan. Shaxsni an'anaviy xususiyatlар nazariyasiga asoslangan holda o'rganish, o'zini vazifani qo'ygan, ya'ni standartlashtirilgan test savollari orqali "bir xil" holatdagi reaksiyaga nisbatan individual farqni aniqlash insonlar orasidagi ayrim farq qiluvchi jihatlarni osongina ularni bir xil holatga javob reaksiyalarini o'rganish orqali aniqlash mumkin. Real hayat sharoitida insonlarga ta'sir qiluvchi psixologik "ta'sir"lar shaxs savollarini vazifalari, tajriba yo'riqnomasi va jonsiz buyumlar va insonlar o'zaro munosabatlarda bog'liqligi yo'q" (Mischel).

Shaxsni baholashda obyektiv ma'lumotlar yuqori ahamiyatga ega bo'lmasada, tan olinishi kerak, ya'ni "agar inson axloqi ikkita fazadan chiquvchi ko'pgina o'zaro ta'sirga determinasiyalashgan bo'lsa, individ va uni o'rabi oluvchi atrofidagi muhit, shulardan biriga o'z diqqatini jamlasa u tezgina o'z xulosasini yaratadi".

Bu bilan qo'shilish mumkin, muallifning aytishicha individual farqlash obyektiv ma'lumotni kamligi yoki bo'lmasligini va individga obyektiv qo'llanishda kuchsiz ta'sir qilganda ahamiyatli bo'ladi. Kelajakda V.Mishel shaxsni o'lchashda keltirilgan holatga individual farqlanuvchi, shuning asosida kasbga bog'liq holatlar, kichik va katta chastotada yuzaga chiquvchi, kasblariga mos ravishda axloqiy ko'rinishni o'rnatishni kerakligini ko'rib chiqmoqda.

Shunday qilib u yoki bu axloqni sababi shaxs xususiyatlari bilan ham, holatni o'ziga xosligi bilan ham emas balki, ularni o'zaro ta'siri bilan bog'liq. Yuqorida aytib o'tilgan dispers tahlil orqali olingan ma'lumotlarga tasdiqlashiga ko'ra: shaxs bilan holatni o'zaro ta'siri axloqni o'zgarishini katta qismini tashkil qiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra o'zaro ta'siri, bu jarayonni psixologik mohiyatini yashirmaydi. "Shaxs – holat" o'zaro ta'siri statistik tushuncha chegarasidan chetga chiqmoqda, o'zaro ta'sir dispersion tahlilda o'zaro qo'shilib ketish deb tushunish kerak (Xekxauzen).

Sobiq sovet psixologiyasida shaxs xususiyatlari va sosium orasidagi bog'lanish tahlilida bu xususiyatlarni o'rganishga imkon beradi. A.V.Petrovskiy ta'kidlashicha individual pisxologiya fenomenlari "faoliyat va muloqot orqali yuzaga chiqishi, ya'ni shu guruhdagi rivojlanishlarga xos bu guruhlarga shaxs ham kiradi". Bu farazni tekshirish shaxs xususiyati va uning qarama-qarshi ko'rinishi jamoaviy o'zi aniqlanishi shaxslararo munosabatlar fenomeni guruhiga kiritiladi. Quyida eksperimental muolaja o'tkazilgan bo'lib, unda mavjud guruhlarda har uchinchi tekshiriluvchida arzimas holatlarda ishonuvchanlik tendensiya aniqlangan. Bu holat guruhning rivojlanishiga aslo bog'liq emas (diffuzdan jamoagacha). Keyin bu tekshiriluvchilar o'zlarini qanday tutishlari har xil rivojlanish guruhlarida kuzatiladi. Yuqori rivojlangan guruhga kiruvchi (jamo) shaxslarda, ahamiyatga ega bo'limgan ta'sir natijasida ularning ishonuvchanligi haqida jamoaviy o'zini aniqlash, topilgan

jamoa qimmatini orqada qolishi xulosa qilinadi, ya’ni ular ishonuvchanlikka berilmaydilar. Bundan xulosa qilinadiki, individual-psixologik sifatga kiruvchi ishonuvchanlik qayta shakllanganlik tarzida namoyon bo’ladi.

Biz bu xulosani isbotlanmagan deb hisoblaymiz. Ahamiyatga ega bo’lmagan ijtimoiy holatlarda tekshiriluvchilarni konformlik reaksiyasiga ishonuvchanlik xususiyati xulosa qilishga yetarli emas. Konformlikka eksperement ma’lum darajada shaxsiyga tegishli bo’lmaganligi bilan xarakterlanadi, unda odatda shaxsiy ahamiyatlilikni chetlab o’tadi. Aslida shaxs sifatlarini qayta ishlanishi emas, balki shaxslararo munosabatlardan kelib chiqgan eksperimental fiksasiyalangan fanomenlardir.

Ishonuvchanlik shaxs xususiyati sifatida jamoaviy o’lchanishga aylanishi mumkin emas. Bu insonlarda hayoti davomida ma’lum bir sharoitlarda yuzaga kelgan guruhlardagi o’zaro ta’sirlar natijasida vujudga kelgan ishonuvchanlikda bo’ladi. Ishonuvchanlik shaxs xususiyati sifatida, uning boshqa xususiyatlari qatori, shaxslararo munosabatlar fenomeni ko’rinishida individual shakllari (o’ziga xosligi) aniqlanadi. Shunday qilib individual-psixologik shaxs xususiyatini qayta shakllanishi shaxslararo munosabatlar fenomenida tasdiqlanmagan, tasdiqlanishi ham mumkin emasdир. Xohlagan shaxs sifatlari uning faollashtirishini ijtimoiy muhit bilan o’zaro ta’siridan yuzaga keladi va u ijtimoiy-psixologik hamda individual-psixologik fenomeni bo’lib hisoblanadi. Shaxs xususiyatlarini uni keltirib chiqaruvchi manbadan ajratish mumkin emas. Shaxs tuzilishiga ko’ra bir vaqtning o’zida individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik bo’lashi mumkin. Ijtimoiy muhit – shakllangan shaxs sifati bo’lmasdan, uni axloqini realizasiyasini keng qirralilagini aniqlashdir. Shaxs xususiyatining nisbatan turg’unligi, psixodiagnostikada mo’ljallagan o’lchash va baholashni tushunishga kalit bo’ladi. Psixik xususiyat dispozisiyani qo’shilishida, aniq obrazli harakat qilishga tayyorligini tushunish kerak. Ular ichki tomondan bir-birlari bilan o’zaro ta’sirlanadi va holatlarda aloqada yo’l tutishni oldindan aniqlaydi, lekin ichki dispozisiyalashgan ketma-ketlikda nisbatan turg’un axloqning umumiyy tipini topadi. Psixologiyada xususiyatlar diagnostikasidan bosh tortish, shaxsni tushunish va ta’riflash manbalaridan ayiradi va uni nazariy obetraksiyaga aylantiradi.

Shaxsni diagnostikasini muomalalarini muhokama qilishda mualifdan shaxsiy deganda nimani tushunishini yoki tarkibini ko’rsatib o’tish talab qilinadi. Biz uchun shaxs ikki xil holatda: psixologik fan yo’nalishida va psixologik izlanishlarda obyekt sifatida bo’ladi.

Shaxs psixologik yo’nalish mavqyeida ilm-fanda buyuk A.N.Leontyev tomonidan tizimtik tushuniladi va shuning uchun individ o’z tabiatini munosabati orqali orttirgan “yuqori hissiylik” sifatidir. Bunda metodolik ahamiyatliligi tushunchalarni “shaxsiy” va “individ” shaklida bo’linishiga olib keladi (Asmolov va b. 1980). Shaxsni yuqori hissiylik sifatida tushunishga intilgan psixologlar, individ tushunchasini, uning xususiyatini boshlang’ich shakllanishi va shaxsiy faoliyat ko’rsatishiga bog’lashadi. Individ qandaydir boshqa u yoki bu tug’ma xususiyatlarga ega bo’lgan tabiat zoti hisoblanadi. Emperik psixologik izlanishlarda shaxs bir butun jamiyat bo’lib, u tabiiy hisoblanadi. “Individ va shaxsni insonlarda qarshi qo’yish oshib ketmasligi kerak, chunki ontologik tomonidan ularning orqasida bitta obyekt turadi. Ivanov, Petrov, Sidirov – bu individlar, hamda aniq shaxslardir” (Dodonov).

“Shaxs” va “individ” o’rtasidagi tushunchani ajralishi, oxirigi vaqtida nazariyada shaxs hayotida individual sifatlarni tugatish yo’llarini qidirishga majbur qilmoqda.

Afsuski, ko’pincha “shaxs va individ” haqidagi naslsiz “metodologik” asoslar, hosil bo’lishi quyidagi bilan bog’liq shaxsni nazariy va amaliy tomondan o’rganish oldingi davr psixologiyasidan hozirgi vaqtgacha o’z-o’zicha bor bo’lgan va u bir-biriga ta’sir qilmagan.

Shaxsni o’rganuvchi psixologlar oldida u individuallik ko’rinishida namoyon bo’ladi. Bu psixologlarning asosiy vazifasini aniqlaydi, ya’ni shaxsni individuallikda o’rganish. B.F.Lomovning ta’kidlashicha – shaxs bu umumiylar fanlar va ayrim psixologik ko’rinishlarni muammosi hisoblanadi, lekin individuallik birinchi navbatda psixologiyani muammosidir.

Psixodiagnostika individuallikni o’rganishda o’ziga xoslikka egadir. Bu izlanishlarni mustaqil yo’nalishi bo’lib, tushunarli rivojlangan apparatga va metodikalarga egadir. Shularni ishlatilishi natijasida – o’lchangan (baholangan) individuallik yuzaga keladi. “Individuallikning o’lchanganligi”ni ajralishi va qo’llanilish konstruktida nimani kutish mumkin?

Shu faktdan kelib chiqqan holda, bilishni har xilligi bitta obyektni har xil yozilishiga, keyinchalik bu – bilishni nisbatan bog’liq bo’lmagan predmetlardan shakllanishiga olib keladi. Psixodiagnostikani maqsadi nazariy va amaliy shaxs xususiyatlari qiziqishida individual-psixologik xususiyatlarni ko’rsatish hisoblanadi. Bundan ko’rinib turibdiki, u o’z bilish predmetiga va shaxsiy muolajalarga egadir, shular orqali psixodiagnostik metodlar yuzaga keladi. Ancha ahamiyatga ega bo’lgan oxirgi metodikalar, individual-psixologik xususiyatlarni o’lchashga (baholashga) qaratagan. Shuning uchun chegarada bilish predmeti shartli ravishda o’lchanadigan va o’lchovlar sferasida yotmaydigan individual-psixologik fenomenlarga ajratilishi mumkin. O’lchanmaydigan psixodiagnostik konstruktga (diagnostika qilinmaydigan lekin, mos keluvchi muolaja tahlillarda aniqlanadi) misol tariqasida kompleks ediyular bo’ladi, o’lchanadiganiga esa – yetarli darajada uzun va ma’lum bo’lgan shaxsning xususiyatlari misol bo’ladi.

Shaxsni eksperimental tekshirishlar nazariy bilish ramkasida qo’llaniladigan bilimlarni yaratadi. Bu orqali nazariy bilishda xususiy konseptual apparat tan olinadi, bilishni o’zi esa eksperimental bo’lmagan shaklda kechishi mumkin. Psixodiagnostikada xususiy konseptual apparatni mos ravishda (kerak bo’lgan metodolik asoslar va tahlillarsiz bo’lishi) rivojlanishi bo’ladi. Biz birinchi navbatda zarur deb psixologik fanda yig’ilgan diagnostik izlanishlarda shaxsni tasavvuriga ega bo’lgan mexanik surilishlarni ajratishimiz kerak bo’ladi. Masalan: shaxs diagnostikasini proyektiv texnikasini yaratilishi va rivojlanishini turli xil nazariy holatlarda olingan ma’lumotlardan qo’llanilishga urinishlardan ajratishimiz kerak. Interpretasiyaga bog’liq bo’lmagan holda, proyektiv taxlikada stimullashgan materiallar xususiyatlarini o’rganishda muammo tug’iladi, masalan: uni tuzilishidaga darjasи. Bu darajani “fizik” metodlar bilan o’lchash mumkin (ayrim hollarda), masalan, kalometriya bilan. Bu imkoniyatlardan har biri o’zining aniqlik darajasiga egadir: fizik to’plamda – bu uning asbobi shkalasidir. Na u na bu stimullashgan materialni tuzilishini o’rganish yo’li amaliy konstruktga prektiv yondoshishga bog’liq bo’lmaydi.

Nazariy va psixodiagnostik birdan bir borliqda paradoks paydo bo'ladi. Uni mohiyati "nazariy" va "o'lchanuvchi" shaxsni orasidagi gneseologik farqidan iborat bo'ladi. Shuning uchun "nazariy" va "o'lchanuvchi" shaxsni o'rganishga qaratilgan urinishlar oxirgi hisobda kam ma'lumotni va tabiiy xarakterga ega bo'lmaydi.

O'lchangan individuallikni uch darjasи – bu psidiagnostik metod, aniq metodikaga diagnostik yondoshishdir. Ular orasida subordinasiya munosabatlari bor. Har bir yuqori "qavat" shunchalik yuqorini aniqlashtiradi. Predmetni uchlamchi ko'rinishda o'rganish shartlari, ya'ni predmetni uch ipostasda tasavvur qilish (birinchidan, o'zini-o'zicha; ikkinchidan, katta tizim elementi sifatida; uchinchidan, uning kichik masshtabdagi tahlillari o'zaro munosabati). Psixodiagnostik metodga talqin qilganimizda, birinchidan, o'zini-o'zi; ikkinchidan, psixologik tekshirish metodlarda element tizimi sifatida; uchinchidan, psixodiagnostik yondoshish o'zaro munosabatlarda, ya'ni kichik masshtabdagi tahlillardagi ma'lumotlarga ko'ra.

Psixodiagnostik metod taklif qilingan chizma bo'yicha mos kelishi pastda va yuqorida yotuvchi iyerarxiya ko'rinishida psixodiagnostik yondoshish darajasiga nisbatan namoyon bo'ladi. Shu orqali psixodiagnostik metodga tizimli tushunish shakllanadi. Aniq o'lchangan psixodiagnostik metodlar diagnostik yondoshishga asos sifatida, diagnostik yondoshish esa psixodiagnostik metodga asos bo'ladi. Yuqori darajada turuvchilarni past darajadagilarga ta'siri bir tomonlama emas, ya'ni qayta ta'sir ham bo'ladi: bu aniq metodikalarni diagnostik yondoshishga, diagnostik yondoshishni psixodiagnostik metodlarga ko'rinishida bo'ladi. Bir butun qilib olganda "tepedan pastga" va "pastdan tepaga" bo'ladi. (V.P.Kuzmin, 1986). Psixodiagnostik metodlar tizimsi ostida uchta diagnostik yondoshish bor, ular o'z elementlari sifatida aniq psixodiagnostik metodlarni o'z ichiga oladi. Taklif qilingan psixodiagnostik metod tizimsi bir vaqtda klassifikasiyalashtiruvchi vazifani ham bajaradi.

O'lchangan individuallik nazariyasi global psixologik nazariya orasidan joy oladi. Nazariy modellar (psixologik tahlil, faoliyat nazariyasi va b.) va "mikronazariya" bilan ishlovchilar izlanishlar vazifasiga aniqliklar kiritadilar. Shu o'lchangan individuallik nazariyasi psixologik bilish tizimsida aniq nazariy boshliqni to'ldiradi. Shuni hisobiga har xil darajadagi orasida o'zaro ta'sir yuzaga keladi. Har qaysi nazariyani shakllanish va rivojlanishida ham yuqori, ham pastda joylashgan nazariyalarda izlar yig'iladi.

O'lchangan individuallik nazariyasi o'rta darajadagi nazariyalarga kiradi, u nazariya orqali emperik material va umumiyyat nazariya o'rtasida o'ziga xos ko'prik hosil bo'lishi aniqlanadi. Bu nazariya boshqa psixologik nazariyalarda qo'llanilishida to'g'ri kelmaydigan, o'zini xususiy qo'llanilishiga ega, nazariy modellarni va konstiturillashgan nazariyalarni yuqori va past (o'rtta) darajadagi nazariyalarga kiritish mumkin. Nazariy modellar asoslangan bilimlarga asoslanadi, unda o'lchangan individuallik nazariyasi psixodiagnostik izlanishlar ko'zda tutilgan natijalari hisobiga to'g'ridan-to'g'ri "o'sadi".

Amerikalik jamiyatshunoslar R.Merton (Merton) T.Partson tomonidan "hammasini o'ziga olgan" nazariya yaratilgan. Bu o'rtta darajadagi nazariya kichik farazlar bilan ishlovchilar va katta nazariy spekuliyasiyalar orasida muhim ahamiyatga ega. Bu nazariyalar tuzilishidagi asosiy maqsad – emperik va nazariy darajadagi

izlanishlar orasida mustahkam bog'lanish hosil qilishdan iborat.

### **13.7. Rezyume**

Psixik jarayonlar, jumladan, sezgi, idrok, tasavvur va xotira haqida ma'lumotning bo'lishi, psixodiagnost uchun amaliy faoliyatning samaradorligini oshishi demakdir. Psixik holatlari, ya'ni his-tuyg'ular, e'tiqod, bardamlik, tetiklik, apatiya, qiziquvchanlik, hayratlanish, ishonchlik, ijodiy ruhlanishlar to'g'risida umumiyl tushunchalarining mavjudligi esa psixologik tashxis jarayonida muhim xususiyat kasb etadi. Psixik xususiyatlar, ya'ni yo'nalish temperament, xarakter, qobiliyat, iqtidor, aqliy salohiyat, xulq motivasiyasi, ish uslubi, mas'uliyat kabilalar to'g'risida bilimlarning mavjudligi tekshiriluvchi shaxsining hayotda tutgan o'rni va mavqyeini belgilab, diagnostik jarayonning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. Individuallikning o'lchanganlik darajasi – bu shaxs xususiyatlarining umumpsixologik diagnostikasi haqidagi ma'lumotlarning aniqlanganligi demakdir.

### **13.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol, idrok, nutq, xarakter, temperament, his-tuyg'ular, qiziqishlar, irodaviy sifatlar.

### **13.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Psixik jarayonlar nimalardan tashkil topgan?
2. Psixik holatlarni ta'riflab bering.
3. Psixik xususiyatlarni ketma-ketligini sanab o'ting.
4. Psixologik bilimlarning ahamiyati qanday sharoitlarda o'z ta'sirini ko'rsatadi?
5. Irodaviy sifatlar deganda nimani tushunasiz?
6. Individuallikning o'lchanganlik darajasini ta'riflang.

### **13.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Anastazi A. Psixologicheskoye testirovaniye / Per. s angl. – T.1,2. – M.: 1982.*

*Dukarevich M.Z. Praktikum po psixodiagnostike. Motivasiya i samoregulyasiya. – M.: 1989.*

*Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.*

*Karimova V.M., Akramova F.A. "Psixologiya". 1-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.*

*Karimova V.M., Akramova F.A. "Psixologiya". 2-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 125 b.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994*

- Kvinn V. Prikladnaya psixologiya.* – SPb: Izdatelstvo “Piter”, 2000. – 560 s.
- Klimov Ye.A. Osnovi psixologii: Uchebnik.* – M.: 1997
- Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl.* – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.
- Meliya M. Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremenennogo delovogo cheloveka / Marina Meliya.* – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.
- Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissch. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t.* – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.
- Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha.* – M.: Izd-vo “Institut prakticheskoy psixologii”; Voronej: Izd-vo NPO “MODEK”, 1998. – 688 s.
- Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov.* – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.
- Sherbakova Yu.V. Spesialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye.* – M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. – 80 s.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar matni.* – T.: TDIU, 2005. – 338 b.
- Hayitov O.E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik.* – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” kursi bo’yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to’plami.* – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. “Pedagogik psixologiya” kursi bo’yicha vaziyatli va ishchi o’yinlar to’plami.* – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. “Psixologiya” fani bo’yicha shaxsni o’rganishga doir testlar va metodikalar to’plami.* – T., TDIU. 2005.
- Internet ssilka:**
- <http://www.my-shop.ru/shop/books/12594.html>
- <http://www.psyho.ru/books/psychoanalys/book1.htm>
- <http://www.etel.dn.ua/~psychology/stat/NauchnRaz/BurlachukLF.htm>
- <http://psychoanalyse.narod.ru/rorsch1.htm>

## **XIV bob**

---

### **JAMOADA VA GURUHDA SHAXS XULQ-ATVORINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Shaxsning xulq-atvor nazariyasi.** Shaxsning tabiiy xususiyatlari. Ekstraversiya. Introversiya.

**Temperament va uning psixodiagnostikasi.** Temperament. Temperament tiplari. Sangvinik, melanxolik, flegmatik, xolerik. Shaxs temperamenti grafik tasvirining chizmasi.

**Shaxsning guruhlardagi xulq-atvori.** Tashkilotlarda (guruhlarda) muayyan muammolarni hal qilish uchun tuziladigan guruhlarga taaluqli g'oyalar va qoidalar.

**Shaxsning professional faoliyati va uning jamoadagi o'rni va statusi.** Ijtimoiy mavqye yoki status. Ijtimoiy rol tushunchasi.

**A.Shtangelning vizual psixodiagnostika metodining mohiyati.** Vizual psixodiagnostika. Shaxs mavqyeini o'rganishning muhim usuli. Shaxsning reprezentativ tizimi. Ko'z harakatlarini kuzatish. Suhbatdoshning nutqini tahlil etish. Vizual reperezentativ tizimli kimsa. Kinestetik. Audial reprezentativ tizimga mansub kishi. Shaxsiy hisobotlar.

**K.Yung psixologik tiplar haqida.** Ekstravert. Introvert. Intuitiv tiplilar. Fikrlovchi tiplar.

---

## 14.1. Shaxsning xulq-atvor nazariyasi

**F**aylasuflar qadim zamonlardan buyon shaxs xulq-atvorining u yoki bu shakllari qonuniyatlarini aniqlashga, nima sababdan bir kishi bilan umumiyl til topishi oson-u, boshqa kishi bilan umumiyl til topishning hyech qanday iloji yo'qligini, ayrim kishining xulq-atvori mantig'i nima bilan belgilanishini aniqlashga urinib kelganlar.

Xulq-atvor shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishish shakllaridan iborat bo'lib, ular bir qator omillarga bog'liq bo'ladi. Shaxsni va uning xulq-atvorini tavsiflab beradigan asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- ⊕ *shaxsning tabiiy xususiyatlari, uning o'ziga xos psixologik xususiyatlari;*
- ⊕ *ehtiyojlari, sabablari, qiziqishlari tizimi;*
- ⊕ *shaxsni boshqarish tizimi, uning "men-obrazi".*

Shaxsning tabiiy xususiyatlari – bular unda tug'ilgan vaqtidan boshlab mavjud bo'lgan narsalardir. Odatta, ular faollik va ta'sirchanlik singari dinamik tavsiflarning ma'lum darajada ifodalanishi bilan ajralib turadi. Shaxsning faolligi turli xil faoliyatlarga intilishida, o'zini namoyon qilishida, psixik jarayonlarning, harakat reaksiyasining kechish kuchi va tezligida ifodalanadi, ya'ni shaxsning faoliyatiga xos bo'lgan xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Faollikning eng oxirgi ifodasi, bir tomonidan, katta kuch-g'ayrat sarflpsh, harakatdagi, faoliyatdagi, nutqdagi shiddatkorlik bo'lsa, ikkinchi tomondan, psixik faoliyat, nutq, imo-ishoraning zaifligi, passivligida aks etadi. Ta'sirchanlik shaxsning asabi qo'zg'aluvchanligining turli darajasida, uning atrofimizdagi olamga bo'lgan munosabatini ko'rsatib beruvchi his-tuyg'ularining shiddatkorligida namoyon bo'ladi. XX asr 20-yillarining boshlarida shvesariyalik psixiatr K.G.Yung shaxsning psixologik xususiyatlarini "ekstraversiya" va "introversiya" tushunchalari orqali ta'riflab berishni taklif etdi.

Ekstraversiya (extra – tashqari) shaxsning shunday psixologik xususiyatlarini ko'rsatib beradiki, bunda shaxs o'zining qiziqishlarini tashqi omilga, tashqi obyektlarga qaratadi, ba'zan ba'zan buni o'zining qiziqishlari hisobiga, shaxsiy ahamiyatini pasaytirish hisobiga amalga oshiradi.

Ekstravertlarga xulq-atvorining ta'sirchanligi, imo-ishoralardagi faollik, samimiylilik, tashabbus ko'rsatish (ba'zan ortiq darajada), ijtimoiy ko'nikuvchanlik, ichki olamning ochiqligi xos bo'ladi.

Introversiya (into – ichki) shaxsning o'z shaxsiy manfaatlariga, ichki olamiga diqqat e'tiborining qayd qilinishi bilan ajralib turadi.

Introvertlar o'zlarining manfaatlarini eng muhim deb hisoblab, uni yuqori darajada qadrlaydilar. Ular uchun odamovilik, biqiqlik, ijtimoiy passivlik, mustaqil tahlil qilishga moyillik, yetarli darajada murakkab ijtimoiy adabtasiya (ko'nikuvchanlik) xosdir.

Introversiya – ekstraversiyaning hissiy tavsiflar bilan birga qo'shilib kelishi shaxs temperamentini belgilab beradi.

## 14.2. Temperament va uning psixodiagnostikasi

**T**yemperament tushunchasi lotincha temperamentum – qismlarning tegishli nisbati, mutanosiblik degan so'zdan kelib chiqqan.

**Temperament** – shaxsning o'ziga xos xususiyatlari majmuidan iborat bo'lib, ular uning faoliyatining dinamik va hissiy tomonlarini, shuningdek xulq-atvorini aks ettiradi.

### *Temperament tiplari*

Temperamentning eng mashhur turlari (sangvinik, melanxolik, flegmatik, xolerik) miloddan avvalgi asrdayoq Gippokrat tomonidan joriy qilingan bo'lib, ularning nomlari hanuzgacha saqlanib qolgan, lekin mazmuni o'zgargan.

Gippokrat davridan yaratilgan to'rt temperament tiplari buyuk rus fiziologi I.P.Pavlov tadqiqotlari orqali o'z ilmiy asosiga ega bo'ldi. Temperament bosh miyadagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xususiyat sifatida tushunilar ekan, barcha tadqiqotchilar uning tug'ma ekanligini va insonning ko'pgina faoliyat turlari natijalariga ta'sir etuvchi omil sifatida ishtirok etishini e'tirof etishadi. An'anaviy yondoshuvga asosan quyidagi temperament tiplari mavjud: xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik.

Xodimning u yoki bu temperamentga mansubligini bilish, uning biron vazifani nega aynan shu tarzda bajarayotganligini tushunishga yordam beradi, kezi kelganda aynan unga mos vazifalarni yuklash imkonini beradi. Har bir temperament tipiga qisqacha tasnif quyidagicha ifodalanishi mumkin:

### *Xolerik*

– nerv sistemasidagi ko'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kuchli, bu ikki jarayon biron nerv markazi doirasida tez o'rinn almashadi va shu bois bu tipga mansub kimsa biron faoliyatga tez kirishib, tezda sovib ketishi mumkin. Yangiliklarga ehtirosi baland, g'ayratli va o'ta harakatchan, bir maromdag'i faoliyatni, monoton tarzdagi ishlarni yoqtirmaydi, doimo yangilikka intiluvchan. Yangi muhit va jamoada o'zini yaxshi his qiladi va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashadi. Bunday kimsalarga yangi o'zlashtirilayotgan faoliyat turlarini vazifa tariqasida berish o'rinni, uzoq vaqt davomida ma'lum tartib talab qiluvchi ishga moslashishlari uchun kuchli ichki zo'riqishga boradilar.

### *Sangvinik*

– qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kuchli, lekin muvozanatlashgan. Bunday kimsa o'zini qo'lda ushlay oladi, intizomli va xolerik kabi shoshqaloq emas, biron ishga kuchini to'g'ri taqsimlaydi, yangi faoliyat turini tez o'rganadi, nizoli vaziyatda kelishuvga bora oladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi. Tavakkallikka moyil, tezda natijaga erishishga harakat qiladi, puxta o'ylab va tez qaror qabul qiladi, ko'tarinki va turg'un kayfiyat egasi.

## ***Flegmatik***

– harakatlari sekin, shoshilmas va sabr-toqatli, tanholikni yaxshi ko'radi, muloqot doirasini kengaytirishni hohlamaydi, do'stlariga sodiq va ularni ko'paytirish niyati ham yo'q, o'rganib qolgan sharoitida yaxshi faoliyat yuritadi va o'zgaruvchan muhitga moslashishi qiyin, shovqinni yoqtirmaydi, bir joyda o'tirib bajariladigan ishni ma'qul ko'radi. Yangi odamlar bilan muloqotga kirishishi qiyin, lekin o'rnatilgan, aloqalarini saqlashga intiladi. Saranjom sarishtali, tartibni yoqtiradi, intizomli, boshlagan ishini oxiriga yetkazishga harakat qiladi, tashkilotdagi an'analarga sodiq. Quyidagi yarim hazil o'xshatish qarama-qarshi temperament tiplari tavsifini tushunishni yengillashtiradi: "... odatda urushni xolerik va sangviniklar olib boradilar, flegmatiklar esa vayronalarni tiklaydilar".

## ***Melanxolik***

– nozik didli, hissiyotga o'ta berilgan, uch ichki dunyosiga va kechinmalariga e'tiborli. Bunday kimsalar orasida san'atga qobiliyatilar ko'p uchraydi. Ulardan ajoyib rassomlar, yozuvchi va shoirlar yetishib chiqadi. Murakkab va nizoli vaziyatlarda harakati sust, tezkor vazifalarni hal etishda asabiylashadi va tez toliqadi.

Yuqorida sanab o'tilgan temeperamnt tiplari tug'ma bo'lib, ularni o'zgartirib bo'lmaydi. Lekin, inson o'z-o'zini tarbiyalashi davomida biron temperamentga xos xislatlarni o'zida shakllantirishi mumkin.

Tabiatda sof temperament tipini uchratish qiyin va odatda, har qanday kimsada biron yetakchi temperament tipiga qo'shimcha ravishda turli tiplarga xos belgilarni kuzatish mumkin. Bunday "chatishma" insonning o'z ustida ishlashi, o'zi uchun o'ta muhim ko'ringan xislatni mustaqil tarzda rivojlantirishi uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu satrlarni yoza turib beixtiyor bir hodisa esga tushadi. Ustoz-psixologlardan biri "... men hayotda iloji boricha sangvinikday bo'lishga intilaman, barcha xatti-harakatimni bu temperament tipiga muvofiqlashtirib yashayman", deb ta'kidlardi. Haqiqatan, uning ish uslubi va odamlar orasidagi harakati ko'p yillik o'z-o'zini tarbiyalash qanchalik muvaffaqiyatli natijaga olib kelganining yaqqol dalili edi. Ammo, shunday vaziyatlar bo'lardiki, ustoz uyda tanho qolishni, o'tmishdagi rasmlarni tomosha qilishni, ya'ni asl melanxoliklikka qaytishni "sog'inib" qolardi. Garchi ijodda, insoniy munosabatlarda va mehnat faoliyatida u sangvinikday tez va shijoatli bo'lsada, lekin uning asl temperamenti serqatnov ko'chani kesib o'tayotgandagi ishonchsizlikda va qaltis vaziyatlardagi ikkilanishda yaqqol ko'zga tashlanardi.


Shaxs temperamenti tipologiyasini bilish mehnat jarayonini oqilona tarzda tashkil etish, mavjud vazifalarni xodimlar imkoniyati va xususiyatiga binoan taqsimlash, jamodagi sog'lom muhitni saqlash imkonini yaratadi. Masalan, mulohaza asosida ish yuritishga sangvinik va flegmatik tiplari tabiatan moyillar. Xolerik yoki melanxolik temperamentiga mansub kimsa esa o'z hissiy muvozanatini ichki zo'riqish hisobiga ta'minlab turishi lozim. Shaxsning o'z temperamenti tipini bilishi unga xos xususiyatlarni chuqurroq anglashiga va o'z-o'zini yanada samarali boshqarish imkonini beradi, qaltis vaziyatlarda o'rinsiz xatti-harakatlardan o'zini

chetga olishini va ichki nazoratni ta'minlaydi.

Temperamentning sanab o'tilgan bu xillari nisabatan barqaror bo'lib, muhit va tarbiya ta'sirida o'zgarishlarga kam bo'ysunadi. Shu bilan birga ular shaxsning mazmun tomonini, qadriyatlarini va ehtiyojlarini ifodalamaydi.

1940-yillarda bir guruh amerikalik olimlar G.Ayzenk rahbarligida temperament tushunchasini ikkta omil: ekstraversiya va hissiy barqarorlikning o'zaro bog'liqligi natijasi sifatida talqin qilishgan (14.2.1-rasm). Bu guruh shaxsning ustun darajadagi temperamentini aniqlash bo'yicha test ishlab chiqdi.

#### **14.2.1-rasm. Shaxs temperamenti grafik tasvirining chizmasi**



“X” o’qi introversiya-ekstroversiyani ifodalovchi ballar soni, “Y” o’qi bo'yicha esa hissiy barqarorlik-neyrotizmni ifodalovchi ballar miqdori qo'yib chiqiladi. Ikkita koordinataning kesishgan joyi shaxsning tegishli temperamentini ifodalovchi nuqtani topish imkonini beradi.

### **14.3. Shaxsning guruhlardagi xulq-atvori**

**P**ersonalni boshqarish sohasidagi o'zaro bog'liq harakatlar zanjirida xodimni ishga olishdan tortib uning tashkilotdan ketishiga qadar menejerlar vaqtining 50-80% guruhlardagi faoliyat turlariga sarflanadi.

Shaxsni boshqarishga doir kurslarning ko'pchiligi guruhlarning samaradorligini oshirishga doir qo'llanmalarni bayon qiladi.

Guruhlarning samarali ishlashiga ta'sir qiluvchi omillarni qarab chiqishga o'tishdan oldin umuman tashkilotlarda (guruhlarda) muayyan muammolarni hal qilish uchun tuziladigan guruhlarga taaluqli ko'pchilik g'oyalar, qoidalarni sanab o'tishga harakat qilamiz.

- Shunday qilib, quyidagilarni aytish mumkin:
- + kishilar guruhlarda doimiy ravishda bir-birlari bilan bog'liq ravishda yashaydilar;
  - + bir guruhning odamlari umumiy normalarga ega bo'ladilar va umumiy maqsadlarni qo'llaydilar;
  - + guruhlar bir xil vazifalarni bajarmasliklari mumkin. Ularning hammasi ma'lum darajada ixtisoslashgan. Haqiqatda ularning ixtisoslashuvi odamlarning ehtiyojlariga bog'liq bo'ladi;
  - + shaxslar ko'pgina guruhlarda ishtirok etadilar. Guruh inson hayotining tabiiy va muqarrar bir qismi hisoblanadi. Guruhlar doimiy muvaqqat va tasodifiy bo'ladi;
  - + ayrim guruhlar erkin bo'ladi. Ularga odamlar o'z xohishlari bo'yicha kiradilar. Boshqalar majburiy xarakterda bo'ladi (masalan, biz dunyoga kelib oila, etnik guruh, millat tanlamaymiz);
  - + ishchi guruhlari rasmiy va norasmiy bo'lishi mumkin. Rasmiy guruhlar tashkiliy tuzilishi bilan ajralib turadi. Bu yerdagi ijtimoiy munosabatlar shaxssiz xususiyatga ega bo'ladi va oldindan belgilangan rollar orqali amalga oshiriladi. Bular tashqi muhit, madaniyat bilan belgilanuvchi normalarga muvofiq rasmiylashish an'anasiiga ega bo'ladi. Norasmiy guruhda shaxsiy ijtimoiy munosabatlar mavjud bo'ladi, ular ichki muhit bilan belgilanadigan rollarda amalga oshiriladi. Bu rollarning mazmuni guruh ichidagi o'zaro hamkorlikning natijasidir;
  - + guruhning normalariga ta'sir ko'rsatish hamisha qiyin bo'ladi. Buni ichdan turib amalga oshirish oson va tashqaridan turib bajarish juda qiyin. Agar bu ta'sirni amalga oshiradigan kishi yetarli darajada guruhning ishonchi va hurmatiga sazovor bo'lmasa, shunday bo'ladi;
  - + barcha guruhlar o'z a'zolari guruh normalariga muvofiq kelishlari uchun ularga tazyiq o'tkazadilar. Bu a'zolarning xulq-atvor normalari, nutqi, ish unumдорлиги, rahbariyatga, ishlab chiqarishga, ishdan tashqari vaqtida mehnat qilishga va shu kabilarga munosabati guruh normalariga muvofiq bo'lishi lozim;
  - + guruhlar umuman ayrim a'zolarga nisbatan kamroq g'oyalar taklif qiladi, biroq guruh yaxshi g'oyalar beradi: bu g'oyalar ishlangan, har tomonlama baholangan, ular uchun javobgarlik yuqori darajada bo'ladi;
  - + guruhlar ayrim guruh a'zolariga nisbatan ancha tavakkalchilik bilan qarorlar qabul qiladilar;
  - + guruhlar o'rtasida va guruh ichida kelishmovchiliklar bo'lishi tabiiy holdir. Kelishmovchiliklar shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo, ijtimoiy bo'lishi mumkin. kelishmovchiliklar oqibatida kichik guruhlar paydo bo'ladi, boshqacha fikrlovchilar guruhdan chiqib ketadi, "hamma baloga giriftor odam" tanlanadi, guruhda tashkiliy o'zgarishlar sodir bo'ladi, yangi rahbar keladi yoki almashtiriladi, guruh tarqalib ketadi.

#### **14.4. Shaxsning professional faoliyati va uning jamoadagi o'rni va statusi**

**S**haxs va uning jamiyatdagi o'rni bir qator ilmiy tushunchalar vositasida talqin qilinadi. U yoki bu mehnat jamoasida faoliyat ko'rsatayotgan shaxs o'z jamoasida ma'lum mavqyeini egallahsga harakat qiladi. *Ijtimoiy mavqye yoki status* tushunchasi odamning ma'lum insoniy munosabatlar tizimida tutgan o'rnini ifodalaydi. Bu o'rinni uning shu jamoada barcha huquqlari (masalan, bo'lim boshlig'i bo'lib ishlaydigan odamdag'i lavozimidan kelib chiqadigan normativ huquqlari) hamda burchlari (yaxshi samara bilan ishslash, xodimlarga o'z vaqtida va aniq topshiriqlar berish, maoshni to'g'ri belgilash va h-zo) majmuasidan kelib chiqadi. Odamning obro'si aslida ana shu mavqyeni to'g'ri va obyektiv, xolis anglashi, o'z huquq va burchlari to'g'risidagi tasavvurlarining aniqligi va amalda ularning ijrosiga bevosita boqliq. Shuning uchun rahbar nafaqat o'z mavqyeini, balki barcha jamoa a'zolarining mavqyelerini aniq bilishi kerakki, shundan kelib chiqib u xodimlar bilan munosabatlarini tashkil etadi. Bu holat yana bir muhim tushunchani keltirib chiqaradi. Bu *ijtimoiy rol* tushunchasidir.

Rol – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlarini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish – u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda o'sha oliyohi ichki tartib-intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergen jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan "farzandlik" roli (ota va ona, yain qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir "tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli" deyilsa, kimdir be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqyega ega bo'lib qoladi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi maqyeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – "Men" – obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

"Men" – obrazining ijtimoiy-psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mayjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiat shundayki, u o'zidagi

o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, noma'qul sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Men" – obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada **refleksiya** deb ataladi. Bu jarayonning mohiyati – aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Odamning o'z "Meni" to'g'risidagi barcha tasavvurlari va bilimlari majmui shu tariqa shakllanadi. "Men" obrazining bir qancha turlari farqlanadi: ayni mayjud "Men" ("Real – Men"); istalgan "Men" ("ideal – Men"); xayoliy "Men". Shaxsning o'ziga-o'zi beradigan hisobotlariga qarab, uning ham o'ziga, hamda birovlargacha munosabatlarini aniqlash mumkin. "Men kimman?" deb nomlangan test aynan ana shunday o'ziga nisbatan o'zining hisobotining mohiyatini aniqlaydi.

Bunda tekshiriluvchidan 12 daqiqa mobaynida "Kimman?" degan savolga 20 xil variantda javob berish so'raladi. Javoblar betartib bo'lishi mumkin, chunki ular keyinchalik kontent-tahlil yordamida qayta ishlanadi.

V.Stolin fikricha, o'ziga munosabat 9 xil modallikda – o'lchovlarda aniqlanishi mumkin:

-  "Men"ning anganganligi;
-  o'zini hurmat qilish va o'ziga ishonch;
-  o'zini boshqara olish va izchillik;
-  boshqalardan kutiladigan munosabat;
-  o'zidan rozilik;
-  o'z qadr-qimmati uchun qayg'urish;
-  o'z "Meni"ga tobelik, bog'liqlik;
-  o'zini tushunmaslik, o'z "Meni" bilan ziddiyatlarning mavjudligi;
-  o'zini o'zi ayblashi.

Ana shunday usullar bilan shaxsning kognitiv tizimidagi xususiyatlarni aniqlash va mos tarzda munosabat strategiyasini belgilash mumkin bo'ladi.

#### 14.5. A.Shtangelning vizual psixodiagnostika metodining mohiyati

**S**haxs mavqyeini o'rganishda vizual psixodiagnostikaning ham ahamiyati katta. A.Shtangel o'zining "Tana tili" kitobida inson qaddi-qomati va yurishining tavsiflarini keltiradi. Masalan, uning izlanishlariga ko'ra, qomatning doimo erkin tutilishi – har qanday tayziqdan xolilik, erkinlik belgisi. Bo'shashgan qomat – bo'ysunuvchanlik, tobeklik, ergashuvchanlik, mustaqil fikrning yo'qligidan alomat. Bundan tashqari, odam tanasi yelka qismi va umuman tana yuqori qismining xususiyatlari egasining mavqyei va roldan dalolat beradi, masalan, kerik odam bilan kamtar odam, har narsaga burnini tiqaveradigan odam bilan o'z ishini bilib, bir chekkada band bo'lishni xohlaydigan odamning fe'li har xil bo'lishini bilamiz.

Odamning oyoqlari holati, hattoki, tovonlar ham ma'lum axborotlarni beradi. Masalan, dadil, shaxdam qadam tashlash bilan, immillab qadam tashlash, tovonini orqaga tashlab yuradiganlar bilan "oyoq uchida" yuradiganlarning mavqyelari ham har xil bo'ladi. Xushomadgo'y odamni tasavvur qiling: uning tanasi yaxlitligicha oldinga egilgan, qarashlari va nigohi esa faqat suhbatdoshning yuziga qaragan bo'ladi. Shaxsning qiliqlari ham ma'lumot manbai: masalan, avtoritarlilik belgilarini eslang: qo'llar ko'pincha orqada (ba'zan ikkala qo'l orqaga bog'langan ham), iyaglar doimo yuqoriga yo'nalgan, ko'kraklar kerik va hokazo. Odamning ovozi-chi? Masalan, suhbatdoshga nisbatan ovozni sozlashning yaqin (intim) masofasi hamda shaxsiy (uzoq) masofasi farqlanadi.

Shaxs mavqyeini o'rganishning yana bir muhim usuli – bu uning nutqini stilistik jihatdan o'rganishdir. Chunki nutqning xususiyatiga qarab, hattoki, odamning professional jihatlarini ham aniqlash mumkin. Masalan, kundalik – maishiy nutq, badiiy, ishchan, ilmiy, kriminal va shunga o'xshash. Bu jihatdan nutqning *slengi* – ixtisoslashgan turini o'rganish ahamiyatlidir. Kelib chiqishi jihatidan sleng – ma'lum tor doira yoki qatlamga mansub kishilarning yo kasbi, yo birgalikdagi hamkorligiga bog'liq sharoitlaridan kelib chiqadigan nutqning leksik xususiyatidir. Masalan, uchuvchilarning, ko'chada yurgan o'smirlarning, qamoq muddatini o'tayotganlarning o'ziga yarasha slengi shakllanadi. Ularni bilmaguncha o'sha ijtimoiy qatlam yoki guruhga ta'sir ko'rsatish mushkul bo'ladi.

### *Reprezentativ tizim*

Shaxsning *reprezentativ tizimi* deganda – insonning tashqi olamdan ma'lumotni idrok etishi, uni miyada qayta ishlashi va bayon etish uslubi tushuniladi. Ma'lumki, odam tashqi olamdagи ma'lumotni beshta sezgi organlari – ko'rish, eshitish, tana sezgisi (tuyish), ta'm va hid bilish orqali qabul qiladi. Sanab o'tilganlar ichida birinchi uchtasi asosiy ma'lumot yetkazuvchi sezgi turlari bo'lib, ularni ba'zan uch asosiy reprezentativ tizim ham deb ataladi. Bunday talqinda ko'rish-vizual, eshitish-audial, tuyish-kinestetik reprezentativ tizimlar nazarda tutiladi. Aniqlanishicha, har bir inson tashqi muhitdagi ma'lumotni qabul qilishda uchchala reprezentativ tizimdan foydalanadi. Lekin, har bir odamning tabiiy moyilligi va yashash muhiti unda biron ta reprezentativ tizimni yetakchi qilib qo'yadi. Mana shu yetakchi reprezentativ tizimning turliligi tashkilot miqyosidagi xodimlar tipologiyasi uchun yana bir asos bo'lib xizmat qiladi. Mehnat jamoasini boshqaruvchi rahbar uchun o'z qo'li ostidagi xodimda qaysi reprezentativ tizim yetakchiligin bilish muhimdir. Bunday xususiyatni bilgan holda xodimning odatiy harakatlari sababini bilishga, uning xulqi natijalarini oldindan taxmin qila olishga va kezi kelganda biron masalani uning idrokiga mos ravishda tushuntira olishimizga imkon beradi.

O'zaro muloqot davomida o'zganining yetakchi reprezentativ tizimini aniqlash quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

 **Ko'z harakatlarini kuzatish.** Amerikalik mashhur amaliyotchi psixologlar R.Bandler va J.Grinder tadqiqotlari orqali aniqlanishicha, odam uchta reprezentativ tizimning bironasidan foydalanar ekan, bu jarayon uning ko'z harakatida ham ifodalanadi. Qarshimizdagi odam ko'z (gavhari) harakatining

yo'nalishi uning ruhiy jarayoni muayyan reprezentativ tizimga asoslangan holda o'tayotganligidan dalolat beradi. Masalan, ko'zning gorizontal holatda chapga, o'ngga hamda pastga-chapga yo'nalganligi audial tizimga murojaat etayotganligi belgisidir; ko'zning yuqoriga-chapga, yuqoriga-o'ngga hamda to'g'riga yo'nalishi vizual tizimga moyillik belgisi; ko'zning pastga-o'ngga yo'nalganligi esa ayni paytda kintestetik tizim ustunligini ifodalaydi.

 **Suhbatdoshning nutqini tahlil etish.** Muloqot davomida suhbatdoshimiz qaysi reprezentativ tizimga asoslanishini aniqlashning asosiy uslublaridan biri uning so'zlarini tahlil etishdir. Odatda, kundalik muloqot davomida odamlar gapning sintaktik tuzilmasi va so'zlarga beixtiyor murojaat etadilar. O'zga kimsaning gapidagi so'zlarga e'tibor bergen holda uning hayot tajribasi va shaxsiy xislatlarini aniqlab olish qiyin emas. Gapning ega, sifat va ravish qismlari ayni paytdagi reprezentativ tizimni aks ettiradi. Aynan shunday so'zlar majmuasi u yoki bu reprezentativ tizim yetakchi bo'lgan kimsalarda turlicha ko'rinishga ega. Quyida turli reprezentativ tizimga moyil kishilar nutqida uchrovchi so'zlar qatori bayon etilgan:

- © *Vizual reperezentativ tizimli* kimsaning nutqida – ko'rish, qarash, tasavvur etish, aniq, uzoqni ko'zlab, oldindan ko'rish, narsalarga e'tibor berish, ko'rsatmok, xayolan, kuzatish, qarashlar, o'xshash, tasvir, noaniq va shu kabi so'zlar ko'p uchraydi.
- © *Audial reperezentativ tizimga* mansub kishining nutqida – eshitmoq, tinglamoq, eshitilmoq, aks sado kabi, shovqin, tinch, tovushning turli ohanglari, pichirlab aytmoq, tadaffuz etmoq, aniq eshitmoq kabi so'zlar tez-tez uchraydi.
- © *Kinestetik* uchun esa – sezmoq, his etmoq, sinmoq, tutib olmoq, (fikrni) ilg'ab olmoq, sovuq, issiq, qattiq, urinmoq, qiyin, bosim, bosmoq, ko'z yogurtirib chiqish, sezgir, tegizmoq, tiyib turish yoki tura olmaslik va shu kabi so'zlar ko'p uchraydi.

 **Shaxsiy hisobotlar.** Inson o'zini qaysi reprezentativ tizimga mansub deb hisoblashi.

Turli reprezentativ tizimlar yetakchi bo'lgan kimsalar muloqotida ba'zi bir qiyinchiliklar uchrashi mumkin. Masalan, vizual reyerezentativ tizimga asoslanib bayon etilayotgan axborotni kinestetik odam axborot yetishmovchiligi sifatida qabul qilishi mumkin.

Ikki reprezentativ tizimga mansub kimsalar muloqotidagi ziddiyatni kuzatar ekanmiz, xizmat yuzasidan bo'lgan vaziyat xodim va rahbar munosabatlarda quyidagi muammoni tug'dirishi mumkin – rahbar-vizual biron masalani xodim-audialga tushuntirar ekan, rahbar xodimning tinglayotganini diqqat bilan kuzatadi va xodim bir tomonga o'girilib qulqoq tutib turganini ko'rib bu holatni e'tiborsiz ravishda tinglash deb talqin etishi mumkin. Aslida esa audial uchun aynan shunday tana holati ma'lumotni tinglash uchun qulaydir. Turli reprezentativ tizimga mansub bir oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar hatto mojarolarga ham olib keladi. Ota farzandini koyir ekan, farzand kuchli hislar og'ushida bo'ladi va yerga qarab turadi (haqiqiy kinestetik holati). Farzandining harakatlarini kuzatib turgan va vizual reprezentativ tizim ustunlik qilayotgan ota esa farzandining e'tiborini suhbatga yo'naltirish maqsadida uni koyiy boshlaydi: "Men senga gapirayapman, sen esa nima haqida o'yayapsan? Qani, ko'zimga qarachi". Ayni paytda ota uchun farzandining

tushunganligi alomati, uning ota tomonga nigoh tashlashi bo'lib hisoblanadi. Agar shunday holat yuz bermasa, demak, ota farzandining e'tibori boshqa narsalarga yo'nalgan, deb yo'yadi.

Turli rerezentativ tizimga mansub kishilar, masalan rahbar va xodim suhbatida qo'llanuvchi so'zlar ham orada ma'lum ziddiyatni yuzaga keltiradi.

Xodim qaysi reprezentativ tizim orqali ma'lumotni qabul qilishi, yodda saqlashi va ongida qayta ishlashi xususiyatlarini bilish beriladigan topshiriqni unga yanada moslashtirib bayon etish imkonini beradi. Vizual xodimga masalani tushuntirish davomida uning tasavvuriga asoslanish, tasvirlash va chizmadan foydalangan ma'qul. Audial xodimga esa uning idrok xususiyatiga mos so'zlarni tanlash va ma'lumotning mantiqiy tomoniga e'tibor bergen holda bayon etish kerak. Kinestetik reprezentativ tizim yetakchi bo'lgan xodimga esa ma'lumotda hissiyot va tuyg'uni ifodalovchi tushunchalar, vazifaning tarkibiy bo'laklariga muvofiq paydo bo'luchchi turli sezgi hislari mujassamlashgan bo'lgani ma'qul. Masalan, "... eshikdan ichkariga **kirganingizda** qarshingizda **katta** harflar bilan **yozib qo'yilgan...**". Ushbu qisqa matndagi tagi chizilgan so'zlar aynan kinestetiklarga xos kalit so'zlar bo'lib hisoblanadi. Yetakchi rerezentativ tizimlari turlicha bo'lgan ikki xodimning telefondagagi suhbatini quyidagicha o'tishi mumkin:

*"Audial: – Meni diqqat bilan eshit, muhim topshiriq bor, yaxshilab tushunib ol.*

*Vizual: – Bunday muhim masalani telefon orqali hal qilib bo'lmaydi, kel ko'rishib gaplashib olaylik".*

Kezi kelganda shuni aytish kerakki, odatda audial tipiga mansub kimsalar telefon orqali ishlarni hal etishni ma'qul ko'rishadi. Telefonning ishlamay qolishi ular uchun ish kunining samarasiz o'tishi belgisidir. Vizual kimsa bitta chiroq yonib turgan joyda ikkinchisini izlaydi va hamma narsa ko'z ostida bo'lishini xohlaydi. "Ming bor eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal" maqoli vizuallarning hayot tamoyilidir. Kinestetik uchun esa xonadagi jihozlarning qulay joylashganligi, ayniqsa o'tiradigan stul va suyanadigan stolining qulayligi katta ahamiyatga ega.

Xodimlarning yetakchi reprezentativ tizimga mansubligini bilish ular o'rtasidagi ba'zi tushunmovchiliklar, muqarrar bulgan ziddiyatlarni oldini olish imkonini beradi.

#### 14.6. K.Yung psixologik tiplar haqida

**T**ashkilot miqyosida xodimlarni klassifikasiyalashga oid yana bir yondoshuv mashhur psixolog K.Yung tomonidan yaratilgan psixotiplar haqidagi ta'limot bo'lib, bunga muvofiq inson xarakterining ayrim xislatlari tug'ma asosga ega. Masalan, ulardan biri inson o'ziga kuch-quvvat olishda qayerga yo'nalganligi bilan bog'liq holatdir. Kimdir shu quvvatni tashqi muhitdan olsa, kimdir o'z ichki dunyosiga murojaat etadi. Tashqi muhitga yo'nalgan kimsalar ekstravert deb ataladi, e'tibori o'z ichki dunyosiga qaratilgan shaxsga esa introvert iborasi qo'llanadi. Ushbu ikki tipning bat afsil tavsifi quyidagicha:

##### *Ekstravert*

– o'zgalar bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoji katta va bu orqali o'ziga g'ayrat

oladi, tanho qolish uni quvvatsizlikka olib keladi; avval gapirib, keyin esa o'ylaydi; faol va muloqotga kirishuvchan; atrof-muhitdagi ko'p narsalarni bilishga intiladi.

### *Introvert*

– yakka, tanho qolganda o'zini yaxshi his etadi, fikr va o'ylarini boshqalar bilan o'rtoqlashmaydi, kuchli muhokama jarayoni ularni tez toliqtiradi, gapirishdan ko'ra tinglashni yaxshi ko'radi, suhbatdan so'ng fikrlari va hissiyotlarini jamlab va tartiblab olish uchun tanho qolishni ma'qul ko'radi.

K.Yungning tipologiyalar haqidagi ta'limoti o'zining uzoq davomiga ega va yuqorida ta'kidlanganlarga ("ekstravert va introvert") qo'shimcha ravishda "sezgir va intuitiv", "fikrlovchi va his etuvchi", "baholovchi va idrok etuvchi" kabi tiplar ham qayd etiladi. Keyinchalik bu usslub yanada takomillashib Mayers-Brigs usslubida tipologiyalash degan nomga ega bo'ldi. Yung tipologiyasidagi to'rt ko'rsatkichga ko'ra toifalash shunchalik ahamiyatlici, hatto AQShning "Ford" avtomobil kompaniyasidagi mehnat jamoalari tarkibi aynan shu usslubda bir-biriga muvofiq keluvchi xodimlardan tashkil etilganligi ma'lum.

Rossiyalik psixolog Samoukina taklif etadigan tipologiyaga binoan xodimlarni o'z ichiga yo'nalgan – "ichki" hamda tashqi muhitga yo'nalgan – "tashqi" shaxslarga toifalash mumkin. Bunday ta'rifga binoan "Ichki" kimsalar bajarayotgan mehnatning mazmuniga katta e'tibor berishadi va hissiy qoniqishni ustuvor deb hisoblashadi. Ular u yoki bu mehnat turi, vazifani tanlashda uning natijasi xamkasabali oldida obro'-tibor qozonishga yordam berishiga e'tibor qaratishadi. O'z imkoniyatini namoyon etish va qobiliyatlarni rivojlantirish ular uchun yetakchi motivasiya omili bo'lib hisoblanadi. Ular maoshni yetakchi o'ringa qo'ymaydilar, agar katta pul evaziga zerikarli ishni bajarish lozim bo'lsa, ular bundan voz kechishlari tabiiy hol. Bunday xodimlar uchun kam maosh to'lansa ham, ularning qobiliyati va g'oyasini amalga oshirish muhim hisoblanadi.

"Tashqi" xodimlar – ular uchun bajarayotgan mehnat hayotda muvaffaqiyatga erishganlik belgisi ekanligi, jamiyatda yuqori nufuzga egaligi juda muhimdir. Ular maoshni qadrlaydilar. Mansabda o'sish, rahbariyat tomonidan rag'batlantirish va maqtov bunday xodimlar uchun katta ahamiyatga ega. Ular muvaffaqiyat timsollarini egallashni xohlaydilar – yaxshi kabinet, zamonaviy avtomobil, chiroyli kiyim va shu kabilar.

Yuqorida ta'kidlangan ikki toifadan tashqari "aralash" tipga mansub xodimlar xam eslatib o'tiladi. Ular uchun ikkala omil ham ahamiyatga ega. Lekin, bunday xodim uchun mehnat mazmuni yetakchi bo'lib hisoblanadi.

Tashkilot hayoti doimo rejalangan tarzda kechmaydi. Xom ashyo tanqisligi, vaqt va imkoniyatlarni taqsimlashdagi qiyinchiliklar va boshqa bir qancha omillar ta'sirida tashkilotda zo'riqish muhiti yuzaga kelishi mumkin. Bunday muhitning xodimlar faoliyatiga ta'sirini tahlil etish maqsadida "tazyiq ko'rsatuvchi" omillar degan iborani qabul qilishimiz mumkin. Tazyiq ko'rsatuvchi omillar qatoriga shaxsning ichki psixologik muammolari, xodimni o'rab turgan shart-sharoitning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, jamoadagi shaxslararo munosabatlarning tajangligi, mehnatni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan muammolar hamda xodimning oilasidagi qiyinchiliklar kirishi

mumkin. Bu omillar o'zaro bog'liq va xodimning bir sohadagi qoniqarsiz holati boshqa jabhalarda ham shunday natijani yuzaga keltirish ehtimoli baland.

Shuningdek, o'sha mashhur olim K.Yung insonlarni fikrlashlariga ko'ra asosan ikki toifaga bo'lган edi.

### *Intuitiv tiplilar*

Bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha hissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha ham o'ng yarim sharlar faoliyati chapnikidan ustunroq bo'ladi. Ko'rib, his qilib, yorqin emosional munosabat shakllantirilmaguncha, bunday odamlar biror xususda fikrlarini bayon eta olmaydilar.

### *Fikrlovchi tiplar*

Bunday kishilarda doimo mantiq, mulohaza xissiyotlardan ustun bo'ladi va miyasining chap tomoni o'ngiga nisbatan dominanta (ustun) hisoblanadi. Bundaylar gapira boshlashsa, ko'pincha, "Faysasuf bo'lib ket-e", deb ham qo'yishadi. Chunki ular o'zlarigacha bo'lган bilimlar, mantiqiy fikrlash borasidagi yutuqlarga tayanib, doimo to'g'ri gapistishga, doimo fikrlarini mantiqan asoslash – argumentasiya qilishga harakat qiladilar. Aniq va texnika, tibbiyot fanlari bilan shug'ullanuvchilarda ana shu tafakkur tipiga moyillik va psixologik hozirlilik bo'lsa, ular o'z kasblari borasida juda yaxshi natijalarga erishadilar. Ulardan farqli birinchi toifa vakillaridan yaxshi yozuvchilar, shoirlar, tilshunoslar, psixologlar yetishib chiqadi.

## 14.7. Rezyume

Shaxsning xulq-atvor nazariyasi uning xulq-atvorini tavsiflab beradigan asosiy omillar bilan xarakterlanadi. Ekstraversiya va introversiyaning mavjudligi shaxsning tabiiy xususiyatlari bilan uzbeklashgan bo'ladi, ya'ni temperament turlarigi bog'liq. Guruhlarda shaxsning xulq-atvorini diagnostika qilish orqali jamoaning psixologik muhiti aniqlanadi. Shuningdek, guruhning umumiyligi maqsadlari, uning samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shaxsning professional faoliyati, jamoadagi o'rni va statusi, uning jamiyatdagi o'mini ilmiy tushunchalar vositasida talqin qilinishi orqali o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

## 14.8. Asosiy tushuncha va atamalar

Xulq-atvor, ekstraversiya, introversiya, melanxolik, xolerik, flegmatik, sangvinik, vizual psixodiagnostika, sleng, intuitiv, fikrlovchi.

## 14.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Qaysi omillar shaxs va uning xulq-atvorini tavsiflab beradi?
2. Temperament nima va uni qanday qilib aniqlash mumkin?
3. Shaxsning guruhlardagi xulq-atvori qanday va izohlab bering.

4. Shaxsnинг professional faoliyati va uning jamoadagi o’rniga deganda nimani tushunasiz?
5. Sleng nima?
6. K.Yungning psixologik tiplari farqini taqlil qiling.

## **14.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

*Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.*

*Karimova V.M. Psixologiya. O’quv qo’llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O’AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.*

*Karimova V.M., Akramova F.A. “Psixologiya”. 1-qism. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.*

*Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994*

*Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo “Piter”, 2000. – 560 s.*

*Mayers D. Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.*

*Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O’quv qo’llanma / Mas’ul muharrir: A.Xolbekov. – T.: DJQA “Rahbar” markazi; “YUNAKS-PRINT” MChJ, 2006. – 230 b.*

*Meliya M. Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremennoego delovogo cheloveka / Marina Meliya. – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.*

*Nemov R.S. Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.*

*Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-vo “Institut prakticheskoy psixologii”; Voronej: Izd-vo NPO “MODEK”, 1998. – 688 s.*

*Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.*

*Sherbakova Yu.V. Spesialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. – M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. – 80 s.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.*

*Hayitov O.E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.*

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R. “Psixologiya” fani bo'yicha shaxsni o'rGANISHGA doir testlar va metodikalar to'plami. – T., TDIU. 2005.*

### **Internet ssilka:**

<http://psychoanalyse.narod.ru/rorsch1.htm>

[http://www.ill.ru/shop/piter/shops.phtml?c\\_id=104&..](http://www.ill.ru/shop/piter/shops.phtml?c_id=104&..)

<http://psi.webzone.ru/st/090500.htm>

<http://psyberia.ru/work/diagnost>

## XV bob

---

### TASHKILOTCHILIK VA BOSHQARUV JARAYONLARI PSIXODIAGNOSTIKASI

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Tashkilotchilik qobiliyati psixodiagnostikasi.** Odamlarga faol ta'sir eta olish malakasini aniqlash.  
**Reykovskiy bo'yicha faoliyatning diagnostikasi.** Faoliyat. Instrumental aspekt. Munosabat aspekti.

**Menejer kasbiy moyilligini baholash.** Menejer kasbiy moyilligini baholash testi va uning natijalarini.

**Menejer faoliyatining diagnostikasi testi.** Shaxsiy va kasbiy sifatlar bo'yicha ma'lumotlar. O'zining "MEN"idan rozi yoki norozi bo'lish integral hissi ustuni. O'zini hurmat qilish ustuni. O'zini o'zi yoqtirish ustuni. Atrofdagilardan kutilayotgan munosabat ustuni. O'z shaxsiyatiga qiziqish usutuni. O'ziga o'zi ishonch ustuni. O'zgalardan kutilayotgan munosabat ustuni. O'zini o'zi qabul qilish ustuni. O'ziga o'zi rahbarlik qilish ustuni. O'zini o'zi ayplash ustuni. O'z-o'ziga qiziqishini ifodalash ustuni. O'zini o'zi tushunish ustuni.

**Reykovskiy bo'yicha boshqaruv jarayonlari diagnostikasi.** Boshqaruv jarayonlari. Instrumental jarayon. Munosabat jarayon.

**Reykovskiy bo'yicha boshqaruv mexanizmi.** Nerv tizimi. Boshqaruv jarayonlari. Boshqaruv mexanizmi. Opreasion. Dinamik. Chidamlilik. Tashkilotchilik. Inson axloqi.

---

## 15.1. Tashkilotchilik qobiliyati psixodiagnostikasi

**U**shbu taklif etilayotgan test sinaluvchining tashkilotchilik qobiliyatini, ya'ni odamlarga faol ta'sir eta olish malakasini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun quyidagi keltirilgan savollarga "HA" yoki "YO'Q" deb javob qaytaring. Javob berar ekansiz, yaqqol vaziyatlarda o'zingizni qanday tutishingizni xulqingizga ro'yrost idrok etishga (tiklashga) harakat qiling.

1. Sizda o'rtoqlaringizni o'z tomoningizga og'dirib olish hollari tez-tez uchrab turadimi?
2. Keskin vaziyatlarda o'zinigizni yaxshi tutib, vaziyatni to'g'ri hal qila olasizmi?
3. Sizga jamoatchilik ishlari yoqadimi?
4. Agar niyatlarining amalga oshirishda ayrim xalaqit qiluvchi vaziyatlar, holatlar yuzaga kelib qolsa, Siz ulardan osongina voz kechasizmi?
5. Siz turli xil o'yinlar, ko'ngil xushliklar tashkil qilish yoki o'ylab topishni yoqtirasizmi?
6. Bugun bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni boshqa kunga qoldirish hollari sizda tez-tez uchrab turadimi?
7. Siz do'stlaringiz bilan fikringizga mos ravishda ish ko'rishga intilasizmi?
8. Sizda do'stlaringiz bilan ular o'z va'dalari bilan majburiyatları, vazifalarini bajarmaganliklari tufayli nizolar bo'lmaydi. Shu rostmi?
9. Muhim ishlarni hal qilishda tez-tez tashabbuskorlik ko'rsatasizmi?
10. Notanish holatlarda siz to'g'ri (yaxshi) yo'l tuta olmaysiz, shu rostmi?
11. Agarda boshlagan ishingizni yakunlay olmasangiz, jahlingiz chiqadimi?
12. Siz do'stlaringiz bilan tez-tez muloqotda bo'lishdan toliqasiz, shuni tasdiqlaysizmi?
13. O'rtoqlaringizga taalluli bo'lgan masalalarni hal etishda tez-tez tashabbuskormisiz?
14. Siz kamdan-kam o'zingizning haqligingizni isbotlashga intilasiz, shuni tasdiqlaysizmi?
15. Siz ishxona va yuqori tashkilotlarda o'zingizni ro'yobga chiqara olasizmi?
16. Agar, sizning fikringiz yoki qaroringiz o'rtoqlaringiz tomonidan birdaniga qabul qilinmasa, siz o'z fikringizda turib olishga harakat qilasiz, shundaymi?
17. O'rtoqlaringiz uchun turli xil tadbir (marosimlarni) tashkil qilishga bajonidil kirishasizmi?
18. Siz biron-bir bitirilishi lozim bo'lgan (ishchan) uchrashuvlarga tez-tez kechikib kelasizmi?
19. Siz tez-tez o'rtoqlaringiz diqqat markazida bo'lib turasizmi?
20. Siz o'z o'rtoqlaringizning katta guruhida, jamoasida o'zingizni juda ishonchli tuta olmaysiz, shu rostmi?

Taklif etilgan savollarning hammasiga javob berib bo'linganidan so'ng, olgan ballaringiz yig'indisini hisoblab chiqing. Javoblarni baholashda shuni nazarda tutingki, toq savollarga berilgan har bir "HA" javobingiz va juft savollarga bergen har bir "YO'Q" javobingiz bir ball bilan baholanadi.

Bunda yig'ilgan ballarning 15 ball va undan ko'p bo'lishi tashkilotchilik qobiliyatining yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

13-14 ballar o'rtacha.

13 balldan kam bo'lsa, tashkilotchilik qobiliyatining past darajada ekanligini bildiradi.


Sizda tashkilotchilik qobiliyati past bo'lsa, bu uchun xafa bo'lmang, chunki agar

xohlasangiz uni rivojlantirish mumkin.

## 15.2. Reykovskiy bo'yicha faoliyatning diagnostikasi

**F**aoliyat deganda, odatda, bir aniq maqsad sari yo'nalgan jarayon tushuniladi. Faoliyatni diagnostikasini Reykovskiy ikkita umumiylashtirishga bo'lishni taklif qilgan: instrumental (sifat, tezlik va ta'sirlar muntazamligi) va munosabat aspekti (15.2.1-rasm). Bu aspektlarda bajargan harakatlariga, atrof muhitga va o'z-o'ziga subyektning munosabati o'rganiladi. Psixologik tashxisni vazifasi faqat qanday ta'sirlar xato bilan bo'layotganini aniqlash emas, balki qanday ta'sirlarda individga onson bo'lishini aniqlashdir. Faoliyatni tizimiylashgan tavsifini olish uchun jamiyatdagi inson tomonidan bajariladigan asosiy ahamiyatga ega bo'lgan tizim ishlatalishi taklif qilinadi.

Raykovskiyning ta'kidlashicha, klinik diagnostikada ko'p hollarda munosabat aspekti hisobga olinishi, kasbiy diagnostikada esa instrumental aspekt muhimroq ahamiyatga ega ekan. Nima uchun ta'sirlar noto'g'ri bo'layotganiga javob berish uchun, boshqaruv jarayonlarini diagnostikasini o'tkazish zarur.



15.2.1-rasm. Reykovskiy bo'yicha faoliyatning diagnostikasi

## 15.3. Menejer kasbiy moyilligini baholash

**O**rzuga ayb yo'q, kim shoh bo'lishni istamaydi, degan xalqimizning naqli bor. Lekin shunday odamlar ham borki, ularga rahbar bo'lish mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ushbu test sinaluvchida

- |    |   |   |   |
|----|---|---|---|
| 1. | Siz odamlarga buyruq bera olasizmi?                         | a | b |
| 2. | Siz tomorqada ishlashni yoqtirasizmi?                       | a | b |
| 3. | Kimgadir biron-bir masala yuzasidan e'tiroz bildirish sizda | a | b |

4. qoniqish hissini hosil qaladimi?
5. Quyidagi ikki xislatdan qaysi birini ko'proq qadrlaysiz? a) avtoritet; b) muloyimlik
6. Siz nutq so'zlashni yoqtirasizmi?
7. Sizning fikringizcha sivilizasiyalash jarayonini nima bilan aniqlash mumkin? a) ayollar emansipasiyalashuvi; b) texnika taraqqiyoti bilan.
8. Kimningdir uquvsizligi, no'noqligi sizning jahlingizni chiqaradimi?
9. Siz odamlar bevosita muloqot orqali bajariladigan ishlarni yoqtirasizmi?
10. Siz o'zingizni bolalikdan haddan ziyod onam ta'sirida bo'lganman deb hisoblaysizmi?
11. Siz biror odam bilan tanishish vaqtida e'tiboringizni birinchi navbatda suhbatdoshingizning qanday xislatlariga qaratasiz? a) tashqi ko'rinishiga; b) u nimani va qanday gapiradi.
12. Agar o'z fikringizni himoya qila olmasangiz o'z aytganingizni (talabangizni) qaror toptira bilmasangiz jahlingiz qo'zg'aydimi?
13. Mashhurlik (mansab)ning qanday turi sizni o'ziga ko'proq jalb qiladi (sizga jozibaliroq tuyuladi)? a) mashhur artist Sh.Jo'rayevdek; b) mashhur sportchi M.Qosimovdek.
14. Sizni tez-tez saylov (tanlov) komissiyasiga tavsiya qilishadimi?
15. Siz olamshumul yangiliklarning tashkilotchisi bo'la olasizmi?
16. Siz muammolarni o'zidan-o'zi hal bo'lib ketishini kutasizmi?
17. Faraz qiling, siz derazalarida pardasi yo'q yashashingizga yoki ishlappingizga to'g'ri kelsa, bunday vaziyat sizning jahlingizni chiqaradami?
18. Sizga qaysi rang ko'proq yoqadi? a) havo rang; b) qizil rang.
19. Siz osongina bir qarorga kelasizmi?
20. Sportning qaysi turi sizga ko'proq yoqadi? a) chaqqonlikni rivojlantiruvchi; b) quvvatni rivojlantiruvchi.
- Agar lavozimga uzukka qo'ygan ko'zday mos tushsa, siz qarama-qarshi jinsli rahbarga moyillik bildirasizmi?

### ***Kalit:***

#	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
a	5	5	5	5	5	0	5	5	0	0	5	0	5	5	0	0	0	5	0	0
b	0	0	0	0	0	5	0	0	5	5	0	5	0	0	5	5	5	0	5	5

### ***Natijalar tahlili:***

Ballar yig'indisi 100-80 ball bo'lsa, bunday odamda boshqalardan ustunlikka intilish tuyg'usi kuchliroq shaxsdir. Ushbu odam tashabbuskor, yaxshi tashkilotchi xislatiga qaramay, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham tan olinishga intiladi. Xodimlarning boshqarish istagi, ishtiyoqi ular xatti-harakatlarining samaradorligini kamaytirmaydi.

Kuchli asabiy toliqish, o'zini yengil torta bilishning bilmasligi shunga olib

keladiki, hayajonlanib (hovliqib) turgan vaqtda bunday odamlar biron-bir kishini osongina ranjitib qo'yishi mumkin. bunday odamlar tez-tez maqtanib turadilar, manmanlik qiladilar, aggressivlikka moyildirlar. Agar bu toifadagi odamlar boshqalarga nisbatan munosabatini o'zgartira olgan taqdirdagina ularning rahbarlik lavozimiga moyillik beruvchi xislatlari yuqori samaralar berishi mumkin.

**75-40 ball.** Bunday odamlarning talablari ancha yuqori, ko'pincha ular o'zlariga ishonadilar. O'z "men"ini ta'kidlab o'tishni yoqtiradilar. Hissiyotlarni boshqara olishni bilishlik va o'z xatti-harakatini tahlil qilishga moyillik shunga olib keladiki, bunday odamlarda boshqalarni boshqarish zaruriyati alohida shaklga ega bo'lmay qoladi. Bunday shaxslar hali yurilmagan yo'llardan ("ochilmagan so'qmoqlardan") yurishni yoqtiradilar. Ular o'z fikrlari bilan hamma vaqt boshqalarnikiga mos tushavermaydigan bo'lib, o'zlariga boshqa odamlarni bog'lab olishni yoqtirmaydilar hamda boshqalarga qiyinchilik bilan bo'ysunadilar. O'z haqida odamlar nimalar deyishayotganliklari qiziqtirmaydi va ayni vaqtda o'zgalarni tanqid qilishga moyildirlar. O'z so'zları hamma vaqt oxirgi (hal qiluvchi) mulohazada qaror topishini yoqtiradilar.

**35-0 ball.** Bunday odamlar menejer bo'lishdan ko'ra xodim (bo'ysunuvchi) bo'lishga ko'proq moyildirlar. "Shef" (xo'jayin) rovida o'zlarini noqulay his qiladilar. Odatta ular aniqrog'i jur'atsiz, o'ta kamtarin, o'ziga ishonmaydigan kishilardir. Ular kamdan-kam biron-bir tashabbus bilan chiqadilar, boshqalarning rahbarligiga bajonidil bo'ysunadilar. Bunday toifadagilar o'zaro kelishuv asosida qabul qilingan qarorlarga bo'ysunishni va boshqa kishilar "soyasida" bo'lishni ma'qul ko'radilar.

#### 15.4. Menejer faoliyatining diagnostikasi testi

**S**izga tavsiya qilinayotgan test savollari menejer faoliyatining psixologik diagnostikasiga bag'ishlangan. Shuning bilan birga bu ma'lumotlar respublikamizdagi xalq xo'jaligini boshqarishni takomillashtirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy va kasbiy sifatlaringiz bo'yicha ma'lumotlar Siz uchun quyidagi jarayonlarda asqotadi:

- ⊕ *lavozim bo'yicha attestasiyaga tayyorlanish bosqichida;*
- ⊕ *shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishda va o'z ustingizda ishlashni takomillashtirishda;*
- ⊕ *hayot va faoliyatningizni qanday tashkil qilishni belgilab beruvchi o'zingizni "MEN" – konsepsiysi bo'yicha (o'zingiz haqingizdagi tasavvurni)*

Har bir fikrga "ha" (+) yoki "yo'q" (-) belgisini qo'yish bilan javob berishingiz mumkin.

1. Tanishlarimning ko'pchiligi meni yoqtirishsa kerak, deb o'ylayman.
2. So'zim kamdan-kam hollarda ishimga to'g'ri kelmaydi.
3. Ko'pchilik odamlar o'zlariga o'xshash tomonlarini menda ko'risha ajab emas, deb hisoblayman.
4. Men o'zimni baholashga harakat qilganimda, eng avvalo kamchiliklarimni ko'raman.
5. Men shaxs sifatida odamlarni o'zimga jalb qila olaman, deb tasavvur qilaman.
6. O'zimga meni yaxshi ko'radigan odamning ko'zi bilan qaraganimda, shaxsiy obrazim

- haqiqatdan qanchalik uzoqligini ko'rib tasavvur qilganimda noxush hislar tug'iladi.
7. Mening "Men"im o'zim uchun har doim qiziqarlidir.
  8. Ba'zan o'zini o'zi ayashni gunoh emas, deb baholayman.
  9. Shaxsiy hayotimda menga haddan tashqari ruhan yaqin turgan odamlar bor yoki bo'lgan.
  10. O'zimni o'zim hurmat qilishim uchun yana xizmat ko'rsatishim joiz.
  11. O'zimni o'zim juda yomon ko'rib ketgan vaqtim bo'lgan va bu voqyea bir marta emas.
  12. Men to'satdan paydo bo'lgan xohishimga to'la ishonaman.
  13. O'zim ham shaxsiyatimdagи ko'p narsalarni o'zgartirishni istar edim.
  14. Men uchun shaxsiy "Men"im alohida chuqur e'tiborga sazovor bo'lib tuyuladi.
  15. Mening hayotimda hamma narsa yaxshi bo'lishini sidqidildan xohlayman.
  16. Men birovga ta'na toshi yog'dirishdan oldin, avvalo o'zimni ayblayman.
  17. To'satdan tanishga odamga ko'proq yoqimli shaxsday bo'lib tuyulaman.
  18. Men ko'proq o'z rejalarim va xatti-harakatlarimni qo'llab-quvvatlayman.
  19. Shaxsiy kamchiliklarim menda g'azab tuyg'usiga o'xshash kechinmani vujudga keltiradi.
  20. Agar men ikkita kishiga aylanib qolsam, u holda o'zimning ikkinchi siymom bilan qiziqarli suhbat qilgan bo'lar edim.
  21. O'zimning ba'zi bir xislatlarim menga begonadek bo'lib tuyuladi.
  22. Kimningdir shaxsiyatidan menga o'xshash tomoni mavjudligini his qilish mumkin emas.
  23. O'ylagan rejamni amalga oshirish uchun qobiliyatim va imkoniyatim yetarli.
  24. Men o'z ustidan kulmagan holda o'zim bilan o'zim hazillasha olaman.
  25. Insonning o'z hayotida amalga oshiradigan eng aqli iши – bu o'z taqdiriga tan berishidir.
  26. Birinchi qarashda menga begona odam, mendan o'zgalarni itaruvchi xususiyatlarni ko'proq topadi.
  27. Agar men biror narsa degan bo'lsam, bu xuddi aytganimday ish tutaman, degan so'z emas.
  28. O'zimga bo'lган munosabatimni do'stona deyish mumkin.
  29. Shaxsiy kamchiliklarga muruvvatli bo'lish – bu tabiiy holdir.
  30. Sevimli odamim uchun hamisha qiziqarli manba bo'lishlik qo'limdan kelmaydi.
  31. Qalbimnnig tubidan men bilan qandaydir falokat yuz berishini sezaman.
  32. Ko'pchilik tanishlarimga yoqimli tuyulmasam kerak.
  33. Meni yoqtiradigan odamning ko'zi bilan o'zimga qarashim menga juda maroqli.
  34. Menda qandaydir bir xohish tug'ilsa birinchi navbatda o'zimdan-o'zim "bu aqldanmi?" deb so'rayman.
  35. Noma'lum donishmand odam mening ichki dunyomni payqab olganida edi, unda o'zimning qanchalik qashshoq ekanligimni darhol tushunib yetgan bo'lar edim.
  36. Vaqim-vaqt bilan o'zimdan-o'zim faxrlanaman.
  37. Men o'zimni yetarli darajada yuqori baholayman, deb aytsam bo'ladi.
  38. Men haqiqatdan ham katta odam ekanligimga qalbimning tubidan hyech ishongim kelmaydi.
  39. Begona odamlarning yordamisiz men juda kam narsa qila olaman.
  40. Ba'zan o'zimni o'zim tushunmayman.
  41. Maqsadga yo'nalganlik, irodaviy sifat va quvvatning yetarli emasligi menga juda xalal beradi.
  42. Umuman olganda boshqalar meni yetarli darajada orttirib baholashi mumkin, deb

o'ylayman.

43. Mening ruhiyatimda boshqalarni o'ta yoqtirmaslikni vujudga keltiruvchi nimadir bor.
44. Meni ko'pchilik tanishlarim unchalik jiddiy odam, deb qabul qilishmaydi.
45. Menda doim qo'zg'atuvchanlik hissi bo'lganligi bois o'zimdan xursandman.
46. Men o'zimni o'zim hurmat qilaman.
47. Hatto salbiy xislatlar ham begona emas.
48. Aslida men qanday bo'lsam, xuddi shuning o'zi meni qoniqtiradi.
49. Meni chin ko'ngildan seva olmasalar kerak.
50. Mening orzu va rejalarimga amaliy ifoda yetishmaydi.
51. Agar mening ikkinchi "men"im bo'lganida edi, bu muloqotda men uchun eng zerikarli sherik bo'lardi.
52. O'ylaymanki, har qanday aqli va bilimli kishi bilan umumiy til topsa bo'ladi.
53. Menda namoyon bo'ladigan kechinmalar, men uchun tushunarlidir.
54. Ijobiy fazilatlarim kamchiliklarimni bosib ketadi.
55. Meni vijdonsizlikda ayblaydigan odamlar topilishi lozim.
56. Menda ko'ngilsizlik sodir bo'lsa, o'zimga o'zim "Qilmishinga yarasha-da!" deb aytaman.
57. Umuman olganda men o'z taqdirimni nazorat qilaman, deb ayta olaman.

### **Natijalarning tahlili**

"HA" yoki "YO'Q" deb javob berilganidan qat'iy nazar, javobingizning kalitga mosligi 1 ball baho olishingiz uchun imkon beradi.

#### ***15.4.1. O'zining "MEN"idan rozi yoki norozi bo'lish integral hissi ustuni***

"HA" – 2, 5, 23, 27, 33, 42, 46, 48, 52, 53, 57.

"YO'Q" – 6, 9, 13, 14, 16, 18, 30, 35, 38, 39, 41, 43, 45, 49, 50, 56.

0-10 ball – Siz ko'proq o'z "Men"ingizdan norozisiz.

11-20 ball – Siz o'zingiz haqingizda juda yuqori fikrda emassiz, shuningdek, o'zingizga ijobjiy munosabatingiz saqlangan.

21-30 ball – O'zingiz haqingizda juda yuqori fikrdasiz, o'z "Men"ingizdan to'la rozisiz.

#### ***15.4.2. O'zini hurmat qilish ustuni***

"HA" – 2, 23, 53, 57.

"YO'Q" – 8, 13, 25, 27, 31, 38, 39, 41, 50.

0-5 ball – Sizda mustaqillikka, shaxsiy kuchga, qobiliyat va imkoniyatlarga ishonch yetarli emas.

6-10 ball – Siz o'zingizni yetarli darajada hurmat qilsangiz-da, lekin har qalay o'zingizga ishonmaslik, o'zingizni tushunmaslik, izchillikkdan chetlashish, shaxsiy imkoniyatlarga shubha bilan qarash holati ba'zida uchrab turadi.

11-15 ball – Siz o'zingizni yuksak darajada hurmat qilasiz, o'zingizga ishonasiz va mustaqilsiz.

### ***15.4.3. O'zini o'zi yoqtirish ustuni***

“HA” – 12, 18, 28, 29, 37, 46, 48, 54.

“YO'Q” – 4, 9, 11, 16, 19, 24, 45, 56.

0-5 ball – Siz ko'proq o'zingizga “dushman”ga qaragandek qaraysiz, o'zingizga tanbeh berishga, gunohkor his qilishga va ayblastashga moyillik bor.

6-10 ball – Umuman olganda, o'zingizni qo'llab-quvvatlaysiz, ijobiy baholaysiz, o'zingizga ishonasiz, shu bilan birga o'zingizni ayblastashga ham tayyorsiz.

11-16 ball – Siz o'z “Men”ingiz bilan “do'stona” munosabatdasiz. Bunday holda o'z xislatlaringizni va umumiyl xulqingizni yuksak darajada nazorat qilishingiz zarur.

### ***15.4.4. Atrofdagilardan kutilayotgan munosabat ustuni***

“HA” – 1, 5, 10, 15, 42, 55.

“YO'Q” – 3, 26, 30, 32, 43, 44, 49.

0-4 ball – Siz atrofdagi odamlardan salbiy munosabatni kutasiz, hatto mehrmuhabbatni zarur bo'lganlardan ham yaxshi munosabat kutmaysiz. Siz o'zingizga yaxshilikni chinakamiga ravo ko'rmaysiz. Vaholanki, o'zingizni boshqalarga o'xshamaydigan, alohida shaxs deb hisoblaysiz. Bu holat o'zingizni o'zingiz hurmat qilishni kuchaytiradigan vazifalarni o'z oldingizga qo'yishga to'siqlik qiladi.

5-9 ball – Atrofingizdaggi odamlar orasida sizga salbiy munosabatda bo'ladijanlar borligini bilsangiz ham, lekin ularning barchasi ijodiy munosabatda deb o'ylaysiz. Bu holat sizda ularning munosabatlariga munosib bo'lishga, ijtimoiy axlq normalariga rioya qilishga, tashqi qiyofangizga e'tibor berishga, o'zingizni nazorat qilishga intilishni vujudga keltiradi.

10-13 ball – Atrofingizdaggi odamlarning sizga ijobiy munosabatda ekanliklariga to'la ishonasiz. Bu ishons sizda o'zingizga nisbatan hurnatingizni tobora orttiradi. Siz shaxsingizning qadr-qimmatligiga ishonasiz va faoliyattingizning samarali bo'lishi atrofingizdaggi odamlardan kutayotgan munosabatingizga bog'liq. Ularning siz haqqingizdaggi tasavvurlarini saqlanib qolishi uchun doimo o'z ustingizda ishlashtiringiz zarur.

### ***15.4.5. O'z shaxsiyatiga qiziqish usutuni***

“HA” – 7, 17, 20, 33, 34, 52.

“YO'Q” – 14, 51.

0-2 ball – Siz o'zingizga (qisman o'z fikrlaringizga va hislaringizga) o'zingiz yaqin emassiz (real “men” va “ideal”), afsuski, sizda o'zingizning shaxs sifatida boshqalar uchun befarq ekanligingiz haqidagi fikr mavjud.

3-6 ball – Siz o'zingiz bilan “tenglik” asosida muomala qila olasiz, boshqalar uchun shivanda ekanligingizni e'tirof etmaysiz va bu haqda har doim ishonavermaysiz. O'ylab ko'ring, bu balki siz o'zingizni qanday shaxs bo'lishligingizni bilmaslik bilan bog'liqdir. Ehtimol, siz u yoki bu sifatlarining qay darajada shakllanganligini bilarsiz va shu bois atrofdagilarga sizning “Men”ingiz

qiziqarli ekanligiga shubhangiz bordir.

7-9 ball – Siz o'zingizni boshqalarga va o'zingizga qiziqarli ekanligingizga ishonasiz. Bu omil faoliyatingizning samarali bo'lishiga olib keladi.

#### ***15.4.6. O'ziga o'zi ishonch ustuni***

“HA” – 2, 23, 34, 42, 46.

“YO'Q” – 38, 39, 41.

0-2 ball – Siz o'zingizni turli vaziyatlar va muammolarni hal qilishga qobiliyatsiz deb hisoblaysiz.

3-6 ball – Ruhan tushmaysiz, lekin hamisha ham mustaqil va maqsadli emassiz.

7-8 ball – Siz o'yagan narsangizni amalga lshira olishingiz uchun qobiliyat va kuch-quvvat yetarli. Sizdagи e'tiqod faoliyatingiz muvaffaqiyatini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

#### ***15.4.7. O'zgalardan kutilayotgan munosabat ustuni***

“HA” – 1, 5, 10, 52, 55.

“YO'Q” – 32, 43, 44.

0-2 ball – Siz o'z “Men”ingizni salbiy baholash kutilmasiga tayyorsiz

3-6 ball – Siz atrofdagi odamlarning o'zingizga nisabatan munosabati fikri va xatti-harakatini tanqidiy hamda real baholaydigan odamsiz. O'zingizga nisabatan yo'naltirilgan ichki harakatlaringiz sizning shaxsiy sifatlaringiz va xulqingizdan kelib chiqadi.

7-8 ball – Siz o'z “Men”ingizni atrofdagilar tomonidan ko'proq ijobjiy baholanishni kutasiz. Bu holat sizni o'z “Men”ingizga ijobjiy yo'naltiradi va faoliyatingizni jadallashtiradi.

#### ***15.4.8. O'zini o'zi qabul qilish ustuni***

“HA” – 12, 18, 23, 47, 48, 54.

“YO'Q” – 21.

0-2 ball – O'zingiz butun borlig'ingiz bilan o'zingizga yoqmaysiz. O'z shaxsiy va kasbiy sifatlaringiz ustida o'ylab ko'rishingiz hamda ishlashingiz zarur.

3-5 ball – O'zingiz haqingizdagi fikrlaringizda qarama-qarshiliklar mavjud. O'zingizning “Men”ingizda ishda sizga ma'qul va nima noma'qul ekanligini aniqlang. O'z “Men”ingiz ustida ishlashingiz o'zingizga nisbatan ijobjiy munosabatni shakllanishga olib keladi.

6-7 ball – O'zingizni komil shaxs sifatida qabul qilish mezoningiz yetarli darajada yuqori. Bu o'zingizdagi ichki imkoniyatni ro'yobga chiqarish ehtiyojingiz borligini ifodalaydi va o'z “Men”ingizga nisbatan ijobjiy munosabatingizni qo'llab quvvatlaydi.

### ***15.4.9. O'ziga o'zi rahbarlik qilish ustuni***

“HA” – 50, 57.

“YO'Q” – 25, 27, 31, 35 36.

0-2 ball – Siz o'zingizga aytishingiz zarur: “Afsuski, meni aytgan so'zim aynan shunday xatti-harakat qilishimni bildirmaydi”.

3-5 ball – Siz muvaffaqiyat faoliyatingizdagi ma'lum izchillikni ta'minlovchi ichki mutanosiblik orqali erishasiz. Shunga qaramay, sizning “Men”ingizda ba'zi bir psixologik kelishmovchiliklar talay mavjud. Ehtimol, bunga xulqingizda har doim izchillik bo'lmasligi va uni yetarli nazorat qilish imkonini kamligi rejalarining real emasligi sababdir.

6-7 ball – Sizda shaxsiy faoliyatingizda izchillik, o'z qobiliyatingiz va imkoniyatlaringizga ishonch, o'zingizni tushunish, o'zingizni nazorat qilish yetarli darajada mujassam.

### ***15.4.10. O'zini o'zi ayblash ustuni***

“HA” – 3, 4, 9, 11, 16, 24, 45, 56.

0-2 ball – Sizda o'zingizga hyech qanday tanbechingiz yo'q. O'zingizdan ko'nglingiz to'qligi tufayli sodir bo'layotgan hodisalarga javobgarlikni soqit qilishni va uni tashqi omilarga yuklashga keltirib chiqaradi. O'zingizga tanqidiy qarashga harakat qiling.

3-6 ball – Sizni har doim ham o'zingizdan ko'nglingiz to'lavermaydi va bu ruhiyatingizga mos tushadi. Ko'pincha odamda o'zini o'zi baholash ziddiyatlaridan iborat bo'ladi. Shuningdek, siz o'zini psixologik himoya qilishning yo'li bo'l mish o'z aybini e'tirof etishdan tashqi omillar orqali o'zini oqlashdan xoli emassiz.

7-8 ball – Siz o'zingizni tanqid qilasiz, vijdonlisiz, o'zingizni kamsitishga, “aybdor” deb his qilishga, o'zingizga tanbeh berishga moyillik bor. Bu holat o'z imkoniyatlarini past baholashni vujudga keltiradi va har doim ham sizning faoliyatingizga ijobiyligi ta'sir etmaydi.

### ***15.4.11. O'z-o'ziga qiziqishini ifodalash ustuni***

“HA” – 17, 20, 33.

“YO'Q” – 26, 30, 49, 51.

0-2 ball – O'zingiz uchun qiziqarli emassiz, ko'pgina shaxsiy xussiyatlaringizni va ish sifatlaringizni salbiy baholaysiz. Bu esa boshqalarga ham qiziqarsiz bo'lishingizga olib keladi.

3-5 ball – Atrofingizdagi odamlar uchun ham, o'zingiz uchun ham ma'lum darajada qiziqarlisisiz. Sizda, shaxsiy xususiyatlaringizdan va ishchanlik sifatlaringizdan qoniqmaslik bor. Bu kamchiliklaringiz ustida ishslash va o'zingizga tanqidiy munosabatda bo'lishingiz o'zingizni takomillashtirishingni asosiy yo'lidir.

6-7 ball – Sizni “Men”ingiz bezovlanadir. O'zingizga qiziqish yuksak darajada rifojlanib o'ziga bino qo'yishga aylangan. Umuman olganda, bu yomon emas, agar ushbu faoliyatni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi

mahorat bilan uyg'unlashsa. Insonparvarlik va faoliyatningizdagi nazokat siz uchun foyda keltiradi, xolos.

#### **15.4.12. O'zini o'zi tushunish ustuni**

“HA” – 53.

“YO'Q” – 6, 8 13, 15, 22, 40.

0-2 ball – Sizda aniq izchillik, yorqin tasavvurlar, hislar va g'oyalar yo'q. O'zingiz bilan yomon munosabatdasiz.

3-5 ball – O'zingiz bilan yuqori darajada kelishasiz deb aytib bo'lmaydi. Lekin sizda o'zini tushunmaslik namoyon bo'lmaydi. O'zingizga ijobjiy munosabatni quvvatlash taktikasi sizni hayotingizda hokimlik qaladi.

6-7 ball – Siz o'zingiz bilan kelishgan holda yashaysiz.

Shunday qilib, sizni to'plagan yig'indingiz quyidagi raqamni tashkil qilsa:

**0 balldan 52 ballgacha** – bu ko'rsatkich o'zingizga salbiy munosabatda ekanligingizni bildiradi. Bu holat nisbatan barqaror bo'lgan, ozmi-ko'pmi darajada anglangan, individning o'zi haqidagi tasavvurlarining takrorlanmas tizimi sifatida his qilingan “Men konsepsiysi”ni salbiy yo'nalishda namoyon bo'lishiga ta'sir qiladi. Vaholanki, atrofdagalar o'zaro ta'siingiz va o'zingizga munosabatingiz shakllanadi. “Men konsepsiysi” ichki qarama-qarshiliklardan xoli bo'lмаган shaxsiy “Men”ining yaxlit obrazidir (A..V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy).

Salbiy “Men konsepsiya”siga ega bo'lgan odamlar “ortiqcha vahimaligi, tez xafa bo'lishi, o'zini kamsitishga va e'tirof etishga moyilligi bilan ajralib turadilar; ular uchun muloqot bilan, ijtimoiy va hissiy masalalar bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar xarakterlidir” (R.Berns).

Yuqorida bayon qilinganlar ularning rahbarlik faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazmay iloji yo'q.

**53 balldan 105 ballgacha** – bu ko'rsatkich rahbarning “Men konsepsiysi”ni va o'ziga munosabatning ijobjiy ekanligini ko'rsatadi. Atrofingizdagilar orasida siz yetarli darajada obro'lisiz. Qo'l ositingizdagilar sizni uzoq vaqtgacha unutishmaydi. Xodimlaringiz xotirasida shunday qiyofada saqlanib qolasi: “Ha, bizning rahbarimiz, haqqoni, rahmdil edi, xizmatkorlariga g'amxo'rlik qilardi”, “U o'z ishini yaxshi biladi, odamlarni yaxshi qabul qilardi. Ko'tarinki ruhni saqlab qolardi”, “Uning muhitida iliq, yoqimli sharoit bo'lib, hamma qiziqib ishlardi”, “Bizni, deb u juda ko'p tanbeh eshitardi, biz uni tushunardik va o'zimizni tuzatishga harakat qilardik”, “U bekorchilarni yoqtirmasdi va kamdan-kam (o'zidan chiqardi)” va hokazolar.

Odatda, xizmatchilar bilan muhmala qilishni biladigan bunday menejer obrao'li bo'ladi. Shu bilan birga egiluvchanlikni va eksperiment o'tkazishga bo'lgan qiziqishni mustahkamlash maqsadga muvofiq bo'lib, bu o'ziga ijobjiy munosabatni va o'zini haqqoni baholashni mustahkamlaydi.

**106 balldan 134 ballgacha** – menejerning “Men konsepsiysi” va o'ziga munosabati juda yuqori. Turgan gap, bunday rahbarlar o'z xulqi va faoliyati natijalari ijobjiy bo'lishiga ishonadilar. Lekin har doim ham shunday emas. O'zingizni yuqori idrok etishingiz tufayli tobe kishilar kamsitilishi, ularda o'ziga ishonchni

yo'qotishi mumkin. ba'zan o'ziga yuqori baho beradigan rahbarlar loqaydlikni namoyon qilib, haddan tashqari hukmronlikni yaxshi ko'radir. Shunday qilib, menejerning o'ziga yuqori baho berishi xizmatchilar "Men konsepsiyasi"ning salbiy bo'lishiga olib keladi. Balki o'zingizga nisbatan talabchanlikni, hurmatni, ichki kelishuvchanlikni bo'shashtirmay mahorat darajasini egallagandirsiz, qo'l ostidagilaringizni ham imkoniyat va bilimlarini to'g'ri baholashga va ularni muvaffaqiyatga, ijobiy "Men konsepsiyasi"ga undang.

### **15.5. Reykovskiy bo'yicha boshqaruv jarayonlari diagnostikasi**

**B**oshqaruv jarayonlari diagnostikasida esa, Reykovskiy shartli ravishda ikkita sinf ko'rinishini ajratadi: instrumental tipidagi jarayonlar va munosabat tipidagi jarayonlar (15.5.1-rasm).


Instrumental tipidagi jarayonlarga boshqaruv jarayonini uch guruhi kiradi, ulardan har biri o'z vazifasini bajaradi: oriyentasion, intellektual va bajaruvchi.

Oriyentasion jarayonlarni tashxisi qabul qilishni muntazamligini, fikrlash qobiliyatini va tushunchalarini shakllantirishini o'z ichiga oladi.

Intellektual vazifasi faoliyat dasturini yaratish, uni tashxisi rejani samaraligini baholash va muammolarni hal qilish bilan bog'liq.

Bajaruvchilik vazifasiga psixomotor va verbal reaksiyalar kiradi.

Munosabat tipidagi jarayonlarda Reykovskiy emosional va motivasion jarayonlarni tushunadi.



**15.5.1-rasm. Reykovskiy bo'yicha boshqaruv jarayonlari diagnostikasi**

Emosional jarayonlar diagnostikasida, holat tavsifi va emosional reaksiyalar o'ziga xosligi, uzunligi, kuchi, belgisi va emosiyalar tarkibi bo'yicha bir-biriga bo'lgan mosligi darajasi aniqlanadi.

Motivasion jarayonlar diagnostikasi – bu motivlar ko'rinishi va intensivligi


baholashdir.

## 15.6. Reykovskiy bo'yicha boshqaruv mexanizmi

**B**oshqaruv jarayonlari inson hayoti davomida hosil bo'lgan murakkab nerv tizimi bog'lanishlari hisobiga vujudga keladi. Bu boshqaruv mexanizmi inson axloqida chidamlilik va tashkilotchiliginu ta'minlaydi.

Boshqaruv mexanizmiga ta'rif berish uchun muallif ikkita sinf chizmasini taklif qiladi: operasion (ko'nikmalar tizimi, bilish, bilim) va dinamik (shaxsiy ko'rinishlar) (15.6.1-rasm). Shaxs – Reykovskiy ta'rificha asosiy tizim hisoblanib, u orqali insonni axloqida ma'lum bir maqsadga turg'unlik, o'ziga xoslik va mo'ljalga ega bo'ladi. Shaxsni tashxis qilishdan maqsad – nafaqat patologik holatni aniqlash, balki samarali fuksional holatni ham aniqlashdir.

Boshqaruv mexanizmi genezini diagnostikasida Reykovskiy "didaktik jarayonlar tarixi"ni o'rganishga muhim ahamiyat bergan. Bu esa ortirgan bilim va ko'nikmalarini tahlil qilishda ahamiyatga egadir. Bundan tashqari u "tarbiyaviy jarayonlar tarixi"ni o'rganishni ham tavsiya qiladi, bu orqali kutish, zarurlik va



15.6.1-rasm. Reykovskiy bo'yicha boshqaruv mexanizmi diagnostikasi

munosabat tizimlari shakllanadi. “Didaktik jarayonlar tarixi”ni tahlil qilganda bilimlar xronologiyasiga tayaniladi, tarbiyaviy jarayonlar tarixini ketma-ket holda tartibga keltirish uchun oddiy anamnestik intervyu orqali amalga oshiriladi.

Tibbiyotdagi tashxis bilan psixologik tashxisni bir-biriga munosabati yanada qiziqish uyg’otadi va yanada chuqurroq holda o’ziga xosligi tushiniladi. Tibbiyotdagi tashxis – patofiziologik mexanizmga bog’liq holdagi sindromlardan tashkil topgan kasallikni tasnifi bo’yicha aniqlashdan iboratdir. Tibbiyotda tashxis qo’yilganidan keyin nega aynan bu buzilishlar tufayli kelib chiqdi, boshqa buzilishlarchi degan savol tug’ilmaydi, chunki kasallikni etiologik tavsifida tayyor javob bo’ladi (Watson, Sanocki va b.).

### **15.7. Rezyume**

Tashkilotchilik qobiliyatini diagnostika qilish orqali ulardagi liderlik sifatlarini o’rganish alohida xususiyat kasb etadi. Faoliyatning diagnostika qilish orqali esa, uning aspektlarga bo’linish muammosini yoritilishini ta’minlaydi hamda tizimiylashganligini tavsiflaydi. Menejer faoliyatini diagnostika qilishdan maqsad esa, lavozim bo’yicha attestasiyaga tayyorlanish; shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishda va o’z ustida ishlashni takomillashtirish muammolar; faoliyatni tashkil qilishni belgilab beruvchi “MEN” – konsepsiyasining o’rganilishi orqali zamonaviy menejerning psixologik portretini yaratishdan iboratdir.

### **15.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Psixodiagnostika, liderlik, menejer, faoliyat, instrumental va munosabat jarayonlari.

### **15.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Qanday qilib shaxsdagi tashkilotchilik qobiliyati diagnostika etish mumkin?
2. Faoliyatning instrumental va munosabat aspektlari nima?
3. Menejerning kasbiy moyilligini baholash testi orqali o’zingizni tekshiring.
4. Menejer faoliyatining diagnostikasi testi orqali o’zingizga baho bering.
5. Reykovskiy bo’yicha boshqaruv jarayonlari diagnostikasi deganda nimani tushunasiz?
6. Reykovskiy bo’yicha boshqaruv mexanizmi nimani ifodalaydi?

### **15.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar**

Burlachuk L. Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.

Karnegi D. Kak zavoyevivat druzey i okazivat vliyaniye na lyudey / Per. s angl. – Yekaterinburg: U-Faktoriya, 2004. – 784 s.

Karimova V.M. Psixologiya. O’quv qo’llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O’AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.

- Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “Universitet”, 1999. – 96 b.
- Karimova V.M., Akramova F.A.* “Psixologiya”. 1-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.
- Karimova V.M., Akramova F.A.* “Psixologiya”. 2-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 125 b.
- Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994
- Kvinn V.* Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo “Piter”, 2000. – 560 s.
- Klimov Ye.A.* Osnovi psixologii: Uchebnik. – M.: 1997
- Mayers D.* Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.
- Maxmudov I.I.* Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: A.Xolbekov. – T.: DJQA “Rahbar” markazi; “YUNAKS-PRINT” MChJ, 2006. – 230 b.
- Meliya M.* Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremennoogo delovogo cheloveka / Marina Meliya. – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.
- Nemov R.S.* Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.
- Prikladnaya sosialnaya psixologiya* / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-vo “Institut prakticheskoy psixologii”; Voronej: Izd-vo NPO “MODEK”, 1998. – 688 s.
- Psixologiya.* Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.
- Sherbakova Yu.V.* Spesialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. – M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. – 80 s.
- G'oziyev E., Toshimov R.* Menejment psixologiyasi. – T.. 2001. – 130 b.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.
- Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixodiagnostika va amaliy psixologiya” kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.
- Internet ssilka:**
- <http://www.my-shop.ru/shop/books/12594.html>
- <http://www.psyho.ru/books/psyhoanalys/book1.htm>
- <http://www.etel.dn.ua/~psychology/stat/NauchnRaz/BurlachukLF.htm>
- <http://psychoanalyse.narod.ru/rorsch1.htm>

## XVI bob

---

### **SHAXS FAOLIYATIDAGI EHTIYOJLAR, MOTIVLAR VA MOTIVASIYALARING TADQIQ QILINISHI**

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Abraham Maslow konsepsiysi.** Maslowning ehtiyojlar iyerarxiyasi. Fiziologik ehtiyoj. Xavfsizlik va kelajakka ishonch ehtiyoji. Ijtimoiy ehtiyoj. Hurmat qilish ehtiyoji. O'zini ko'rsatish ehtiyoji (yuksalish). Alderferning "ERG" (Existence, Relatedness and Growth), ya'ni "BBO" (Borliq, bog'lanish va o'sish) nazariyasi.

**Motivasiyaga oid nazariyalar.** David McCllandning "Maqsadga erishish" (Need for achievement), Frederick Herzbergning "Ikki omil" (Two-factor theory), Lawler va Xakmenning "Rejalashtirish, ehtimollik" kabi nazariyalar. "Fiziologik talqinlar. Bixevoiristik talqinlar. Psixologik talqinlar.

**Kutishlar va Adolatlilik nazariyaları.** Kutishlar nazariyasi. Vroom bo'yicha motivasiya modeli. Adolatlilik nazariyasi.

**Portyer-Louler (Porter-Lawler) modeli.** Porter-Lawler modelining umumiy tavsifi.

**B.Weonerning motivasion nazariyasi.** "Instinkt nazariyasi", "Idrok etish nazariyasi", "Boshqarish va mustahkamlash nazariyasi" kabi motivasiya nazariyaları. B.Weonerning motivasion nazariyasi chizmasi.

**Tadbirkorlik motivasiyasi va qiziqishlarini o'rganishda qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlar.** Metodikalar jamlanmasi. Umumiy moslashish.

---

## 16.1. Abraham Maslow konsepsiysi

**O**limlarning fikricha, har qanday motivasiyaning asosida ehtiyoj yotadi. Ehtiyoj – bu individning rivojlanishi va faol darajada o’zini namoyon qilishining sharoitlarga bog’liq bo’lgan omiliidir. Ehtiyojlar quyidagicha farqlanadi: biologik; fiziologik; psixologik; ijtimoiy.

Abraham Maslow (1908-1970) – mashhur amerikalik psixolog, psixiatr va gumanistik psixologiya vakili bo’lib, u gumanistik psixologiyaning asosiy g’oyalardan saqlanib qoligan psixotahlil va bexiviorizm yo’nalishlarini o’zaro bir-biridan namoyishkorona ajratib turuvchi “uchinchi kuch” atamasini kiritgan olimdir.

Maslow “Sabablar va shaxs” (1954) kitobida o’ziga xos, noyob konsepsiyanı taklif etgan bo’lib, unga ko’ra insonlar – ehtiyojlar, mayllar va qobiliyatlarning nasliy psixologik tizimiga ega bo’lib, ular odatda jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladilar.

Maslowning fikricha, sog’lom rivojlanish uchun bizning qobiliyatlarimizni faoliyatlarda amalga oshirish, ko’rsatish darkor, zero, psixik buzilishlarning alomati ana shu ichki imkoniyatlar, qobiliyatlarni tormozlash yoki shu qobiliyatlarni ro’yobga chiqarmaslik natijasida paydo bo’ladi.

Maslow mashhur ehtiyojlar iyerarxiyasi chizmasini yaratgan bo’lib, bu unga ko’plab e’tirozlar va e’tiroflarni olib keldi. Unga ko’ra dastlabki shart, ya’ni asosiy fiziologik ehtiyojlar (ochlik, chanqoqlik) yuqori ustun hisoblangan ehtiyojlardan (o’z-o’zini hurmat qilish va o’zini ro’yobga chiqarish) oldin qondirilishi kerakdir. O’zini o’zi ro’yobga chiqarishning aniq turlari inson xarakteriga bog’liq holda o’zgarib boradi.

Maslow nazariyasining tanqidchilari uning fikrlaridagi validlik darajasiga ishonqiramay qaradi. Ularning fikricha, tashqi chiroyiga qaramay, Maslow nazariyasi ilmiy asosga ega emas va dalil, isbotlar bilan qo’llab-quvvatlanmagan. Maslowning o’zi esa bu nazariyani eksperimental tomondan muvaffaqiyatli deya olmasa-da, lekin u ko’p odamlarning shaxsiy tajribalari bilan mos keladi va ularga hayot mazmunini anglashga yordam bergen, deb ta’kidlaydi.

Maslow ehtiyojlar iyerarxiyasi bo’yicha bixevoiristlardan birinchilardan bo’lib o’z ishlarida insoniy ehtiyojlarni qanchalik murakkab ekanligini va motivasiyaga ta’sirini yaratib beradi. 1940 yilda o’zining motivasiya nazariyasini yarata turib, Maslow shuni tan oladiki, insonlar turli xil ehtiyojlarga ega va bu ehtiyojlarni beshta asosiy toifaga ajratish mumkin.


Shunday qilib, Maslow ehtiyojlarning iyerarxik modelini yaratgan (1.6.1.1-rasm). Uning tushunishicha, odamlar ehtiyojnинг ko’plab turlarini boshlaridan kechiradilar. Muallif ularni bir necha guruhga bo’lib tahlil qilgan:

⊕ *fiziologik ehtiyoj*. Unga tashnalik, ochlik, dam olish, uy-joy, jinsiy aloqaga bo’lgan ehtiyojlar kiradi;

⊕ *xavfsizlik va kelajakka ishonch ehtiyoji* – bu ehtiyojlar ma’lum bir guruhga xos bo’lib, unda insonlarning bir-birini tushunishi, sevgi munosabatlari, o’zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishimliligi, bog’liqligi, qo’llab-quvvatlashi kabilar kiradi. Maslow bu ehtiyojlarni o’sish ehtiyojları sirasiga kiritadi;

⊕ *ijtimoiy ehtiyoj* – jamiyatda kerakligi va o’z o’rnı bor ekanligini his qilish ehtiyoji. Rasmiy va norasmiy jamoalar, do’stlik rishtalari bunga yaqqol misol

bo'ladi;



#### 16.1.1-rasm. Maslowning ehtiyojlar iyerarxiyasi

 *hurmat qilish ehtiyoji* – bunga o'zini o'zi hurmat qilish va tan olish ehtiyojlari kirib, bu ham o'sish ehtiyojiga taalluqlidir;

 *o'zini ko'rsatish ehtiyoji (yuksalish)* – bu eng yuqori ehtiyoj pog'onasidir. Unda ahamiyatga molik, qadrlanadigan shart-sharoitlarda va rivolanishida insonning shaxs sifatida takomillashuvi nazarga olinadi. Maslowning ta'kidlashicha, insonning orzu va ehtiyojlari cheksizdir. Har bir inson bir marraga kelgandan so'ng darhol ikkinchi bir marrani mo'ljallay boshlaydi. "Maqsad – intilish – yetishish" jarayonini qayta-qaytadan takrorlanaveradi.

Hamma yuqori ehtiyoj ko'rsatgichlari qat'iy iyerarxik tuzilishlar orqali amalga oshadi. Maslowning fikricha, ehtiyojning yuqori pog'onasi, qachonki ehtiyojning pastki pog'onasi ("fiziologik, xavfsizlik va himoya") qondirilgandagina yuzaga chiqadi.

Uning nazariyasi tashkilotlar boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etdi. Menejerlar ishchilar nima uchun ishlashni xohlashadi-yu, nega xohlashmaydi, degan narsani asta-sekinlik bilan tushunishadi. Ularga shu narsa ma'lum bo'ldiki, shaxsnинг ehtiyoj turlariga qarab motivasiyasi keng ko'lamda aniqlanadi. O'z qo'l ostidagilarni to'g'ri yo'naltira olishi, ularning muammolarini, ehtiyojlarini amalga oshirish yo'li bilan hal qilish mumkin. A.Maslow motivasiya nazariyasining klassik namoyandalaridan biri bo'lib qoldi.

Maslowning nazariyasiga qisman o'xshash bo'lgan Alderferning "ERG" (Existence, Relatedness and Growth), ya'ni "BBO'" (Borliq, bog'lanish va o'sish) nazariyasi. Agar Maslowning nazariyasi 50-yillarda yaratilgan bo'lsa, 70-yillarga kelib esa Clayton Alderfer bu nazariyani bir muncha oddiylashtirdi va uni quyidagi uchta ko'rinishga keltirdi:

- + *borliq – birinchi darajali ehtiyoj.* Unda inson o’z hayotiy ehtiyojlaridan albatta qoniqishi lozim;
- + *ijtimoiy axloq va o’zaro munosabatlar ehtiyoji* (sevgi va do’stlik);
- + *o’zini-o’zi tan oldirish* – eng yuqori ehtiyoj.

Muallifning fikricha, mazkur jarayonni, badiiy asar yaratish, sport bo’yicha muvaffaqiyatlarga erishish, hatto, ota-onalik burchining yaxshi ado etilishi misollarida ko’rish mumkin. O’zini o’zi ro’yobga chiqarilgach, shu jihat bilan bog’liq bo’lgan hayotiy kechinmalar oddiy holdek bo’lib tuyuladi.

V.M.Karimova, B.T.Abdug’afforov, F.A.Akramovalarning fikricha, motivasiyalashgan tizim birligi – bu turtkidir. Tuzilish jihatidan turkilar ikki xil farqlanadi: “xohish-istikli” va “haqiqiy”. Har bir inson hayoti davomida turli vaziyatlarga tushadi. Ularning xulqida turli xil motivlar namoyon bo’ladi. Ko’pgina motivlar mehnat mobaynida shakllanadi. Odatta odamlarda mehnat qilish istagi foyda olish yoki foyda tushishi uchun xizmat qiladi, ya’ni shu orqali boshqalarga yordam beradi.

Motivlar anglangan yoki anglanmagan (qisman anglangan) bo’lishi mumkin. Birinchisida, ijtimoiy xulqning sabablari aniq, egasi uchun ravshan bo’lsa, ikkinchi holatda, amalga oshirilgan xulqning ichki psixologik sababi, ya’ni uning ortida turgan ehtiyoj, faollik mexanizmlari jarayonining o’zi anglanmaydi. Anglangan motivlar ijtimoiy xulqni o’rganishda katta ahamiyatga ega, chunki biz ko’pincha odamlar orasida, jamoat yerlarida, mehnat jamoasida o’zimizning nima sababdan aynan shu mavqyeni tanlaganimizni, aynan shunday qarorlarga kelganimizni, aynan shu odamlarni yoqtirayotgan yoki yoqtirmayotganimizni aniq bila olmaymiz. Bu holat ko’pincha ijtimoiy ustakovkalar orqali tushuntiriladi. Ijtimoiy ustakovka – u yoki bu guruhlarga nisbatan shaxsning baholari, harakat qilishga hozirligi va idrok usullaridir.

Umuman tadbirdorning ijtimoiy xulq motivlari haqida gap ketganda, uning ikki elementini: harakat dasturi va maqsadni ajratish maqsadga muvofiq sanaladi. Harakat dasturi maqsadga erishishning vositalariga anqlik kiritadi. Buning uchun ijtimoiy xulqning motivlari aniqlangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan, maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo’lishi kerak. Shundagina tadbirdor ijtimoiy xulqi jamiyat meyorlariga mos bo’ladi.

## 16.2. Motivasiyaga oid nazariyalar

**D**avid McCllandning “*Maqsadga erishish*” (Need for achievement), Frederick Herzbergning “*Illi omil*” (Two-factor theory), Lawler va Xakmenning “*Rejalashtirish, ehtimollik*” kabi nazariyalarda tadbirdorlik faoliyati motivasiyasini shakllantirishda tadbirdor faoliyati, uning qarorlar qabul qilishi va rejallashtirishiga oid masalalar ijtimoiy-psixologik talqin qilingandir.

Tadbirdorlik faoliyati motivasiyasini yanada kengroq ochishda, bir konsepsiya mavjudki – bu boshqaruva tajribalarida keng qo’llaniladi. Bu F.Herzbergning “ikki omil” nazariyasi. F.Herzberg sanoatda ishlaydigan ishchilarning psixologik kasalliklarini davolovchi mutaxassis edi. Unga ishchilarni rag’batlantirish (harakatga keltirish) konsepsiyasini ishlab chiqish taklif etilgan. U o’zining ishlab chiqqan nazariyasi “motivasiyali gigiyena” yoki “ishni jonlantirish” nazariyasi deb ataydi.

F.Herzberg ishga bo'lgan ishtiyoqlarni ikkiga bo'ladi. U birinchi guruhga barcha yuzaki narsalarni kiritadi. Ularga maosh, hamkasb bilan munosabat, moddiy shart-sharoitlar kiradi. U ko'pgina kuzatuvlari natijasida bir to'xtamga keldi va bu qarashlarini 1966 yil nashr qilingan "Motivasiya va inson borlig'i" deb nomlangan kitobida bayon etadi. Uning fikricha, hamma asosiy motivlar ikkita tarkibiy va bir-biridan farq qiladigan guruhlarga bo'linishi kerak – ular gigiyena omillari va *motivlar* omillari.

Birinchi omil, odamlar ishining muvaffaqiyatini ta'minlaydi yoki pasaytirib yuboradi. Herzberg bu omillarni quyidagilar, deb hisoblaydi:

-  *mehnat sharti;*
-  *firmaning siyosiy ahamiyati;*
-  *maoshi;*
-  *jamoadoshi va boshlig'i bilan munosabati va shunga o'xshaganlarni kiritadi.*

Motiv omillariga esa:

-  *ishdag'i muvaffaqiyat;*
-  *ish yuzasidan ko'tarilishi;*
-  *qulay imkoniyatga egaligi;*
-  *ishning qiziqligi va qiyinligi;*
-  *ishning turli xilligi;*
-  *ishning rejalashtirilishida qatnashish va hokazolar.*

Shuningdek, bular ko'pincha motivlashtirish vazifasining natijasi uchun kerak. Bu motivlar bir-biri bilan nafaqat tadbirkorlik motivasiyasini shakllantiruvchi faoliyatda, balki tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda ham muhim o'rinni kasb etadi.

V.M.Karimovaning ta'kidlashicha, "Faoliyat – ehtiyoj – motivasiya" tushunchalari o'zaro bog'liqdir. Har qanday faoliyat ortida insonning aniq ehtiyoji yotib, bu ehtiyoj – shaxsni o'rab turgan muhitga bog'liqdir va bunda ma'lum ma'noda psixologik tobe ekanligini tushuntiruvchi talablar mavjuddir. Shu ehtiyoj ta'sirida paydo bo'ladigan faollikning turtkisi – motivdir.

Umuman olganda, motivasiyaga o'zini ma'lum bir xatti-harakatlarga undovchi organizmning ichki holati sifatida qaraladi. A.A.Krilov o'z qarashlarida, motivasiya fenomenini *uchta* asosiy talqinini sharhlab o'tadi:

 "Fiziologik talqinlar – ichki turtki yoki ehtiyojlarning ahamiyatliligini ta'kidlaydi. Misol uchun, yemishdan mahrum bo'lgan hayvon ochlikni his etadi va yegulikni izlab topishga va o'z fiziologik ehtiyojini qondirishga intiladi.

Ochlik, chanqoqlik va jinsiy mayl kabi holatlar organizm uchun muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, odatda "birlamchi drayv" deb hisoblanadi.

 *Bixevoiristik talqinlar* – o'rgatish (o'qitish) jarayonida orttirilgan ichki turtkilarga suyanadi. Masalan, pulga ega bo'lishdek motivasion moyillik. Ochlik va chanqoqlik singari "birlamchi drayv (boshqarish, undash)" holatlar pullar bilan assosiasiyalanishi sababli, biz ishga nisbatan yo'naltirilgan yuqori motivasiyani sezamiz.

 *Psixologik talqinlar* – aniq harakatlarga bizni undovchi "birlamchi drayv" konsepsiysi insoniyat xulq-atvorini undaganda murakkab turlarini tushuntirishda ham dolzarb bo'lib qolaveradi. Ichki murakkab ehtiyojga erishish

motivasiyasi affiliasiya yoki Maslow bo'yicha o'zini ro'yobga chiqarish misol bo'la oladi".

Adabiyotlarda motivasiyaga oid nazariyalar, asosan, ikkita toifaga ajratiladi:

-  *mazmuniy;*
-  *jarayoni.*

Motivasiyaning mazmuniy nazariyalari birinchi navbatda insonlarni harakatga undovchi ehtiyojlarini aniqlashga harakat qiladi, aynan unda ishning hajmi va mazmuni aniqlanadi. Motivasiyaning zamonaviy mazmuniy konsepsiyalariga asos solinishi, asosan, Abraham Maslow, Frederick Herzberg, David McClellandarning ishlari bilan bog'liq.

Mashhur nemis sosiologi Maks Veber XIX asr boshlarida biznesdagi holatni tahlil etar ekan, biznes odobi masalasida mufassal to'xtalib o'tgan. Biznesning mohiyatini tushunib yetgan holda u: "Trubinalardan tutun chiqishi uchun foyda olinishi zarur", – deb ta'kidlagan. Bu yerda u tadbirkorlar faoliyatidagi ikki yo'nalishni ajratib ko'rsatadi:

-  *usiz ishlab chiqarish mavjud bo'lmaydigan oqilona foydaga intilish;*
-  *"boylikka intilish".*

M.Veber ikkinchi yo'nalishni biznes emas deb ta'kidlaydi. "Bunday intilish ofisiantlar, vrachlar, rassomlar, yengil tabiatli kishilar, askarlar, qimorboz va gadoylarda uchraydi va to'liq ishonch bilan u barcha davr va mamlakatlarning barcha aholi guruhlari va alohida shaxslariga xos bo'ladi".

Motivasiyaning mazmuniy nazariyalari odamlar xulqini belgilovchi ehtiyojlar va unga bog'liq omillarga asoslanadi. Jarayoniy nazariyalar motivasiyani boshqacha tarzda o'rganadi. Ularda inson qanday qilib aniq bir xulq turini tanlashi tahlil qilinadi. Jarayoniy nazariyalar asoschilari ehtiyojlar mavjudligi to'g'risida bahslashmaydilar, balki odamlar xulqi ehtiyojlar bilangina emas, balki psixologik jarayonlar bilan aniqlanadi, deb hisoblashadi.

Motivasiyaning jarayoniy nazariyasining uchta asosi mavjud: *kutishlar nazariyasi, adolatlilik nazariyasi va Porter-Louler modeli.*

### 16.3. Kutishlar va Adolatlilik nazariyaları

#### 16.3.1. Kutishlar nazariyasi

**K**utishlar nazariyasining asosiy mazmuni Victor Vroom ishlariga borib taqaladi. Kuning nazariyasi bo'yicha tadbirkordagi ehtiyojnинг yuqoriligi, ma'lum bir maqsadga erishish motivasiyasining yagona zaruriy sharti bo'la olmaydi. Bu o'rinda tadbirkor maqsadini amalga oshirishda, o'zi tomonidan tanlangan yo'lning kutilayotgan natijaga erishishiga va ehtiyojining qondirilishga mumkinligiga ishonishi lozim.

Kutishlarni, ma'lum bir voqyea sodir bo'lishi ehtimoliga tadbirkor shaxsi tomonidan beriladigan baho sifatida ko'rish mumkin. Mehnatga motivasiyaning tahlilida kutishlar nazariyasi uchta o'zaro bog'liqlikni tavsiflaydi: mehnat xarajatlari – *natija*, natija – *rag'batlantirish* va *valentlik* (*rag'batlantirish* bilan qoniqishlik).


Muallifning fikricha, mehnatga bo'lgan xarajat va qo'lga kiritilgan natija (X-N)

o'rtasidagi kutish – bu sarf qilingan g'ayrat bilan olingen natija orasidagi munosabatdir. Masalan, tadbirkor, har kungiga nisbatan 10 ta odamga ko'p telefon qilish natijasida, sotuvlar hajmi 15 foizga oshishini kutadi.

Yana muallif yozadiki, natija bilan rag'batlantirish (N-R) munosabatlari orasidagi kutishlar – bu tadbirkor qo'lga kiritgan natijasiga javoban jamiyat tomonidan beriladigan rag'batlantirishni kutishdir. Masalan, tadbirkor 15 foizga sotuv hajmini oshirish natijasida 10 foiz qo'shimcha daromad qo'shilishini yoki tadbirkorlar palatasiga a'zo qilinishini kutadi.

Kutishlar nazariyasida motivasiyani aniqlovchi uchinchi omil – bu valentlik yoki rag'batlantirishning qimmatliligi. Valentlik – bu ma'lum bir rag'batlantirishlar olish natijasida, insonda nisbiy qoniqish yoki qoniqmaslik darajasidir. Turli odamlarda rag'batlantirishlarga ehtiyoj turli xil bo'lganligi uchun biror-bir odamga to'g'ri kelgani, ikkinchi bir odamga to'g'ri kelmasligi mumkin. Masalan, menejer o'z ishini judayam a'lo bajarishi natijasida, uning oylik maoshi bir muncha oshiriladi, vaholanki, menejer oyligini oshishini emas, balki lavozim bo'yicha ko'tarilishini yoki rahbariyat uni yanada hurmat qilishini istashi mumkin. Bunday hollarda esa bu kutilgan natjalarga olib kelmasligi mumkin.

Bu omillar munosabati 16.3.1-rasmida keltirilgan chizma ko'rinishida aks ettirilishi mumkin.



### 16.3.1-rasm. Vroom bo'yicha motivasiya modeli

Demak, tadbirkor uchun yuqoridagi motivasiyani belgilovchi uchta omildan birontasi past bo'lsa, unda motivasiya ham past bo'ladi va mehnat natijalari ham qoniqarli bo'lmaydi.

### 16.3.2. Adolatlilik nazariyasi

Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun odamlar qanday qilib o'z kuchlarini taqsimlashi va yo'naltirishi to'g'risidagi boshqa bir tushuntirishni adolatlilik nazariyasi beradi. Adolatlilik nazariyasi bo'yicha, tadbirkor olgan manfaatlarini sarf qilgan kuchlariga munosabatini subyektiv tarzda aniqlashadi va xuddi shunday ish bajarayotgan boshqa tadbirkorlarni olgan manfaatlari bilan taqqoslashadi. Agarda taqqoslash nomutanosiblikni yoki tengsizlikni ko'rsatsa, ya'ni kasbdoshini xuddi shunday ishi uchun ko'proq manfaat olgan, deb hisoblasa, unda psixologik stresslar paydo bo'ladi.


Natijada, tadbirkor tenglikni yoki adolatlilik hissiyotini, sarf qilayotgan kuch-g'ayratini kamaytirish va olayotgan daromad miqdorini o'zgartirish orqali to'g'rilashi

mumkin bo'ladi. H.R. Arkes, Y.P. Garske olib borgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qachonki tadbirkor kam daromad topayapman, deb hisoblasa, ish intensivligini kamaytiradi. Agarda teskarisi, ya'ni ko'p daromad topayapman, deb hisoblasa, o'z faoliyatini va xulqini o'zgartirishga unchalik moyillik bildirmaydi.

#### 16.4. Portyer-Louler (Porter-Lawler) modeli

**L**ayman W. Porter va Edward E. Lawlerlar kutishlar va adolatlilik nazariya-larini lo'z ichiga oluvchi, motivasiyaning jamlanma jarayoniy nazariyasini yaratishadi (16.4.1-rasm).

Ularning modellarida beshta asosiy ko'rsatkich mavjud: sarf qilingan mehnat, qaror qabul qilish, olingan natijalar, rag'batlantirish, qoniqqanlik darajasi.



16.4.1-rasm. Porter-Lawler modeli

Porter-Lawler modeliga binoan natijalar samarasи tadbirkor tomonidan sarf qilingan mehnatiga, uning qobiliyatiga va xarakteriga, shuningdek, o'zining rolini tushuna olishiga bog'liq. Qilinadigan mehnat darajasi, rag'batlantirish qiymati va sarf qilingan mehnatning aynan shu darajasi, haqiqatda o'z orqasidan ma'lum bir rag'batlantirishlar olib kelishiga ishonch tuyg'usiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, Porter-Lawler modelida rag'batlantirish va natijalar orasidagi bog'liqlik belgilanadi, ya'ni tadbirkor o'z ehtiyojlarini erishgan natijalariga beriladigan rag'batlar orqali qondiradi. Porter-Lawler modeliga binoan tadbirkor erishgan natijalar uchta

ko'rsatkichga bog'liq bo'ladi: *sarf qilingan mehnat, inson qobiliyati va xarakteri*, shuningdek, sarf qilingan mehnat bilan daromad orasidagi bog'liqlikni borligiga *ishonch*.

Porter va Lawlerlarning asosiy xulosalaridan biri shundan iboratki, natijaviy mehnat qoniqishga olib keladi. Bu esa ko'pchilik tadbirkorlarning motivasiya haqidagi fikriga to'g'ridan to'g'ri qarama-qarshidir. Ular insoniy munosabatlarning eski nazariyalari ta'siri ostidalar, ya'ni qoniqish mehnatning yuqori natijalarga erishishiga olib keladi, yoki boshqacha qilib aytganda, mammun ishchi yaxshiroq ishlaydi, deb o'ylashadi. Porter va Lawler esa, aksincha, bajarilgan ish tuyg'usi qoniqishga olib keladi va shunga ko'ra samaradorlik ham oshadi, deb hisoblashadi.


Bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar, Porter va Lawlerlarning, yuqori natijaviylik to'liq qoniqish natijasi bo'lmasdan, balki uning sababi bo'lib keladi, degan nuqtai nazarini tasdiqlaydi.

D.O.Hebbning fikricha, ishlab chiqarishdagi motivasiya, asosan, tadbirkor faoliyati sifatini ko'tarish maqsadida, faoliyatni qo'llab-quvvatlash va uni yo'naltirish kabi harakatlar bilan uzviy bog'liq jarayondir.

## 16.5. B.Weonerning motivasion nazariyasi

**B**.Weoner o'zining "Motivasiya nazariyalari" kitobida tadbirkorlik faoliyati motivasiyani yoritishda "*Instinkt nazariyasi*", "*Idrok etish nazariyasi*", "*Boshqarish va mustahkamlash nazariyasi*" kabi bir qator nazariyalarning o'rni beqiyosligini alohida ta'kidlab o'tgan. Unga ko'ra,

### 16.5.1. *Instinkt nazariyasi*



Unda e'tirof etilishicha, tadbirkor faqatgina tashqi ta'sir va ichki tahlilga asoslangan holdagina emas, balki o'zining instinctiv maqsadlaridan kelib chiqqan holda o'z xatti-harakatlarini amalga oshirar ekan.

Achinarlisi shundaki, bu harakatlarning natijasi mohiyatini ular kech anglab buni o'zlarini bilmagan holda amalga oshirganliklarini uqtirishadi.

Tadbirkor faoliyatini tashkillashtirishda, uning instinctiv xislatlardan foydalanish nazariyasi 1920 yillarda o'z mashhurligini yo'qota bordi. Bunga asosiy sabab, inson instinctining serqirraligi bo'lsa, ikkinchisi, olimlarning inson instinctiga ham ta'sir qilish mumkin, degan xulosalari bo'ldi.

### ***16.5.2. Boshqarish va mustahkamlash nazariyasi***

Tadbirkorlik faoliyati motivasiyasining psixologik jihatdan asoslaydigan ikkinchi nazariya bo'lib, unda tadbirkorming hozirdagi faoliyati o'tmishdagi malaka va kelajakdagi mo'ljallayotgan oqibat (yutuq, sovrin, mavqye...)lariga asoslanadi deyiladi (16.5.1-rasm).

### ***16.5.3. Idrok etish nazariyasi***

Ushbu nazariya "boshqarish" nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir. Idrok etish nazariyasi tadbirkorning kelajakka bo'lgan ishonchiga asoslansa, "boshqarish" nazariyasi o'tmishdagi voqyea oqibatlariga asoslanadi. Idrok etish nazariyasida ta'kidlanishicha, inson faoliyati kelajakka bo'lgan orzu, umid, ishonch kabi tarkibiy qismlardan iboratdir.

Demak, tadbirkorlik faoliyati motivasiyasini shakllantirish va uni ishlab chiqarishga qo'llash psixologik qarashlarda juda keng o'rganilgan muammolardan biridir.

## **16.6. Tadbirkorlik motivasiyasini va qiziqishlarini o'rghanishda qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlar**

**U**muman tadbirkorning ijtimoiy xulq motivlari haqida gap ketganda, uning ikki elementini: harakat dasturi va maqsadni ajratish maqsadga muvofiq sanaladi. Harakat dasturi maqsadga erishishning vositalariga aniqlik kiritadi. Buning uchun ijtimoiy xulqning motivlari aniqlangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan, maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina tadbirkor ijtimoiy xulqi jamiyat me'yorlariga mos bo'ladi.

A.Karpovning yozishicha, mehnatga ijtimoiy motivasiya muammosi asosan ishlab chiqarishdagi psixologik va tadbirkorlik boshqaruvi masalalari muammolarini o'z ichiga oladi.

Muallifning fikricha, psixologik muammolar, ishchining va har qanday tadbirkorning ruhiy holati, kechinmalari, tashqi omil ta'sirini qay darajada hazm qila olishi va bularning tadbirkor ish faoliyati va natijasiga ta'sir qilish darajasi tushuniladi.

Psixologik nuqtai nazardan motivasiyanı tizimli tarzda o'rghanish insonni

mehnatga aynan nima yo'naltirishini yaqqol aniqlashga imkon berdi. Lekin insonni mehnatdagi xulqi tadqiqotlari motivasiyaning ba'zi umumiy tushunchalarini beradi va ish joyida xodim motivasiyasining pragmatik modellarini yaratishga imkon tug'diradi.

Tadbirkorlik faoliyati motivasiyasini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rghanishda, hozirgi kunda, rivojlangan mamlakatlarda ikki xil yondoshuv mavjud:

-  *metodikalar jamlanmasi;*
-  *umumiy moslashish.*

Shuningdek, birinchi yondoshish, metodikalar jamlanmasiga to'rtta metod kiradi:

-  *iqtisodiy metodlar (D.Sink);*
-  *maqsadli metod;*
-  *ishni takomillashtirish va rejalashtirish metodi (D.Xakmen, G.Oldxem);*
-  *"qatnashish" metodi (metod "souchastiya") – ishchilarni jalg etish.*

Hozirda ushbu jamiyat qatlaming psixologik, ijtimoiy hamda ijtimoiy-psixologik mavqyei xususiyatlari, shuningdek, hayot faoliyatining iqtisodiy sharoitlari haqida adekvat tasavvurlarga ega bo'lish o'ta muhim sanaladi. Shu bilan birga ularda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni rivojlantirish dinamikasini kuzatish ham muhim ahamiyatga molikdir.

## 16.7. Rezyume

Hozirgi zamon tadbirkorining faoliyatini tahlil qilish, ilgarigi mavzularda yoritilgan psixodiagnostik metodlar yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanalib, ham iqtisodiy, ham psixologik manbalardagi tadbirkor shaxsi va faoliyati motivasiyasini turli jihatdan o'rghanish shuni ko'sratdiki, ushbu muammo ijtimoiy-psixologik bo'lib, uni aniq izlanishlar doirasida o'rghanishni metodologik asoslaridan biri – ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasidir. Bu konsepsiyadagi uslubiy tamoyillar orqali biz tadbirkorlik faoliyati motivasiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniq obyektlarda o'rghanishimiz mumkin.

## 16.8. Asosiy tushuncha va atamalar

Ehtiyoj, motiv, motivasiya, fenomen, rejalashtirish, iyerarxiya, ikki omil, maqsad, tavakkal, muvaffaqiyat, mag'lubiyat.

## 16.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Abraham Maslow kim va uning konsepsiyasini mohiyati nimadan iborat?
2. Motivasiya oid nazariyalar sanang va ularga qisqacha tavsif bering.
3. Kutishlar va Adolatlilik nazariyalarni bir-biridan tafovutini ajratib tahlil qiling.
4. Motivasiyasining jamlanma nazariyasi nima deb ataladi?
5. B.Weonerning motivasion nazariyasi necha xil va ular qaysilar?
6. Mahalliy muhitga modifikasiya qilingan hamda tadbirkorlik motivasiyasi va

qiziqishlarini o'rganishda qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlardan qaysilarini bilasiz?

## 16.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar

- Avtonomov V.S.* Model cheloveka v ekonomiceskoy nauke. – SPb.: Ekonomicheskaya shkola, 1998.
- Burlachuk L.* Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.
- Veber M.* Izbrannye proizvedeniya / Per s nem.; Sost., obsh. red. Yu.N. Davidova. – M.: Progress, 1990.
- Volgin V.V.* Individualniy predprinimatel: prakticheskoye posobiye. – 8-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporasiya “Dashkov i K”, 2006.
- Daniyelyans A.* Motivasiya predprinimatelskoy deyatelnosti // Problemi teorii i praktika upravleniya. – M.: 1992. – #6.
- Djon M.* Biblioteka izbrannix trudov o strategii biznesa. Pyatdesyat naiboleye vliyatelnix idey vsex vremen / per.s angl. – M.: ZAO “Olimp-Biznes”, 2006.
- Zombart V.* Burjua: Etyudi po istorii duxovnogo razvitiya sovremennoego ekonomiceskogo cheloveka / RAN In-t sosiologii. – M.: Nauka, 1994.
- Ilin Ye.P.* Motivasiya i motivi. – SPb.: Piter, 2000.
- Karnegi D.* Kak zavoyevivat druzey i okazivat vliyaniye na lyudey / Per. s angl. – Yekaterinburg: U-Faktoriya, 2004. – 784 s.
- Karimova V.M.* Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, “O'AJBNT” markazi, 2002. – 205 b.
- Karpov A.V.* Psixologiya menedjmenta: Ucheb. posobiye. – M.: Gardarika, 1999.
- Kvinn V.* Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo “Piter”, 2000. – 560 s.
- Klimov Ye.A.* Osnovi psixologii: Uchebnik. – M.: 1997
- Kitov A.I.* Ekonomiceskaya psixologiya. – M.: Ekonomika, 1987.
- Korduell M.* Psixologiya. A – Ya: Slovar-spravochnik / Per. s angl. K.S.Tkachenko. – M.: FAIR-PRESS, 1999.
- Kuzin F.A.* Delayte biznes krasivo. – M.: INFRA-M, 1995.
- LIDERSTVO. Psixologicheskiye problemi v biznese. – Dubna: Izdatelskiy sentr “Feniks”, 1997.
- Mayers D.* Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.
- Maxmudov I.I.* Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: A.Xolbekov. – T.: DJQA “Rahbar” markazi; “YUNAKS-PRINT” MChJ, 2006. – 230 b.
- Meliya M.* Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremennoego delovogo cheloveka / Marina Meliya. – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.
- Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-vo “Institut prakticheskoy psixologii”; Voronej: Izd-vo NPO “MODEK”, 1998. – 688 s.
- Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.
- Sherbakova Yu.V.* Spesialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. – M.: Izdatelstvo

- RIOR, 2006. – 80 s.
- G'oziyev E., Toshimov R.* Menejment psixologiyasi. – T.. 2001. – 130 b.
- Hayitov O.E.* Psixologik iqtisod: O'quv qo'llanma / Prof. V.M.Karimova tahriri ostida. – T., TDIU. 2006. – 130 b.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.
- Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU. 2005.
- Hayitov O.E.* Tadbirkorlik faoliyati motivasiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan nomzodlik dissertasiysi. – T.: TDIU, 2005. – 145 b.
- Abraham Maslow.* Hierarehy of Needs. – West Publishing Company, London, 1958.
- Adam Smith.* Angniry into the Nature of Cances of Wealth of Nations. 1985.
- Arkes H.R., Garske Y.P.* Psychological Theories of Motivation. – Monterey, 1982.
- Atkinson J.W.* An Introduction to Motivation – Princeton, N.J.: Van Nostrand, 1964.
- Cantillon R.* Essai Sur la Nature du Commerce en General, 1755.
- Clayton P. Alderfer,* Existence, Relatedness, and Growth – New York: Free Press, 1972.
- David McClelland,* The Society – Princeton, N.J.: Van Nostrand, 1961.
- Drucker F Peter.* La gerencia de empresas. Editorial Hermes, 1992, pp 27-53.
- M. Mescon, M. Albert, F. Khedouri.* Management. 3rd Edition,. New York, Harper&Row, 1988
- Drucker F Peter.* La gerencia de empresas. Editorial Hermes, 1992.
- Frederick Herzberg,* Berrard Mausner, and Barbara Snyderman, The Motivation to Work (New York: Wiley, 1959): and Frederick Herzberg, "One More Time: How Do You Motivate Employees?" Harvard Business Review, January-February 1968.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.
- Hebb D.O.* Textbook of psychology. Philadelphia: W.B. Saunders Company; London-Toronto, 1972.
- Hellriegel, Don.* Organizational behavior / Don Hellriegel, John W. Slocum, Jr. Richard W. Woodman. – 5 rd ed. – West Publishing Company, Los Angeles, 1989.
- Kreitner, Robert.* Organizational behavior / Robert J. Kreitner, Angelo J. Kinicki. – BPI/ IRWIN, Homewood, IL 60430 Boston, MA 02116, 1989.
- Maslow A.* Self-actualizing and Beyond – In: Challenges of Humanistic Psychology. New York, 1967.
- Maslow A.* Motivation and Personality. Harper and Row. (Rev. edn, 1970).
- McClelland,D.S., Atkinson, J.W., Clark, R.A., and Lowell, E.L.* The achievement motive. New York: Appleton, 1953.
- Schumpeter J.* Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung. - Leipzig, 1912. [Schumpeter J. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest and the Business Cycle. - Cambridge, 1934.]

*Victor Vroom*, Work and Motivation – New York: Wiley, 1964.

*Weiner B.* Theories of Motivation. – Chicago, 1972.

**Internet ssilka:**

[http://www.IqtisadNet\\_ProtestantetikasivekapitalizmruhuMaxWeber\\_.htm](http://www.IqtisadNet_ProtestantetikasivekapitalizmruhuMaxWeber_.htm)

<http://www.magister.msk.ru/library/philos/bulgakov/bulgakov02.htm>

[http://www.unilib.neva.ru/rus/lib/g\\_names/struve\\_1.html](http://www.unilib.neva.ru/rus/lib/g_names/struve_1.html)

<http://www.contr-tv.ru/common/1391/>

## XVII bob

---

### MEHNAT MALAKALARI VA KO'NIKMALARINING DIAGNOSTIKASI

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish masalalari.** Talabaning ta'lif olishga bo'lgan qobiliyatini alohida o'quv fanlari bo'yicha o'quv materiali asosida tuzilgan metodika yordamida aniqlash.

**Talabaning o'quv va mehnat ko'nikmalarining diagnostikasi.** Talabaning aqliy rivojlanishi darajasini aniqlashda qo'llaniladigan metodikalar.

**Ortiqcha predmetni olib tashlash metodi.** Talaba tafakkurining analitik-sintetik xususiyatlari. Tahlil qilinayotgan materialni umumlashtira olish malakasi.

**Ortiqcha tushunchani topish metodikasi.** Metodikaning verbal (so'zlar yordamida ifodalanadigan) varianti.

**Tushunchalarni taqqoslash.** Taqqoslash orqali berilayotgan so'zlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash. Topshiriqlar to'plami.

**Oddiy va murakkab analogiya metodi.** Oddiy analogiya. Murakkab analogiya.

---

## 17.1. Mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish masalalari

**K**o'p yillik kuzatishlar va pedagogik tajribalar, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabaning aqliy rivojlanish darajasini pastligi yoki ularda ma'lum o'quv malakalarning rivojlanmaganligi, past o'zlashtirishga, talabaning kasbga, ilmga qiziqishining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun, talabaning intellektual rivojlanish darajasini, ularda mavjud o'quv malakalarini o'rganish, kamchiliklarni tuzatish, maxsus o'quv va mehnat malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlar o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Hozirgi vaqtida psixologlar, pedagoglar va amaliy psixologlar oldida ikkita o'zaro uzviy muammo: ta'lim olishga bo'lgan qobiliyat va o'zlashtirishning pastligi sababi hamda qobiliyat va o'zlashtirishning bog'liqligini o'rganish dolzarb bo'lib turibdi.

Agar talabaning ta'lim olishga bo'lgan qobiliyatini alohida o'quv fanlari bo'yicha o'quv materiali asosida tuzilgan metodika yordamida aniqlansa, uning faqat shu o'quv predmeti (iqtisodiyot, psixologiya, pedagogika, buxgalteriya hisobi...) bo'yicha ta'lim olishga bo'lgan qobiliyati aniqlanadi. Masalan, vazifalarning barchasi iqtisodiyot fanidan tuzilsa, talabaning iqtisodiyot fanidan qanday bilimga egaligini, ehtimol unda qanchalik shu fanni o'zlashtirishga imkoniyat va bilim borligini ko'rish mumkin. Bunday metodikalarning qo'llanilish sohalari, chegaralari va qo'llanilish muddatlari cheklangan. Diagnostikaning asosiy vazifasi faqatgina bir fandan emas, balki bir qancha fanlardan o'zlashtirishini, yomon o'zlashtirish sabablarini (agar shunday hol ro'y bersa) topishdangina iborat emas. Psixodiagnost uchun talabaning haqqoniy o'quv imkoniyatlarining barcha qirralarini iloji boricha to'liq ochib berishga xizmat qiluvchi, har qanday sharoitda, qaysi predmetdan qanday mavzu o'tilganidan qat'iy nazar qo'llash mumkin bo'lgan metodikalar zarur.

Ma'lumki, ko'pchilik pedagoglar talabalarning aqliy rivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil go'yoki chetda qolib ketadi.

O'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat hamda bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. Talabaning aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o'quv materialining muhim va asosiy qismlarini ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, texnik vazifalarni yecha olishi (texnik tafakkur) kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi. Shu sababli amaliy psixologlar talabaning o'rganayotgan kasbi, qaysi o'quv predmetining muhimligidan kelib chiqqan holda uni baholashlari osonroq bo'ladi. Masalan, texnik tafakkurini baholashda, uning tafakkurini obrazli komponentlari, predmet va vazifalarni fazoda idrok qila olishi, turli chizma, grafiklarni, chizmalarini tasavvurda tiklashi va real hayotda qanday ko'rinishga, qinday ishlashini tushunishi ko'p ahamiyatga egaligiga e'tibor berish kerak. Texnik tafakkurning asosiy komponentlari tushunchalar, obrazlar, obrazli-harakatli va abstrakt (mavhum) tafakkurdir. Boshqacha qilib aytganda, psixodiagnost talabaning o'quv malakalarini o'rganishda fanning xususiyatlaridan kelib chiqishi lozim.

## 17.2. Talabaning o'quv va mehnat ko'nikmalarining diagnostikasi

Talabaning o'quv va mehnat ko'nikmalari o'z ichiga uning o'z ishini rejalashtira olishi, o'z faoliyatini o'zi nazorat qila olishi, faoliyat sur'atini boshqara olishini oladi.

Talabaning aqliy rivojlanishi darajasini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- + *tafakkur jarayonlarning rivojlanganlik darajasi;*
- + *tafakkurning texnik faoliyatda yuzaga chiqadigan maxsus xususiyatlari;*
- + *o'z faoliyatini rejalashtirishi va boshqara olishi;*
- + *texnik vazifalarni yechishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi.*

Talabalarning aqliy rivojlanish darjasini, mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rghanish uchun, qo'llash mumkin bo'lgan oddiy metodikalarga quyidagilar kiradi:

- + *ortiqcha predmetni olib tashlash;*
- + *ortiqcha tushuncha topish;*
- + *tushunchalarni taqqoslash;*
- + *murakkab analogiya;*
- + *oddiy analogiya;*
- + *talabaning o'quv materialidagi muhim va asosiy belgilarni ajrata olishi;*
- + *talabaning o'quv malakalarini o'rghanish.*

## 17.3. Ortiqcha predmetni olib tashlash metodi

Mazkur metodika talaba tafakkurining analitik-sintetik xususiyatlarini, tahlil qilinayotgan materialni umumlashtira olish malakasini mavjudlik darajasini o'rghanishga mo'ljallangan. Metodikani o'rghanish uchun maxsus ravishda tuzilgan rasmlar majmuasidan foydalilanildi. Rasmlar majmuasini psixodiagnost har bir predmet xususiyatiga moslab tayyorlashi mumkin.



Rasmda to'rtta predmet (masalan, soat, tarozi, ko'zoynak, tanomometr) aks ettirilgan. Tekshiriluvchining vazifasi aks ettirilgan predmetlarning eng muhim belgilarini topish va shuning asosida "ortiqcha" boshqalarga mos kelmaydigan predmetni topish, qolgan uch predmetga esa umumiyl nom berishdan iborat. Bizning misolimizda "ortiqcha" predmet – ko'zoynak. Qolganlari esa o'lchash asboblari.

## 17.4. Ortiqcha tushunchani topish metodikasi

Ushbu metodika yuqorida ko'rsatilgan metodikaning verbal (so'zlar yordamida ifodalanadigan) varianti bo'lib, talabaning mavhum va so'z-mantiq tafakkurini, abstrakt materiallarni umumlashtira olish malakasini o'rganishda qo'llaniladi. Talabaga bir qancha so'zlar majmuasi beriladi. So'zlar abstrakt so'zlar bo'lishi mumkin. Masalan, olivjanoblik, to'g'riso'zlik, kamtarlik, ko'rolmaslik, botirlik. Shuningdek, vazifa narsa va hodislarning nomlaridan iborat bo'lishi ham mumkin (soyat, barometr, samolyot, termometr, sekundomer). Pedagogning o'zi ham o'z predmetiga oid so'zlardan vazifalar tuzishi mumkin. Bu holda fanga oid terminlar, fanda uchraydigan eng muhim predmet, detallarning nomidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tekshiriluvchining vazifasi berilgan beshta so'zlar orasidan boshqalarga to'g'ri kelmaydigan "ortiqcha" so'zni topish, qolgan so'zlarga umumiyl nom berishdan iborat. Vazifani to'g'ri bajarish uchun talaba berilgan tushunchalarning eng muhim predmet va umumiyl belgilarini topishi, shu belgilar asosida ularni umumlashtirishi va umumiyl nom berishi lozim. Shundan keyingina talaba ajratilgan (topilgan) muhim belgiga ega bo'limgan, ya'ni "ortiqcha" so'zni topadi.

Ortiqcha tushunchalarni topish bo'yicha misollar va uning bayoni.

Sizga beshta so'z berilgan. Ularning to'rttasi umumiyl belgilar bilan birlashgan. Beshinchi so'z ularga to'g'ri kelmaydi. Uni topib tagini chizish kerak. Faqat bitta so'z ortiq bo'lishi mumkin xolos.

1-misol:

- Ⓐ tarelka;
- Ⓑ piyola;
- Ⓒ stol;
- Ⓓ kastyryulka;
- Ⓔ choynak.

Uchinchi so'z esa mebelni bildiradi, shuning uchun tagitga chiziladi.

2-misol:

- Ⓐ yurmoq;
- Ⓑ sakramoq;
- Ⓒ o'ynash;
- Ⓓ o'tirish;
- Ⓔ yugurish.

To'rtta so'z harakatni bildiradi. "O'tirish" esa tinchlik holatini bildirgani uchun tagiga chiziladi.

Talabaning o'quv materialini yaxshi tushunishi va o'zlashtirishi tafakkurning taqqoslash jarayonining rivojlanganligiga ham bog'liq. Uy vazifalarining mustaqil ravishda muvaffaqiyatli bajarilishida tahlil, umumlashtirishdan tashqari, tafakkurning taqqoslash jarayoni ham katta ahamiyatga ega. Taqqoslash predmet va narsalar orasidagi o'xshashliklar va farqlarni topishni taqozo qiladi. Shu sababli psixodiagnost talabada taqqoslash jarayonining qanchalik darajada rivojlanganligini o'rganishi lozim. Buning uchun quyidagi oddiy metodikadan foydalanishini tavsiya qilamiz.

## 17.5. Tushunchalarni taqqoslash

Mетодика талабадаги элементар фикрларни оларнинг маънудлигини аниqlашимконини беради. У таққослаш орқали берилғатган со'злардаги о'xshashlik va farqlarni аниqlашга ўнайтилган. Талабага бир qancha таққослаш имконияти бор со'злар берилади. Со'злар мажмуаси орасига таққослаш mumkin bo'limgan, ya'ni umumiyl belgiga ega bo'limganlari ham qo'shiladi. Masalan, "ko'l – daryo", "daraxt

– yog'och”, “ruchka – qalam”, “o'qituvchi – talaba”, “temir – sut”. Talabaning vazifasi berilgan so'zlarning umumiyligi, o'xshash tomonlarini va ular nimasi bilan bir-biridan farq qilishini ko'rsatish.

1-misol:

Mazmun jihatdan “biografiya” so'zi bilan qaysi so'z bir xil?

- © *tasodif;*
- © *qahramonlik;*
- © ***tarjimai hol;***
- © *kitob;*
- © *yozuvchi.*

Bu yerda “tarjimai hol” so'zi to'g'ri hisoblanadi va uning tagiga chiziladi.

Topshiriqlar to'plami.

1) Ism va sharifning bosh harflari nima deyiladi?

- © *to'g'ri;*
- © ***inisial;***
- © *dasxat;*
- © *indeks;*
- © *anagramma.*

2) Insonparavar nima degani?

- © *jamoatchi;*
- © ***odamiy;***
- © *yuksak kasbli;*
- © *tajovuzkorlik;*
- © *kalondimog'lik.*

3) Tabiat va jamiyat haqidagi qarashlar tizimi nima deyiladi?

- © *orzu;*
- © *baholash;*
- © ***dunyoqarash;***
- © *saviya;*
- © *illyuziya (aldanish).*

4) Mazmun jihatdan “demokratiya” so'zi bilan qaysi so'z bir xil?

- © *bosh-boshdoqlig;*
- © *yakka hrkimiyatchilik;*
- © ***xalq hokimiyati;***
- © *sulola;*
- © *sinflar.*

5) Eng yaxshi hayvon zoti va o'simliklar navini yaratadigan fan nima deyiladi?

- © *bionika;*
- © *kimyo;*
- © ***seleksiya;***

© *botanika;*

© ***fiziologiya.***

6) Kitob, ma'ruza, nutqning qisqacha bayon etish, yozib olish nima deyiladi?

- © *abzas;*
- © *sitata;*
- © *rukin;*
- © *parcha;*
- © ***konspekt.***

7) O'qimishli, chuqur va keng bilimlilik nima deyiladi?

- © *ziyolilik;*
- © *tajribalilik;*
- © ***bilimdonlik;***
- © *talantlilik;*
- © *o'zini aqli hisoblash.*

8) Borliqqa qiziqishning yo'qligi va unga aralashmaslik nima deyiladi?

- © *mulohazakorlik;*
- © ***sustlik;***
- © *kiborlik;*
- © *zidlik;*
- © *shafqatsizlik.*

9) Inson hayoti va faoliyatining biron-bir sohasiga taalluqli qonunlar majmuasi nima deyiladi?

- © *inqilob;*
- © *qaror;*
- © *an'ana;*
- © ***kodeks;***
- © *loyha.*

10) “Ikkiyuzlamachi”

tushunchasiga qarama-qarshi bo'lgan so'z bo':

- Ⓐ **samimiylit;**
- Ⓑ **zid;**
- Ⓒ **soxta;**
- Ⓓ **xushmuomala;**
- Ⓔ **qat'iyatli.**

11) Agar bahs bir-biriga yon berish bilan tugasa, u nima deyiladi?

- Ⓐ **kompromiss;**
- Ⓑ **muloqot;**
- Ⓒ **birlashish;**
- Ⓓ **muzokara;**
- Ⓔ **zid fikr.**

12) Ijtimoiy ongda psixik hodisaning aks etilishi nima?

- Ⓐ **psixika;**
- Ⓑ **axloq;**
- Ⓒ **tabiat;**
- Ⓓ **jamiyat;**
- Ⓔ **san'at.**

13) "Birday" tushunchasiga qaysi so'z teskari?

- Ⓐ **bir xil;**
- Ⓑ **yagona;**
- Ⓒ **salobatli;**
- Ⓓ **har xil;**
- Ⓔ **ajratilgan.**

14) Qaramlikdan, xurofotdan qutilish, huquqga tenglashish nima deyiladi?

- Ⓐ **qonun;**
- Ⓑ **muhojirlik;**
- Ⓒ **maslak;**
- Ⓓ **harakat;**
- Ⓔ **ozodlik.**

15) "Oppozisiya" degani:

- Ⓐ **qarshi harakat;**
- Ⓑ **kelishish;**
- Ⓒ **faqr;**
- Ⓓ **siyosat;**
- Ⓔ **qaror.**

16) "Sivilizasiya" degani:

- Ⓐ **tasodif;**
- Ⓑ **qahramonlik;**
- Ⓒ **tarjimai hol;**
- Ⓓ **kitob;**
- Ⓔ **yozuvchi.**

17) Mazmun jihatdan "yetakchilik" so'zi bilan qaysi so'z bir xil?

- Ⓐ **ixtiro qilish;**
- Ⓑ **g'oya;**
- Ⓒ **tanlash;**
- Ⓓ **birinchilik;**
- Ⓔ **rahbarlik.**

18) Koalisiya degani bu:

- Ⓐ **raqobat;**
- Ⓑ **siyosat;**
- Ⓒ **dushmanlik;**
- Ⓓ **munosabatni uzish;**
- Ⓔ **birlashish.**

19) Mazmun jihatdan "alturizm" so'zi:

- Ⓐ **insonparvarlik;**
- Ⓑ **o'zaro aloqa;**
- Ⓒ **xushmuomalalik;**
- Ⓓ **xudbinlik;**
- Ⓔ **odoblilik.**

20) Taraqqiyotga ishonchsizlik bilan qaraydigan odam nima deyiladi?

- Ⓐ **demokrat;**
- Ⓑ **radikal;**
- Ⓒ **konservativ;**
- Ⓓ **liberal;**
- Ⓔ **anarxist.**

1	b	6	e	11	a	16	d
2	b	7	c	12	b	17	e
3	c	8	b	13	d	18	e
4	c	9	d	14	e	19	a
5	c	10	a	15	a	20	c

## 17.6. Oddiy va murakkab analogiya metodi

### 17.6.1. Oddiy analogiya

Oddiy analogiya metodi oldindan berilgan (ko'rsatilgan) fikrlash usulidan foydalanib tushunchalar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni topishga yo'naltirilgan.

U quyidagi toifadagi vazifalardan iborat bo'lishi mumkin:

$$\frac{\text{elektr-toki}}{\text{sim}} = \frac{\text{bug}'}{\text{qozon, bug'lanish, suv, quvur, qaynash}}$$

Tekshiriluvchi chapda berilgan tushunchalar orasidagi bog'lanishni topishi va shu asosda o'ng tomonda, yuqori qatorda berilgan tushunchaga pastdan mos keladigan topishi lozim.

Mazkur misoldagi vazifaning to'g'ri yechimi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{\text{elektr-toki}}{\text{sim}} = \frac{\text{bug}'}{\text{quvur}}$$

### 17.6.2. Murakkab analogiya

Bu metodika narsalar va hodisalar orasidagi murakkab mantiqiy bog'lanishlar va munosabatlarni tushunish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan. Metodikada bir-biri bilan ma'lum munosabatda bo'ladigan so'zlar juftligi qo'llaniladi. Masalan, "yorug'lik-qorong'ulik", "qo'rqish-qochish", "dushman-raqib" va hokazolar. Barcha vazifalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh – misol tariqasida juftliklar. Ikkinci guruh esa – tekshiriluvchi baholashi lozim bo'lgan juftliklardan iborat bo'lib, ular birinchi guruhdagi juftliklardagi munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Ish quyidagi tartibda olib boriladi:

Ish boshida eksperimentchi (psixolog, psixodiagnost, pedagog) talaba bilan birgalikda birinchi guruhdagi juftliklar orasidagi bog'lanishlarni tahlil qiladilar. Masalan, "yorug'lik-qorong'ulik" – qarama-qarshi tushunchalar, "qo'rqish-qochish" – sabab-oqibat bog'lanishiga xususiyatiga ega, "dushman-raqib" – sinonimlar. Vazifa tushunarli bo'lgach, talabaga ikkinchi juftliklar beriladi. Talabaga berilgan ikkinchi juftliklar birinchi guruhdagilarning qaysi biriga mos kelishini ko'rsatish va tushuntirish lozim. Masalan, "issiq-sovuq", "yaxshi-yomon", "uzun-kalta" qarama-qarshilik xususiyatiga ega bo'lib "yorug'lik-qorong'ulik" juftligiga mos keladi. Agar tekshiriluvchi vazifalarni qiyalmay yecha olsa, u narsa va hodisalar orasidagi murakkab bog'lanishlarni topa oladi.

## 17.7. Rezyume

Mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish masalalari asosan, kuzatishlar va pedagogik tajribalar tayanadi. Ta'lif olishga bo'lgan qobiliyat – talabaning o'quv va mehnat ko'nikmalarining diagnostika qilish orqali o'rganaladi. Jumladan, aqliy rivojlanish darajasini aniqlashdagi omillar esa, ortiqcha predmetni olib tashlash metodi; analitik-sintetik xususiyatlar tahlili; ortiqcha tushunchani topish metodikasi; talabaning mavhum va so'z-mantiq tafakkurini diagnostika qilish; ortiqcha tushunchalarni topish bo'yicha misollar; tushunchalarni taqqoslash; talabadagi elementar fikrlash ko'nikmasini aniqlash; talabaning o'quv materialidagi muhim va asosiy belgilarni ajrata olish xususiyatlarini diagnostikasi; oddiy va murakkab analogiya metodlari orqali aniqlanib, hozirgi zamon talabasining o'quv va mehnat malakalari borasidagi ijobiylari va salbiy xususiyatlari yoritiladi.

## 17.8. Asosiy tushuncha va atamalar

Mehnat, malaka, ko'nikma, odat, tushuncha, predmet, taqqoslash, oddiy va murakkab analogiya.

## 17.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar

1. Mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish masalalari nimalarga asoslanadi?
2. Talabalarning aqliy rivojlanish darajasini nechta oddiy metodika mavjud?
3. Ortiqcha predmetni olib tashlash metodining o'tkazilish texnologiyasi qanday?
4. Ortiqcha tushunchani topish metodikasiga misollar keltiring.
5. Tushunchalarni taqqoslash qanday amalga oshiriladi?
6. Oddiy va murakkab analogiya metodini tavsiflab bering?

## 17.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar

*Karnegi D.* Kak zavoyevivat druzey i okazivat vliyaniye na lyudey / Per. s angl. – Yekaterinburg: U-Faktoriya, 2004. – 784 s.

*Karimova V.M.* Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.

*Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.

*Karimova V.M., Akramova F.A.* "Psixologiya". 1-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.

*Karimova V.M., Akramova F.A.* "Psixologiya". 2-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 125 b.

*Kvinn V.* Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo "Piter", 2000. – 560 s.

*Mayers D.* Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.

*Maxmudov I.I.* Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir:

A.Xolbekov. – T.: DJQA “Rahbar” markazi; “YUNAKS-PRINT” MChJ, 2006. – 230 b.

*Meliya M.* Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremenennogo delovogo cheloveka / Marina Meliya. – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.

*Nemov R.S.* Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-  
x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.

*Prikladnaya sosialnaya psixologiya* / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-  
vo “Institut prakticheskoy psixologii”; Voronej: Izd-vo NPO “MODEK”, 1998.  
– 688 s.

*Psixologiya. Uchebnik* / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.:  
Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.

*Sherbakova Yu.V.* Spesialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. – M.: Izdatelstvo  
RIOR, 2006. – 80 s.

*G’oziyev E., Toshimov R.* Menejment psixologiyasi. – T.. 2001. – 130 b.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma’ruzalar  
matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.

*Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T., TDIU.  
2005.

*Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* “Psixodiagnostika va amaliy  
psixologiya” kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik  
masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.

**Internet ssilka:**

[http://www.referatbank.ru/inforef.php?subsection\\_i...](http://www.referatbank.ru/inforef.php?subsection_i...)

<http://www.psi.chol.ru/difpsi/kreat.htm>

<http://www.soc.pu.ru/mate...>

<http://www.msu.ru/study/d...>

## XVIII bob

---

### ZIDDIYATLI VAZIYATLAR SHAROITINI, STRESS HOLATLARINI ANIQLASH VA XULQ PSIXOGIGIYENASI

---

Bobning qisqacha mazmuni

---

**Ziddiyatlar va ularning emosional his qilinishi.** Diagnostika va boshqarishning o'xshash usulini tanlash uchun tasniflangan ziddiyatlar.

**Ziddiyatli xulq va uni his qilishning yosh va jins xususiyatlari.** Yosh davri nizolari. Nevrotik va travmatik tanozillar. K.Tomas va R.Kilmennlar tomonidan ajratilgan ziddiyatli vaziyatda xulq-atvorning beshta uslubi. Ziddiyatdagi xulq-atvor ish shakllarining chizmasi.

**Stress haqida tushuncha, uning ijobiy va salbiy oqibatlari.** Stress tushunchasi. Stresslarni betaraflashtirish usullari.

**Xulq psixogigiyenasi va maqsadga muvofiq xulqning tamoyillari.** Xulq psixogigiyenasi va psxoprofilaktikasi. Maqsadga muvofiq xulq tamoyillari.

**Ishlab chiqarish ziddiyatlari sharoitida shaxs xulqining o'ziga xosligi.** Gorizontal o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlar. Ish sharoiti va vertikal o'zaro munosabatlardagi ziddiyatlar.

**Psixometrik ziddiyat (paradoks).** Yuqori  $j$  – koefisient. Past  $j$  – koefisient. Fergyuson kattaligidagi funksional bog'lanish. S-paradoks. Interindividual (yakka) o'zgaruvchanlik. Psixometrik paradoksning psixologik talqini.

---

## 18.1. Ziddiyatlar va ularning emosional his qilinishi

Ziddiyatlar qarama-qarshi fikr, qarashlarning to'qnashuvi bo'lib, u asosan shaxslararo munosabatlar jarayonida kelib chiqadi. Ziddiyatlar motiv, qiziqish, qarashlarning mos kelmasligiga ko'ra shaxsning ichki holati ijtimoiy muhit bilan bo'ladigan munosabatlarida ushbu ko'rinishlarga ega: oilada ota-onasi va farzand orasidagi qarashlar mos kelmaslidan; shaxaslarda, jamoalarda, hamkasblar orasidagi ishiga, predmetga, qiziqishlarga ko'ra yuzaga keladiganlarga; guruhlar orasidagi o'z qarashlarini amalga oshirish yuzasidan; shaxs ichidagi o'zga odamlar bilan ishlashda ularga ustunlik qilish yuzasidan amalga oshadigan.

Ixtiloflar, ya'ni kelishmovchiliklar individlarning o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishi, o'zaro muomalada bo'lishi jarayonida vujudga keladi.

Ayrim tadqiqotlarda ziddiyatlarning "ma'naviy otasi" deb Geraklitni hisoblaydilar, shuningdek Sokrat va Platonga havola qilishlar ham uchraydi. Gegelga, uning ziddiyatlar to'g'risidagi va qarama-qarshiliklarning kurashi haqidagi ta'limotiga yetarli darajada tez-tez murojaat qilib turiladi.

XX asr boshlarida bir qator nemis, avstriyalik va amerikalik sosiologlar: G.Zimmel, L.Gumplovich, D.Smolli, U.Samner kabilarning tadqiqotlari bilan ziddiyatlar nazariyasiga asos solindi. Ulardan eng mashhuri G.Zimmel bo'lib, u ziddiyatlarni jamiyat hayotidagi muqarrar hodisa qaragan, ziddiyatlar inson hayotining xususiyatidan kelib chiqadi va shaxsga xos bo'lgan hujumkorlik instinktdan paydo bo'ladi, deb hisoblaydi.

Diagnostika va boshqarishning o'xshash usulini tanlash uchun ziddiyatlar quyidagicha tasniflangan:

- + antagonistik ziddiyatlar;
- + kelishib hal qilinadigan ziddiyatlar;
- + ijtimoiy ziddiyatlar;
- + tashkiliy ziddiyatlar;
- + hissiy va shaxsiy ziddiyatlar;
- + vertikal va gorizontal ziddiyatlar;
- + oshkora ziddiyatlar;
- + yashirin ziddiyatlar;
- + shaxsning ichki ziddiyatlari;
- + guruhlararo va shaxslararo ziddiyatlar.

Kritik vaziyatlarda shaxs va jamoalardagi muhit holatini emosional his qilish orqali ularni boshqarish mumkin. Emosional his qilish shaxs psixikasining hissiy-irodaviy, intellektual jihatlariga bog'liq.

## 18.2. Ziddiyathi xulq va uni his qilishning yosh va jins xususiyatlari

Turli ijtimoiy vaziyatlardagi noqulayliklar, muammolar, o'ziga xos ziddiyatlarni keltirib chiqarishi ma'lum. Shunka ko'ra, inson yosh davrlarida kritik hissiy-kechinmalar kuzatiladi. Yosh davri nizolari – bu o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenet davrlari bo'lib, bu vaqtida keskin psixik o'zgarishlar ro'y

beradi.

Nevrotik va travmatik tanozillardan farqli ravishda yosh tanozillari normativ jarayon bo'lib, u shaxs rivojlanishi jarayonida albatta yuz beradi. Shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuvida hamda ziddiyatli xulqi namoyon bo'lishida yosh davrlarining o'ziga xos: uch yoshlilar, o'smirlik, balog'at, keksalik davridagi jins xususiyatlari yuzaga keladi. Uch yoshlarda o'z shaxsiy "Meni"ni anglash va namoyish etish kuzatiladi. O'smirlik va keyinchalik o'spirinlik yillarida esa kattalik hissi, avtonomlikka intilish kabilar bilan bog'liq his-kechinmalar ham kritik holatlarni kuzatilishiga olib keladi. Qarilik davrida ham o'ziga xos hissiy kechinmalar va xulqda o'zgarishlar yuz beradi. Ziddiyatli vaziyatda xulqning namoyon bo'lishida nafaqat yosh, balki jins ham o'zini ko'rsatadi, ya'ni erkaklar o'zgacha xulq-atvor ko'rinishini, ayollar esa o'zgacha xulqni namoyon etadilar. Erkaklarda namoyish etish kam, ziddiyatli vaziyatlarni chuqurlashtirmaslik va mulohazalilik xususiyati ko'proq shakllangan. Ayollarda esa ko'p gapirish (verbal komponent ustunligi), o'zini ko'proq ko'rsatish, emosional holatlarini yaqqol ko'rsatish xususiyatlari rivojlangan.


K.Tomas va R.Kilmenn ziddiyatli vaziyatda xulq-atvorning quyidagi beshta asosiy uslubini ajratib ko'rsatganlar:

- ✚ *moslashish, yon beruvchanlik;*
- ✚ *bosh tortish;*
- ✚ *qarshi kurashish;*
- ✚ *hamkorlik;*
- ✚ *murosaga kelish.*

Tasniflash asosini ikkita mustaqil o'lchov tashkil etadi:

- ✚ *o'z manfaatlarini amalga oshirish, o'z maqsadlariga erishish darajasi;*
- ✚ *kooperativlik darajasi, boshqa tomonning manfaatlarini hisobga olish.*

Buni grafik tarzda ko'rsatganda biz Tomas-Kilmenn turiga bo'lamiz. U muayyan ziddiyatni tahlil va xulq-atvorning oqilona shaklini tanlash imkonini beradi (18.2.1-rasm).



**18.2.1-rasm. Ziddiyatdagi xulq-atvor ish shakllarining chizmasi**

Har bir kishi bu xulq-atvor shakllarining hammasidan ma'lum darajada foydalanishi mumkin, lekin odatda ustivor shakl ham mavjud bo'ladi.

### **18.3. Stress haqida tushuncha, uning ijobiylari va salbiy oqibatlari**

**B**izning hayotimizda sodir bo'lib turadagian ixtiloflarning ko'plari ko'pincha qo'shimcha asab tarangliklariga olib keladi, stressli vaziyatlarga, stresslarni boshqarish zarurligiga sabab bo'ladi.

Stress – degan tushuncha texnika sohasidan o'zlashtirib olingan bo'lib, u yerda turli jismlar va qurilmalarning zaruriy yuklanishiga qarshi tura olish qobiliyatini bildiradi. Har qanday qurilma mustahkamlit chegarasiga ega bo'lib, bu chegaradan oshib ketish uning buzilishiga olib keladi.

Stress tushunchasini ijtimoiy psixologiya soqasiga ko'chirish o'ziga shaxs holatining bir qator turlarini qamrab oladiki, ularni voqyealarning ko'poigi keltirib chiqaradi, bular mag'lubiyat yoki g'alabadan ijodiy kechinmalar va shubhalargacha bo'lgan voqyealardir. Ayrim mutaxassislarning hisoblashicha, stress – bu dunyodagi shunday bir bosimki, u hissiy diskomfort (komfortning tanqisligi). Holatiga olib keladi. Boshqalarning fikricha, hissiy diskomfort – bu stressdir, uni bosim yoki stresslar deb ataladigan shartlar keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, stress tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Unchalik ahamiyatga ega bo'lмаган stresslar muqarrar va zararsiz bo'lib, haddan tashqari ortib ketgan stress esa shaxs uchun ham, korxona va tashkilotlar uchun ham qiyinchiliklar, qo'yilgan maqsadlarni qo'lga kiritishda muammolar keltirib chiqaradi.

Stress deganda biz insonning atrofdagi stimullarga yoki stresslarga jismoniy, kimyoviy va psixologik reasiyalari majmuni tushunamiz. Bunda atrof-muhitdagil kuchlar insonning fiziologik va psixologik funksiyalarini muvozanatdan chiqaradi.

Stress holatini jismoniy, psixologik omillar majmui, ya'ni stressorlar keltirib chiqaradi.

Hayotimizda stresslar bo'lib turishi tufayli ularni boshqarishni, ular keltirish mumkin bo'lgan zararni kamaytirishni bilish zarur. Insonning stresslarga ko'nikish usullari bir nechadir.

Birinchi usul – tashkilot darajasidagi usul bo'lib, siyosatdagi, ishlab chiqarish tuzilmasidagi xodimlarga nisbatan qo'yiladigan aniq talablarni ishlab chiqishda, ularning faoliyatiga baho berishda o'zgarishlar ro'y berishi natijasida sodir bo'ladi. Bunday o'zgarishlar stressli vaziyatlarning manbaini barham toptiradi.

Ikkinci usul – ayrim shaxs darajasidagi usuldir. Bu usul shundan iboratki, stresslarni betaraflash bo'yicha maxsus dasturlardan foydalanib, stresslarni boshqara bilishdir. Bunday dasturlar meditasiya, trening, mashqlar, parhyez va ba'zan ibodat qilishni ham o'z ichiga oladi (18.3.1-jadval).

### 18.3.1-jadval. Stresslarni betaraflashtirish usullari

Usulning nomi	Usulning qisqacha tavsifnomasi
Rejorashtirish	Shaxsiy yoki kasb hayotida ko'pgina muammolarni rejorashtirish usuli yordamida ham qilish mumkin. O'z shaxsiy yoki xizmat vazifalarining bilib olishga birmuncha vaqt ajrating. Ertangi kun faoliyatningizni rejorashtirib qo'yish uchun ishda muayyan soatlarni belgilab qo'ying. Bu faoliyat sizning shaxsiy maqsadlarining va butun kompaniyaning maqsadlariga qanday mos kelishini belgilang.
Jismoniy mashqlar	Muntazam bajarib boriladigan mashqlar inson sog'lig'i uchun juda foydalidir. Ular salbiy energiyaning chiqib keimshm uchun imkon tug'diradi, umumiy jismoniy holatga qulay ta'sir ko'rsatadi.
Parhyez	Davomli stress vitaminlar yetishmasligiga, organizmning zaiflashuviga, kasalliklarni kuchli idrok qilishga shart-sharoit yaratishi mumkin. Bundan tashqari, stress vaqtida normal ovqatlanish rejimi buziladi, shuning uchun to'g'ri parhyezga amal qilish muhimdir.
Psixoterapiya	Kasb mutaxassislari bilan intensiv ish olib borishda odatda ishlataladigan texnikalar juda xilma-xildir.
Psixologik tahlil	Bu psixoterapiyaning bir shakli bo'lib, unda normal bo'limgan xulq-atvorning ongsiz asoslari tadqiq etiladi.
Meditasiya va bo'shashi	Uzoq Sharqdan keltirilgan ko'p sonli misollar: meditasiya, yoga, dzen-buddizm va boshqa usullarni qamrab oladi.

### 18.4. Xulq psixogigiyenasi va maqsadga muvofiq xulqning tamoyillari

Xulq psixogigiyenasi va psxoprofilaktikasi deganda, psixologik yordamning shunday yo'naliшини nazarda tutamizki, uning maqsadi normadagi mehnat sharoitlarida faoliyat ko'rsatayotgan insonlarga noo'rin ishlar qilib qo'ymaslik, agar xatti-harakatlarning salbiy ko'rinishlari yuz bergan taqdirda uni bartaraf etish, ruhan iktirob chekmaslik vositalari yordamida xizmat ko'rsatish nazarda tutiladi.

Mehnat jamolaridagi xulq psixogigiyenasi shunday shart-sharoitlar majmuni o'z ichiga oladiki, ular har bir xodimni distresslarsiz normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi kerak.

Normalar va sanksiyalar tizimiga mos tarzda shaxsning o'z imkoniyatlari va iqtidori darajasini anglashi o'z zimmasiga haddan ziyod og'ir vazifalar va mas'uliyatlarni olmasligi, shaxsning jamiyat, oila va shaxslararo munosabatlar tizimidagi mavqyeini muvofiqlashtirish, aqliy va jismoniy imkoniyatlarga e'tibor berish xulq psixogigiyenasining muhim shartidir.

Maqsadga muvofiq xulq tamoyillari. Litvalik psixofiziolog K.Dineyka odamlarning o'zaro ta'sir va birgalikdagi faoliatlari jarayonida kelib chiqadigan ziddiyatlar va ularni bartaraf etish tamoyillarini "Dvijeniya, dixaniya,

psixofizicheskaya trenirovka” kitobidan quyidagicha ifodalaydi:

- + *asosiy narsadan ikkinchi darajali narsani ajrata olish;*
- + *ichki ruhiy xotirjamlikni saqlay bilish;*
- + *emosional yetuklik va barqarorlik;*
- + *voqyea-hodisalarga nisbatan ta’sir me’yorini bilish;*
- + *har qanday muammolarga turlichu nuqtai nazar bilan yondosha olish;*
- + *kutilmagan tasodifiy hodisalarni idrok etishga tayyorgarlik;*
- + *obyektiv baholay olish qobiliyatining borligi;*
- + *kuzatuvchanlikning borligi;*
- + *uzoqni ko’ra bilish;*
- + *o’zgalarni tushunish qobiliyati;*
- + *har qanday hodisa va natijadan ijobiy narsani ajrata olish.*

Bundan tashqari, muallif shaxslararo munosabatlarini to’g’ri va oqilona bo’lishida “donolarcha kulish”, “chiroyli fikrlar sohibi bo’lish”, hayotga falsafiy boqish, unga nisbatan donolarcha munosabatni shakllantira olishni ham xulq “kodeksi” – xulq psixogigiyenasining asosidir.

## **18.5. Ishlab chiqarish ziddiyatlari sharoitida shaxs xulqining o’ziga xosligi**

Ishlab chiqarish korxonalarida shaxslararo ziddiyatlar turli sabablarga ko’ra yuzaga keladi. Ishlab chiqarish korxonalarida xodimlar va rahbarlar orasidagi munosabatlar vertikal o’zaro munosabatlar deyiladi.

Gorizontal o’zaro munosabatlardagi ziddiyatlar quyidagi sabablarga ko’ra amalga oshishi mumkin:

- + *jamoa xodimlari orasidagi shaxslararo .munosabatlarning o’ziga xosligi tufayli;*
- + *jamoa xodimlari orasida ish taqsimoti va ishga bo’lgan munosabat orqali.*

Xodimlarning ish o’ni bilan ta’milanishi, ish sharoiti yuzasidan va vertikal o’zaro munosabatlardagi ziddiyatlar quyidagi sabbalarga ko’ra yuzaga keladi:

- + *rahbarning jamoa a’zolari tomonidan idrok qilinish darajasiga ko’ra;*
- + *rahbar faoliyatidan xodimning qoniqish darajasiga qarab;*
- + *xodimning ishdagi ishtiroki ulushiga ko’ra va hokazo.*

Ziddiyatlarda shaxs o’z xulqini turli ko’rinishlarda namoyon etadi. Korxonadagi shaxslararo ziddiyatlar turli ko’rinishlarda yuzaga keladi: bahs, tortishuv, tanqid, o’zo’zini tanqid, axloq normalarining buzilishi oqibatida.

Ziddiyatli vaziyatda bo’lajak ixtilofning ehtimol tutilgan qatnashchilari – subyektlar yoki muxoliflar, janjal mavzui yoki ixtilof obyekti namoyon bo’ladi.

Ziddiyatli vaziyat – yetarli darajada harakatchan beqaror holat bo’lib, tashkil etuvchi elementlardan biri o’zgarishi mumkin, bunday elementlarga muxoliflarning qarashlari, obyekt-muxolif munosabatlari kiradi. Bunda ziddiyat obyektining almashinishi, muxoliflarning o’zaro harakatini qiyinlashtiruvchi yoki yo’qqa chiqaruvchi shart-sharoitlarnign paydo bo’lishi, subyektlardan birining keyingi

hamkorlik qilishdan voz kechishi va boshqalar ta'sir qiladi.

## 18.6. Psixometrik ziddiyat (paradoks)

**D**iagnostik savollarning qiymatini aniqlash uchun (shuningdek kuchlarining cheklanganligini) odatda qo'llaniladigan j – koeffisenti yordamida sinaluvchining berilgan savolga javobi va uning butun shkala buyicha natijalari o'rtasidagi bog'liqlik belgilanadi. Savolning parametri – javobning me'yori muhimdir. Yuqori j – koeffisentli ("yaxshi") savollarga bo'lgan javoblarning bir me'yorda emasligi tadqiqot paytida aniqlandi. O'z navbatida javoblarning qayta sinovlarda o'zgarmasligi past j – koeffisentli ("yomon") savollarda uchraydi.

Shunday qilib cheklanishning yuqori ko'rsatgichi bor savollar qaytarilayotgan natijalarga nisbatan o'zgaruvchandir, yoki javobning bir me'yordaligi past cheklanishli savollarda uchraydi. Bu hodisa psixometrik paradoks (ziddiyat) deb ataladi. (Goldberg 1963; Nowakowska 1975) Uni shaxs shkalasidagi savollarga psixologik tahlili bo'lмаган javoblar orqali tushuntirib bo'lmaydi. Ayniqsa psixometrik paradoks M.Novakovskaya ishlarida batafsil muhokama qilingan. Goldberg psixometrik paradoksni savollarga bo'lgan javoblarning o'rtasidagi doimiylik va juz'iy o'zgaruvchanlik bog'lanishlari bor deb hisoblaydi. Bu o'rinda javoblarning o'zgaruvchanligi Ferguson kattaligidagi funksional bog'lanishda bo'ladi. (Aniq son farqi va maksimal ehtimolli son o'rtasidagi bog'lanish uchraydigan ko'rsatma). Shundan kelib chiqqan holda M.Novakovskaya bu vaziyatda S-paradoks haqida gapirish kerak deb hisoblaydi. S ko'rsatgich butun testga nisbatan savolning samarali ekanligini ko'rsatmaydi yoki j qiymati yordamida aniqlanadigan savolning cheklangan kuchlari Novakovskayaning tahlil mavzusi – j-paradoksdir. Uning hisoblashicha psixometrik paradoks gumanitar ilmlarning tekshiruv qurollariga xosdir. Savol shaklan o'zgarmas holda semantik (psixologik) o'zgarishlar inter va intraindividual rejalarda tasdiqlangan.

Interindividual (yakka) o'zgaruvchanlikning 2 xil sababi bor: turli sinaluvchilarda o'lchanadigan chiziqlardagi farqi va savollarning ma'nosini anglash farqi. Intraindividual o'zgaruvchanlik bilimlarning juz'iy o'zgarishi va javobni aytish qarori qiyinligi bilan shakllanadi.

Psixometrik paradoksning psixologik talqini uchun Novakovskaya javoblarning 3 xil aniqlovchisini farqlashni tavsiya qiladi:

- ⊕ *kuzatiluvchi xususiyatlarini ifodalash;*
- ⊕ *savolning ahamiyati;*
- ⊕ *oson darajada savolni tanlash.*

Bu shuningdek bir xil savollarni turli savollardan farklash kerakligini ta'kidlaydi.

M.Novakovskaya psixometrik paradoksning 2 xil turini ajratish kerak deb hisoblaydi va ularni tushuntirish uchun quyidagi taxminlardan kelib chiqadi:

A tipdag'i paradoks turli izohlarga moyil bo'lgan savollarda uchraydi, shuningdek javobni berishda yechimga kela olmaslik hollarida ham. Bunda savol yuqori j va s ko'rsatkichlari bo'ladi.

Masalan, "Odatda sizning kayfiyattingiz yaxshimi?" (So'rovnomanning

variantlaridan birida neyro tizimni aniqlash. Neyro asab

V tipdagi paradoks – javob oson topiladigan bir xil ma’noli savollarda uchraydi. Bunga bir tomonlama diagnostik savollar ham kiradi. (Ular uchun faqat birgina variant muhimdir). Bu savollar kam ifodalangan juz’iy o’zgarishning unchalik cheklanmagan kuchlari bilan xarakterlanadi. (s ning mohiyati uncha katta emas). Masalan: “Siz timsohning og’ziga tushib qolganligingiz ko’pincha tushingizga kiradimi?” (variantlarning birida qo’rquv darajasini aniqlash uchun). Savol diagnostik bir tomonlamadir, chunki “ha” javobidan biz qo’rquvning borligini bilamiz, “yo’q” javobidan esa hyech qanday xulosaga kela olmaymiz.

“Siz chekasizmi?” degan savol esa oz cheklanish va juz’iy o’zgarishli nolga yaqinlashadi va unga javob berish osondir.

Anikki, V tipdagi paradoksi bor savollar metodikada qanchalik ko’p bo’lsa, shunchalik ishonchli bo’ladi. Bu esa takroriy tadqiqotlarning natijalari orasida aniqlanadigan o’zaro bog’lanishning koeffisentidir. Biroq shu bilan bir vaqtida savollarning cheklanish kuchlari pasayadi. M.Novakovskaya umuman hamma savollar psixometrik paradoksnı (A va B tiplari) yuzaga keltiradi deb hisoblasa ham, “mukammal” yuksak hollari ham bo’lishi mumkin. Masalan: “Ertalab siz o’zingizni tez-tez juda charchagan, holsiz, horg’in sezasizmi?” (So’rovnomaning bir variantida neyrotizimni aniqlash uchun) degan savolda juz’iy o’zgarish past j va s ma’nolari yuqori. Psixometrik paradoks paydo bo’lmaydi.

Psixometrik paradoksning mavjudligi bilgan holda tadqiqotchi javoblarning juz’iy o’zgarishini parametrлari mos kelgan savollarni tanlash yo’li bilan to’g’rilab turadi.

## **18.7. Rezyume**

Ziddiyatlar va ularning emosional his qilinishi asosan, ziddiyatli xulq va uni his qilishning yosh va jins xususiyatlari bilan bog’liqdir. Streslarning ijobiy va salbiy oqibatlari esa xulq psixogigiyenasi va maqsadga muvofiq xulqning tamoyillari bilan xarakterlanadi. Ishlab chiqarish ziddiyatlari sharoitida shaxs xulqining o’ziga xosligi. psixodiagnostikada psixokorreksiya muammosining hal etilish darajasiga bog’liqdir.

## **18.8. Asosiy tushuncha va atamalar**

Ziddiyatlar, xulq, psixogigiyena, stress, psikorreksiya, nizo, ixtiloflar.

## **18.9. Nazorat va muhokama qilish uchun savollar**

1. Ziddiyatlar qanday emosional his qilinadi?
2. Ziddiyatli xulq deganda nimani tushunasiz?
3. Stressning qanday ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud?
4. Xulq psixogigenasi nimani ifodalab beradi?
5. Qanday ishlab chiqarish ziddiyatlari farqlanadi?
6. Paradoks nima?

## 18.10 Tavsiya etilgan adabiyotlar

- Burlachuk L.* Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.
- Karnegi D.* Kak zavoyevivat druzey i okazivat vliyaniye na lyudey / Per. s angl. – Yekaterinburg: U-Faktoriya, 2004. – 784 s.
- Karimova V.M.* Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.
- Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "Universitet", 1999. – 96 b.
- Karimova V.M., Akramova F.A.* "Psixologiya". 1-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.
- Karimova V.M., Akramova F.A.* "Psixologiya". 2-qism. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 125 b.
- Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994
- Kvinn V.* Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo "Piter", 2000. – 560 s.
- Klimov Ye.A.* Osnovi psixologii: Uchebnik. – M.: 1997
- Mayers D.* Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.
- Maxmudov I.I.* Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: A.Xolbekov. – T.: DJQA "Rahbar" markazi; "YUNAKS-PRINT" MChJ, 2006. – 230 b.
- Meliya M.* Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremennoego delovogo cheloveka / Marina Meliya. – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.
- Nemov R.S.* Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.
- Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-vo "Institut prakticheskoy psixologii"; Voronej: Izd-vo NPO "MODEK", 1998. – 688 s.
- Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – 752 s.
- G'oziyev E., Toshimov R.* Menejment psixologiyasi. – T.. 2001. – 130 b.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T., TDIU. 2005.
- Internet ssilka:**
- [http://ncdo.levsha.ru/ncdo\\_recr.htm](http://ncdo.levsha.ru/ncdo_recr.htm)
- <http://science-education-books.webshops.ru/g10145>
- <http://www.alfaconsltant.ru/collection/ref-order....>
- <http://oz.by/books/more101335.html>

---

---

## **CLOSSARIY**

---

## CLOSSARIY

*Adekvatlik* – teng, o’xhash, muvofiq kelmoq.

*Analogiya* – psixik hodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o’xhashligi.

*Anketa* – metodlardan biri bo’lib, respondent to’g’risida aniq ko’zlangan ma’lumotlarni yig’ish maqsadida qo’llaniladi.

*Assosiasiya* – psixik hodisalar orasidagi o’zaro bog’lanish, u ma’lum qonunlar bo’yicha tarkib topadi.

*Atribusiya xatosi* – tekshiriluvchida mavjud bo’lmagan omillarni hisobga olish yoki noturg’un xususiyatlarni turg’un, deb baholash.

*Attraksiya* – bir kishini boshqa kishi ko’rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi.

*Apatiya* – kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik xolati.

*Astenik* – shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

*Audivizual idrok* – shaxsning bir vaqtning o’zida ham eshitib, ham ko’rib idrok qilishi.

*Autogen mashq* – shaxsning o’z-o’zini ishontirish va o’z-o’zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

*Affekt* – kuchli, jo’shqin va nisbatan qisqa muddatli emosional kechinmalar sifatida ro’y beradigan psixologik holat.

*Baho* – turli usullar orqali qo’lga kiritilgan natijalarning, xususan, intervyu, psixologik testlar, fiziologik yoki psixofiziologik o’lchovlar, apparaturalar holatining kuzatilishidir.

*Bilish radikalizmi* – ishchi farazlarga nisbatan yuqori baholash an’anasining mavjudligi va yaxshi iboralarni qidirishga bo’lgan xohishning yo’qligi.

*Biografik metod* – odamni uning tarjimai holi bilan bog’liq bo’lgan xujjalalar orqali o’rganish usuli.

*Bixevoirizm* – psixologiyaning o’rganish predmeti sifatida odam xulq-atvorini olinishi nazariyasi.

*Breynshorming* – aqlga xujum – baxslarni tashkil etishda qo’llaniladigan interfaol usuldir.

*Bosqichlar* – muloqotda mavjud bo’lgan shaxsning o’zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

*Verbal* – og’zaki ifodalangan nutq.

*Vegetativ nerv tizimi* – nerv tizimining organizm ichki a’zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi.

*Genotip* – ota-onadan farzandga o’tadigan irsiy belgilar majmui.

*Gerontopsixologiya* – psixologiya tarmog’i, qarilik davri psixologiyasini o’rganadi.

*Gnostik* – butun borliqni bilishga yo’naltirilgan faoliyat.

*Guruh* – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo’lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

*Dunyoqarash* – odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o’zining tutgan o’rniga qarashlaridan kelibchiquqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig’indisi.

*Depressiya* – tushkunlik kayfiyati.

*Diagnostika* – yorqin namoyon bo’luvchi individul-psixologik, psixofiziologik xususiyatlar asosida olingan ma’lumotlarni taqqoslash bilan alohida kishi yoki ma’lum shaxslar guruhi borasida xulosa chiqarish demakdir.

*Diqqatning barqarorligi* – diqqatning ma’lum obyektga uzoq vaqt davomida muttasil qaratilishi.

*Diqqatning ko’lami* – bir vaqtning o’zida diqqatning bir qancha obyektga qaratilishi imkoniyati.

*Diqqatning taqsimlanishi* – diqqatning bir vaqtida bir necha obyektga taqsimlanish xusuiyati.

*Diqqatning ko’chishi* – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir obyektdan ikkinchisiga ko’chirish.

*Dialog* – ikki va undan ortiq kishilar ning o’zaro og’zaki gaplashishi.

*Dialogik nutq* – nutq turlaridan bo’lib, bunda so’zlovchilar barobar teng, bиргаликда faollik ko’rsatadi.

*Dominant shaxs* – boshqalar bilan muomala va munosabat o’rnatishda o’z fikrini o’tkazish xislatining yorqin namoyon bo’lishi.

*Yosh psixologiyasi* – turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o’rganadi.

*Yosh davri nizolari* – o’ziga xos, uncha uzoqqa cho’zilmaydigan ontogenet davrlari bo’lib, bu vaqtida keskin psixik o’zgarishlar yuz beradi.

*Jamoa* – maqsadlari jamiyat maqsadiga ms keladigan umumiyl faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

*Jamoaning negizi* – umuiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishag taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a’zolari.

*Yo’nalish* – shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat’i nazar ma’lum yo’lga yo’naltiruvchi barqaror motivlar yig’indisi.

*Individuallik* – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o’ziga xosligi, qaytarilmasligi.

*Idrokning konstantligi* – idrok sharoiti o’zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo’lgan narsa obrazlarning nisbatan o’zgarmasligi.

*Idrokning predmetliliği* – jamiki olamdan olingan ma’lumotlarni ichki olam obyektiga kiritish xususiyati.

*Idrokning butunliligi* – sezgi a’zlariga bevosita ta’sir etib turgan obyektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan bиргаликда qo’shib idrok etish.

*Istedod* – shaxsning ma’lum faoliyatda ifodalananadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

*Ijtimoiy psixologiya* – psixologiya fanining o’ziga xos maxsus tarmog’i bo’lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o’rganiladi.

*Ijtimoiylashuv* - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallah va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o’zlashtirish jarayoni.

*Ijtimoiy tasavvurlar* – shaxsga jamiyat orqali ta’sir etgan narsa va hodisalarning yaqqol obrazi.

*Ilmiy taxmin* – tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgaridan kutilishi mumkin bo’lgan xolatning bashorat qilinishi.

*Ijtimoiy psixologik eksperiment* – asosiy metodlardan biri bo’lib, o’zgaruvchan mustaqil turli xolat va jarayonlarning boshqa nomustaql xolat va jarayonlarga

ta'sir etishdagi aniq ma'lumotlariga tayanadi.

*Interaktiv* – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta'sir ko'rsatish jarayoni.

*Introvert shaxs* - shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

*Kasb* – faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat subyektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmui.

*Kichik guruhi* – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luchchi kishilar guruhi.

*Klinik tashxis* – u yoki bu sabablar orqali buzilgan psixik faoliyatning aynan o'sha bo'lagini o'rganish yoki shaxsning bir butunligini tasavvur qilgan holda, undagi vaqtincha (turg'un) disfunksiya elementlarini ajratish.

*Kommunikativ* – shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinushi jarayoni.

*Kontent-analiz* – tekshirilayotgan matnda so'z, ibora, abzaslarni ma'no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

*Kuzatish* – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruhi bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rganish, ma'lumotlar to'plash metodi.

*Ko'nikma* – odamening ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rindigan qobiliyati. K. mahoratning asosini tashkil etadi.

*Longityud tadqiqot* – sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o'rgansh.

*Metod* – bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

*Metodologiya* – tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

*Motiv* – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

*Motivasiya* – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

*Malaka* – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

*Mehnat psixologiyasi* - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan.

*Mehnat faoliyati psixologiyasi* – bu psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsini mehnat subyekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo'llari va usullarini ilmiy jihatdan o'rganadi.

*Mehnat* – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

*Mutaxassislik* – faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

*Mehnat subyekti* (egasi) – bu faol harakat qiluvchi, anglash va o'zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruhi.

*Muloqot* – ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

*Melanxolik* – temperament turlaridan biri bo'lib, psixik faollilikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotg'a berilishi bilan xarakterlanadi.

*Monologik nutq* – bir odamning o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalash

nutqi.

*Monolog* – ma’ruzachi tomonidan nutq so’zlanishi, ma’ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo’lgan jarayon.

*Mobil shaxs* – shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o’tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

*Negativizm* – individning har qanday sharoiitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o’zicha mustaqil fikr, mavqyeni namoyon qilishi.

*Norasmiy* – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o’zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko’zda tutilishi.

*Noverbal* - nutqsiz ifodalangan harakat, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo’naltirilishi.

*Nizolar* – o’zaro ta’sir ko’rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozisiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

*Nizo turlari* – nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko’ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo’lish xususiyatiga ko’ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqye yoki darajaga ko’ra: vertikal va gorizontal; yo’nalishiga ko’ra: destruktiv va konstruktiv.

*Nizo bosqichlari* – uch bosqichda, ya’ni nizo oldi, nizo va nizodan keyingi bosqichlar.

*Nizo hal etish yo’llari* – komromiss, ya’ni kelishuv; joyida hal etish; nizodan chekinish; orqaga surish; qochish.

*Operativ xotira* – xotira turlaridan biri bo’lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalaniladi.

*Oila* – turmush qurish, qarindosh-urug’chilik asosidagi kichik guruh.

*Psixika* – yuksak darajada tashkil topgan materiya, miyaning funksiyasi bo’lib, uning mohiyati tuyg’ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko’rinishida aks ettirishdan iborat.

*Psixik jarayonlar* – u yoki bu psixik maxsult va natijalarni (psixik obrazlar, xolatlar, tushunchalar, xissiyot va h.k.) xosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

*Psixodiagnostika* – psixologik tashxisning amaliy jihatni bilan bog’liq bo’lgan psixologning maxsus faoliyatidir. P. – amaliyotda turli psixodiagnostik usullardan foydalanish mumkin bo’lgan psixologik bilimlar doirasini ham ifodalaydi.

*Psixometriya* – psixik jarayonlarning vaqtinchalik xarakteristikasi.

*Psixologiya* – odamning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg’u-hissiyot va boshqa psixik xolatlar orqali aks ettirish jarayonini o’rganadigan fan.

*Psixologik tashxis* – individual-psixologik mohiyatni aniqlash va shaxsning o’ziga xosligini baholash maqsadida yo’naltirilgan, izlanishlar asosida keyingi rivojlanishi darajasi bo’yicha axborot berish hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish jarayonigida psixolog ish faoliyatining natijasidir.

*Psixik holatlar* – psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytildi.

**P.h.** (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat’iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma’lum darajada barqaror bo’lib, ularning muayyan xususiyatiga

ham aylanib qoladi.

*Pilotaj tadqiqot* – tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o'tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.

*Psixodiagnostika* – shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.

*Psixologiya metodlari* – psixik hodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o'rganishning asosiy yo'l-yo'riq va usullari.

*Psixokorreksiya* – shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo'llash jarayoni.

*Psixologik xizmat* – psixologiyani amaliyotda qo'llash tizimi. U turli sohalarda diagnostika, konsultasiya, ekspertiza vazifalarini bajaradi.

*Psixologik maslahat* – shaxsning turli darajadagi o'z muammolarini yakka tartibda psixolog bilan tahlil etishiga qaratilgan psixologik xizmat turi.

*Polilog* – guruh ichidagi munozara bo'lib, barcha ishtirokchilar faoolashuvi kuzatiladi.

*Perseptiv tomon* – shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

*Professiografiya* – mehnat subyektining faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabati va bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

*Professiogramma* – kasbning turli obyektiv xarakteristikalarining tasnifi.

*Psixogramma* – faoliyatning psixologik xarakteristikalarining tasnifi.

*Rigid* shaxs – shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi.

*Rasmiy* – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqye, martabaning inobatga olinishi

*Real* – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

*Referent guruh* – shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.

*Sangvinik* – temperament turlaridan bo'lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o'zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi.

*Sanoat psixologiyasi* – sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va xolatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

*Simpatiya* – bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo'lishi.

*Sosiologiya* – jamiyatda yuz beradigan turli-voqyea-hodisalarni va o'zaro munosabatlarni o'rganishga qaratilgan fan.

*So'rov* – asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bavosita ma'lumot olinadi.

*Tajriba* – psixologik tashxis qo'yish, ya'ni psixodiagnostikadir.

*Tashxis* – qaysi sohada qo'yilishidan qat'iy nazar: tibbiyat, taxnika, boshqarma yoki psixologiyadami – bu har doim paydo bo'lgan noxushlikning yashirin sababini qidirish hisoblanadi.

*Ta'lim maskanlari psixodiagnostikasi* – shaxsni ta'lim tizimda qobiliyati, iqtidori,

iste'dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

*Test* – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxus qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

*Test qilish* – psixologik xarakteristikani o'lchash demakdir.

*Tushuncha* – narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

*Tushunish* – biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

*Tahlil* – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo'linib o'rGANILADI.

*Taqqoslash* – narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operasiysi.

*Trening* – mashq qilmoq, guruxlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsning muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

*Temperament* – shaxsning individual-psixologik xususiyatlari majmui bo'lib, u kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emosional tomonlari bilan xarakterlanadi.

*Tobe* shaxs – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko'nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog'liqlik, fikriga bo'ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

*Umumlashtirish* – voqyelikdagi narsa va hodisalarni umumiyligi va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

*Uyushganlik* – guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

*Ustanovka* – yo'naliш, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga va obyektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni idrok qilish, ularga baho berish va ularga nisbatan harakatining tayyorlik xolati.

*Fan* – o'ziga xos psixologik farqlarni o'rGANUVCHI differensial psixologiyadir.

*Faoliyat* – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirigan faolligi.

*Faollik* – tirik materianing umumiyligi xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

*Flegmatik* – temperament turlaridan biri bo'lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emosional xolatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.

*Funksional tashxis* – shifokor uchun nafaqat kasallik "nomi"ni aniqlash imkonini yaratadi, balki kimda (qanaqa shaxsda) va qanday muhitda (ijtimoiy mikromuhitda) kasallik kelib chiqishi to'g'ridagi savolga ham javob beradi.

*Xarakter* – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo'lib, shaxsning mehnatga, narsa va hodisalarga, o'ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon bo'ladi.

*Harakat* – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

*Xulosa chiqarish* – tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo'lib, bir qancha xukmlar

asosida ma'lum xulosa chiqariladi. X.ch. induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

*Xolerik* – temperament turi bo'lib, xissiyot jo'shqinligi, kayfiyatning tezda o'zgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ajralib turishi xosdir.

*Shaxs* – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.

*Shaxs ijtimoiylashuvi* - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot-faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.

*Shaxslararo munosabat* – muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar.

*Shakllar* – bevosita va bavosita tur bo'lib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi ko'zda tutiladi.

*Shakllanganlik* – odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq psixologik jarayon.

*Shartli* – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko'ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

*Emosiya* – odam va hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki va tashqi qo'zg'oluvchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

*Egosentrizm* – men, markaz ma'nosida individualizm va egoizmnинг eng tuban turi.

*Ekstrovert shaxs* – shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

*Empatiya* – boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

*O'qish* – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallahga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

*O'yin* – faoliyat turlaridan biri bo'lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish harakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

*Qobiliyat* – shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

*Qiziqish* – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki hodisalarga munosabati.

---

---

**BIBLIOGRAFIYA**

---

---

## BIBLIOGRAFIYA

- Karimov I.A.* Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida: T.6. – T.: “O'zbekiston”, 1998. – 429 b.
- Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O'zbekiston”, 1997. – 432 b.
- Karimov I.A.* O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.1. – T.: “O'zbekiston”, 1995. – 49 b.
- Karimov I.A.* Bizdan ozod va obod obod Vatan qolsin. – T.2. – T.: “O'zbekiston”, 1996. – 380 b.
- Karimov I.A.* Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: “O'zbekiston”, 2003. – 320 b.
- Karimov I.A.* O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T.: “O'zbekiston”, 2002. – 80 b.
- Avtonomov V.S.* Model cheloveka v ekonomicheskoy nauke. – SPb.: Ekonomicheskaya shkola, 1998.
- Bolotova A.K.* Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / A.K. Bolotova. – M.: Gardariki, 2006. – 382 s.
- Borozdina G.V.* Psixologiya delovogo obshyeniya: Uchebnik. – 2-ye izd. – M.: INFRA-M, 2006. – 295 s.
- Burlachuk L.* Psixodiagnostika. – SPb.: 2002.
- Vvedeniye v psixodiagnostiku: Ucheb. posobiye dlya stud. V 24 sred. ped. ucheb. zavedeniy / M.K. Akimova, Ye.M. Borisova, Ye.I. Gorbacheva i dr.; Pod red. K.M. Gurevicha, Ye.M. Borisovoy. – 3-ye izd., stereotip. – M.: 1999.
- Veber M.* Izbrannye proizvedeniya / Per s nem.; Sost., obsh. red. Yu.N. Davidova. – M.: Progress, 1990.
- Volgin V.V.* Individualnyi predprinimatel: prakticheskoye posobiye. – 8-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izdatelsko-torgovaya korporasiya “Dashkov i K”, 2006.
- G'oziyev E., Toshimov R.* Menejment psixologiyasi. – T.: 2001. – 130 b.
- Daniyelyans A.* Motivasiya predprinimatelskoy deyatelnosti // Problemi teorii i praktika upravleniya. – M.: 1992. – #6.
- Djon M.* Biblioteka izbrannix trudov o strategii biznesa. Pyatdesyat naiboleye vliyatelnix idey vsex vremen / per.s angl. – M.: ZAO “Olimp-Biznes”, 2006.
- Dukarevich M.Z.* Praktikum po psixodiagnostike. Motivasiya i samoregulyasiya. – M.: 1989.
- Zombart V.* Burjua: Etyudi po istorii duxovnogo razvitiya sovremennoogo ekonomicheskogo cheloveka / RAN In-t sosiologii. – M.: Nauka, 1994.
- Ilin Ye.P.* Motivasiya i motivi. – SPb.: Piter, 2000.
- Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 1994
- Karimova V.M.* Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot: Universitetlar va pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: “Universitet”, 1999. – 96b.

- Karimova V.M.* Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.
- Karimova V.M., Akramova F.A.* "Psixologiya". 1-qism. Ma'ruzalar matni. – T: TDIU, 2005. – 208 b.
- Karimova V.M., Akramova F.A.* "Psixologiya". 2-qism. Ma'ruzalar matni. – T: TDIU, 2005. – 125 b.
- Karimova V.M., Xayitov O.E., Ergasheva D.D., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* Sbornik situasionnix zadach, delovix i psixologicheskix igr, testov, kontrolníx zadaniy, keys-stadi, voprosov dlya samoproverki po kursu "Ekonomicheskaya psixologiya". – T.: TGEU, 2005.
- Karnegi D.* Kak zavoyevivat druzey i okazivat vliyaniye na lyudey / Per. s angl. – Yekaterinburg: U-Faktoriya, 2004. – 784 s.
- Karpov A.V.* Psixologiya menedjmenta: Ucheb. posobiye. – M.: Gardarika, 1999.
- Kvinn V.* Prikladnaya psixologiya. – SPb.: Izdatelstvo "Piter", 2000. – 560 s.
- Kitov A.I.* Ekonomicheskaya psixologiya. – M.: Ekonomika, 1987.
- Klimov Ye.A.* Osnovi psixologii: Uchebnik. – M.: 1997
- Korduell M.* Psixologiya. A – Ya: Slovar-spravochnik / Per. s angl. K.S.Tkachenko. – M.: FAIR-PRESS, 1999.
- Kuzin F.A.* Delayte biznes krasivo. – M.: INFRA-M, 1995.
- LIDERSTVO. Psixologicheskiye problemi v biznese. – Dubna: Izdatelskiy sentr "Feniks", 1997.
- Mayers D.* Sosialnaya psixologiya / Perev.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.
- Maxmudov I.I.* Boshqaruв psixologiyasi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: A.Xolbekov. – T.: DJQA "Rahbar" markazi; "YUNAKS-PRINT" MChJ, 2006. – 230 b.
- Meliya M.* Biznes – eto psixologiya: Psixologicheskiye koordinati jizni sovremennoogo delovogo cheloveka / Marina Meliya. – 3-ye izd. dop. – M.: Alpina Biznes Buks, 2005. – 352 s.
- Metodi prakticheskoy psixologii obshyeniya. – L.: 1990.
- Nemov R.S.* Prakticheskaya psixologiya: Poznaniye sebya. Vliyaniye na lyudey: Posobiye dlya uchashixsy. – M.: 1998.
- Nemov R.S.* Psixologiya. Uchebnik dlya studentov vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3-x t. – M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2003. – 576 [640; 608] s.
- Nemov R.S.* Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – M.: 2003.
- Prikladnaya sosialnaya psixologiya / Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-vo "Institut prakticheskoy psixologii"; Voronej: Izd-vo NPO "MODEK", 1998. – 688 s.
- Psixologicheskaya diagnostika: Uchebnoye posobiye / Pod red. K.M. Gurevicha, Ye.M. Borisovoy. 2-ye izd., ispr. – M.: 2000.
- Psixologiya. Uchebnik / Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi), 2004. – 752 s.

- Rogov Ye.I.* Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovanii. – M.: 1995.
- Hayitov O.E.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya: Elektron darslik. – T.: TDIU, 2005.
- Hayitov O.E.* Psixologik iqtisod: O'quv qo'llanma / Prof. V.M.Karimova tahriri ostida. – T.: TDIU, 2006. – 130 b.
- Hayitov O.E.* Tadbirkorlik faoliyati motivasiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan nomzodlik dissertasiysi. – T.: TDIU, 2005. – 145 b.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X.* Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2005. – 338 b.
- Sherbakova Yu.V.* Spesialnaya psixologiya: Uchebnioye posobiye. – M.: Izdatelstvo RIOR, 2006. – 80 s.
- Abraham Maslow.* Hierarehy of Needs. – West Publishing Company, London, 1958.
- Adam Smith.* Angniry into the Nature of Cances of Wealth of Nations. 1985.
- Arkes H.R., Garske Y.P.* Psychological Theories of Motivation. – Monterey, 1982.
- Atkinson J.W.* An Introduction to Motivation – Princeton, N.J.: Van Nostrand, 1964.
- Cantillon R.* Essai Sur la Nature du Commerce en General, 1755.
- Clayton P. Alderfer,* Existence, Relatedness, and Growth – New York: Free Press, 1972.
- David McClelland,* The Society – Princeton, N.J.: Van Nostrand, 1961.
- Drucker F Peter.* La gerencia de empresas. Editorial Hermes, 1992, pp 27-53.
- Frederick Herzberg, Berrard Mausner, and Barbara Snyderman,* The Motivation to Work (New York: Wiley, 1959): and Frederick Herzberg, "One More Time: How Do You Motivate Employees?" Harvard Business Review, January-February 1968.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixodiagnostika va amaliy psixologiya" kursi bo'yicha ijtimoiy-psixologik tryeninglar, psixologik masalalar, topshiriqlar va tyestlar to'plami. – T.: TDIU, 2005. – 74 b.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Pedagogik psixologiya" kursi bo'yicha vaziyatli va ishchi o'yinlar to'plami. – T.: TDIU, 2005.
- Hayitov O.E., Lutfullayeva N.X., Xaydarova X.R.* "Psixologiya" fani bo'yicha shaxsni o'rganishga doir testlar va metodikalar to'plami. – T.: TDIU, 2005.
- Hebb D.O.* Textbook of psychology. Philadelphia: W.B. Saunders Company; London-Toronto, 1972.
- Hellriegel, Don.* Organizational behavior / Don Hellriegel, John W. Slocum, Jr. Richard W. Woodman. – 5 rd ed. – West Publishing Company, Los Angeles, 1989.
- Kreitner, Robert.* Organizational behavior / Robert J. Kreitner, Angelo J. Kinicki. – BPI/ IRWIN, Homewood, IL 60430 Boston, MA 02116, 1989.
- Mescon M., Albert M., Khedouri F.* Management. 3rd Edition,. New York, Harper&Row, 1988
- Maslow A.* Motivation and Personality. Harper and Row. (Rev. edn, 1970).

- Maslow A.* Self-actualizing and Beyond – In: Challenges of Humanistic Psychology. New York, 1967.
- McClelland,D.S., Atkinson, J.W., Clark, R.A., and Lowell, E.L.* The achievement motive. New York: Appleton, 1953.
- Schumpeter J.* Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung. - Leipzig, 1912.  
[Schumpeter J. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest and the Business Cycle. - Cambridge, 1934.]
- Victor Vroom*, Work and Motivation – New York: Wiley, 1964.
- Weiner B.* Theories of Motivation. – Chicago, 1972.
- <http://gestalt.ru/books/index.html?cid=12>
- <http://magazine.mospsy.ru...>
- [http://ncdo.levsha.ru/ncdo\\_recr.htm](http://ncdo.levsha.ru/ncdo_recr.htm)
- <http://psi.webzone.ru/st/090500.htm>
- <http://psih.shopbrowser.ru/sbdir-4024.html>
- <http://psy.1september.ru/...>
- <http://psyberia.ru/work/diagnost>
- <http://psychoanalyse.narod.ru/rorsch1.htm>
- <http://psychol.ras.ru/ipp...>
- <http://science-education-books.webshops.ru/g10145>
- <http://sobchik.newmail.ru/ApiLns/metod.html>
- <http://www.alfaconsultant.ru/collection/ref-order....>
- <http://www.contr-tv.ru/common/1391/>
- <http://www.etel.dn.ua/~psychology/stat/NauchnRaz/BurlachukLF.htm>
- [http://www.ill.ru/shop/piter/shops.phtml?c\\_id=104&..](http://www.ill.ru/shop/piter/shops.phtml?c_id=104&..)
- [http://www.IqtisadNet\\_ProtestantetikasivekapitalizmruhuMaxWeber.htm](http://www.IqtisadNet_ProtestantetikasivekapitalizmruhuMaxWeber.htm)
- <http://www.magazine.mospsy.ru/nomer1/sobch1.shtm>
- <http://www.magister.msk.ru/library/philos/bulgakov/bulgak02.htm>
- <http://www.msu.ru/study/d...>
- <http://www.my-shop.ru/shop/books/12594.html>
- [http://www.piter.com/display.phtml?c\\_id=104&t\\_id=4...](http://www.piter.com/display.phtml?c_id=104&t_id=4...)
- <http://www.psi.chol.ru/difpsi/kreat.htm>
- <http://www.psifaktor.com>
- <http://www.psycent.bratsk...>
- <http://www.psychology.ru/...>
- <http://www.psychology-online.net/software/disposit...>
- <http://www.psyho.ru/books/psyhoanalys/book1.htm>
- <http://www.ref.nnov.ru/referat.shtml?Razdel=50&Id=...>
- [http://www.referatbank.ru/inforef.php?subsection\\_i...](http://www.referatbank.ru/inforef.php?subsection_i...)
- <http://www.soc.pu.ru/mate...>

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b>		<b>3</b>
<b>1-bob: Psixodiagnostika va amaliy psixologiya haqida tushuncha</b>		<b>4</b>
1.1. Psixodiagnostika nima?		5
1.2. Psixodiagnostikaning predmeti va vazifalari		5
1.3. Ilmiy va amaliy psixodiagnostikaning asosiy masalalari		6
1.4. Amaliy psixologiya va uning sohalari		7
1.5. Psixodiagnostika – professional faoliyatdagi maxsus soha sifatida		10
1.6. Psixodiagnostika va differensial psixologiya		11
<b>2-bob: Psixodiagnostika fani tarixi</b>		<b>14</b>
2.1. Psixodiagnostikaning yuzaga kelishdagi asosiy sabablar		15
2.2. Psixologik bilimlarning klinik davri		15
2.3. Psixodiagnostikani taraqqiy etishiga hissa qo'shgan olimlar		15
2.4. Psixodiagnostika sohasini shakllanishida V.Vund laboratoriyasining o'rni	V.Vund	19
2.5. Birinchi statistik asoslangan testlar		20
2.6. Psixodiagnostikaning XX asrdagi shakllanish davri		20
<b>3-bob: Psixologik tashxis (diagnoz)</b>		<b>26</b>
3.1. Psixologiyada tashxis (diagnoz) tushunchasi va uning mohiyati		27
3.2. Psixologik tashxisda Reykowski ning nazariy chizmasi		27
3.3. Psixologik tashxis va tibbiy tashxis		28
3.4. Funksional tashxis nazariyasi		29
3.5. Diagnostik xatolar		29
3.6. Psixodiagnostika va psixometriya		30
<b>4-bob: Psixologik diagnostikaning ijtimoiy va axloqiy jihatlari</b>		<b>33</b>
4.1. Psixologik diagnostika hamda psixodiagnost uchun qo'yiladigan ijtimoiy-axloqiy talablar		34
4.2. Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari		37
4.3. Psixologik testlardan foydalilaniladigan kishilar uchun qo'yiladigan maxsus talablar		39
4.4. Metodikalarni qo'llashdagi psixologik ma'lumotlar bazasining mavjudligi		40
4.5. Amaliy tavsiyalarning sifatlilik darajasi		41
4.6. Psixodiagnostikaning axloqiy-ma'naviy normalari		41
<b>5-bob: Psixodiagnostika metodlarining umumiyligi ta'rif</b>		<b>44</b>
5.1. Psixodiagnostika metodlari haqida umumiyligi tushuncha		45
5.2. Amaliy psixologiyaning ayrim metodologik masalalari		49
5.3. Psixodiagnostik metodlar va diagnostik yondoshish		51
5.4. Psixodiagnostik metod turlari		52
5.5. Psixodiagnostik metod yo'naliishlari		53
5.6. Psixodiagnostik metodlarning umumiyligi chizmasi		55
<b>6-bob: Psixodiagnostika metodlari va ularning klassifikasiyasi</b>		<b>58</b>
6.1. Psixodiagnostik metodlarning tadqiqot metodlaridan farqi		59
6.2. Psixodiagnostik metodlari klassifikasiyasining mezonlari va		59

asoslari	
6.3. Diagnostikaning psixologik-pedagogik jihatdan asosiy yo'nalishlari	61
6.4. Zamonaviy psixodiagnostika metodlariga qo'yiladigan jarayonlashtirish va verifikasiya talablari hamda ularning qo'llanilishi darajasi	63
6.5. Psixodiagnostika metodlarning sifat va miqdoriy xarakteristikasi hamda individual-tipologik xususiyatlar klassifikasiyasি	64
6.6. Xalq xo'jaligini yuksaltirishda psixodiagnostik metodlarning o'rni	65
<b>7-bob: Metodlarni qo'llashda va tahlil qilishdagi talablar.</b>	
<b>Standartlashtirish. Ishonchlik va validlik</b>	<b>70</b>
7.1. Psixodiagnostik tajribalarga qo'yiladigan asosiy talablar	71
7.2. Tajriba jarayonini standartlashtirish va statistik normalar	71
7.3. Ma'lumotlarni to'plash bosqichi va psixodiagnostik vaziyatlar klassifikasiyasи	72
7.4. Interpretasiya va qayta ishslash bosqichi	73
7.5. Ishonchlik	74
7.6. Validlik	75
<b>8-bob: Testlashtirish. Guruhiy testlar va ularning qo'llanilishi</b>	<b>77</b>
8.1. Psixodiagnostikada testlashtirish muammosi	78
8.2. Frensis Galton va individual farqlanishni aniqlash	79
8.3. Guruhiy testlar haqida tushuncha	80
8.4. Bine-Simonning ikki o'lchovi	81
8.5. Psixodiagnostika va psixologik baholash	82
8.6. Xorijiy testlarning mahalliy sharoitga moslanish darajasi	83
<b>9-bob: Intellekt va uni o'rGANISHGA oid yondoshuvlar</b>	<b>86</b>
9.1. Intellektni aniqlashga oid yondoshuvlar	87
9.2. Intellektni o'lchaydigan testlar va ularning turlari	88
9.3. Intellekt nazariyalarning tabaqlanishi	89
9.4. Intellektning Terstoun modeli	90
9.5. Intellektning Gilford modeli	92
9.6. Ayzenkning intellektual modeli	94
<b>10-bob: Shaxslararo munosabatlarni o'rGANISH metodlari</b>	<b>97</b>
10.1. Ijtimoiy munosabatlarning ko'pqirraligi	98
10.2. Ijtimoiy munosabatlari va muomalani o'rGANISH mezonlari	99
10.3. Muomalaning turli vositalarini diagnostika qilish	100
10.4. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlik – omala madaniyati va kommunikativ mahorat ekanligi	103
10.5. Ijtimoiy-psixologik bilimdonlikni o'rGANISH metodlari. Autopsixologik bilimdonlik	103
10.6. Sosiometrik usulda shaxsning ijtimoiy mavqyeini aniqlash imkoniyatlari	104
<b>11-bob: Psixodiagnostikaning yuqori shakllangan metodikalari</b>	<b>106</b>
11.1. Test – so'rov	107

11.2. Test – topshiriq	108
11.3. Proyektiv metodlar	109
11.4. Shaxsiy so’rovnomalar va shaxs nazariyasi	109
11.5. Anketa metodi	112
11.6. Tabiiy va laboratoriya (klinika) metodlar	113
<b>12-bob: Psixodiagnostikaning kam shakllangan metodikalari</b>	<b>117</b>
12.1. Kuzatish metodi	118
12.2. So’roq metodi	118
12.3. Intervyu metodi	119
12.4. Kontent-analiz metodi	119
12.5. Tarjimai hol (biografiya) metodi	120
12.6. Modellashtirish	121
<b>13-bob: “Psixologik tashxis” jarayonidagi psixologik bilimlar asosi</b>	<b>124</b>
13.1. Psixik jarayonlar	125
13.2. Psixik holatlар	128
13.3. Psixik xususiyatlar	129
13.4. Psixologik bilimlarning ahamiyati	130
13.5. Inson va faoliyatning emosional irodaviy xarakteristikasi	130
13.6. Shaxs xususiyatlarining diagnostikasi haqida va “individuallikning o’lchanganlik darajasi”	132
<b>14-bob: Jamoada va guruhda shaxs xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini o’rganish</b>	<b>140</b>
14.1. Shaxsning xulq-atvor nazariyasi	141
14.2. Temperament va uning psixodiagnostikasi	142
14.3. Shaxsning guruhlardagi xulq-atvori	144
14.4. Shaxsning professional faoliyati va uning jamoadagi o’rni va statusi	146
14.5. A.Shtangelning vizual psixodiagnostika metodining mohiyati	147
14.6. K.Yung psixologik tiplar haqida	150
<b>15-bob: Tashkilotchilik va boshqaruv jarayonlari psixodiagnostikasi</b>	<b>154</b>
15.1. Tashkilotchilik qobiliyati psixodiagnostikasi	155
15.2. Reykovskiy bo'yicha faoliyatning diagnostikasi	156
15.3. Menenjer kasbiy moyilligini baholash	156
15.4. Menejer faoliyatining diagnostikasi testi	158
15.5. Reykovskiy bo'yicha boshqaruv jarayonlari diagnostikasi	165
15.6. Reykovskiy bo'yicha boshqaruv mexanizmi	166
<b>16-bob: Shaxs faoliyatidagi ehtiyojlar, motivlar va motivasiyalarning tadqiq etilishi</b>	<b>169</b>
16.1. Abraham Maslow konsepsiyasi	170
16.2. Motivasiyaga oid nazariyalar	172
16.3. Kutishlar va Adolatlilik nazariyalar	174
16.4. Portyer-Louler (Porter-Lawler) modeli	176
16.5. B.Weonerning motivasion nazariyasi	177

16.6. Tadbirkorlik motivasiyasi va qiziqishlarini o'rganishda qo'llaniladigan psixodiagnostik metodlar	178
<b>17-bob: Mehnat malakalari va ko'nikmalarining diagnostikasi</b>	<b>183</b>
17.1. Mehnat malakalari va ko'nikmalarini o'rganish masalalari	184
17.2. Talabaning o'quv va mehnat ko'nikmalarining diagnostikasi	185
17.3. Ortiqcha predmetni olib tashlash metodi	185
17.4. Ortiqcha tushunchani topish metodikasi	186
17.5. Tushunchalarni taqqoslash	186
17.6. Oddiy va murakkab analogiya metodi	189
<b>18-bob: Ziddiyatli vaziyatlar sharoitini, stress holatlarini aniqlash va xulq psixogigiyenasi</b>	<b>192</b>
18.1. Ziddiyatlar va ularning emosional his qilinishi	193
18.2. Ziddiyatli xulq va uni his qilishning yosh va jins xususiyatlari	193
18.3. Stress haqida tushuncha, uning ijobjiy va salbiy oqibatlari	195
18.4. Xulq psixogigiyenasi va maqsadga muvofiq xulqning tamoyillari	196
18.5. Ishlab chiqarish ziddiyatlari sharoitida shaxs xulqining o'ziga xosligi	197
18.6. Psixometrik ziddiyat (paradoks)	197
<b>Glossary</b>	<b>201</b>
<b>Bibliografiya</b>	<b>209</b>
<b>Mundarija</b>	<b>214</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>Введение</b>	<b>3</b>
<b>Глава 1: Общее представление о психодиагностике и практическая psychology</b>	<b>4</b>
1.1. Что такое психодиагностика?	5
1.2. Предмет и функции психодиагностики	5
1.3. Основные проблемы научной и практической психодиагностики	6
1.4. Практическая psychology и его отрасли	7
1.5. Психодиагностика как специальная отрасль профессиональной деятельности	10
1.6. Психодиагностика и дифференциальная psychology	11
<b>Глава 2: Истоки психодиагностики</b>	<b>14</b>
2.1. Основные причины возникновения психодиагностики	15
2.2. Клинический период психологических знаний	15
2.3. Вклад мировых ученых в психодиагностику	15
2.4. Лаборатория В. Вунда в становлении психодиагностики	19
2.5. Первые статистические обоснованные тесты	20
2.6. Период становления психодиагностики в XX веке	20
<b>Глава 3: Психологический диагноз</b>	<b>26</b>
3.1. Понятие о психологической диагностике	27
3.2. Теоретическая схема Рейковского в психодиагностике	27
3.3. Психологический и медицинский диагноз	28
3.4. Теория функционального диагноза	29
3.5. Диагностические ошибки	29
3.6. Психодиагностика и психометрия	30
<b>Глава 4: Социальные и этические аспекты психологической диагностики</b>	<b>33</b>
4.1. Социально-этические требования, предъявляемые к психоdiagностам и к психодиагностике	34
4.2. Основные принципы психолого-педагогической диагностики	37
4.3. Квалификационные требования к людям, использующим психологические тесты	39
4.4. Психодиагностика и наличие базового психологического образования у диагноза	40
4.5. Качественный уровень практических рекомендаций	41
4.6. Морально-этические нормы психодиагностики	41
<b>Глава 5: Общая характеристика методов психодиагностики</b>	<b>44</b>
5.1. Общая характеристика методов психодиагностики	45
5.2. Некоторые методологические вопросы практической psychology	49
5.3. Психодиагностические методы и диагностический подход	51
5.4. Виды психодиагностических методов	52
5.5. Направления психодиагностических методик	53

5.6. Общая схема психодиагностических методик	55
<b>Глава 6: Методы психодиагностики, их классификация</b>	<b>58</b>
6.1. Отличие психодиагностических методов от исследовательских	59
6.2. Основания и критерии классификации психодиагностических методик	59
6.3. Основные направления в психолого-педагогические диагностики	61
6.4. Требования операционализации и верификации, предъявляемые к современным методам психодиагностики	63
6.5. Возможности, достоинства и недостатки разных групп методов психодиагностики	64
6.6. Роль и значение психодиагностических методик в народном хозяйстве	65
<b>Глава 7: Требования к построению к проверки методик. Стандартизация. Надежность и валидность</b>	<b>70</b>
7.1. Основные требования, предъявляемые к психодиагностическим методам	71
7.2. Стандартизация процесса эксперимента	71
7.3. Этап сбора данных	72
7.4. Этап переработки и интерпретации	73
7.5. Надежность	74
7.6. Валидность	75
<b>Глава 8: Тесты. Тестирование. Возникновение группового тестирования</b>	<b>77</b>
8.1. Проблемы тестирования в психодиагностике	78
8.2. Френсис Гальтон и измерение индивидуальных различий	79
8.3. Понятие о групповых тестах	80
8.4. Двухфакторная шкала Бине-Симона	81
8.5. Психодиагностика и психологическая оценка	82
8.6. Адаптация зарубежных тестов	83
<b>Глава 9: Измерение интеллекта</b>	<b>86</b>
9.1. Подходы к определению интеллекта	87
9.2. Тесты для измерения интеллекта, их виды	88
9.3. Дифференциация теории интеллекта	89
9.4. Модель интеллекта по Терстоуну	90
9.5. Модель интеллекта по Гилфорду	92
9.6. Модель интеллекта по Айзенку	94
<b>Глава 10: Методики изучения межличностных отношений</b>	<b>97</b>
10.1. Социальный отношения и его многогранность	98
10.2. Социальное взаимоотношение и критерии изучения общения	99
10.3. Диагностика различных способов общения	100
10.4. Социально-психологических знаний – как коммуникативной мастерство и культуры взаимоотношения	103
10.5. Методы обучения социально-психологических знаний.	

Аутопсихологических знаний	103
10.6. Изучение социального статуса личности с помощью социометрических методов	104
<b>Глава 11: Методика высокого уровня формализации</b>	<b>106</b>
11.1. Тест-опрос	107
11.2. Тест-задание	108
11.3. Проективный тест	109
11.4. Теория личности и личностные опросники	109
11.5. Метод анкеты	112
11.6. Естественный и лабораторный (клинический) метод	113
<b>Глава 12: Малоформализованные методики</b>	<b>117</b>
12.1. Метод наблюдения	118
12.2. Метод опроса	118
12.3. Метод интервью	119
12.4. Метод контент-анализа	119
12.5. Метод биографии	120
12.6. Моделирование	121
<b>Глава 13: Основы психологических знаний в процессе диагностики</b>	<b>124</b>
13.1. Психические процессы	125
13.2. Психические состояния	128
13.3. Психические особенности	129
13.4. Значение психических знаний	130
13.5. Эмоционально-волевые качества личности и деятельности	130
13.6. Диагностика личностных свойств	132
<b>Глава 14: Изучение психологической особенности поведения личности в группах и коллективах</b>	<b>140</b>
14.1. Теория поведения личности	141
14.2. Психодиагностика темперамента	142
14.3. Диагностика поведения личности в группах	144
14.4. Профессиональная деятельность личности и роль	146
14.5. Визуальный психодиагностический метод А. Штангелья	147
14.6. Психологические типы К. Юнга	150
<b>Глава 15: Психодиагностика организаторских и управлеченческих процессов</b>	<b>154</b>
15.1. Психодиагностика организаторских способностей	155
15.2. Диагностика деятельности по Рейковскому	156
15.3. Оценивать профессиональная склонность менеджера	156
15.4. Диагностический тест деятельности менеджера	158
15.5. Диагностика познавательных процессов по Рейковскому	165
15.6. Механизм управления по Рейковскому	166

<b>Глава 16: Изучение потребностей, мотивов и мотивации в деятельности человека</b>	<b>169</b>
16.1. Концепция А. Маслоу	170
16.2. Теории о мотивациях	172
16.3. Теории ожиданий и справедливости	174
16.4. Модель Портъер-Лоулера	176
16.5. Мотивационные теории В.Венера	177
16.6. Психодиагностические методы для изучения предпринимательской мотивации и интересов	178
<b>Глава 17: Диагностика навыков, опыта труда</b>	<b>183</b>
17.1. Проблемы изучения навыков и опыта труда	184
17.2. Диагностика учебных и трудовых навыков у студентов	185
17.3. Метод “Исключение лишнего”	185
17.4. Методика “Выделение существенных признаков”	186
17.5. Сравнение понятий	186
17.6. Методика “Сложные аналогии”	189
<b>Глава 18: Определение конфликтных ситуаций стрессовых состояний. Психогигиена поведения</b>	<b>192</b>
18.1. Конфликты и эмоциональное восприятие конфликта	193
18.2. Конфликтное поведение и возрастные, половые особенности	193
18.3. Стресс – отрицательные и положительные последствия	195
18.4. Психогигиена поведения и её принципы	196
18.5. Особенности поведения личности в производственных конфликтах	197
18.6. Психометрический парадокс	197
<b>Глоссарий</b>	<b>201</b>
<b>Библиография</b>	<b>209</b>
<b>Содержание</b>	<b>218</b>

## CONTENT

<b>Introduction</b>	<b>3</b>
<b>1-chapter: Concept about psycho diagnostics</b>	<b>4</b>
1.1. What is the psycho diagnostics?	5
1.2. Subject and psycho diagnostics problems	5
1.3. Scientific and practical aspects of psycho diagnostics	6
1.4. Practical psychology and its direction	7
1.5. Psycho diagnostics as a special direction in professional work	10
1.6. Psycho diagnostics and differential psychology	11
<b>2-chapter: History of psycho diagnostics</b>	<b>14</b>
2.1. Principal causes a psycho diagnostics origin	15
2.2. The clinical period of psychodiagnostic knowledge	15
2.3. Scientists bringing the contribution to psychodiagnostics	15
2.4. Role of laboratory of V.Vund in psychodiagnostics formation	19
2.5. The first statistical proved tests	20
2.6. The period formation of psychodiagnostics in 21 century	20
<b>3-chapter: The psychological diagnosis</b>	<b>26</b>
3.1. Concept of the diagnosis in psychology	27
3.2. Theory Reykowski in the psychological diagnosis	27
3.3. The psychological and medical diagnosis	28
3.4. The theory of the functional diagnosis	29
3.5. Diagnostical mistakes	29
3.6. Psycho diagnostics and psycho meters	30
<b>4-chapter: Social and moral aspects of psychological diagnostics</b>	<b>33</b>
4.1. Psychological diagnostics and sotsiano-moral requirements to the psychodiagnostician	34
4.2. Main principles of the psychological and pedagogical diagnosis	37
4.3. The requirement to people who used psychological tests	39
4.4. Presence of psychological information base in use of methods	40
4.5. Practical advice as a degree of quality	41
4.6. Moral and moral norms of psychodiagnostics	41
<b>5-chapter: The general definition to psychodiagnostic methods</b>	<b>44</b>
5.1. The general concept about psycho diagnostic methods	45
5.2. Some aspects of methods of practical psychology	49
5.3. Psychodiagnostic methods and the diagnostical sights	51
5.4. Types of psychodiagnostic methods	52
5.5. Directions of psychodiagnostic methods	53
5.6. The general a kind of psychodiagnostic methods	55
<b>6-chapter: Psychodiagnostic methods and their classification</b>	<b>58</b>
6.1. Distinction between psychodiagnostic and research methods	59
6.2. Criteria and bases of classification of psychodiagnostic methods	59
6.3. The basic directions of pedagogical and psychological diagnostics	61
6.4. The basic виражационные and intermediate requirements to modern methods of psychodiagnostics	63

6.5. Prosperities and lacks group methods of psychodiagnostics	64
6.6. Role in a national economy of methods of psychodiagnostics	65
<b>7-chapter: Criteria use of methods and the analysis.</b>	
<b>Standardization. Reliability and valids.</b>	<b>70</b>
7.1. The basic criteria to psychodiagnostic experiments	71
7.2. Standardization of experiment process	71
7.3. Stage of accumulation information	72
7.4. Interpretation and processing stage	73
7.5. Reliability	74
7.6. Valids	75
<b>8-chapter: Testing. Group tests and their use</b>	<b>77</b>
8.1. Testing problems in psychodiagnostics	78
8.2. Frenzies Galton and individual distinction	79
8.3. Concept of group tests	80
8.4. Two measurement Bin-Simone	81
8.5. Psychodiagnostics and psychological estimation	82
8.6. Adaptation of foreign tests in local conditions	83
<b>9-chapter: Intelligence and preconditions of its studying.</b>	<b>86</b>
9.1. Intelligence and preconditions of its studying	87
9.2. Tests of definition of intelligence and their kinds	88
9.3. Unbalance in intelligence theories	89
9.4. Terstone`s model of intelligence	90
9.5. Gilford`s model of intelligence	92
9.6. Ayzenk`s model of intelligence	94
<b>10-chapter: Methods of studying of personal relations</b>	<b>97</b>
10.1. Many-sided nature of social relations	98
10.2. Social relations and studying criterion of dialogue	99
10.3. Diagnostics of means dialog	100
10.4. Social psychological knowledge – culture of dialogue and communicative ability	103
10.5. Studying methods of social psychological knowledge. Autopsychological knowledge	103
10.6. Possibilities definition of the social importance of the individual with sociameters method	104
<b>11-chapter: The higher formation of methods of psychodiagnostics</b>	<b>106</b>
11.1. Test- interrogation	107
11.2. Test - task	108
11.3. Projective methods	109
11.4. Personal interrogations and the theory of the person	109
11.5. Method of questionnaires	112
11.6. Natural and laboratory methods	113
<b>12-chapter: Undeveloped methods of psychodiagnostics</b>	<b>117</b>
12.1. Supervision method	118
12.2. Polling method	118
12.3. Interview method	119

12.4. Content-analysis method	119
12.5. Method the biography	120
12.6. Modelation	121
<b>13-chapter: Bases of psychological knowledge in psychodiagnostic process of the diagnosis</b>	<b>124</b>
13.1. Mental process	125
13.2. Mental moments	128
13.3. Mental features	129
13.4. Role of psychological knowledge	130
13.5. The emotional characteristic of the person and activity	130
13.6. Diagnostics of features of the person and “individualism level”	132
<b>14-chapter: Studying psychological features of behaviour person in a society and group</b>	<b>140</b>
14.1. The theory of person behavior	141
14.2. Temperament and its psychodiagnostics	142
14.3. Behavior of the person in group	144
14.4. Professional work of the person both its role and the status in a society	146
14.5. A. Stengel's concept method of visual psychodiagnostics	147
14.6. K. Jung about psychological languages	150
<b>15-chapter: The psychodiagnostics of organisation and administrative processes</b>	<b>154</b>
15.1. Psychodiagnostics of aregment ability	155
15.2. Activity diagnostics on Raykoskiy	156
15.3. Estimation of professional loyalty of the manager	156
15.4. Trouble-shooting test of activity of the manager	158
15.5. Diagnostics of administrative processes on Raykovskiy	165
15.6. The administrative mechanism on Raykovskiy	166
<b>16-chapter: Research of requirements, motives and interests in people activity</b>	<b>169</b>
16.1. Concept of Abraham Maslow	170
16.2. Theories about motivation	172
16.3. Expectation and the justice theory	174
16.4. Model of Porter-Lawler	176
16.5. The theory of motivation B. Wiener	177
16.6. Psychodiagnostic methods at studying of enterprise motivation and interests	178
<b>17-chapter: Diagnostics of labour qualification and skills</b>	<b>183</b>
17.1. Aspects of studying of labour qualification and skills	184
17.2. Diagnostics labour and educational skills of the student	185
17.3. Method disposal of unnecessary subjects	185
17.4. Method finding of superfluous concepts	186
17.5. Comparison of concepts	186
17.6. Simple and difficult methods of analogy	189

<b>18-chapter: Revealing of contradictions both stressful situations and behaviour of psychohygiene</b>	<b>192</b>
18.1. Disagreement and their emotional perceptions	193
18.2. Disagreement behavior and its features to perceive from the point of view of age and sex	193
18.3. Concept about stress and its positive and negative consequences	195
18.4. Psychohygiene of behaviour and the purpose of principles behaviour	196
18.5. Features of person behaviour in the conditions of disputed manufactures	197
18.6. Psychometric paradox	197
<b>Glossary</b>	<b>201</b>
<b>Used literatures</b>	<b>209</b>
<b>Content</b>	<b>222</b>